

930 u  
33  
A-50

Abdusattorxo`ja  
QODIROV

# IQTISODIYOT NAZARIYASI

U502  
33  
K-58

Abdusattorxo`ja QODIROV

# IQTISODIYOT NAZARIYASI

G'azMU  
Iqtisodiyot fakulteti  
KUTUBXONASI

Toshkent - 2010

## TAQRIZCHILAR

i.f.n., dots. N.K.Sōdiqov

i.f.n., dots. A.M.Tursunov.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Iqtisodiyot nazariyasi» dasturi asosida tayyorlangan. Bu qo'llanma iqtisodiy rivojlanishning umumiy nazariy asoslari, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot va jahon xo'jaligi bo'limlaridan tashkil topgan. O'quv qo'llanma oliy va o'rta maxsus o'quv yurti bakalavr talabalari, yosh o'qituvchilar, magistrlar va aspirantlar va umuman iqtisod bilan qiziquvchi kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiq-  
lashtiruvchi Kengash Prezidiumi qaroriga muvofiq oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. Ikkinchi nashri.

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2010.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi va bozorni boshqarish mexanizmlarining takomillashib borishi talabalardan va umuman iqtisodiyot bilan qiziquvchilardan davr talabi asosida iqtisodiy bilimlarini oshira borishni talab etadi. Respublikada iqtisodiy bilimlarni o'rganishga juda katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li» ma'ruzasida «Yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizasiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamlı vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi muhim prinsipial va hal qiluvchi ahamiyatga ega»<sup>1</sup> – degan edi.

Hozirgi davrda iqtisodiy bilimlarni olish nafaqat iqtisodchilar uchun, balki hamma soha mutaxassislari uchun ham zarur. Nobel mukofoti sovrindori (lauriati) P.Samuelson o'zining «Iqtisod» darsligida iqtisodiyot nazariyasini o'rganmagan inson uchun nima uchun narxlar o'sadi, qaerga soliqlar ketadi va shu kabi savollarga boshqa javob berish ma'lum qiyinchiliklarni tashkil etadi. «...u garangga musiqa asariga baho berishga intilish bilan barobardir»<sup>2</sup> degan fikrni bildirgan. Iqtisodchi L.Mizes iqtisodiy nazariyani o'qish zarurligini quyidagicha ta'riflaydi. «U yoqadimi yo'qmi, hozirgi zamonning asosiy siyosati sof iqtisodiy bo'lib, iqtisodiy nazariyani bilmasdan turib uni tushunish qiyin»<sup>3</sup>.

Ishlab chiqarish jarayonini rejali va samarali olib borishda etuk, yuqori iqtisodiy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislarning o'rni katta. Iqtisodiy bilimlarning asosini iqtisodiyot nazariyasi tashkil etadi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. «O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li» Xalq so'zi, 31 avgust, 2007 y.

<sup>2</sup> Bordukova S.A., Efimova E.G., Zaslavaya M.D., Potapova I.S. Ekonomicheskaya teoriya chast I - Mikroekonomika

<sup>3</sup> O'sha joyda 6-b.

Ushbu qo'llanmada «Iqtisodiyot nazariyasi» fani siyosiy mafkuradan holi holda bayon qilingan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning mamlakatimiz bozor mexanizmlarini shakllantirish, aholini kuchli ijtimoiy himoyalashga bag'ishlangan asarlaridan keng foydalanilgan. Shuningdek, qo'llanmada iqtisodiy ta'limotning shakllanishi, ehtiyoj va ishlab chiqarish jarayoni, mulkchilik shakllari va xo'jalik yuritish, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi, bozor iqtisodiyotining mohiyati, uning infratuzilmasi, talab va taklif qonuni, O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotining shakllanish nazariyasi, tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi, ishlab chiqarish xarajatlari, ularning mohiyati va turkumlanishi, mehnat bozori, ish haqi, bozor sharoitida raqobat va monopoliya, bozor iqtisodiyotida agrar munosabatlar milliy iqtisodiyotning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning o'rni, ijtimoiy ishlab chiqarishning davriyligi. Ishsizlik va inflyasiya, iqtisodiy o'sish va milliy boylik, pul-kredit tizimi. Davlatning monetar siyosati, davlatning soliq siyosati, moliya tizimi davlatning moliya-byudjet siyosati, makroiqtisodiy muvozanat shartlari. Milliy daromad darajasini aniqlash. Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati, jahon xo'jaligi va uning evolyusiyasi, xalqaro savdo va savdo siyosati va valyuta tizimi va valyuta munosabatlari kabi masalalarni yorituvchi mavzular berilgan.

Shuningdek, har qaysi mavzuda O'zbekiston iqtisodi taraqqiyotiga oid statistik ma'lumotlardan keng foydalanilgan.

## 1-mavzu. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANI VUJUDGA KELISHINING ASOSIY BOSQICHLARI

### I. Iqtisodiyot nazariyasi va uning predmeti

Iqtisodiyot fani eng qadimiy fanlardan biri bo'lib, u kishilik jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Qadimgi dunyo olimlari Ksenofont, Platon, Arastu iqtisodiy tushunchalarni o'rganganlar va ular o'rtasida bog'liqlik borligini isbotlab berganlar. Bu mualliflarning ilmiy ishlarida iqtisodiy hayotni turli qarashlarda fikrlari mavjud. Ular mehnat taqsimotini zarurligi, tovar va pul, hamda savdoning mohiyati haqida fikr yuritadilar. Ksenofont birinchi marotaba «iqtisod» so'zini ishlatgan. Uning to'liq ma'nosi uy xo'jaligini boshqarish bo'lib, qadimiy grek so'zidan olingan. Shu bilan birga, qadimgi Markaziy Osiyo, Xitoy, Hindiston olimlari ham iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar. Markaziy Osiyo olimlaridan Al-Forobiy (870—950), Abu Ali ibn Sino (980—1037), Abu Rayhon Beruniy (973—1048), Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy (1441—1501), Abdurahmon Jomiy (1414—1492), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483—1530) va boshqalar iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar.

Al-Forobiy moddiy ne'matlarni har bir insonning ahvoli va ishlab chiqarishda qatnashganlik darajasiga qarab adolatli taqsimlashni yoqlab chiqqan.

Al-Forobiy jamiyat shakllanishining asosiy sababi insonlarning moddiy talabidir, degan nazariyani asoslab bergan bo'lsa, Abu Ali ibn Sino iqtisodiy tafakkurda oila, shahar, davlat darajasida xarajat va daromad balanslari ustida fikr yuritib, ular o'rtasida albatta to'g'ri nisbat bo'lishi zarurligini asoslab bergan.

Xarajat qismidan ilm-fan taraqqiyotiga, ehtiyotkorlik, tabiiy ofat, urush xarajatlarini qoplash fondlarini shakllantirish zarurligi to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini qoldirgan.

Abu Rayhon Beruniy ishlab chiqarishda har xil mehnat turlarining o'rnini tadqiq etgan. Oltin va kumushning umumiy

Ushbu qo'llanmada «Iqtisodiyot nazariyasi» fani siyosiy mafkuradan holi holda bayon qilingan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning mamlakatimiz bozor mexanizmlarini shakllantirish, aholini kuchli ijtimoiy himoyalashga bag'ishlangan asarlaridan keng foydalanilgan. Shuningdek, qo'llanmada iqtisodiy ta'limotning shakllanishi, ehtiyoj va ishlab chiqarish jarayoni, mulkchilik shakllari va xo'jalik yuritish, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi, bozor iqtisodiyotining mohiyati, uning infratuzilmasi, talab va taklif qonuni, O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotining shakllanish nazariyasi, tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi, ishlab chiqarish xarajatlari, ularning mohiyati va turkumlanishi, mehnat bozori, ish haqi, bozor sharoitida raqobat va monopoliya, bozor iqtisodiyotida agrar munosabatlar milliy iqtisodiyotning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning o'rni, ijtimoiy ishlab chiqarishning davriyligi. Ishsizlik va inflyasiya, iqtisodiy o'sish va milliy boylik, pul-kredit tizimi. Davlatning monetar siyosati, davlatning soliq siyosati, moliya tizimi davlatning moliya-byudjet siyosati, makroiqtisodiy muvozanat shartlari. Milliy daromad darajasini aniqlash. Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati, jahon xo'jaligi va uning evolyusiyasi, xalqaro savdo va savdo siyosati va valyuta tizimi va valyuta munosabatlari kabi masalalarni yorituvchi mavzular berilgan.

Shuningdek, har qaysi mavzuda O'zbekiston iqtisodi taraqqiyotiga oid statistik ma'lumotlardan keng foydalanilgan.

## 1-mavzu. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANI VUJUDGA KELISHINING ASOSIY BOSQICHLARI

### I. Iqtisodiyot nazariyasi va uning predmeti

Iqtisodiyot fani eng qadimiy fanlardan biri bo'lib, u kishilik jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Qadimgi dunyo olimlari Ksenofont, Platon, Arastu iqtisodiy tushunchalarni o'rganganlar va ular o'rtasida bog'liqlik borligini isbotlab berganlar. Bu mualliflarning ilmiy ishlarida iqtisodiy hayotni turli qarashlarda fikrlari mavjud. Ular mehnat taqsimotini zarurligi, tovar va pul, hamda savdoning mohiyati haqida fikr yuritadilar. Ksenofont birinchi marotaba «iqtisod» so'zini ishlatgan. Uning to'liq ma'nosi uy xo'jaligini boshqarish bo'lib, qadimiy grek so'zidan olingan. Shu bilan birga, qadimgi Markaziy Osiyo, Xitoy, Hindiston olimlari ham iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar. Markaziy Osiyo olimlaridan Al-Forobiy (870—950), Abu Ali ibn Sino (980—1037), Abu Rayhon Beruniy (973—1048), Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy (1441—1501), Abdurahmon Jomiy (1414—1492), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483—1530) va boshqalar iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar.

Al-Forobiy moddiy ne'matlarni har bir insonning ahvoli va ishlab chiqarishda qatnashganlik darajasiga qarab adolatli taqsimlashni yoqlab chiqqan.

Al-Forobiy jamiyat shakllanishining asosiy sababi insonlarning moddiy talabidir, degan nazariyani asoslab bergan bo'lsa, Abu Ali ibn Sino iqtisodiy tafakkurda oila, shahar, davlat darajasida xarajat va daromad balanslari ustida fikr yuritib, ular o'rtasida albatta to'g'ri nisbat bo'lishi zarurligini asoslab bergan.

Xarajat qismidan ilm-fan taraqqiyotiga, ehtiyotkorlik, tabiiy ofat, urush xarajatlarini qoplash fondlarini shakllantirish zarurligi to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini qoldirgan.

Abu Rayhon Beruniy ishlab chiqarishda har xil mehnat turlarining o'rnini tadqiq etgan. Oltin va kumushning umumiy

ekvivalent sifatida shakllanish qonuniyatlarini ilmiy asoslagan. Abu Rayhon Beruniy, Al-Forobiy, Abu Ali ibn Sinolar jamiyat shakllanishida iqtisodiy omillarning o'rnini to'g'risidagi ta'limotni rivojlantirganlar. XI asrning buyuk dahosi Yusuf Xos Hojib o'zining (1069 y.). «Bilim baxt beradi» degan asarida mehnatning mohiyatini, mehnat taqsimotini, uning xususiyatini va moddiy manfaatdorlikni, pulning vazifalarini tahlil qilgan. XIV asrda Amir Temur va temuriylar davrida barcha fanlar, xususan iqtisodiy tafakkur ham taraqqiy etgan. Bu jarayon, avvalo, olim, adib, davlat arbobi Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. Alisher Navoiy qomusiy olim, davlat arbobi bo'lgan. U o'zining «Vaqfiya» va «Munshoat» asarlarida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi ustida fikr yuritadi. «Jamiyat boyligi manbai mehnat» deb hisoblagan, soliqlarga ortiqcha ahamiyat berishga qarshi chiqqan, savdoning rivojlanishi, davlat moliyasi va baholarni tartibga solish tarafdori bo'lgan. Davlat arbobi sifatida Alisher Navoiy mehnatning har bir turini keltirgan foydasi bilan bog'lab ish haqini tartibga solish siyosatini olib borgan. U iqtisodiy rivojlanishning har qanday ziddiyatini hukmdorlik qilayotgan hukmdorning adolatli siyosat olib borishi bilan hal etish mumkin, deb hisoblagan.

Iqtisodiyot mustaqil fan sifatida XVII—XVIII asrlarda shakllangan. Ishlab chiqarish taraqqiyoti, uning ko'lamlarining o'sishi, xo'jalik yurituvchilari o'rtasida iqtisodiy aloqalarning vujudga kelishi keng iqtisodiy bilimga ega bo'lishni taqozo etgan. XVI—XVII asrlarda kapitalizm kurtaklari paydo bo'la boshlagan davrda asosan savdo keng rivojlangan. Ana shu davrda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirishdagi birinchi nazariy maktab bo'lmish «merkantilizm» vujudga kelgan. Uning namoyandalari farang Antuan de Monkreten, ingliz U.Stafford va boshqalar hisoblanadi. Ularning ilmiy izlanishlarining asosini muomala sohasidagi savdo kapitali tashkil etgan. Antuan de Monkreten 1615 yilda birinchi marotaba o'zining «Siyosiy iqtisodning traktati» asarida fanning nomini «Iqtisoddan» «Siyosiy iqtisod»ga o'zgartirgan. Buning ma'nosi yunon tilida «davlatni boshqarish san'ati» degan ma'noni

bildiradi. U davlat xo'jalik ishlariga aralashishi kerak, deb hisoblagan. Merkantilistlar birinchilar qatorida iqtisodiy tuzumning maqsadi va vazifalari mohiyatini ochib berishga intilganlar. Merkantilistlar millatlar xuddi savdogarlar singari foyda olish uchun bir-birlari bilan raqobat qilishlari kerak deb hisoblaganlar. Ular boyluk manbaini muomala sohasida, savdoda ko'rganlar. Merkantilistlar oltin va kumush pullarni to'plashni xo'jalik faoliyatining va davlatning asosiy maqsadi deb qaraganlar. XVIII asrda fransuz faylasuflari va iqtisodchilaridan bir guruhi biznes va sanoatni qo'llab quvvatlashdan voz kechib, ularga e'tibor bermaslikni taklif etdilar. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish sohasining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish iqtisodiy nazariyaning o'rganish ob'ektiga aylangan davrdan boshlab haqiqiy ilmiy tavsifga ega bo'ldi. Ular fiziokratlar edilar. F.Kene nazariyasiga binoan qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi jamiyatni uch sinfga bo'lib, bir yil ichida yaratilgan mahsulotni taqsimotini qiymat va natura shaklida ifodalagan. Fiziokrat (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, «tabiat hukmronligi» ma'nosini anglatadi). Birinchi bo'lib, xususan F. Kene (1694—1774), A. Tyurgo (1727—1781) va U.Petti (1623—1687) kabi iqtisodchi olimlar boyluk manbai ishlab chiqarish deb hisoblaganlar. Ular qishloq xo'jalik mahsulotlari va boshqa tabiiy resurslar boylukning haqiqiy manbai deb hisoblagan edilar, Fiziokratlar iqtisodiy tizim elementlarini, ya'ni tovar, pul, ish haqi, foyda va takror ishlab chiqarishni tahlil qilish asosida, iqtisodiy taraqqiyot qonunlarini o'rganishga intilganlar. Jumladan, F.Kene birinchi marta takror ishlab chiqarish sxemasini yaratgan. Uning sxemasidan AQSh iqtisodchisi Nobel mukofoti sovrindori L. Leontev o'zining yaratgan tarmoqlararo balansida foydalangan. Moddiy ishlab chiqarish sohasining rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etish iqtisodiy nazariyani o'rganish ob'ektiga aylangan davrdan boshlab ilmiy xarakterga ega bo'lgan. Bu davr sanoat to'ntarishi davri edi. Iqtisodiyot nazariyasini rivojlantirishga ma'lum hissa qo'shgan maktab — bu klassik siyosiy iqtisoddir. Bu maktab namoyandalari A.Smit (1723—1790), D. Rikardo (1772—1823) bo'lib, ular birinchi marotaba qiymat

nazariyasiga asos solganlar, tovarlar qiymatini uning ishlab chiqarishga sarf etilgan mehnat sarflari bilan o'lchanishini asoslab berdilar. A.Smit, D.Rikardolar tarmoq xususiyatlarini hisobga olmagan holda ishlab chiqarish va moddiy boylikni taqsimlash qonuniyatlarini o'rgandilar. Ularning ilmiy tadqiqotlari ko'proq tovar, pul, ish haqi, foyda kabi kategoriyalarning mohiyatini ochishga qaratilgan edi. Birinchi marotaba ular ijtimoiy xo'jalik taraqqiyotida bozorning o'rnini belgilab berdilar.

A.Smit obrazli qilib «Hamma iqtisodiy agentlarning harakatini «ko'zga ko'rinmas qo'l» boshqarib turadi», deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, har bir agent bozor munosabatlarida mustaqil ish tutib, o'z manfaatini ro'yobga chiqara borib, pirovard natijada «ko'zga ko'rinmas qo'l» vositasida o'zi bilmagan holda maqsad sari yo'naltiriladi. U o'z manfaatlarini ko'zlab, jamiyat manfaatlariga o'zi ongli tarzda intilganiga nisbatan ancha qo'proq samarali tarzda xizmat qiladi<sup>4</sup>. XIX asrning ikkinchi yarmida burjua siyosiy iqtisodiga qarama-qarshi proletar iqtisodiy nazariyasi vujudga keldi. Uning asosini qo'shimcha qiymat haqidagi ta'limot tashkil etgan bo'lib, natijada iqtisodiyot nazariyasi ikki, marjinalizm va marksistik tarmoqqa ajralib ketdi.

XIX—XX asrlarda marjinalizm tarmog'idagi iqtisodiy fanda bir qator maktablar shakllangan bo'lib, ularning ba'zilari hozirda ham tan olingan. Xususan, Avstriya maktabi namoyandalari, K.Menger (1888—1926), E.Bem-Baverklar (1851—1914) ne'matlarining nafllilik chegarasi nazariyasi bilan tanilganlar. Mazkur nazariyaga muvofiq ne'matlarining qiymati uning chegaralanligi va noyobligi bilan aniqlanadi.

Bozorda narxlarni shakllanishiga A.Marshall e'tibor berib, baho, talab va taklifni birgalikda, o'zaro bog'likda o'rgangan. Uning fikricha bozor narxlari talab va taklifga o'zaro bog'liq ekanligini ifoda etadi. U o'zining tadqiqotida vaqt omilini tengligini ilmiy tahlil qilgan.

AQSH iqtisodchisi Dj. Klark (1847—1938) ishlab chiqarish omillari unumdorligining kamayishi va unumdorlik chegarasi nazariyasini yaratdi. Bu nazariyaga asosan har qanday ishlab

chiqarish omillari unumdorlik chegaralariga ega ekanligi va bu unumdorlikning kamayib borishi asoslab berilgan.

Shu davrda iqtisod fanida ingliz iqtisodchisi A. Marshall (1842—1924) tomonidan asos solingan Kembridj maktabini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. U qiymat, chegaraviy foydalilik va nafllilik chegarasi, unumdorlik chegarasi nazariyalarini yaratishga harakat qildi. Buning natijasida esa, talab va taklif nazariyasi yaratildi.

A.Marshall «Ishlab chiqarish xarajatlari va pirovard foydalilik shubhasiz, bitta umumiy bo'lgan talab va taklif qonunining tarkibiy qismlaridir»<sup>5</sup>,— degan fikrni bildiradi.

XX asrning 30-yillarida iqtisodiy tafakkur o'zining rivojlanishida yangi bosqichga o'tdi. Unga ingliz iqtisodchisi Djon Meynard Keyns (1886—1943) asos soldi. U tartibga solinuvchi kapitalizm nazariyasini asoslab berdi. Uning asosiy g'oyalari «Bandlik, foiz va pullarning umumiy nazariyasi» asarida o'z aksini topgan. U bozor mexanizmi o'zi mavjud bo'lgan ishlab chiqarish resurslaridan to'liq va samarali foydalanishni ta'minlay olmaydi deb hisoblagan. U undan samarali foydalanishni tashkil etish uchun davlat iqtisodiyotni tartibga solishda, samarali moliyaviy byudjet va pul-kredit siyosatini shakllantirishda, uni olib borishda faol qatnashishi zarur deb hisoblagan. Djon Meynard Keyns fiziokrat A.Smitning bozorni maqtash nazariyasiga qarshi chiqib, bozor mexanizmi ma'lum bir o'zgarishlarga, iqtisodiy krizislarga yo'l qo'yilishi davrlarida Djon Meynard Keyns bozor iqtisod mexanizmiga ishonchsizlik bilan qaraydi. Djon Meynard Keyns jamiyatni takomillashtirishni talab bilan bog'liqligini e'tiborga olgan holda, birinchi o'ringa talab samaradorligini va davlat tomonidan uni qo'llash zarurligini ko'rsatib bergan. Iqtisodiy o'sishning keynscha modeli R.Xarrod, A.Xansen va P.Samuelson (1915) tomonidan rivojlantirildi.

P.Samuelson tomonidan yaratilgan neoklassik sintez nazariyasi mohiyati shundan iboratki, iqtisodiy taraqqiyot holatiga qarab, yo davlat tomonidan yoki Djon Meynard Keyns nazariyasiga asoslangan holda bozor mexanizmlari orqali

<sup>4</sup> Smit A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. M, 1962, 332 bet.

<sup>5</sup> Marshall A. Prinsip politicheskoy ekonomii. T. 3. M., 1984, 226 b.

iqtisodiyot boshqarilishi kerak. Iqtisodiyot nazariyasini hozirgi zamon yo'nalishlaridan biri institusionalizm nazariyasi hisoblanadi. Uning vakillari bo'lib, T.Veblen, Dj.Gelbreyt, R.Kouz, G.Bekker va boshqalar hisoblanadi.

Ularni nazariyalarini markazida institutlar, ularning qatoriga davlat, huquqiy mulkchilik, oila, monopoliya va boshqalar turadi. Institutlar tashqi iqtisodiy va ichki iqtisodiy omillar asosida rivojlanadi. Shuning uchun ham iqtisodiyot nazariyasi huquq, sosiologiya, ekologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqdir.

D.Gelbreyd hozirgi zamon iqtisodiyot fanining yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. U hozirgi iqtisodiy sharoitda ishlab chiqarishni korporasiya asosida tashkil etish yagona yo'ldir, deb hisoblagan. U hozirgi xo'jaliklarni ob'ektiv zaruriyati rejalashtirishdir, rejalashtirish bozor munosabatlari o'rnini egallaydi deb hisoblagan. Korporasiyalar faoliyatining davlat tomonidan boshqarilishi zarurligi ular o'rtasida yaqindan o'zaro harakatlantiruvchi aloqalar bo'lishini ta'kidlaydi. U faqat iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy masalalarini sezilarli darajada taraqqiy ettiribgina qolmasdan, balki, insoniyat rivojlanishining ulkan muammolari masalasida ham ahamiyatga molik fikrlarni ilgari surdi.

## 2. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti, vazifalari va boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Iqtisodiy fan tarixi bilan qisqacha tanishgandan so'ng, uning predmetiga ta'rif berish mumkin. Lekin quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak.

Birinchiidan, iqtisodiyot jamiyat hayotini zarur bo'lgan moddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlovchi xo'jalik tarmoqlarining yig'indisidir.

Ikkinchiidan, iqtisodiyotning vujudga kelishi va rivojlantirilishi insonlarning ehtiyojlari bilan bog'liqdir. Biz bilamizki, ehtiyojlarning qondirilishi yanada yuqoriroq ehtiyojlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Uchinchiidan, jamiyat hayotida asosiy soha iqtisodiy sohadir, chunki uning rivojlanish darajasi inson hayotining boshqa sohalarining mavjud bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiyot nazariyasining kurtaklari qadimgi davrlardayoq shakllangan. Qadimgi davrlardayoq buyuk faylasuf olimlar boylik manbaini tahlil qilishga harakat qilganlar. Aristotel boylik manbaini xo'jalik yuritish san'ati deb bilgan. Merkantilistlar esa, boylik manbai savdo deb tushunganlar. Fiziokratlar esa, boylik manbaini tabiat bilan bog'laganlar. Kapitalizm rivojlanishi bilan iqtisodiyot nazariyasi fani sifatida shakllandi.

Klassik iqtisod maktabi vakillari esa boylik manbaini ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va iste'molda deb bilganlar.

Ayrim iqtisodchilar iqtisodiyot nazariyasi jamiyat rivojlanishining har xil bosqichlarida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlaridan tarkib topadigan insonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi, deb ta'kidlaydilar.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi davrida MDH davlatlari iqtisodchi olimlarining bu fan predmetiga bergan ta'riflari ham diqqatga sazovordir. Masalan, «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida bu fan predmeti rasional xo'jalik yuritish tizimining tarkibiy evolyusiyasini, haqiqiy boylikni va jamiyatning ayrim a'zolari va guruhlarining farovonligi, iqtisodiy o'sishning omillari va qonuniyatlarini o'rganadi»<sup>6</sup> deb ko'rsatilgan, yoki bu fan «predmeti cheklangan resurslar dunyosida ne'matlarni ishlab chiqarishdagi kishilarning xulq-atvori va uni boshqarishni o'rganadi»<sup>7</sup> deyilgan.

«Ekonomiks» darsligida, birinchiidan, cheklangan resurslar dunyosida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida insonlarning hatti-harakatlari o'zini tutishi tadqiq etiladi. Ikkinchiidan, insonning moddiy ehtiyojlarini yuqori darajada qondirish maqsadida

<sup>6</sup> Ekonomicheskaya teoriya. Sankt-Peterburg, 1997. 18 b.

<sup>7</sup> Obshaya ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Uchebnik «Promo-Media». M., 1995. 28 s.



chegaralangan resurslardan samarali foydalanishni o'rganadi deb ta'rif beriladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda «Iqtisodiyot nazariyasi» faniga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Iqtisodiyot nazariyasi insonning cheksiz ehtiyojlarini yuqori darajada qondirish uchun, cheklangan iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish yo'llarini tanlash sharoitida kishilik jamiyatining rivojlanish qonuni va qonuniyatlarini o'rganadi. Shuningdek, iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy tizimlar evolyusiyasi, milliy boylik va jamiyat farovonligini oshirish manbalari va harakatga keltiruvchi kuchlarni tahlil etishni ham o'z ichiga oladi. Iqtisodiyot nazariyasi fani barcha iqtisodiy fanlarning poydevori va davlat iqtisodiy siyosatining ilmiy asosi hisoblanadi.

Iqtisodiyot nazariyasi rivojlanib borishining davlat «iqtisodiy siyosatiga ta'sirini aytib o'tish bilan birga, mamlakatda olib borilayotgan siyosat, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisida qabul qilinayotgan qaror va hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining ham iqtisodiyot nazariyasi rivojlanishiga ta'sirini ta'kidlash zarur.

Iqtisodiy siyosat –davlatning ijtimoiy ishlab chiqarish yo'nalishida olib boriladigan maqsadli tadbiridir. Iqtisodiy siyosatning maqsadli vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

-ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, sifatini oshirish hisobiga turmush darajasini ko'tarish;

-to'liq ish joylari bilan ta'minlash;

-kam xarajatlarga nisbatan yuqori samaradorlikka erishish;

-infllyasiya oldini olish, moliyaviy tadbirkorlikni ta'minlash, narxlarni muqobilligiga erishish;

-ishlab chiqarish sub'ektlariga iqtisodiy erkinlikni ta'minlash;

-foйда (daromad)larini to'g'ri taqsimotini ta'minlash, yashash sharoitlarini yaratish, ishsizlikni oldini olish;

-tabiat muhitini ekologik jihatdan himoya etish;

-savdo balansiga erishishdan iboratdir.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining eng muhim usuliyatlaridan biri: «Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni taklillantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish», degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov<sup>8</sup>.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining quyidagi vazifalari bor:

— **bilish vazifasi**-iqtisodiyot nazariyasi raqam va talillarni keltirish bilan chegaralanib qolmay, ularni nazariy va ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilib, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi;

— **g'oyaviy vazifa** — ommani ilmiy dunyoqarashini, ilg'or iqtisodiy va siyosiy ongini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiyot nazariyasining g'oyaviy vazifasi yordamida jamiyatdagi illatlar tanqid qilinadi, jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'lib turuvchi kamchiliklar ochib tashlanadi. G'oyaviy vazifa yordamida jamiyatdagi muammolar va ularni bartaraf qilish yo'llari nazariy jihatdan asoslab beriladi;

— **amaliy vazifalar** — iqtisodiy nazariya xo'jalik yuritishning eng qulay qoidalari va uslublarini ishlab chiqish, davlatning iqtisodiy siyosatini ilmiy asoslab berishdir;

— **tarbiyaviy vazifa** — har xil ishlab chiqarish usullarining yutuq va kamchiliklarini aniqlashdan iborat.

— **metodologik vazifasi** — boshqa aniq iqtisodiy fanlar uchun manba bo'lib hisoblanadi. Bularga tarmoqlar iqtisodi: sanoat iqtisodi, qurilish iqtisodi fanlari va maxsus iqtisodiy fanlar (mehnat iqtisodi, moliya, statistika va boshqalar) kiradi,

O'zbekiston Respublikasida ko'p partiyaviylik, ko'p fikrlilik sharoitida vujudga kelayotgan g'oyaviy qarashlar belgilangan maqsadga xizmat qilishi kerak. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti «har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan maqsadlariga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam, g'ayrat –

<sup>8</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. «O'zbekiston». 1999. 187 b.

shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir»<sup>9</sup>, – degan edi.

Iqtisodiyot nazariyasining rivojlanishi integrasiya va differensiasiya yo'li bilan amalga oshgan. Iqtisodiyot nazariyasining rivojlanishi natijasida tarmoq iqtisodi fanlari ajralib chiqqan.

Iqtisodni tahlil qilishning darajasiga qarab iqtisodiy fanlar tarmoq (sanoat iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, savdo va transport iqtisodiyoti va h.k.) va maxsus (moliya, statistika, mehnat iqtisodiyoti hamda mintaqaviy, jahon iqtisodi) iqtisodiy fanlarga ajratiladi.

Fanlarni amaliyotda qo'llanishiga qarab fundamental va amaliy iqtisodiyotga ajratadilar. Statistika fanining vujudga kelishida ham iqtisodiyot nazariyasining ahamiyatini aytib o'tish mumkin. Hozirgi vaqtda fundamental tadqiqotlarni olib borishda iqtisodiy-matematik usullarni qo'llashning roli oshib borayotganligini ta'kidlash lozim.

### 3. Iqtisodiy tadqiqotlarni olib borish usullari

Iqtisodiyot nazariyasining tadqiqot uslublari majmui deganda ilmiy bilishni tashkil etish qoidalari, shakllari va usullari tushuniladi. Iqtisodchilar barcha tabiiy va ijtimoiy fanlarga xos bo'lgan tadqiqot usullarini qo'llaydilar. Ammo, bu usullarni qay darajada qo'llash fanga, uning mavzuiga bog'liq bo'ladi. Hayotni ilmiy bilish deganda hodisa va jarayonlarni tadqiq etish usullaridan foydalangan holda jarayonlarni chuqur o'rganishni, ularning o'zaro bog'liqligini ochib berishni va iqtisodiy taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar va ularning sabablarini aniqlab berishni tushunamiz.

Shu bilan birga, agar tadqiqotchi chuqur ilmiy bilimga ega bo'lishni xohlasa, unda dialektik uslubga asoslanish zarur. Materialistik dialektika uslubi, uning amaliy qoidasi hayotning

ob'ektiv dialektikasi rivojlanishini aks ettirish bo'lib, u miqdor o'zgarishini jamlab borish, sifat o'zgarishlariga olib keladigan iqtisodiy hayotdagi hodisa va jarayonlarni o'zaro bir-biriga bog'liqlikda, uzluksiz rivojlanishda o'rganishni talab etadi.

Ilmiy bilishning quyidagi usublari bor:

— **abstraksiya usuli**, u ko'pincha soxta tasavvur berib yuzaga chiquvchi iqtisodiy hodisalar tub mohiyati va yo'nalishini ochish uchun turli-tuman murakkab hodisalar orasidan eng asosiysini sof holda ajratib olib, ilmiy tekshirishni qiyinlashtiruvchi hodisalarni yo'q, deb faraz qilishdir;

— **deduktiv usul** gipotezani (faraz yoki tahlil) ilgari surish, keyin uni faktlar bilan solishtirishdir;

— **induktiv usul** birinchi faktlarni tahlil etish va undan so'ng, unga asoslanib gipotezani ilgari surishni nazarda tutadi;

— **tarixiy va mantiqiy usul** iqtisodiy hodisalarning kelib chiqishi, rivojlanishi, o'zgarishi asosida tekshirishni nazarda tutadi;

— **analiz va sintez usuli** butunni tarkibiy qismlarga fikran yoki amaliy jihatdan ajratish va qismlardan butunni birlashtirish tushuniladi;

— **matematik va statistik usul** undan foydalanish iqtisodiy hodisalarning miqdor jihatdan o'zgarishlarini ko'rish va sifat o'zgarishlariga aylanib o'tishning imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan uslublar iqtisodiy nazariyaning usul va shartlariga asoslanadi. Ularga nazariya va amaliyotning o'zaro bog'liqligi, mikro va makro tadqiqotning umumiyliigi va real tarixi kiradi.

Nazariya va amaliyot o'zaro bog'liqdir: Nazariya – bu muqobil fikrlash, qonunlarni o'rganish va iqtisodiy rivojlanishni qonuniyatlarini ifoda etadi.

Amaliyot nazariy jihatdan o'rganish uchun ijtimoiy buyurtma berishdan iborat. U nazariyani haqiqiy tomonlarini ifodalab beradi. Iqtisodiyot mikro va makroiqtisodiyotga bo'linadi.

Ammo bu ikki bo'lim umumlashgan holda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi.

<sup>9</sup> Karimov I. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. T. O'zbekiston 1992. 23-b.

Mikroiqtisodiyot ayrim iqtisodiy sub'ektlarni faoliyatlarini shu sub'ektlar darajasida o'rganadi.

Makroiqtisodiyot esa, milliy iqtisodiyotni umumiy rivojlanishni, rivojlanish jarayonida hosil bo'lgan inflyatsiya holatlarini, ishsizlikni, milliy ishlab chiqarish hajmini va iqtisodiy o'sishni o'rganadi.

Shunday qilib, hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasi tadqiqotlari ikki mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy darajasida olib boradi. Iqtisodiyot nazariyasi tomonidan amalda qo'llaniladigan ikki darjadagi tadqiqot umumlashgan holda, milliy iqtisodiyotni rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan kamchiliklarni oldini olishni ta'minlaydi. Iqtisodiy tahlillar olib borishda jamiyatni tarixiy rivojlanishiga ham e'tibor berish zarur. Chunki, tarixiy rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy kategoriyalar va iqtisodiy jarayonlar turlicha talqin qilinishi mumkin. Bizga ayonki bozor va bozor mexanizmini tarixiy rivojlanish xususiyatlariga ega. Hozirgi iqtisodiyotni bozor iqtisodiyoti asosida rivojlanishi o'tmish davrlaridagidan tubdan farq qiladi. Yoki o'rta asrlar davrida qo'llanilgan yer rentasidan bozor iqtisodiyoti munosabatlari asosida rivojlanayotgan iqtisod davridagi yer rentasi undan o'zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati jihatidan tubdan farq qiladi.

Demak, iqtisodiyot nazariyasi xo'jalik jarayonlarini rivojlanishini tahlil qilishda tarixiy usulda yondoshish ham maqsadga muvofiq bo'lar ekan.

Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy tahlil jarayonida iqtisodiy tajriba uslubidan ham foydalanishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish shakllarini, ishlab chiqarishni muqobil darajasini yoki mehnatni tashkil etish, iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishda va boshqa holatlarda ko'rish mumkin.

Ana shu usullar faqat iqtisodiy jarayonlarni tushuntirishdagina emas, shu bilan birga iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda ham muhim ahamiyatga egadir.

#### 4. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar

Iqtisodiyot nazariyasi fani iqtisodiy tadqiqotlarni olib borishda iqtisodiy kategoriyalar va iqtisodiy qonunlarga asoslanadi.

Iqtisodiy kategoriyalar — jamiyatning iqtisodiy hayot sharoitini umumlashtirib aks ettiruvchi mantiqiy tushunchalar bo'lib, ular real iqtisodiy voqealarning in'ikosi, ifodasidir. Kategoriyalar ilmiy fikrlash mahsuli bo'lib, hayotda uchraydigan tushunchalardan farq qiladi.

Iqtisodiy kategoriyalarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

— **umumiqtisodiy kategoriyalar** — iqtisodiy hayotning hamma bosqichlariga xos bo'lgan tushunchalar. Masalan, ishlab chiqarish, ishlab chiqarish xarajatlari, ehtiyoj, mulk, ish vaqti; qo'shimcha qiymat, xo'jalik hisobi, rejalashtirish, tovar, pul, talab, taklif, marketing, narx va boshqalar;

— **maxsus kategoriyalar** iqtisodiy taraqqiyotning muayyan tarixiy bosqichiga xos bo'lgan o'tkinchi munosabatlarni ifodalovchi maxsus kategoriyalardir (ekspluatatsiya, qo'shimcha qiymat, o'rtacha foyda, o'rtacha foyda me'yori, monopol foyda va hokazo).

Iqtisodiyot nazariyasini o'rganish jarayonida bu iqtisodiy kategoriyalardan ko'p foydalanamiz. Iqtisodiy kategoriyalar o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birlariga ta'sir etadilar. Iqtisodiy kategoriyalar ilmiy tahlil qilish uslubining qismlari bo'lib, o'zlarining mohiyatlariga ega.

Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy hodisalarning belgilarini umumlashtirish asosida qonunlarda ta'riflanadi.

Iqtisodiy qonunlar iqtisodiy munosabatlar tizimidagi ishlab chiqarish taqsimot, ayirboshlash va iste'mol sohalarida o'zaro ichki bog'lanishda va aloqadorlikda yuzaga kelib turadigan uzviy iqtisodiy zaruratni taqozo etuvchi sabab-oqibat, aloqa bog'lanishlarini ifolaydi. Iqtisodiy qonunlar ma'lum iqtisodiy jarayon va hodisalarning muqarrarligini aks ettirib, ob'ektiv xarakterga ega, ya'ni odamlarning ongi va irodasiga bog'liq bo'lmagan holda harakat qiladilar. Lekin insonlar bu

qonunlardan ongli ravishda tushungan holda ulardan iqtisodiyotni rivojlantirishda foydalanadilar. Iqtisodiy qonunlar ikki guruhga bo'linadi:

— **umumiqtisodiy qonunlar** — jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida, iqtisodiyotning aniq ijtimoiy shaklidan qat'iy nazar amal qiluvchi qonunlar. Ularga mehnat taqsimoti, qiymat qonuni, jamg'arish, mehnat unumdorligining o'sib borishi ehtiyojlarning yuksalishi talab va taklif va boshqa iqtisodiy qonunlar kiradi;

— **formasion maxsus qonunlar**— iqtisodiy taraqqiyotning muayyan bosqichiga xos bo'lgan, shu tizimning o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etuvchi iqtisodiy qonunlardir. Ularning jumlasiga monopol foyda qonuni, o'rtacha foyda me'yori qonuni, qo'shimcha qiymat va boshqa qonunlar kiradi.

Iqtisodiy rivojlanish iqtisodiy tizimlarni shakllanish darajasiga va xususiyatlariga bog'liq.

Iqtisodiy tizim bu iqtisodiy elementlarni o'zaro bog'liqlikda ma'lum umumiylikni, jamiyatni iqtisodiy tarkibini, iqtisodiy boylikni ishlab chiqarish, taqsimot, almashuv va iste'molda munosabatlarni birligini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish iqtisodiy tizim sharoitida ishlab chiqaruvchilar tomonida yaratilgan mahsulotlarni o'zlashtirishni, ishlab chiqarishni qanday mulk shaklidagi ishlab chiqarish vositalariga va mehnatiga bog'liqligini ifoda etadi.

Iqtisodiy tizimni rivojlanishini o'rganishda sobiq administrativ boshqaruv tizimi davrida formasion rivojlanishga asoslangan holda o'rganilgan: iptidoiy jamoaviy, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va kommunizm uning quyi fazasi sosializm shaklida. Ammo, bu formasiya tizimlari shaklida jamiyatni o'rganish, hozirgi zamon o'zgarishlarini o'zida ifodalolmaydi. Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy tizimlar rivojlanishini progressiv shakllarini taklif etgan.

Jumladan, amerikalik iqtisodchi U.Rostau iqtisodiy rivojlanishni besh bosqichini taklif etgan. Uning fikricha u insoniyat tarixiy rivojlanishini to'liq qamrab oladi.

Birinchi bosqich — an'anaviy jamiyat bo'lib, past ishlab chiqarish bilan tavsiflanadi. Bu qishloq xo'jaligi tasnifiga ega

bo'lgan oddiy takror ishlab chiqarish holatida bo'lgan.

Ikkinchi bosqich — o'tish jamiyati bo'lib, XVII boshlarida — XVIII asr oxirlarida G'arbiy Evropada tashkil topgan. O'tish jamiyati ilm-fan ixtirolarini ishlab chiqarishga joriy etish, milliy va jahon bozorlarini kengayishi, kapital jamg'armalarini tashkil topishi, ilm-fan, texnika yangiliklarini ishlab chiqarishda va jamiyatda sezilarli darajada o'rin olishi bilan ifodalanadi.

Uchinchi bosqich — rivojlanish bosqichi bo'lib, XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarini qamrab olib, ishlab chiqarish jarayonini texnologik jihatdan rivojlanishiga asoslanadi. Bu holatni Angliyadagi rivojlanish xususiyatlaridan ko'rish mumkin. Yangi tadbirkorlik sinfini shakllanishi bilan ifodalanadi.

To'rtinchi bosqich — tezlik asosida yetuk bosqichi bo'lib, XIX asrning oxirlarida G'arbiy Evropada shakllangan. G'arbiy Evropada joylashgan ayrim mamlakatlar xo'jaliklari jahon xo'jaliklarini bir qismi bo'lib, milliy daromadlarini 10-20 foizini ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida investisiyalashtirishga yo'naltirganlar.

Beshinchi bosqich — iste'mol talablarini yuqori darajada o'sib borishi bilan bog'liqligi bilan ajralib turadi. Jamiyat manfaatdorligi ishlab chiqarish muammolaridan iste'mol va turmush sharoitlarini yaxshilash muammolariga o'tishi bilan ifodalanadi.

Hozirgi iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy tizimini quyidagi shakllarda ko'radi: an'anaviy iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti, administrativ boshqaruv iqtisodiyoti va aralash bozor iqtisodiyoti.

An'anaviy iqtisodiyoti — jarayonida milliy an'analariga, urf odatlarga asoslanadi. Iqtisodiy rivojlanishning bu shakli Osiyo va Afrikaning qoloq mamlakatlariga mansubdir.

Bozor iqtisodiyoti — bu iqtisodiy tizim turli mulk shakllariga, jumladan xususiy mulkchilikka va ishlab chiqarishni erkin shakliga, raqobatiga asoslanadi.

Bu iqtisodiy rivojlanish shaklida shaxsiy manfaatdorlik darajalari keng doirada bo'lib, davlat manfaatdorligi bilan bog'liq bo'ladi.

Administrativ boshqaruv iqtisodiyoti — ijtimoiy mulkka asoslangan bo'lib, davlat mulkining hissasi yuqori bo'ladi. Ishlab chiqarishni boshqaruv davlat tomonidan, rejalashtirish asosida

belgilangan rahbarlar orqali markazlashtirilgan holda boshqariladi.

Aralash iqtisodiyot — bozor iqtisodiyoti va iqtisodiyotni boshqaruvi qismlaridan tashkil topadi. Bu shakldagi iqtisodiy tizim AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqa shunga o'xshash rivojlangan davlatlarda qo'llanilmoqda.

Respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tishdan maqsad, samarali bozor iqtisodiyotini shakllantirishni kuchli aholini ijtimoiy himoyalashtirish bilan olib borishga qaratilgan.

### Asosiy atama va tushunchalar

Iqtisod, metod, metodologiya, kategoriya, qonunlar, dialektika, normativ, pozitiv, negativ, analiz, statistika, matematika metodi, sintez, inson omili, infratuzilma, moddiy omil, ishlab chiqarish munosabatlarining tizimi, tadbirkorlik resurslari.

## 2-mavzu. EHTIYOJLAR VA ISHLAB CHIQUARISH JARAYONI

### 1. Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va iqtisodiy resurslar

Har qanday jamiyatning pirovard maqsadi jamiyat a'zolarining ehtiyojini qondirishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiyot hayotiy ehtiyojni qondirish vositasidir. Kishilarning yashashlari va inson sifatida kamol topishlari uchun zarur narsalar ularning hayotiy ehtiyojlarini tashkil etadi.

Iqtisodiyot nazariyasini o'rganish jarayonida bu iqtisodiy kategoriyalardan ko'p foydalanamiz. Iqtisodiy kategoriyalar o'zaro bog'liq bo'lib, bir birlariga ta'sir etadilar. Iqtisodiy kategoriyalar ilmiy tahlil qilish uslubiyatining qismlari bo'lib, o'zlarining mohiyatlariga ega.

Ehtiyojlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- moddiy ehtiyojlar;
- ijtimoiy ehtiyojlar;
- mehnat qilish ehtiyojlari.

Moddiy ehtiyojlar deganda kishilarning tovar va xizmatlarga bo'lgan talabi, uning nafliligi hamda xarid qilish

imkoniyati tushuniladi.

Ehtiyojlar birlamchi va ikkilamchi ko'rinishda ifodalanadi. Birlamchi ehtiyojlar insonlarni yashashi bilan bog'liq bo'lgan iste'mol buyumlarida ifodalansa, ikkilamchi ehtiyoj insonlarni faoliyatlari uchun zarur bo'lgan ehtiyojlardan (sog'liqni saqlash, bilim olish, dam olish, malaka oshirish) va boshqa omillarni o'z ichiga oladi. Xizmat ko'rsatish sohasi ham kishilar ehtiyojini qondiradi. Masalan, sartaroshlik, avtomobilni ta'mirlash kabilar. Kishilarning ehtiyojlari va uning qondirilish darajasi ishlab chiqarish munosabatlarining xarakteri va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasiga bog'liq.

Jamiyat moddiy ne'matlarni yaratgandagina unga ehtiyoj tug'iladi. Shuning uchun ishlab chiqarish munosabatlari birlamchi, kishilar ehtiyojlarining qondirilishi ikkilamchi hisoblanadi. Ehtiyojlarning bunday holda namoyon bo'lishi iqtisodiy qonun ekanligini ifodalaydi. Lekin kishilar ehtiyojlarining oshishi passiv holat bo'lmay, u ham ishlab chiqarish munosabatlariga ta'sir o'tkazadi.

Masalan, kishilarning mahsulotlarni xarid qilish qobiliyati pasayganda ishlab chiqarish munosabatlari izdan chiqishi natijasida ortiqcha ishlab chiqarish, iqtisodiy inqiroz vujudga keladi.

Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy iste'molni o'rganadi. Iqtisodiy iste'mol jamiyat a'zolarining faoliyat qilish qobiliyatlarini ta'minlaydi. Iqtisodiy iste'mol ichki omil sifatida inson va ishlab chiqarish sub'ektlari faoliyatlarini jadallashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Ehtiyojlarning qondirish darajasiga qarab ular:

- hozirgi davrdagi ehtiyojlarga;
- haqiqiy ehtiyojlarga;
- mutlaq ehtiyojlarga bo'linadi.

Hozirgi davrdagi ehtiyojlar — minimum ehtiyojlarga mos keladi.

Haqiqiy ehtiyojlar deganda kishilarning normal holda o'z ehtiyojlarini qondirishi tushuniladi.

Mutlaq ehtiyojlar bu kishilarning orzu havaslaridir.

Jamiyatning rivojlanishi bilan ehtiyojlar transformasiyasi vujudga keladi.

Vaqt o'tishi bilan hozirgi davrdagi ehtiyoj haqiqiy ehtiyojga, esa o'z navbatida mutlaq ehtiyojga aylanadi.

Davlatning ijtimoiy siyosati kishilarning haqiqiy ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi.

Haqiqiy ehtiyojlarni qondirish deganda jamiyat a'zolarini qanoatlantiradigan darajada ovqatlanishi, kiyinishi, inson sog'lig'iga zarar keltirmaydigan ekologik muhitda yashashi tushuniladi.

Demak, jamiyatning rivojlanishi bilan moddiy ne'matlar ko'payadi, kishilarning ehtiyojlari ham to'xtovsiz oshib boradi. Bunday holat esa, kishilar ehtiyojining cheksiz ekanligini ifodalaydi.

Moddiy ne'matlarga ayrim shaxslargina emas, balki korxonalar, firma, davlatlar ham ehtiyoj sezadilar. Ular ham mashina, bino, omborxonalariga ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan iste'mol darajalarini qondirishlari kerak.

Iqtisodiy manfaatdorlik iste'mol va ishlab chiqarish manfaatdorliklariga bo'linadi. Iste'mol manfaatdorligi jamiyat a'zolarini talablarini qondirishda ifodalansa, ishlab chiqarish manfaatdorligi ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish xomashyolari bilan ta'minlashda ifodalanadi. Iqtisodiy manfaatdorlik yakka tartibdagi va ijtimoiy manfaatdorlikka bo'linadi.

Iste'mol manfaatdorligi korxonalar ma'muriyati va davlat tomonidan yaratiladi. Yakka tartibdagi manfaatdorlik ishlab chiqarishda band bo'lgan mehnatga layoqatli jamiyat a'zolarining mehnat qilish darajalari asosida olayotgan oylik maoshlari, daromadlari orqali ifodalanadi. Ijtimoiy manfaatdorlik barcha jamiyat a'zolarining manfaatdorligini ifoda etadi.

Kishilarning korxonalar va davlat ehtiyojlarining cheksiz ekanligi, resurslarning cheklanganligi sharoitida amalga oshiriladi.


Kishilar o'z ehtiyojlarini qondirish jarayonida daromadlaridan samarali foydalanishga harakat qiladilar. Daromadlariga mos keladigan moddiy ne'matlarni xarid qilganda uni tanlashga harakat qiladilar.

Bunday holat davlat va korxonalar miqyosida ham amalga oshadi.

Resurslarning cheklanganligi sharoitida aholi va korxonalarining ehtiyojlarini to'liq qondirish mumkin emas.

Lekin iqtisodning pirovard maqsadi kishilar ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi. Bunday holda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish talab etiladi.

Iqtisodiy resurslar — bu tabiat, mehnat, inson tomonidan yaratilgan ne'matlar ishlab chiqarish vositalari bo'lib, ulardan mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlarni amalga oshirishda foydalaniladi, (1-chizma).



1-Chizma

Iqtisodiy resurslarning eng xarakatchanligi bu mehnat resurslaridir. Eng kam xarakatdagisi tabiat resurslari hisoblanadi.

Mehnat resurslari uni xarakatga keltiradi. Ishlab chiqarish resurslaridan tadbirkorning tadbirkorlik faoliyatlari ham eng xarakatchan resurs hisoblanadi.

## 2. Iqtisodiy faoliyatning mazmuni va turlari

Kishilar o'zaro doimo iqtisodiy faoliyatga kirishadilar. Bu faoliyatni o'rganish oson bo'lishi uchun uni to'rt turga ajratadilar:

- ishlab chiqarish;
- taqsimlash;
- ayirboshlash;

— iste'mol sohasidagi faoliyatlar.

**Ishlab chiqarish** — deganda moddiy ne'matlar tayyorlanish jarayoni tushuniladi. Iqtisodda ishlab chiqarish keng ma'noga ega. Kishilar ehtiyojini qondirishga qaratilgan faoliyat ishlab chiqarish hisoblanadi. Ishlab chiqarishga moddiy ne'matlar yaratish bilan birga xizmat ko'rsatish ham kiradi. Kishilar faoliyat ko'rsatadigan chakana savdo, banklar, sug'urta, buxgalteriya, yurisprudensiya, ta'lim va sog'liq saqlashdagi kishilarning mehnati ham unumli mehnatdir. Hozirgi davrda zavod, shaxta, elektrostansiyadagi ishlab chiqarish faoliyatini xizmat ko'rsatish sohasisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Umuman ishlab chiqarish — bu uning o'ziga xos ijtimoiy shakllariga bog'liq bo'lmagan asosiy umumiy belgilarning yig'indisidan iborat ilmiy abstraksiyadir.

Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining taraqqiyoti insoniyat madaniyati olg'a qarab rivojlanishining moddiy asosidir. Ishlab chiqarish bir yo'la bo'ladigan harakat emas, ishlab chiqarish uzluksiz jarayondir. Doimo takrorlanib va tiklanib turadigan bu jarayon **takror ishlab chiqarish** deyiladi.

Takror ishlab chiqarish ikki turga bo'linadi: oddiy takror ishlab chiqarish, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish. Oddiy takror ishlab chiqarish deb ishlab chiqarish hajmining bir miqdorda takrorlanishiga aytiladi. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish deb ishlab chiqarish jarayonining doimiy ravishda o'sib borishiga aytiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning manbai bo'lib korxonalarining sof daromadlari, turli shakllardagi investisiyalar, olingan kreditlar va ammortizasiya mablag'lari hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida tovarlar hajmi ham uning qiymati ham oshib boradi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan jamiyat o'z oldiga qo'yan maqsadni amalga oshiradi, mavjud muammolarni hal qiladi. Ishlab chiqarish jarayonida moddiy ne'matlarning yaratilishi nomoddiy sohalarning ham rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda umumiy iqtisodiy rivojlanishda, moddiy sohaning ulush kamayadi va nomoddiy ulush oshib boradi.

**Taqsimlash** — bu ishlab chiqarish jarayonida vujudga keltirilgan moddiy boyliklar jamiyat a'zolarini ijtimoiy mehnat faoliyatlarida qatnashish darajalariga qarab o'z hissalariga qarab ish haqi ko'rinishidagi ne'matlarga ega bo'lishdir.

**Ayirboshlash** — jamiyat a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy ravishlari uchun turli xil moddiy boyliklar zarur bo'ladi. Ushning uchun ham ular orasida ayirboshlash jarayoni amalga oshadi. Ayirboshlash ishlab chiqarish bilan iste'molni bir-biriga bog'lab turadi.

**Iste'mol** — jamiyat a'zolari ishlab chiqarish jarayonida doimiy takroriy ravishda qatnashishlari uchun, o'zlarining fiziologik mehnat qilish qobiliyatlarini tiklash uchun yaratilgan moddiy boyliklarning iste'mol qilinishidir.

### 3. Ishlab chiqarish omillari

Jamiyatning taraqqiyoti ishlab chiqarish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Ishlab chiqarish jarayoni insonlarning mehnat qilish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, ular o'z ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun mehnat qiladilar. Ishlab chiqarish jarayonida insonlar mehnatlari orqali yashash va taraqqiy etish uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni yaratibgina qolmay, ongli ravishda mehnat qiladilar va o'z malakalarini doimiy ravishda oshirib boradilar. Ishlab chiqarish jarayonining asosiy omillari quyidagilar:

**Inson omili** — deb ishchi kuchining aqliy va jismoniy mehnat qobiliyatini o'zida ifodalashiga aytiladi. Ya'ni, mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan insongina ishchi kuchi qobiliyatiga ega bo'ladi. Insonlar mehnat qilish jarayonida tabiatning o'zgarishiga ta'sir etishi bilan birga o'zining bilim doiralarini ham kengaytirib boradilar.

Mehnat resurslarining o'rtacha ish bilan bandligi soni 2007 yilda 2006 yildagiga nisbatan 2,6 foizga o'sgan va 10735,4 ming kishini tashkil etgan. Iqtisodda band bo'lganlarning 2006 yilda 22,1 foizi davlat muassasalarida va 77,9 foizi nodavlat tashkilotlarida band bo'lganlar. 2007 yilda ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining o'sishi asosan nomoddiy sohalarida 3,0 foizga va moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida 2,4 foizga ko'paygan.

2007 yilda mehnat bilan ta'minlash bo'yicha 557,4 mlrd. kishi ishga joylashtirish tashkilotlariga murojaat qilganlar. Ish ko'rsatkich 2006 yilga nisbatan 42,4 foizga ko'paygan. Ish joylashtirish bo'yicha murojaat qilganlarni 74,5 foizini qishloq aholisi tashkil etgan<sup>10</sup>.

**Mehnat omillari** deb inson o'z ta'sirini o'tkazadigan tabiat boyliklariga aytiladi. Mehnat omillari xomashyoholatida va tayyor mahsulot ko'rinishida bo'lishi mumkin. Masalan, g'isht ishlab chiqarish sanoati uchun tuproq xomashyosifatida foydalaniladi. U ishlab chiqargan tayyor mahsulot g'isht, tovar bo'lib, iste'molchi quruvchilar uchun xomashy bo'lib hisoblanadi.

Fan va texnika taraqqiyoti yangi "mehnat omillarini ishlab chiqarishga olib kelsada tabiiy, mehnat omillari asosiy omil sifatida o'z mavqeini hech qachon yo'qotmaydi. Buyuk iqtisodchi olim U. Pettining «Mehnat boylikning otasi va faol prinsipidir, yer esa uning onasi» degan iborasi o'z qiymatini shu kunda ham to'la saqlab qolgan.

**Mehnat qurollari** deb insonlarni tabiat boyliklariga ta'sir o'tkaza oladigan barcha vositalariga aytiladi. Mehnat qurollari turli ko'rinishlarda ifodalanadi. Masalan, stanok, mashina, asbob-uskunalar, turli uzatkich, mexanizmlar va boshqalar.

Hozirgi davrda turli axborot vositalari, aloqa kanallari, reklamalarni ham mehnat qurollariga kiritish mumkin. Chunki, ular orqali xomashyo ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishni tezlatish mumkin.

Mehnat qurollari (*MQ*) va mehnat omillari (*MO*) yig'indisiga ishlab chiqarish omillari (*IV*) yoki ishlab chiqarish vositalari deb aytiladi va formulada quyidagicha ifodalanadi:

$$IV = MQ + MO$$

Bundan shunday xulosa qilamiz. Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish uchun ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari

bo'lishi zarur. Inson — ish kuchi ishlab chiqarish vositalariga ta'sir etgandagina ishlab chiqarish jarayoni amalga oshadi va ishlab chiqarish omillari ishlab chiqarish jarayonining moddiy-omilini tashkil etadi. Ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan bu omil fan va texnika taraqqiyoti ta'sirida doimiy ravishda takomillashib boradi.

Bu omillar ichida inson omili eng asosiy omil hisoblanadi. Bu omilsiz ishlab chiqarishni tashkil etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham inson omilidan biz doimo oqilona, ehtiyotkorlik bilan foydalanishimiz kerak. Inson omiliga bo'lgan talab ishlab chiqarish jarayonining hajmiga va unda qo'llanilayotgan texnologiyalarga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish texnologiyalarining o'zgarishi, ta'sir takomillashib borishi inson omili — ish kuchiga bo'lgan talabni belgilaydi.

Ishlab chiqarish jarayoni ikki turga bo'linadi: moddiy ishlab chiqarish jarayoni va nomoddiy ishlab chiqarish jarayoni. Moddiy ishlab chiqarish jarayoni jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan xomashyo va mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar: sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi, kommunal xo'jalik, maishiy xizmat va boshqa tarmoqlardan tashkil topadi. Nomoddiy ishlab chiqarish nomoddiy ne'matlar, ya'ni ma'naviy qadriyatlar, nomoddiy xizmatlar ko'rsatiladigan: sog'liqni saqlash, maorif va boshqa shunga o'xshash tarmoqlardan tashkil topadi.

**Iqtisodiy resurslarning cheklanganligi sharoitida ehtiyojlarni qondirish muammolari.** Iqtisodiy resurslar deganda tovar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ularni iste'molchiga yetkazib berishda va iste'mol jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan iqtisodiy imkoniyatlar, zahiralarni manbalar tushuniladi.

**Tabiiy, mehnat, moliyaviy resurslar va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy resurslar hisoblanadi.** Iqtisodiy resurslar cheklanganligi tufayli insonlar o'z ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydilar. Ularning cheklanganligi insonlarning oziq-ovqatga, tovarlargagina emas, balki, xizmat ko'rsatishga bo'lgan ehtiyojlarini ham chegaralab qo'yadi.


Bunday holda insonlar bilan davlat, jamiyat a'zolari o'z duromadlariga yarasha tanlash muammosiga duch keladilar.

<sup>10</sup> Sosialno-ekonomiceskoe polojenie respubliki Uzbekistan za 2007. Toshkent, 2007., 45-46 s.



Masalan: O'zbekiston Respublikasi energiya mustaqilligini ta'minlash maqsadida neft qazib olish va gaz kondensati ishlab chiqarishga boshqa tarmoq ishlab chiqarishga nisbatan ko'proq mablag' ajratishga majbur bo'ladi.

Shunday qilib, resurslarning cheklanganligi ehtiyojini qondirishning muhim yo'li bo'lgan ishlab chiqarish imkoniyatlarini ham chegaralab qo'yadi. Bu imkoniyatlar darajasi doimo bir xil bo'lib turmaydi, balki yangi texnologiyalarning yaratilishi hamda ishga solinishi ishlab chiqarish imkoniyatlarini, uning chegaralarini kengaytirish imkonini beradi. Yangi texnika va texnologiyalar bir tomondan, mehnat unumdorligini, ekinlar hosildorligini oshirish, energiya, yonilg'i, mehnat va boshqa moddiy resurslarni tejash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, yangi material, xomashyo, energiya va boshqa resurslar manbalarini topib, hayotga jalb etish imkonini beradi. Jumladan, yerning chuqur qatlamlaridagi boyliklarni topish va ishga tushirish, jahon okeanining uzoq va chuqur joylaridagi resurslardan foydalanish va h.k. Iqtisodiy resurslar, ishlab chiqarish va ehtiyojlarni qondirish darajasi o'rtasidagi doimiy va mustahkam aloqadorlikni quyidagicha ifodalash mumkin:



**1-chizma. Iqtisodiy resurslar va ehtiyojlarning qondirilishi o'rtasidagi bog'liqlik.**

Cheklangan iqtisodiy resurslardan foydalanib, ishlab chiqarish imkoniyatlarini va binobarin, ehtiyojlarni qondirish darajasini oshirish zarurligi iqtisodiyot oldiga quyidagi muammolarni qo'yadi:

- Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning maqbul variantlarini tanlab olish va resurslarni ishlab chiqarishga jalb qilish.

Mavjud resurslarning har bir birligidan tejab-tergash, samarali foydalanish.

Fan-texnika yutuqlarini va yangi texnologiyalarni joriy qilib, yangi energiya, material, xom ashyo turlari, ularning manbalarini topib, foydalanishga jalb qilish, resurslar unumdorligini oshirishga e'tibor berish.

Demak, resurslar tejalgandagina insonlarning haqiqiy ehtiyojlarini qondirish mumkin bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat a'zolarining daromadlarini ularning tadbirkorlik faoliyatlariga qarab turli darajada shakllanishiga olib keladi.

Davlat bunday holda aholini kuchli ijtimoiy himoyalash siyosatini olib boradi. Milliy daromadni qayta taqsimlash natijasida daromadlar qisqaradi. Lekin, asosan insonlarning o'z ehtiyojlarini qondirishida ularning mehnatsevarligi, shijoasozligi, mehnatga bo'lgan munosabati muhim rol o'ynaydi. Ishyoqmas, dangasa, laudovur odamlarning ehtiyoji davlatning ijtimoiy siyosati samarali, iqtisodning rivojlanishi darajasi yuqori bo'lganda ham qondirilmaydi.

Demak, insonlarning o'z ehtiyojlarini qondirish darajasi davlatning o'ziga bog'liq. Ehtiyojlar cheksiz bo'ladi. Insonlarning yaxshi yashashi bilan bog'liq bo'lgan orzu-havaslarini doimiy ravishda o'sib boradi. Bu esa, ehtiyojlarni yuksalish qonunida o'z ifodasini topdi. Ishlab chiqarishning o'sishi, aholi daromadlarini, korxonalar foydasini o'sib borishini ifodalaydi. Oqibatda bu iqtisodiy rivojlanish insonlarning ehtiyojlarini o'sib borishini ta'minlaydi. Ehtiyojlarni o'sib borishi aholining iqtisodiy va ijtimoiy turmush sharoitlari bilan ifodalanadi.

#### **4. Vaqtni tejash qonuni. Mehnat unumdorligi va unga ta'sir qiluvchi omillar**

Ishlab chiqarish jarayonida moddiy ne'matlar hajmining to'xtovsiz oshib borishini, aytib o'tganimizdek, kishilar ehtiyojining cheksizligi taqozo etadi. Ishlab chiqarish hajmini oshirish yo'llaridan biri mehnat unumdorligini oshirish hisoblanadi. Mehnat unumdorligi belgilangan vaqt birligida

yaratilgan mahsulot miqdori bilan ifodalansa, keng ma'noda mehnat unumdorligi vaqtini tejash qonuni bilan o'lanadi. Vaqtini tejash qonuni ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim asosiy va ichki mantiqini aks ettiruvchi iqtisodiy qonundir. Har qanday tejash texnika va texnologiyalardagi, xodimlar kasb mahorati va boshqarishni tashkil etishdagi ko'pgina ijobiy o'zgarishlar pirovardida ish vaqtini tejashga olib keladi. Mahsulot iste'mol qiymati, uskunalar quvvati va mustahkamligi, asboblarning aniqlik darajasi va xizmat muddati, oziq-ovqatlarning to'yimlilik darajasi, kiyim-kechaklar, poyafzallar va hokazolar sifatining oshishi ham pirovardida vaqtini tejashda ifodalanadi.

Yuksakroq mehnat unumdorligiga va ish vaqtini tejashga erishish ayni vaqtda ham jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti darajasining o'sib borayotganligidan dalolat beradi ham uning boyligi, xilma-xil moddiy va ma'naviy ne'matlar xizmat bilan ta'minlash mezonini ko'rsatadi. Mehnat unumdorligiga ta'sir qiluvchi eng muhim omil jonli mehnatdir. Marjinalistlar (J.Sey, F.Bastiya — Fransiya) mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar: mehnat, yer va kapital miqdori deb biladilar. Bu omillar bir xil ta'sir o'tkazadi, deb hisoblaydilar.

Ular qiymat uchta omil olingan daromad asosida tashkil topadi deb hisoblaganlar. Daromad ish haqi, tadbirkorlik daromadi, foiz va rentadan tashkil topadi deb tushuntirganlar. XIX asr o'rtalarida mehnat qiymat nazariyasi yaratilgan. Bu nazariyaga asosan qiymat manfaatdorligi (bozorda) vaqtincha, doimiy manfaatdorlik esa (tabiiy) bo'ladi.

Tabiiy manfaatdorlikka qiymat manfaatdorligi doimo intiladi. Bozor qiymati talab va taklif orqali ifodalanadi. Talab doimiy ravishda bozor qiymatiga bog'liq bo'ladi.

Tabiiy qiymat qayta ishlab chiqarish bilan to'ldirish mumkin bo'lgan va to'ldirish mumkin bo'lmagan qiymatga bo'linadi. Tabiiy manfaatdorlik ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga bog'liq. Bularga asoslangan holda ishlab chiqarish xarajatlari ish haqi, foydadan tashkil topib u sarf qilingan mehnatga bog'liq deb hisoblanadi.

Shunday qilib, mehnat qiymat nazariyasi sinfiy nazariya bo'lib o'rtacha narx darajasi ishlab chiqarish xarajatlaridan kelib chiqadi.

Talab shu narx asosida kelib chiqadi. Sinfiy mehnat qiymat nazariyasi ayrim qarama-qarshiliklarga ega.

Bular quyidagilardan iborat:

Har qanday jamiyat ishlab chiqarish jarayonini cheksiz ravishda rivojlantira olmaydi. Uning sababi ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan omillar cheklanganligidir. Bu o'z navbatida ishlab chiqarish xarajatlari nazariyasiga asoslanganda u ham cheksiz emas; tovarlarga bo'lgan talablarni o'rganishni ta'minlovchi omillar o'rganilmagan;

sinfiy qiymat nazariyasi qiymatni mohiyatini to'liq ochib beraolmagan.

Yangi iqtisodiy konsepsiya vakillari me'yoriy naflilik nazariyasini ilgari surmoqdalar. Bu nazariyaga asosan mahsulot naflilik chegarasiga ega. Faraz qilamizki, bir iste'mol tovarini naflilik chegarasi borki u insonni iste'mol talabani qondiradi, undan ortig'ini esa naflilik darajasi past bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonining o'zi yuqorida aytib o'tilgan omillarning o'zaro bog'liqligini taqozo etadi. Ayrim olingan omil hech qachon mahsulot omili imkoniyatini bermaydi. Ular o'zaro aloqada bo'lganda bir-birini o'rnini bosgandagina ko'zda tutilgan maqsadga erishiladi. Omillarning o'zaro bog'liqlikda ifodalanishiga ishlab chiqarish funksiyasi deyiladi. Ishlab chiqarish funksiyasi mikroiqtisodiy darajada quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = f(a_1, a_2, \dots, a_n)$$

Bunda:  $Y$  — ishlab chiqarish hajmi;

$f$  — funksiya, bog'liqlik;

$a_1$  — ishchi kuchi,  $a_2$  — ishlab chiqarish vositalari  $\dots a_n$  — ishlab chiqarish xomashyolari.

Makroiqtisodiy darajada ishlab chiqarish funksiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:  $Y = f(N, LK)$

$Y$  — mahsulot hajmi;

$f$  — bog'liqlik;

N — mehnat;

L — yer;

K — kapital.

Ishlab chiqarish funksiyasi omillarning muqobillari bilan almashtirish imkoniyatlari ifodalaydi.

Mahsulot birligi oshishi bilan unga ketadigan xarajat ham oshib boradi.

Mehnat unumdorligini oshirishdan maqsad xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirishdir.

### 5. Ijtimoiy ishlab chiqarish va iqtisodiy ko'rsatkichlar

Inson farovonligi va jamiyat taraqqiyoti moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog'liq. Ijtimoiy ishlab chiqarish deb butun jamiyat miqyosida makroiqtisodiy darajadagi ishlab chiqarishga aytiladi. Jamiyatda yaratilayotgan barcha moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jarayonining natijasidir. Biz ishlab chiqarish jarayonining ikki turga, ya'ni moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishga bo'linishini va bu jarayon oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish shaklida takrorlanishini aytib o'tgan edik. Endi ana shu bozor iqtisodiyoti sharoitida moddiy ishlab chiqarish jarayonini ikki bo'linmaga bo'linishini ya'ni: ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishga va iste'mol buyumlarini ishlab chiqarishga bo'linishi sabablarini ko'rib chiqamiz. Ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish, asosan ishlab chiqarishga zarur bo'lgan (mehnat qurollari) ishlab chiqarish vositalarini etkazib beradi. Agar ishlab chiqarish vositalari yaratilmasa va ular etarli darajada bo'lmasa, zarur bo'lgan iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish mumkin bo'lmay qoladi. Ishlab chiqarish umuman ikki turga: moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishga bo'linadi.

Moddiy ishlab chiqarish jamiyat a'zolarini iste'mol buyumlariga, ishlab chiqarishni esa zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari, xom ashyolari bilan ta'minlaydi.

Nomoddiy ishlab chiqarish bu jamiyat a'zolari uchun zarur bo'lgan ko'rsatilayotgan turli xizmatlar: medisina, madaniyat, ta'lim, maishiy xizmat, ijtimoiy ta'minot, ilmiy xizmat, axborot, transport va boshqa xizmatlar yig'indisidan iboratdir. Ishlab chiqarishning qay darajada olib borilayotganligi va uning samaradorligi iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida ma'lum bir korxonalar, tarmoq, jamiyat darajasida uning ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy tahlili asosida rivojlanish darajasiga baho berish mumkin. Iqtisodiy ko'rsatkichlar bir — birlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi iqtisodiy tizimlar ko'rsatkichini ifodalaydi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar ikki turga bo'linadi.

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar;
- mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ma'lum bir tarmoq, iqtisodiy mintaqalar yoki davlat miqyosida erishilgan iqtisodiy natijalarni, iqtisodiy holatni ifodalaydi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga yalpi milliy mahsulot, yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy daromad, jami eksport, jami import, baholarning o'zgarish indeksi, aholining pul daromadlari, aholining pul xarajatlari, aholining o'rtacha oylik yoki yillik ish haqlari, aholining nominal, real ish haqlari va boshqalar kiradi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar yig'indisi asosida shakllanadi.

Mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar ma'lum korxonalar va tarmoqlar miqyosida iqtisodiy holatni ifodalaydi. Uning ko'rsatkichlari ijtimoiy mahsulot, ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi, korxonalar daromadi, korxonalar sof daromadi, asosiy fondlar qiymati, aylanma fondlar qiymati, fondlar qaytimi, fondlar bilan qoplanish darajasi mehnat qaytimi, mehnat unumdorligi, mehnat xarajatlari fondlarining doiraviy harakati, ish vaqti, mahsulot sifati va boshqa shunga o'xshash ko'rsatkichlardan iborat. Bu ko'rsatkichlarni makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridan farqi har bir ko'rsatkich oldida umumlashtiruvchi «jami», «yalpi» «milliy» so'zlari ishlatilmasligidadir.

Ishlab chiqarish jarayonida korxonalarda asosiy fondlar foydalanish samaradorligi korxonaga uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega va u quyidagicha aniqlanadi.

$$F_s = \frac{M}{AF_Q} \cdot 100\%$$

Bunda:  $F_s$  — fond samaradorligi;

$M$  — ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;

$AF_Q$  — asosiy fondlar qiymati.

Korxonaga ishlab chiqarish samaradorligini mikro-iqtisodiy darajada ifodalovchi iqtisodiy yana bir ko'rsatkich mehnat unumdorligi ko'rsatkichi bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi.

$$M_u = \frac{M}{M_{mx}} \cdot 100\%$$

Bunda:  $M_u$  — ishlab chiqarish unumdorligi;

$M$  — yaratilgan mahsulot natural miqdorida yoki qiymatda;

$M_{mx}$  — mehnat xarajatlari (soat yoki kunlarda).

Mikro-iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri mahsulotning material sig'imi, ya'ni (mahsulot ishlab chiqarishda sarf etilgan xom ashyo, yoqilg'i, energiya va boshqalar)ni, sarfning darajasini aniqlaydi.

$$M_s = \frac{M_x}{M} \cdot 100\%$$

Bunda:  $M_s$  — material sig'imi;

$M_x$  — moddiy xarajatlar;

$M$  — mahsulot.

Ishlab chiqarish samaradorligi tannarxga nisbatan quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$I_s = \frac{F}{T} \cdot 100\%$$

$I_s$  — ishlab chiqarish samaradorligi;

$F$  — foyda miqdori;

$T$  — tannarx.

Ishlab chiqarish fondlariga nisbatan samaradorlik foydani asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlariga nisbatan quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$I_s = \frac{F}{A_{F1} + A_{F2}} \cdot 100\%$$

$I_s$  — ishlab chiqarish samaradorligi;

$F$  — foyda miqdori;

$A_{F1}$  — asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati;

$A_{F2}$  — aylanma ishlab chiqarish fondlari.

Keltirilgan formulalar iqtisodiy holatni mikro va makroiqtisodiyot darajasida aniqlashda qo'llaniladi.

## 6. Ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot va uning hajmini o'lchash. Zaruriy va qo'shimcha mahsulot

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning asosiylari yalpi milliy mahsulot ( $YaMM$ ) va yalpi ichki mahsulot ( $YaIM$ ) hisoblanadi.  $YaMM$  milliy davlatning iqtisodiy qudratini ifodalaydigan ko'rsatkich hisoblanadi.  $YaMM$  — bir yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning hamda ishlatilgan resurslarning bozor bahosidagi umumiy qiymati hisoblanadi.

$YaMM$ ni «xarajatlar» va «daromadlar» oqimi bo'yicha ifodalash mumkin. Davlatning daromadlari xarajatlariga mos kelgandagina makroiqtisodiy muvozanat vujudga keladi.

Lekin ja'mi daromadlar darajasi ja'mi xarajatlar darajasiga nisbatan ko'p bo'lishi kerak. Chunki, daromadlarning xarajatlarga nisbatan ortiqcha qismi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosiy manbai hisoblanadi.

ijtimomiy mahsulotdan o'z ulushini ish haqi tarzida olib. Qo'shimcha ish vaqtida yaratilgan qo'shimcha mahsulot korxonalarini tashkil etib, asosan, mehnat xodimlarini moddaviy rag'batlantirishga, ishlab chiqarishni kengaytirishga ehtiyotkorlik fondlarini tashkil etishga sarflanadi. Zaruriy qo'shimcha mahsulotning ko'payishi ishlab chiqarilayotgan ijtimoiy mahsulot va uni ishlab chiqarish uchun sarf etilgan ishlab chiqarish xarajatlarining hajmiga bog'liq bo'ladi.

### 7. O'zbekistonda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish.

Iqtisodiy resurslar yuqorida aytib o'tilganidek, kam va chegaralangandir. Demak, ishlab chiqarishning ham chegarasi bo'ladi. Davlatning iqtisodiy qudrati va uning texnikaviy taraqqiyoti iqtisodiy resurslarga va ulardan samarali foydalanishga bog'liq.

Iqtisodiy resurslarga: moliyaviy, moddiy, mehnat resurslari hamda tadbirkorlik faoliyati kiradi. Moddiy resurslar mamlakatda mavjud bo'lgan tabiiy resurslardan foydalanish va ularning samaradorligini oshirish, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi jahon iqtisodiga qo'shilgan davrda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oxirgi 17 yil ichida katta konlar fondining kamayishi, qazilma boyliklarini qidirish, uni ishga tushirish, ayniqsa, qayta ishlab samaradorligini oshirish ustida ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston faxrlansa arziydigan tabiiy resurslarga ega. Mamlakatimizda D.Mendelev davriy sistemasida mavjud bo'lgan elementlarning deyarli hammasi bor.

Respublikamizda mustaqillik yillarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. Mustaqillikning birinchi bosqichida (1991-2000) yillar bozor iqtisodiyotiga o'tish davri bilan ifodalansa, 2001-2007 yillarni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich davrida mamlakatimiz rivojlanishi uchun qayta yangilash asosida iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, «Islohotlar-islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlar uchun» degan ishora ostida amalga oshirildi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining so'nggi hal qiluvchi uchinchi bosqichi iqtisodiyotini makroiqtisodiy darajada

barqaror rivojlantirishga qaratilgan.

Iqtisodiy islohotlar milliy qadriyatlarga, urf-odat va an'analarimizga asoslangan holda amalga oshirilmoqda.

O'tgan davr ichida yoqilg'i-energetika va g'alla mustaqilligiga erishildi. Ilgari respublika iqtisodiyotini rivojlantirish uchun yiliga 6-7 million tonna neft va neft mahsulotlari tashqaridan olib kelingan edi. Ishlab chiqarilayotgan neft mahsulotlari 1990 yilga nisbatan 3 barobarga ko'paydi. Bu neftni eksport hajmini ham o'sishini ta'minladi. Aholini yengil mashinalarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash 6 barobarga o'sdi. Paxta xomashyosining asosiy qismi tashqariga chiqarilib, uning hajmi 7.0 foizi respublikada qayta ishlanar edi. Amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan yalpi ichki mahsulotning 2008 yilda o'sishi 9 foizni, sanoatda 12,7 foizni, jumladan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish 17,7 foizni tashkil etdi, xizmat ko'rsatish hajmi 21,3 foizga o'sdi.

Iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari ham barqaror rivojlanadi: qurilish – 8,3 foiz, transport, yuk va yo'lovchi tashish hajmi – 10,2 foiz, savdo sohasi – 7,2 foizga o'sdi. Qishloq xo'jaligida 4,5 foizga o'sishga erishilib, 3 million 410 ming tonna paxta xomashyosi tayyorlandi, 6 million 145 ming tonna bug'doy yetishtirildi.

Davlat byudjeti ortig'i bilan bajarildi, ko'zda tutilgan defisit o'rniga yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,5 foiz miqdorida profitga erishildi. Puxta o'ylangan qat'iy pul-kredit siyosatini amalga oshirib olib borish tufayli inflyasiya ko'zda tutilgan ko'rsatkichlar chegarasida, ya'ni yillik 7,8 foiz darajasida saqlab qolindi. 2008 yilda o'rtacha ish haqi byudjet tashkilotlarida 1,5 barobaridan ziyod, butun iqtisodiyot bo'yicha esa 1.4 barobar oshdi.... Tashqi bozorda kon'yukturaning yomonlashuviga qaramasdan, 2008 yilda tashqi savdo aylanmasi 21,4 foizga oshdi, ayni vaqtda tovarlar va xizmatlar eksporti 28,7 foizga ortdi... 2008 yilda umumiy eksport hajmida xomashyo bo'lmagan tovarlarning ulushi 71 foizdan ziyodni tashkil etdi... O'zbekiston uchun an'anaviy eksport xomashyosi bo'lgan paxta tolasining bu boradagi ulushi 2003 yildagi 20 foizdan 2008 yilda 12 foizga tushdi... 2008 yilda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha moliyaviy manbalar

hisobidan 6,4 milliard AQSh dollari miqdorida investisiya joriy qilingildi. Bu 2007 yil bilan taqqoslanganda, 28,3 foizga ko'p bo'lgan yalpi ichki mahsulotga nisbatan investisiyalar hajmi 23 foizga oshirib tashkil etdi. O'zlashtirilgan barcha investisiyalarning 50 foizi qayta-yaqini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga yo'naltirilganini ta'kidlash darkor...., 2008 yilda 700 milliard 700 million AQSh dollari miqdorida xorijiy investisiyalar o'zlashtirildi. Bu 2007 yildagiga nisbatan 4,6 foiz ko'proq demakdir...., xorijiy investisiyalarning 74 foizini to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar tashkil etdi...., investisiyalarning qariyb 54 foizi korxonalar va aholi mablag'lari tashkil etadi.

Investisiya dasturlarini amalga oshirish natijasida qariyb 25 milliard so'mlik asosiy foizga ega bo'lgan jami 423 ta ob'ekt jumladan, oziq-ovqat sanoatida 145 ta, qurilish materiallari sanoatida 118 ta, yengil va to'qimachilik sanoatida 65 ta, qishloq va o'rmon xo'jaligi sohasida 58 ta, kimyo va neft-kimyo sanoatida 13 ta, farmasevtika tarmog'ida 8 ob'ekt ishga tushirilgan.

Ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish va foydalanishga topshirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilishi natijasida 113 ming 200 o'quvchiga mo'ljallangan 169 ta kasb hunar kolleji va 14 ming 700 o'rinli 23 akademik lisey qurildi va rekonstruksiya qilindi...., 69 ta yangi maktab barpo etildi va 582 ta maktab kapital rekonstruksiya qilindi...., 7 million 240 ming metr kvadrat turar binolari va boshqa ob'ektlar qurildi...., 2008 yil mobaynida yurtimizda 661 mingga yaqin, jumladan, kichik biznes sohasida 374 mingta xizmat ko'rsatish va servis sohasida qariyb 220 mingta, kasanachilik hisobidan esa 97 ming 800 ta yangi ish o'rni yaratildi.<sup>11</sup>

Iqtisodiy rivojlanish asosan ishlab chiqarish korxonalarini takomillashtirish, chuqur iqtisodiy islohotlarni olib borish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksportga chiqarish, kichik biznesni rivojlantirish evaziga amalga oshirilmoqda.

Bu iqtisodiy ko'rsatkichlar Respublikada iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ifodalaydi.

<sup>11</sup> I.A. Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston, 2009.

## Asosiy atama va tushunchalar

Ishlab chiqarish kuchlari, ish kuchi, mehnat qurollari, ehtiyojlar, manfaatlar, absolyut, haqiqiy ehtiyojlar, moddiy va nomoddiy ehtiyojlar, birinchi va ikkinchi darajali ehtiyojlar, shaxsiy, umumxalq va jamoa ehtiyojlari, mehnatga bo'lgan ehtiyojlar.

## 3-mavzu. MULKCHILIK VA XO'JALIK YURITISH SHAKLLARI

### 1. Mulk munosabatlarining mohiyati

Iqtisodiyot nazariyasida ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilikning turlari va shakllari tasniflanadi. Uning ikkita asosiy turi mavjud bo'lib, unga xususiy va ijtimoiy turlar kiradi. Bularning doirasida mulkchilikning bir-birlaridan farq qiluvchi turli-tuman shakllari mavjud bo'ladi. Huquqiy ma'noda yondashganda, mulkchilik o'zida mulkka egalik munosabatlarini ifodalaydi.

Har qanday jamiyat o'ziga mos bo'lgan iqtisodiy tizimga mos keladi. Iqtisodiy tizimni xususiyati mulkka va ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan egalik shakllariga va xo'jalik faoliyatlari bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarni amalga oshirish mexanizmlariga bog'liq. Ikkala shartlar iqtisodiy mexanizm xususiyatlarini ifodalaydi. Mulkchilik munosabatlari jamiyatni rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ideologik tomonlarini qamrab oladi.

Mulkchilik munosabati jamiyatning asosiy negizi bo'lib, har bir mamlakat o'z hududida mulkchilik to'g'risidagi huquqiy qonunlar majmuini ishlab chiqarishga asosiy e'tiborini qaratadi. Mulkchilik ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqaruvchilar o'rtasida o'zaro iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. U ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarilgan mahsulotning taqsimotini, ayirboshlash darajasini, hamda iste'mol qilish shakllarini belgilaydi. Ijtimoiy mulkchilik egalik shakllariga qarab jamiyat qay tartibda va kimning manfaati uchun xizmat qilishini aniqlash mumkin. Mulkchilik munosabatlari jamiyatning asosiy negizidir.

Shuning uchun ham har bir davlat mulkchilik to'g'risida yuridik huquqqa ega bo'lgan qonunlar ishlab chiqadi va bu qonunlarga shu davlatning fuqarolari bo'ysunadilar. Shunga muvofiq har bir shaxs qonun orqali o'ziga tegishli bo'lgan mulkkagina egalik qilish, undan foydalanish va taqsimlash huquqini oladi. Iqtisodiy jihatdan yondashganda mulkchilik munosabatlari ishlab chiqarishda mavjud bo'lgan kishilar o'rtasidagi murakkab xo'jalik munosabatlarini aks ettiradi. Mulchilik munosabatlari moddiy ne'matlarni o'zlashtirish, ulardan xo'jalik yuritishda foydalanish va ularni sotish kabi sohalarni ham qamrab oladi.

## 2. Mulch munosabatlarining yuridik va iqtisodiy mazmuni

Mulkchilik yuridik ma'noda mulkka egalik munosabatini ifoda etadi. Shuning uchun, moddiy boylikni turli sub'ektlar, ya'ni alohida kishilar, ijtimoiy guruhlar va davlat o'rtasida qanday taqsimlash, o'zlashtirishning huquqiy me'yorlari aniqlanadi va belgilab qo'yiladi. Shunga muvofiq mulch egasi qonunda belgilangan buyumga tegishli bo'lgan mulkka egalik qilish, foydalanish va taqsimlash vakolatini, huquqini oladi. Davlat mavjud mulchilik munosabatlarini mustahkamlaydi va himoya qiladi.

Mulkchilik iqtisodiy ma'noda ishlab chiqarishda mavjud bo'lgan kishilar o'rtasidagi murakkab xo'jalik munosabatlarini ifoda etadi. Har qanday moddiy ne'mat ishlab chiqarish kishilarning o'z manfaatlarini uchun tabiat buyumlarini va energiyani o'zlashtirishdan iboratdir.

Lekin ijtimoiy munosabatlarda tabiat va insonlar tomonidan yaratilgan boylik kimga tegishligiga ko'ra belgilangan miqdordan ortig'ini o'zlashtirish mumkin emas. Shuning uchun mulchilik munosabati moddiy ne'matlarni o'zlashtirish, ulardan xo'jalikda foydalanish va iqtisodiy jihatdan realizatsiya qilish sohalarini qamrab olgan. Buni kengroq ko'rib chiqadigan bo'lsak, o'zlashtirish buyumlarga o'ziningdek munosabatda bo'lishlikni belgilovchi kishilar o'rtasidagi iqtisodiy ishlab chiqarish vositasi

ga ayrim hollarda yaratuvchilik faoliyati bilan bog'ullanmaydi. Bunda mulkdor va tadbirkor o'rtasida mulkdan xo'jalikda foydalanish munosabatlari yuzaga keladi. Mulch egasiga daromad keltirgandagina iqtisodiy realizatsiya qilinadi. Bunda daromad ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishdan natijasida yaratilgan qiymatning hammasi yoki bir qismdan iborat bo'lib, foyda, soliq yoki to'lovlar shaklida ifodalanadi. Masalan, ijara berilganda, ijara haqi belgilanadi. Ijara haqi deb, mulkni ijara olib, foydalanish natijasida olgan daromadning bir qismini ijara haqi sifatida mulkdorga to'langan haqqa aytiladi. Kontrakt tuzilayotganda, avvaldan, vaqtinchalik mulkdorga to'lashi kerak bo'lgan to'lov yoki olinadigan ijara ulushi belgilab qo'yiladi. Ijarchi ishlab chiqarish jarayonida ijara olingan ishlab chiqarish vositalari va texnologiyalardan foydalanadi. Yirik ishlab chiqarish korporatsiya, aksionerlar jamiyatida va shunga o'xshash yirik korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini odatda ishga yo'llangan menejerlar tomonidan boshqariladi, garchan ular mulch egasi yoki mulkni ijara olingan sub'ekt bo'lmasa ham. Bu holatda mulch egasi xo'jalik sub'ekt vazifasini bajarmaydi. Chunki u xo'jalikni ijara topshirgan. Kichik biznes sohalarida sub'ektlar ishlab chiqarish jarayonini o'zlari tashkil etgan holda, uning iqtisodiy natijalarini taqsimlashni ham o'zlari amalga oshiradi.

Shunday qilib, ijara berilgan mulch egasi bo'lib ikki sub'ekt, ya'ni mulch egasi hisoblanadi va undan vaqtincha foydalanuvchi. Mulchilik munosabati butun xo'jalik jarayonining faoliyatini, ya'ni ishlab chiqarish, taqsimot, almashinuv va iste'mol sohalarini qamrab oladi.

## 3. Mulch turlari va xo'jalik yuritish shakllari

Mulch so'zining mohiyatini tahlil etishga yana murojaat qiladigan bo'lsak, shuni alohida ta'kidlash lozimki, uning ob'ekti o'zining shakllanishiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Inson tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar.
2. Jamiyatda mavjud bo'lgan tabiiy va ishlab chiqarilishi moddiy boyliklar va ma'naviy boyliklar. (avlodlardan meros

tariqasida qoldirilgan ilmlar, malakalar va tajribalar, ko'nikmalarga) bo'linadi.

Iqtisodiyot nazariyasi tarixida mulkchilikning 3 turi ya'ni shaxsiy, xususiy va davlat mulki mavjud deb kelingan va ular tavsiflab berilgan. Mulkchilikning mazkur 3 ta turi iqtisodiy adabiyotlarda keng tushuntirilgan va izohlab berilgan. Shunga qaramay, mulkchilik munosabatlari yuzasidan tahlillarning tez-tez o'zgarib va yangi mulkchilik shakllarining vujudga kelib turgani bois, ularning mazmun-mohiyati ham o'zgarib bormoqda. Xususan, hozirgi vaqtda iqtisodiy adabiyotlarda mulkchilikning quyidagi turlari mavjud deb qaralmoqda. Umumiy mulk, aralash mulk, xususiy, shaxsiy mulk, davlat mulki, jamoa mulki, shirkat mulki, mahalla mulki, meros mulk va hokazolar. Ba'zi bir iqtisodiy adabiyotlarda davlat mulki, jamoa mulki, shirkat mulki, meros mulk va hokazolarni umumiy mulkning tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilsalar, xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy adabiyotlarida ularni alohida mulk turi sifatida tasvirlaydilar.

Mulkchilik munosabatlari butun iqtisodiy tizimning mohiyatini ochib beradi, o'zaro manfaatlari va iste'mol munosabatlarini bir yo'nalishda umumlashtirgan holda namoyon qiladi. Uning ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarini belgilab beradi. Mulkchilikning nazariy va amaliy muammolari yechimini topish jamiyat taraqqiyotining mohiyatini tushunish va idrok etish, yo'nalishlarini aniqlash uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. Qaysi mulk shakliga asoslangan holda xo'jalik faoliyatlarini olib borishdan qat'iy sub'ektlar ma'lum darajada iqtisodiy manfaatdorlikka intiladilar. Iqtisodiy manfaatdorlik ishlab chiqarish sub'ektlarini xo'jalik faoliyatlarini olib borishga da'vat etadi. Uning iqtisodiy natijalari mulk shakllariga asoslangan holda iqtisodiy manfaatdorlikni e'tiborga olgan holda ishlab chiqarilgan mahsulot va foydani taqsimotini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotning turli sohalari va tarmoqlarida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarishning umumlashuv darajasi turlicha bo'ladi. Mehnat unumdorligi, texnikaviy jihozlanganlik, ishlab chiqarish kuchlarining malaka darajasidagi farqlar, turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar orasida, butun jamiyatdagi mulkchilik munosabatlarini muqobillashtirishni zarurligini ko'rsatadi.

## Mulkchilikning quyidagi turlari mavjud.

Xususiy mulk ayrim kishilarning ishlab chiqarish vositalariga va ishlab chiqarish natijalariga egaligini aks ettiradi. Uning ikki turi mavjud bo'ladi: alohida xususiy mulk va guruhiy mulk. Birinchi holda mulkka yakka kishi egalik qiladi. Ikkinchi holda esa xususiy mulk egalari guruh tarzida faoliyat yuritadilar, bormad yakka shaxs yoki guruh tomonidan o'zlashtiriladi. Xususiy mulk turli yo'llar bilan ishlab chiqarish vositalarini sotib olish orqali mustaqil xo'jalikni barpo etish davlat korxonasi yoki korxonini sotib olish orqali xususiy korxonalar tashkil etish shaklida vujudga keladi. O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi qonunida mamlakatimizda quyidagi mulklar mavjud: fuqarolarning shaxsiy va xususiy mulklari, kollektiv (shirkat) mulki, oila va mahalla mulki, kooperativ mulk, ijaraga olingan korxonalar mulki, aksiyadorlar jamiyati, davlat korxonasi, jamoa tashkilotlari, diniy uyushmalar, birlashma mulklari, turli xo'jaliklar va yuridik shaxs hisoblangan boshqa jamoalar mulki, O'zqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulklaridan iborat bo'lgan davlat mulki kabi mulk shakllari bo'lishi ko'rsatib o'tilgan.

**Umumiy mulk** jamoa tarzida uyushgan barcha shaxslarning xususiy ishlab chiqarish vositalariga va ishlab chiqarish natijalariga teng munosabatda bo'lishini birgalikda egalik qilishini bildiradi. Umumiy mulkning davlat mulki, jamoa mulki, shirkat mulki, mahalla mulki kabi turlari mavjud.

**Aralash mulk.** U davlat mulki, jamoa mulki, mahalla mulki kabilarning birlashuvi, umumlashib ketishini o'zida ifoda etadi, ko'p hollarda qo'shma korxonalar, ajnabiy tashkilotlar va fuqarolar yo xorijiy davlatning, xorijiy yuridik shaxslarning ulushi hisobidan tashkil etilgan mulk sifatida mavjud bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida mulkning barcha shakllari tengdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning birdan-bir shakliga intilmoqda bo'lmaydi. Bozor munosabatlarining faolligi bozor munosabatlari qaror topishining birlamchi asosi hisoblanadi.

**Davlat mulki**—bu davlat ixtiyoridagi turli ko'rinishdagi mulk bo'lib, unga davlat tomonidan to'liq egalik qilinadi va



foydalaniladi. Davlat mulki asosan ikki usul bilan shakllanadi. Birinchi xususiy mulklarni milliy lashtirish yo'li bilan, ikkinchi usul davlat mablag'lari hisobiga shakllanadi. Davlat mulki yer osti, yer usti tabiiy boyliklari, yirik-yirik davlat miqyosidagi iqtisodiy va strategik ahamiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari, mashina – transport tizimlari, temir yo'llar, ma'muriy, ommaviy ijtimoiy – madaniy binolar, tibbiy kasalxonalar, ijtimoiy – muassasalar binolari va boshqalar tashkil etadi.

**Jamoa mulki.** Mulkchilik to'g'risida qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlarda ishlab chiqarish vositalariga jamoaviy tarzda egalik qilishning asosiy belgisi ishlab chiqarish vositalarini guruh tomonidan tasarruf etilishidan iboratdir. Jamoa mulki ham mulkning bir ko'rinishidir. Sobiq Ittifoq mamlakatlari va ulardagi mavjud ma'muriy buyruqbozlik tizimi davrida jamoa mulki shaklida birgina kolxozlar ko'rinishida mavjud bo'lgan, ammo davlatning aralashuvi kolxozlarni o'z-o'zini boshqarish huquqini ta'minlanmaganligi sababli, u keng rivojlana olmadi. Hozirgi paytda mamlakatimizda xuddi rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlardagidek, turli ko'rinishdagi jamoa mulklari mavjud.

**Shirkat mulki** ishlab chiqarish yoki boshqa bir iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun o'zlarining mablag'lari va mehnatlarini birlashtirgan shaxslar, ya'ni jamoa a'zolarining umumiy mulkidir. Shirkat mulki – o'zining ustav fondiga, manziliga, yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan uyushmaning ishlab chiqarish faoliyatini yuritishi uchun zarur hisoblangan mulk sifatida namoyon bo'ladi.

Shirkat o'zining nizomida ta'sis shartnomasida qayd etilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari, uskunalari, asbob-anjomlarga ega bo'ladi. Bular shirkat mulki hisoblanadi. Shirkat mulkida kimning qancha ulushi bo'lishi, olingan foydaning qay tarzda taqsimlanishi, mulkning qanday boshqarilishi yoki kimlarga ijaraga berilishi ta'sis shartnomasida aks etadi. Hozirgi paytda faoliyat turiga ko'ra shirkat mulkining 3 turi ko'proq qo'llanilmoqda — ishlab chiqarish, matlubot va qishloq xo'jaligi jamoa shirkatlari, ishlab

chiqarish va xizmatlar ko'rsatish (matlubot) shirkatlari bir-biridan ajratilib, o'zlarining alohida xususiyatlariga egadirlar.

**Kooperativ mulk** — ishlab chiqarish yoki boshqa biron-bir faoliyatni amalga oshirish uchun o'zlarining mablag'larini birlashtirgan korxonalarining umumlashgan mulkidir. O'zbekiston Respublikasida mulkning hamma shakllari teng huquqlidir.

**Fermer mulki** fermer ishlab chiqarish xo'jaligini tashkil etish bilan shakllanadi. Qishloq xo'jaligida 1 yanvar 2007 yil holatiga ko'ra, 189,2 ming fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatgan. Bu ko'rsatkich 2005 yilga nisbatan 63,6 mingga ko'progidir. Fermer xo'jaliklarini yanada rivojlantirish samaradorligini oshirish ularga ajratilgan yer maydonlarining optimal darajalariga bog'liq. Yer maydonlarining optimal darajada bo'lishi fermer xo'jaliklarini samaradorligini ishlab chiqarishni mexanizasiyalashtirish asosida mehnat unumdorligini oshirish orqali erishish mumkin. Shuning uchun ham fermer xo'jaliklarini yer maydonlarini optimallashtirish bo'yicha ularning ishlab chiqarish yo'nalishlariga qarab ixtisoslashuvdan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqildi. Natijada paxtachilik va sabzavotchilikda yer maydoni 37 gektardan 93,7 gektargacha, chorvachilikda esa 154 gektardan 164,5 gektargacha ko'paytirildi.

**Dehqon mulki** – dehqon xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lib, 2007 yilda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotning 62,7 foizi dehqon xo'jaliklariga to'g'ri kelgan. 2007 yilda dehqon xo'jaliklari dukkakli mahsulotlarning 16,7 foizini, kartoshkani 84,5 foizini, poliz mahsulotlarini 48,8 foizini, sabzavot mahsulotlarini 65,9 foizini, mevalarni 52,2 foizini va uzumning 43,6 foizini ishlab chiqarganlar.

2006 yildan boshlab qishloq joylarida bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan holda yangi mehnat kooperasiya shakllari tashkil topmoqda. Jumladan, fermer xo'jaliklari tomonidan meva-sabzavot mahsulotlari hamda uzum yetishtirishga va uni qayta ishlashga ixtisoslashgan 200 ta agrofimlar tashkil topdi. Bu yangicha xo'jalik munosabatlari tizimini shakllanayotganligini ko'rsatmoqda.

#### 4. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish muammolari

Iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida eng muhim dolzarb vazifa mulkiy munosabatlarni tub o'zgartirmoqdir. Uning tub mohiyati mulkni haqiqiy egal qo'liga berish, tadbirkorlik uchun keng yo'l ochib berish mulkdorda yangi mulk egasi xisssiyotini tarbiyalash iboratdir.

Xususiylashtirish sohasida mulkdorga duch kelayotgan muammolarni yechish, unga keng yo'l ochib berish, mulk egalarni huquqiy tarbiyalash maqsadga muvofiqdir. Birinchi navbatda, tadbirkorlikning qonuniy bazasini mustahkamlash va uning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ta'minlash kerak.

Xususiylashtirishning o'zidan ham, uning ishlab chiqarishni rag'batlantirish, mehnat mahsuloti sifatini yaxshilash ko'paytirishdan manfaatdorligini oshirish, aholi ehtiyoqlarini qondirishda raqobat muhitini vujudga keltirish, yakkalik hokimlikni yo'q qilish va shu orqali erkin iqtisodning paydo bo'lishiga imkon yaratish muhim va qimmatliroqdir. Xususiylashtirish bilan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish sinov tushunchalar hisoblanadi, lekin ularning mohiyati har xil.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish deganda, davlatning mulkka egalik qilishida, tanho hajmlikni yo'qotish tushuniladi. Xususiylashtirish deganda, mulkni turli-tuman mulk egalari topshirish, sotish, tekinga berish tushuniladi.

**Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish** xususiylashtirish mulkdan tashqari davlat mulki hamda boshqa nodavlat mulk shakllarini vujudga keltirishdir. U davlat korxonalarini hissadorlik jamiyatiga aylantirish; davlat korxonasini sotib, jamoa mulkiga aylantirish; mulkni qiymatiga qarab chiqarilgan cheklarni bo'yicha fuqarolarga bepul berish, ayrim davlat korxonalarining chet el firma va fuqarolariga sotish yoki qarz hisobiga berish va shu kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish sharoitiga qarab pulli, yoki imtiyozli tarzda o'tkaziladi. O'z shakli va usulidan qat'iy nazar bu tadbir xilma-

li mulkchilikning vujudga keltirishni ta'minlaydi.

**Xususiylashtirish** – bu davlat mulkiga egalik qilish huquqini davlatdan xususiylashtirish shaxslarga o'tishidir. Uning 1-modeli mavjud:

Xususiylashtirishning **1-modeli** mulkni barcha aholiga bepul tarzda barobar taqsimlanishi. Bunday ommaviy xususiylashtirishdan maqsad qisqa muddat ichida cheklarni korxonaning joriy etish hisobiga mulkdorlarning keng ko'lamini tashkil etish bo'lib, uni xususiylashtirishning vaucherli (vaucherli) modeli deyiladi. U Rossiyada qo'llanilgan.

**2-model** korxonalar mulkini uning jamoasiga bepul tarzda o'tkazish bo'lib, uning e'tiborli tomoni shundaki, korxonalar mehnat qiluvchi jamoa ixtiyorida bo'ladi, bu esa mehnat jamoasi va korxonaning ishlab chiqarish yo'nalishini saqlab qolishga sabab bo'ladi.

**3-model** – mulkni qisman yoki to'liq tarzda sotib olish. Buning afzallik tomoni uning mulkdorda haqiqiy xo'jayinlik hissi, ma'suliyati kuchayib, boqimandalik kayfiyati yo'qoladi, davlat byudjetiga ham mulkdorga ham foyda beradi. Bu model davlat mulkining aholining ijtimoiy himoyalangan qismiga bepul yoki imtiyozli tarzda o'tkazishni istisno etmaydi. Bu model O'zbekistondagi xususiylashtirish dasturining asosini tashkil etdi va xususiylashtirish jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi.

**Birinchi bosqich** – 1992-1993 yillarda amalga oshirildi. Bu vaqtda deyarli barcha uy-joylar xususiylashtirilib, qishloq xo'jaligidagi har bir xonadonga yer ajratildi. Savdo, maishiy xizmat, mahalliy sanoatdagi kichik va o'rta korxonalar sotildi va hissadorlarga bo'lib berildi.

**Ikkinchi bosqich** – 1994-1995 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda minglab yirik va o'rta korxonalar aksionerlarning mulkiga aylantirildi.

**Uchinchi bosqich** – 1996 yildan boshlangan. Bu bosqich yakunlovchi xususiylashtirishga ega bo'lib, bu davrda

xususiylashtirilmagan ob'ektlar ro'yxatiga kirmasdan barcha ob'ektlar va korxonalar davlat tasarrufidan chiqariladi.

Biz shu narsani aniq, ravshan anglab olishimiz kerak: xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish iqtisodiy islohot natijasi bo'lmay, uning yo'nalishlaridan biri, amalga oshirishning eng muhim yo'llaridandir. Mulkdagi shakllari turlicha bo'lgan korxonalar o'rtasidagi raqobatchilikni kurashi ularni ishlab chiqarishning, boshqarishning iqtisodiy tashkiliy tizimlarini takomillashtirishga, texnika bilan qurollantirishga fan va texnika sohasidagi yangi yutuqlarni qo'llashga moyil bo'lishiga, kam sarf-xarajat qilgan holda yanada yuqori sifatli va eng arzon narxda mahsulot ishlab chiqarishga undaydi. Pirovard natijada bu iqtisodiy va ilmiy texnikaviy taraqqiyotning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Mulk turlariga qarab, ayrim davlatlar iqtisodiy resurslardan qanday foydalanishni o'zlarining imkoniyatlaridan kelib chiqqan hal qilish jamiyat iqtisodiy tizimining xususiyatlaridan kelib chiqadi.

**Iqtisodiy tizim** — jamiyat oldida turuvchi iqtisodiy muammolarni hal etish usullari, mexanizmlari va vositalari yig'indisidir. Insoniyat jamiyati vujudga kelganidan boshlab iqtisodiy tizimning to'rt xili vujudga kelgan va shu kungacha ham amal qilib kelmoqda. Iqtisodiy tizimning eng oddiy tizimi **an'anaviy iqtisodiy tizim** hisoblanadi. Bunday iqtisodiy tizimlar sust rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda mavjud. Bunday jamiyatlarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlar odatda o'n-larcha va yuzlarcha yillar mobaynida o'zgarishsiz qoladi. Xullas, an'anaviy iqtisodiyotda ishlab chiqarish g'oyat sekin o'zgaradigan urf-odatlar bilan belgilanadi.

An'anaviy ishlab chiqarish oddiy takror ishlab chiqarishga mos tushadi.

Iqtisodiy tizimlardan yana biri **ma'muriy buyruqbozlik tizimi** bo'lib, unga sobiq ittifoqdagi, hamda socialistik tizim bo'lgan davlatlarni kiritish mumkin. Ammo u socialistik tizim hisoblanmasa, uning iqtisodiyoti aralash iqtisod hisoblanadi.

Ma'muriy buyruqbozlik tizimining asosiy xususiyatlari mulkdagi umumiy ekanligi va ishlab chiqarish natijasida ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlarning markazdan turib taqsimlanishi, mulkdagi bo'g'inlarida iqtisodiy mustaqillikning mavjud bo'lmashidir.

**Aralash iqtisodiy tizimda** davlatning iqtisodga ta'sirini inkor etmaydi. Bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda aksariyat iqtisodiy yechimlarni bozor belgisida, davlatda davlatning roli tobora oshib bormoqda.

Bozor bilan davlat ishtirokining qo'shiluvi asosida shakllangan iqtisodiy tizimni aralash iqtisodiyot deb atash imkonini beradi.

**Bozor iqtisodiyoti tizimida** mulkning ko'p qismiga bozor mayda mulk egalari egalik qiladi.

Mulk shakli rivojlangan sari sof bozor iqtisodiyotidan aralash iqtisodiy tizimga o'tiladi. Hozirgi davrdagi bozor iqtisodiyoti tizimi har xil modellarning ko'rinishini o'zida ifodalaydi. Bu modellar har bir davlat iqtisodiyotining xususiyatlarini ifodalaydi.

Shuning uchun ham bu modellar davlatlarning nomlari bilan ataladi: Janubiy Koreya, Germaniya, Turkiya, Amerika, Yaponiya, Shveysariya, O'zbek modeli va hokazolar.

Turkiya modeli iqtisodiyotning rivojlanishida mayda va o'ziga biznesning rivojlanishiga, Amerikada erkin tadbirkorlik va mehnat unumdorligiga, Yaponiyada ommaviy oliy ma'lumotni oshirishga, O'zbek modelida aholini ijtimoiy himoyalashga urg'u berilishi va o'ziga xos bo'lgan bir qator xususiyatlar bilan farqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi mulkchilik shakllari bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mulkchilik masalasini hal qilish bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat

qiladi», degan edi.<sup>12</sup>

Respublikada davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish davlat belgilangan dastur asosida amal oshirilmoqda.

Davlat dasturi asosida davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish respublikada pulli va pulsiz xususiylashtiriladigan mulkda fuqarolar o'z ulushlarini olishlarini ta'minlash, shu jarayonning borishida fuqarolar huquqlarining tengligini ta'minlash, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tadbirlarini amalga oshirish ustidan davlat va jamoat nazorati asosida, monopoliyaga qarshi qonunlar talablari asosida amalga oshirilmogda.

### Asosiy atama va tushunchalar

Mulk, mulk sub'ektlari va ob'ektlari, mulk munosabatlari, huquqiy va iqtisodiy munosabatlari, mulk turlari, davlat mulki, jamoa mulki, xususiy mulk, shaxsiy mulk, aralash mulk, iqtisodiy tizim, ma'muriy buyruqbozlik tizimi, bozor iqtisodiyoti tizimi, aralash iqtisod tizimi, davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish.

## 4-mavzu. TOVAR VA PUL MUNOSABATLARINING YUZAGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

### 1. Tovar ishlab chiqarish. Tovar va uning xossalari.

Bu mavzuni o'rganishni avvalo tovar-pul munosabatlari nimaligini bilib olishdan boshlash lozim. Tovar-pul munosabatlari bozor iqtisodiyotining mohiyatini tashkil etuvchi munosabatlari: tovar ishlab chiqarish, tovarlarni ayirboshlash va pul muomalasiga xos munosabatlarning yaxlitligidir.

«Bozor» - bu tovar-pul munosabatlari amalga oshadigan ayirboshlash joyi ekanligi sababli, u tovar ishlab chiqarish va

<sup>12</sup> Karimov I. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1995. 43b.

muomalasi rivoj topgandagina amal qiladi. Bu bir-biriga bog'liq jarayon hisoblanadi.

Bozor, bozor mexanizmlari orqali iqtisodiy sub'ektlarning munosabatlarini tartibga soladi. Bozor iqtisodiyotni rivojlantirishni yo'nalishlarini ta'minlash bilan birga uning muammolarini o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi.

Xo'jalik, tovar ishlab chiqarish qachon vujudga kelgan? Iqtisodiy jamiyatning rivojlanishida tovar ishlab chiqarishdan iste'molga natural ishlab chiqarish mavjud bo'lgan. Iqtisodiy jamiyatning shakllari va modellari mavjud bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiy jamiyat tarixiy davr mobaynida xo'jalik yuritishning umumiy shakli - natural va tovar xo'jaligi saqlanib qolmoqda.

Natural ishlab chiqarish tarixan rivojlanayotgan jamoa muomalasida mavjud bo'lgan, ammo u hozirda ham primitiv muomalasidagi an'anaviy iqtisodiy tizimlarda mavjud bo'lishi mumkin. Natural xo'jalikda mahsulotlar bozorda sotish uchun emas, balki, xo'jalikning o'zida, uning xodimlari va yaratuvchilari iste'mol uchun ishlab chiqarilgan. Natural ishlab chiqarishda iqtisodiyotni tashkil etishning asosiy muammolari juda sodda bo'lgan. Bunda hal etilgan. Nima yaratish, qanday yaratish va mahsulot kimga mo'ljallanganligini xo'jalik xodimlari faqat xo'jalik ichidagi iste'molni hisobga olgan holda aniqlaganlar.

Natural ishlab chiqarish alohidalashgan xo'jaliklardan iborat bo'lgan. Bu esa, natural ishlab chiqarishga chegaralanganlik xos ekanligini ko'rsatadi va iqtisodiy jarayonlarni bir doirada ishlab chiqarish va iste'mol doirasida olib borilgan tashqi aloqalar bo'lmagan. Natural xo'jalikda, iste'mol mahsulotlarni topishdan tortib, mahsulotni tayyor holga keltirishgachan bo'lgan ishlarni alohida xo'jaliklarning o'zi bajaradi. Ishlab chiqarish qo'l mehnatiga asoslangan. Bu esa natural xo'jalikka bir qancha asrlar davomida universal qo'l mehnati xos bo'lganligini ko'rsatadi.

Natural ishlab chiqarishda iste'mol hajmi bilan ishlab chiqarish hajmi birmuncha muvofiq kelgan: bu esa o'z muomalasida bir-biri bilan bog'lash muammosini osonlashtirgan. Chunki, natural xo'jalikka ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasida iqtisodiy aloqalar xos bo'lgan, ular «ishlab chiqarish, taqsimot,

iste'mol» ketma-ketligi bo'yicha ro'y bergan.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanib borishi natijada natural ishlab chiqarishga nisbatan ishlab chiqarish unumdorligining o'sishiga mukammalroq ishlab chiqarish vositalarini qo'llashga sharoit yaratadigan tovar xo'jaligi vujudga kelgan, uning kurtaklari rivojlanayotgan jamiyat tizimining yemirilishi davrida vujudga kelgan.

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan uning ishlab chiqarish jarayonida ham o'zgarishlarni amalga oshirish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov: «O'zbekiston iqtisodiyotining bir tomonlama – xomashyoviy yo'nalishiga qat'iy barham berish..., respublika aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, ayniqsa, bolalar va katta yoshdagilarga mo'ljallangan tovarlarga bo'lgan birinchi navbatdagi ehtiyojlarni ta'minlash..., qishloq xo'jaligi xomashyosi va mineral resurslarni chuqurroq qayta ishlash, raqobatga bardoshli tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan texnologik siklni tugallanganligi darajasini oshirish..., eksportni kengaytirishga qaratilgan strategiyani faol qo'llanish bilan bir qatorda importning salmog'ini qisqartirishga qaratilgan siyosatni izchillik bilan o'tkazish..., iqtisodiyotda moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan chuqur strukturaviy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish zarur», - degan edi.<sup>13</sup>

Shunday qilib, tovar ishlab chiqarish deganda, mahsulotni bozor uchun, ya'ni uni pul vositasida oldi-sotdi qilish uchun yaratilishini tushunish kerak. Tovar ishlab chiqarishning paydo bo'lishi tasodifiy hol emas, balki qonuniy zaruriyatdir. Tovar ishlab chiqarish ob'ektiv tarzda ikki asosga tayanadi, ya'ni uning ikki zaruriyat yuzaga chiqaradi:

1. Mehnatni taqsimoti – bunda mehnat turlari ixtisoslashadi, ilgari bir necha xil mahsulot ishlab chiqaruvchilar, keyinchalik, mahsulotning ayrim turini ishlab

<sup>13</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. 53-54. 147. 187 betlar.

chiqarishga moslashadi. Shunday sharoitda ehtiyojni qondirish uchun o'z mahsulotini ayirboshlash zarur bo'ladi. Ayirboshlash uchun esa mahsulot bozorga olib chiqiladi va sotiladi.

2. Ishlab chiqaruvchilarning bir-biridan alohidalashuvi va mustaqil faoliyat yuritishi. Bunda mahsulot ishlab chiqaruvchi mulkdor bo'lishi zarur. Mahsulotni o'z bilganicha tasarruf etish unga erkin ayirboshlash huquqini beradi, chunki o'zganing mahsulotini ayirboshlash mumkin emas.

Tarixdan ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilik shakliga asoslangan tovar ishlab chiqarish xo'jaligining 3 xil ko'rinishi mavjud:

a) oddiy tovar xo'jaligi, bunda mulk egasi, (hunarmand, dehqon) tovar ishlab chiqarishda o'z mehnatiga asoslangan bo'lib, oddiy mehnat qurollaridan foydalaniladi;

b) yollanma mehnatga asoslangan tovar xo'jaligi; bunda ishlab chiqarishga nisbatan murakkab bo'lgan texnikalar qo'llaniladi va odamning ish kuchi sotiladi.;

v) aralash yoki umumiy mulkka asoslangan tovar ishlab chiqarilishi; iqtisodiyotda tovar ishlab chiqaruvchi bo'lib, monopolistik birlashmalar, davlat korxonalari, mayda xususiy korxonalar, mayda ishlab chiqaruvchilar maydonga chiqadilar.

Demak, tovar inson mehnati natijasida bozorda ayirboshlash uchun ishlab chiqarilgan mahsulot. Tovar moddiy shakldagi mahsulot bo'lishi shart emas, xizmatlar ham tovar shakliga kiradi, ya'ni u insonning ma'naviy, jismoniy ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondiradi.

Tovar ikki xossaga ega:

a) iste'mol qiymatiga;

b) qiymatga.

Tovarning iste'mol qiymati uning biror bir ehtiyojni qondira olishidir. Narsaning foydaliligi uni iste'mol qiymatiga aylantiradi va undan foydalanishda namoyon bo'ladi. Tovarning iste'mol qiymatlari har qanday jamiyat boyligining moddiy mazmunini tashkil etadi.

Tovar har doim mehnat mahsulidir; ammo tovar bo'lishi uchun bozorda ayirboshlanishi zarur, ya'ni almashuv qiymatiga ega bo'lishi kerak. Tovar qiymati tovarda mujassamlashgan

ijtimoiy mehnatdir. Tovarlar qiymati tovarlar ayirboshlanish ifoda etiladi, tovar qiymati narxining ob'ektiv asosida hisoblanadi. qiymat miqdori ayrim ishlab chiqarishni individual mehnat bilan emas, balki, ijtimoiy zaruriy mehnat sarfi, ya'ni tovarning aksariyat qismini yaratishga ketgan, ya'ni o'rtacha mehnat malakasi, mehnat shiddati va texnika darajasi sharoitida sarflangan va ehtiyojining qondirilganligi uchun jamiyat tomonidan e'tirof qilingan mehnat belgilaydi.

Tovarning iste'mol qiymati jamiyat a'zolarining ma'lum bir iste'mol talablarini qondiradi. Lekin iste'mol talablarini qondiradigan hamma narsalar ham ishlab chiqarish mahsulotlari (tabiiy boyliklar, yer, turli hayvonlar, baliqlar, suv, o'rmon va hokazolar) tovar bo'lmaydi. Ularni tovar bo'lishi ma'lum bir mehnat sarfi natijasidagina ifodalanadi. Hamma mehnat mahsulotlari va tabiiy mahsulotlar foydali va chegaraviy foydalilik xususiyatlariga ega, foydali xususiyat bu ob'ektning xususiyat bo'lib har bir iste'mol tovarida ifodalanadi.

Ammo bu mahsulotlarni foydali xususiyatlari o'zining ma'lum chegarasiga ega. Chunki, mahsulotni iste'mol qilish miqdorini o'sib borishi bilan uning foydalilik darajasi kamayib boradi. Ya'ni iste'molchi ma'lum hajmdan so'ng uni iste'mol qilmasligi mumkin. Bu «chegaraviy naflilik nazariyasi» pasayish qonuniga asoslanadi. Bu qonunni birinchi bo'lib nemis iqtisodchisi G.Gossen kashf etgan. Shuning uchun uning G.Gossen qonuni deb ham yuritiladi. Hozirgi davrda tovarlarning qiymat asosida emas, balki iste'mol qiymati asosida almashilish kerak, degan fikr ilgari surilmoqda. Bu nazariya «chegaraviy naflilik nazariyasi», deb ataladi. Bu nazariya asoschilari K.Menger, B.Bem-Baverklardir.

Agarda tovarning qiymati unga sarflangan ijtimoiy mehnat bilan o'lchansa, bu mehnatning miqdori va sifat davomiyligi qanday aniqlanadi?

Karl Marks mehnatni oddiy va murakkab mehnatga ajratgan. Oddiy mehnatlarning yig'indisini, murakkab mehnatga tenglashtirgan. Ammo bu oddiy mehnat miqdori va ko'rsatib qanday aniqlanadi? Buni u ko'rsatib beraolmagan. Mehnatning qiymat nazariyasiga binoan uning

ish bozorda aniqlanadi. Lekin naflilik chegarasi nazariyasi namoyondalarining fikriga binoan bozordagi mahsulotlarni yaratadiganlar unga qancha mehnat sarflanganligiga qarab emas, balki uning naflliligiga qarab xarid qiladilar deb hisoblaydilar.


Tovar iste'mol qiymati va qiymatning birligidan iborat, ammo bu birlik ziddiyatlikdir. Bir vaqtning o'zida ikki yoqlama shakliga, ya'ni ashyoviy va qiymat shakliga ega. Tovar ishlab chiqaruvchilar pulda qiymat sifatida, sotib oluvchilar mahsulotning a'loqasida esa iste'mol qiymati sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham tovar sotilmasi qiymat sifatida ham, iste'mol qiymati sifatida ham tan olingan bo'ladi. Ushbu ziddiyat tovarlarning kerakligicha sifatli va arzon ishlab chiqarilishi orqali yechiladi.

Tovarning ikki xossasiga sabab, unda gavdalangan mehnatning ikki yoqlama xarakterga ega ekanligidadir. Har bir shaharda olingan tovarda nafli mehnat mujassamlashgandir. Masalan: kostyumda- yigiruvchilar, to'quvchilar, tikuvchilar, munda - novvoy, traktorchi, kombaynchi va boshqalar. Agar har bir aniq iste'mol qiymatida, masalan: kostyumda ma'lum nafli aniq mehnat gavdalansa, uning qiymatida ish kuchi sarfi sifatida umuman sarf qilingan inson mehnati gavdalanadi.

Aniq mehnat turlari bir-biridan farq qiladi. Masalan: tikuvchining mehnati novvoyning mehnatidan farqlanadi, chunki, birinchisi kostyum yaratadi, ikkinchisi esa non, inson mehnatning umuman sarflanishi nuqtai nazaridan, ya'ni insonni jismoniy ma'naviy nuqtai nazaridan tikuvchi va novvoy mehnati bir xildir, ya'ni u abstrakt mehnatdir.

Demak, tovarda gavdalangan mehnat ikki yoqlama xarakterga ega. Birinchisi aniq mehnat. Qanchalik u xilma-xil bo'lsa, shunchalik jamiyatning boyligi ko'p bo'ladi. Ikkinchisi, umuman insonning mehnati va aqliy energiyasining sarfi abstrakt mehnatdir. Aniq mehnat tovarning iste'mol qiymatini yaratadi. Shuningdek, ishlab chiqaruvchi mehnatning ikki yoqlama xarakterga ega ekanligini tovar xo'jaligiga xos bo'lgan asosiy ziddiyat, ya'ni xususiy va ijtimoiy mehnat o'rtasida ziddiyat bilan ifodalanganidir. Bir tarafdin, tovar ishlab chiqaruvchining mehnati, uning iqtisodiy alohidalashganligi sababli, uning shaxsiy ishi

hisoblanadi. Ikkinchi tarafdin, har bir alohida tovar ishlab chiqaruvchining mehnati u yaratgan tovarga ehtiyoji bo'lgan boshqa insonlar uchun kerakli hisoblanadi va shu nuqtai nazar u ijtimoiy xarakterga ega va tovarning qiymatini yaratadi. Tovarning ikki xossasi va unda gavdalangan mehnatning ilmiy yoqlama xarakterini quyidagicha ko'rsatish mumkin:



## 2. Pulning vujudga kelishi, mohiyati va vazifalari

Biz bilamizki, sog'lom pul tizimisiz iqtisod rivojlanmay olmaydi. Shu bois qadr-qiymat muammolari insoniyat e'tiboridan talab etib kelgan. Pulning kuchli yoki kuchsizligi qisqa vaqt mobaynida iqtisodiyotni tiklashi va aksincha, vayron qilishi mumkin. Pul siyosatini bilmaslik, uning nozik qirralari tushunmaslik esa har qanday faoliyatning parokandaligiga olib kelishi, noxush voqealarni keltirib chiqarishi mumkin.

Pulning «kuchini» bilish nafaqat amaliy faoliyat uchun, balki ijtimoiy ish bilan shug'ullanmaydigan kishilar uchun ham zarur chunki ular ham iste'molchi bo'lib, maydonga chiqadilar, pul topadilar, uni sarflaydilar, oila byudjetini yuritadilar. Umumiy bo'lganda, pul munosabatlariga kirishmay yashaydigan birorta odam yo'q.

Demak, pul shunday kuchga ega bo'ladi, u ijtimoiy qiymatga ega hamma tovarlarni xarid etish vositasi bo'lib, xarid qiladi. Pul tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonida iste'molchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifoda etadi. Bu sababli tovar – pul munosabatlari paydo bo'ladi.

Mohiyatan pul ijtimoiy mehnat va qiymatni bildiradi. Pulning vujudga kelishi uchun ijtimoiy mehnat qaysi sohada sarflanganligi va qiymat qayerda yaratilganligi farqsizdir. Kimning puli bo'lsa, u ijtimoiy

mehnatning tegishli qismini o'zi istagan natural (tovar) shaklida yoki qiymat shaklida olish huquqiga ega bo'ladi. Pulning hamma munosabatlari qudratliliigi ham shundan kelib chiqqan.

Pul tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning uzoq vaqt rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Birinchi, yirik mehnat taqsimoti, ya'ni chorvachilikdan dehqonchilikning ajralib chiqishi va shu munosabat bilan tovar xo'jaligining rivojlanishi tufayli mahsulot qiymatining ekvivalent ifodasi bo'lmish pulni keltirib chiqardi.

Pulning vujudga kelish jarayonini qiymatning quyidagi shakllari bilan bog'lash mumkin:

1. Qiymatning oddiy yoki tasodifiy shakli;
2. Qiymatning to'la yoki kengaygan shakli;
3. Qiymatning umumiy (ekvivalent) shakli;
4. Qiymatning pul shakli.

Qiymatning oddiy yoki tasodifiy shakli tovar ishlab chiqarishning dastlabki davrlariga to'g'ri kelgan. Dastlabki tovar pulsiz bir-biriga bevosita ayirboshlangan. Bu ayirboshlash tasodifiy shaklda bo'lgan.

Tasodifiy deyilishiga sabab, birinchidan, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida mahsulotlarni ayirboshlash tasodifiy holatda yuz bergan. Ikkinchidan, tasodifiy almashuv jarayonida bir mahsulotning egasi uchun uni iqtisodiy ahamiyati bo'lmagan, tasodifiy ayirboshlash jarayonida mehnat mahsulining faqat tovarga aylanganligini ifodalaydi. Ayirboshlash jarayonida iste'molni qondirish birinchi darajali masala bo'lgan tovarlar qiymatini taqqoslashga esa, ikkinchi darajali masala sifatida qaralgan.

Dehqonchilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqishi natijasida muomalada tovarlarning xilma-xil turlari paydo bo'ladi. Ayirboshlash doirasi yanada kengayadi. Tovar ayirboshlash rivojlanishi bilan tasodifiy qiymat shaklidan to'la yoki kengaygan almashuv qiymat shakliga o'tilgan. Bunday ayirboshlashda bir tovarga qarama-qarshi faqat bitta tovar emas, balki ko'p tovarlar almashuvda ishtirok etadi. Misol uchun, sudanliklarda tuzga quyidagicha tovarlarni ayirboshlangan:

$$10 \text{ qop tuz} = \left\{ \begin{array}{l} 10-15 \text{ bosh qo'y} \\ 20-30 \text{ bosh echki} \\ 2 \text{ bosh buqa} \end{array} \right.$$

Kengaytirilgan almashuv qiymat shaklda nisbiy qiymatdagi turgan tovarga (10 qop tuzga) necha tovar ayirboshlanyapti, ya'ni tuz – echki, qo'y, 2 bosh buqada o'z qiymatini ifoda etyapti. Bunda o'z qiymatini boshqa tovarda ifodalayotgan tuz nisbiy shaklida, qolganlari esa iste'mol etuvchi material bo'lib xizmat qiladi va ularning qiymati ekvivalent qiymat shaklida bo'ladi. Ammo, ikki tovarning iste'mol qiymati, ularning foydaliligi turlicha bo'ladi, aks holda ular ayirboshlanmaydi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan ayirboshlanadigan tovarlar soni ham ortib boradi, ayirboshlashdan murakkab holat vujudga keladi. Biror bir tovar sohibi ushbu tovarni iste'moliga zarur bo'lgan boshqa bir tovarga ayirboshlashi uchun, avvalambor o'zining tovariga ehtiyoji bo'lgan boshqa bir iste'molchini topmog'i kerak bo'ladi.

Masalan: kosib etikni donga ayirboshlamoqchi bo'lsa, bug'doy sohibining iste'molini qoldirish uchun ketmon darko bo'lsa, u holda etikdo'z etikni ketmonga, so'ngra esa ketmonni bug'doyga ayirboshlashi lozim. Qiymatning bunday shakli asosida tovar ayirboshlash orqali o'sayotgan ehtiyojlarini qondirish bo'lmaydi, binobarin ayirboshlash murakkablashib, uning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Asta-sekin tovarlar orasidan hamma tovarlarga ayirboshlana oladigan va hamma tovarlar qiymatini o'zida ifoda eta oladigan umumiy ekvivalent qiymatiga ega bo'lgan maxsus tovar ajralib chiqadi. Bu tovar har bir hududda iste'mol uchun zarur bo'lgan hisoblangan. Tovarlarni dunyosidan chiqqan maxsus tovar qolgan barcha mahsulot uchun umumiy ekvivalentga aylanadi.

Almashuv qiymatning kengayishi umumiy ekvivalent qiymat shaklini vujudga keltirdi. Endi ular o'z qiymatini yagona shakldagi tovar qiymatida ifoda etadi.

$$\left. \begin{array}{l} 1 \text{ qop bug'doy} \\ 10 \text{ kg choy} \\ 40 \text{ kg qahva} \\ 0,5 \text{ tonna temir} \\ 1 \text{ unsiya oltin} \end{array} \right\} = 10 \text{ bosh qo'y}$$

Bu erda umumiy ekvivalent vazifasini tovarlardan faqat biri, ya'ni 10 bosh qo'y bajargan. Endi barcha tovarlarning qiymati bu tovarda ifodalanadi, bu tovar ijtimoiy manfaatning bevosita ifodasi sifatida yuzaga keladi. Demak, umumiy ekvivalent bo'lgan tovar hamma mahsulotlarga ayirboshlash mumkin bo'lgan vazifasiga ega bo'ladi.

Mahsulot ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonining taraqqiyotida rivojlanib borishi, hududlar, mamlakatlar o'rtasida savdo-sotiqning, tovar ayirboshlashning zaruriyatini yuzaga keltiradi. Turli mamlakatlarda turli tovarlar umumiy ekvivalent bo'lmaganligi bu jarayonning taraqqiy etishiga to'sqinlik qiladi.

Natijada butun tovarlar dunyosidan shunday tovar ajralib chiqadi, u barcha hudud va mamlakatlarda umumiy ekvivalent bo'lgan qo'llanila boshladi. Bu vazifani qimmatbaho metallar, masalan mis va kumush, keyinchalik esa oltin bajaradigan bo'ldi. Shunday qilib, oddiy tovar ko'rinishidagi umumiy ekvivalent tovar dunyoga keldi.

$$\left. \begin{array}{l} 1 \text{ qop bug'doy} \\ 10 \text{ kg qo'y} \\ 40 \text{ kg choy} \\ 40 \text{ kg qand} \\ 0,5 \text{ tonna temir} \end{array} \right\} = 2 \text{ unsiya oltin}$$

Hunda oltin tovar emas pul ko'rinishini oladi. Pul shaklidagi umumiy qiymat quyidagilar bilan farq qiladi. Birinchidan, umumiy ekvivalent faqat bitta tovar tanho bajaradi. Ikkinchidan, umumiy ekvivalentlikni bajaruvchi tovar tor ichki bozordan chiqib, tovarlalararo miqyosda tarqaladi.

Pulning iqtisoddagi rolini u bajaradigan vazifalarda ko'rish mumkin. Ular quyidagilar:



**-Qiyrat o'lov** – pul umumiy ekvivalent bo'lmish tovarlar to'lov sifatida qabul qilinadi, u o'zida mehnatni mujassamlashtiradi va shu sababli tovarlar qiymatini o'lov oladi. Pulda ifodalangan tovar qiymati esa bu – narx. Tovarning qancha turishini pul bilan belgilab, uning qiymati so'm, 10 dollar, 50 dinar, 20 evro turadi, deb aytamiz. Buyumlarning og'irligining, eni, bo'yi metr bilan o'lovchaniqatidagi ularning narxi pul bilan o'lovchaniqatidagi. Har bir mamlakatning o'lovchaniqatidagi qiymat o'lovchaniqatidagi bor – bu uning pulidir. AQShda dollar, Angliyada funt sterling, Turkiyada lira, Germaniyada evro, Saudiya Arabistonida riyol qabul qilingan va h.k.

**-Muomala vositasi** va ayirboshlash vositasi. Pul oldi-sotildi ishlatiladi. Pul yordamida tovarni xarid etish, pulga tovar ayirboshlash (P-T) yoki tovarni sotish, pulga ayirboshlash (T-P) yuz beradi. Pulni ishtirok etganda, tovar ayirboshlash tovar muomalasi shaklini oladi.

**-Jang'arma vositasi.** Bu pulning jamlangan boylik shaklini kirib, o'z egasi uchun kerak paytida xarid etish vositasi bo'lgan xizmat qila olishidir. Pul – qog'oz yoki tanga bo'lgani uchun boylik emas, balki o'zida mehnatni mujassamlashtirgani, uning hamma narsani xarid etish yoki uni jamlab saqlash mumkin bo'lgani uchun boylik hisoblanadi.

**-To'lov vositasi.** Nasiyaga sotilgan tovarlar va xizmatlar haqini to'langanda, qarz qaytarilganda, pul to'lov vazifasini bajaradi.

**-Jahon puli.** Dunyo bozoriga chiqilganda, qiymatini baynalmilal o'lovchoviga, xalqaro xarid va to'lov vositasi aylanganda, bu vazifalarni jaxon puli bajaradi.

Hozirgi pul nazariyalarida pulning to'lov vazifasi muomala vositasi bilan qo'shib yuborilgan, oltin qiymatlar shaklidagi jahon pullari bekor qilingan. Ammo jahon pullari vazifalarini ayirboshlash qadirlari valyutalar bajarmoqda. Pulning so'ngi vazifasi – to'lov vositasi va jahon pullari vazifalarini amalda yo'q deb qaralmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda pulning muomala mohiyatini aytib o'tishimiz mumkin:

- hamma narsaga ayirboshlanadigan muhim xarid vositasi,
  - boylik timsoli,
  - mehnatni qiymat shaklida o'lovchab beradigan vosita.
- Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitoblarda muomala

valyutalarda amalga oshiriladi. Milliy iqtisodning jahon iqtisodiga bog'lanishi pulning qadrini oshirilib borilishiga bog'liq. Pulning qadrini qanday oshirish mumkin? Pulning qadrini oshirish tovarlardan biri muomalaga chiqarilayotgan pul miqdorini davlat tomonidan tartibga solinishiga bog'liq. Pulning qadrligi bo'lishi muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoriga bog'liq.

Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini quyidagi formula asosida aniqlash mumkin:

$$P_m = \frac{Tb - K + T - O_k}{A_T};$$

- hunda  $P_m$  – muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori;  
 $Tb$  – sotilgan tovarlarning umumiy baxosi miqdori;  
 $K$  – kreditga sotilgan tovarlarning umumiy qiymati;  
 $T$  – to'lov muddati etgan tovarlarning umumiy bahosi;  
 $O_k$  – o'zaro bir-birining o'rnini qoplaydigan tovarlar;  
 $A_T$  – pul birliklarining o'rtacha aylanish tezligi.

Ammo bu formula ma'lum kamchiliklarga ega. Bu formulada pulni chiqarish harajatlari e'tiborga olingan holda muomala muomaladagi harajatlar o'z ifodasini topmagan. Hozirgi kunda muomala olimlar amerikalik olim I. Fisher tavsiya etgan formula asosida muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlamoqdalar.

$$MV=RQ$$

- hunda  $M$  – pul massasi;  
 $V$  – aylanish tezligi;  
 $R$  – tovar bahosining darajasi;  
 $Q$  – muomaladagi tovarlarning miqdori,

$$\text{Yoki } M = \frac{RQ}{V}$$

Formulaga binoan pulning qiymati uning miqdoriga teskari bog'lanish ekanligini ko'rish mumkin. Bu erda gap asosan pulni chiqarilgan tovarlarni va turli ijtimoiy xizmatlarni pulga

aylantirish bilan bog'liq harajatlar e'tiborga olinishi ham ko'rinadi. Bu harajatlarga ishlab chiqarish, tovarlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan zaruriy axborotlarni to'plami, bozorda salohiyatli sherkatlarni tanlash, pochta, sug'urta va boshqa harajatlar kiritiladi. Bu harajatlar transaksion harajatlar deb yuritiladi. Shuning uchun pulni vazifasini foydali tovar emas balki uni aylantirishni tezlashtiradigan qog'oz pullar bajaradi. Bozor iqtisodiyotining sharoitida transaksion harajatlarni kamaytirish mumkin. Ammo bu jarayon davlat tomonidan boshqarilsa.

Ammo Nobel mukofoti sovrindori ingliz iqtisodchisi R.Ko'zmin nazariyasiga binoan, bu muammolar davlat aralashuvisiz ham hal etilishi mumkin. Buning uchun mulkiy huquqlar aniq belgilanishi va mulkdorlar tomonidan olib borilishi to'liq kafolatlanishi kerak deb hisoblaydi. Ammo uning nazariyasi umumlashgan holda qo'llanish imkondir, deb ifodalaydi, u bu holatni aniq misollar orqali isbotlagan.

Shunday qilib, pul bozor iqtisodiyotining muhim omili sifatida tashkil qiladi. Hozirgi iqtisodiy hayot, xususan, bozor iqtisodiyotining pul bilan bog'liq. Respublikamiz siyosiy jihatdan mustaqillik erishganidan so'ng, bir qator muammolarni hal qilish kerak. Shulardan biri, iqtisodiy muomala vositasi bo'lgan milliy valyutani joriy etish bo'lib, 1992 yil noyabr oyidan boshlab milliy muomalaga avval so'm-kuponlar kiritib, so'ng milliy valyutani joriy etish asta-sekin, bosqichma-bosqich o'tilishi amalga oshirildi. Chunki

1. Bozor tarmoqlari, ayniqsa pul-kredit muomalasi sohasida munosabatlar hali mukammal emas edi.

2. MDH doirasida har xil valyutalar muomalada bo'lgan holda paytda pulning bu sharoitga moslashishi va uning qiymatini aniqlaydigan vaziyat vujudga kelishi zarur edi.

3. Milliy pulga bosqichma-bosqich o'tish ijtimoiy talofatlarni kamaytiradi.

1994 yil 1 iyuldan boshlab, milliy pulimiz so'm muomalaga kirib keldi. Endi u milliy valyuta – o'zbek puli sifatida dollar, evro, funt sterling kabi iqtisodiy hayotga mustaqil qadam qo'yish uchun ular bilan tenglashishi va dunyodagi qudratli valyutalardan biri sifatida aylanishi lozim.

Prezidentimiz I.A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 14 sessiyasida so'zlagan nutqida bu xususida

degan edi: «So'mning belini baquvvat qilish uchun, bozorimizni keng iste'mol mollari bilan ta'minlash, buning uchun esa hamma imkoniyatlarni ishga solish

bozor mollarni mamlakatning o'zida ishlab chiqarish uchun, bo'lsa, ikki-uch yilga barcha imtiyozlarni beraylik, qonun va farmonlarni qabul qilaylik...»<sup>14</sup>.

Respublikada iqtisodiyotni mustahkamlash va so'm qadriini oshirish borasida katta ishlar olib borilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulkka asoslangan ishlab chiqarish jarayonida pul munosabatlari talab va taklif, pul muomalasi, qiymat muomalasiga asoslangan holda olib boriladi.

Bularning ichida tovar-pul muomalasini to'g'ri tashkil etishda qiymat qonuni asosiy vazifani bajaradi.

Qiymat qonuni talablaridan kelib chiqqan holda, pul muomalasi qonuni asosida muomala uchun zarur bo'lgan pul muomalasini ajratiladi.

Shuning uchun bozor iqtisodiyotining asosiy qonunlaridan biri qiymat qonunini ko'rib chiqamiz.

#### 4. Qiymat qonuni

Jamiyat a'zolarining iste'mol talablarini va ijtimoiy ishlab chiqarish zarur bo'lgan ishlab chiqarish iste'molini qondiradigan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar ma'lum bir qiymatga ega bo'ladi. Ularning qiymati mehnat bilan ifodalanadi.

Mehnat sarflari jonli va buyumlashgan mehnatga bo'linadi. Mehnat inson mehnati va uning tadbirkorlik mohirligidir. Mehnat qanchalik ishlab chiqarishni mohirlik bilan olib borsa, u ishlab chiqarayotgan mahsulot – tovar shunchalik kam harajatli bo'ladi. Ishchi kuchining qiymati ishchining va uning oila a'zolarining tirikchilik ne'matlarining yig'indisidan iborat bo'ladi.

Ishchi kuchi maxsus tovar, uning mehnat qilish natijalarini undan ajratib olish mumkin emas. Shuning uchun ishchi kuchi tovar hisoblanadi. Ishchining qiymati uning

<sup>14</sup> Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 14-sessiyasida so'zlagan nutqi «O'zbekiston ovozi», 1993 yil, 30 dekabr.

mehnat qilish qobiliyatiga, mehnat unumdorligiga bog'liq omillarni o'sishi ishchi kuchi qiymatini pasayib borishiga keladi, chunki unga talab pasayadi.

Ishchi kuchi qiymatiga ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanish darajasi, uning madaniyati, tabiiy iqlim sharoitlari, kuchining bilim olish darajalari, kasbiy mahoratlari ishchi kuchi sug'urta qilish darajalari ham ta'sir etadi.

Buyumlashgan mehnat ishlab chiqarish qurollarida xomashyolarda ifodalanadi. Albatta, ularning qiymati qancha arzon bo'lsa, yoki mehnat unumdorligi yuqori bo'lsa, buyumlashgan mehnat sarfi shunchalik kam bo'lishi va tovar qiymati arzon bo'lishi mumkin. Demak, tovar qiymati o'lchov mezoni mehnat ekan.

**Qiymat** – bu tovarda mujassamlashgan ijtimoiy mehnat sarfidir. Tovar ishlab chiqarishda sarf etilgan mehnat zaruriyatiga mehnatga va qo'shimcha mehnatga bo'linadi. Sababi ishchining ish vaqti ham zaruriy va qo'shimcha ish vaqtiga bo'linadi. Zaruriy ish vaqtida inson o'z mehnati bilan o'zining qiymatini, ya'ni zaruriy mehnatiga teng bo'lgan qiymatni yaratadi. Bu qiymat ishchi kuchi qiymatini ifoda etadi.

Qo'shimcha ish vaqtida esa qo'shimcha mehnat sarfi bilan qo'shimcha mahsulot ishlab chiqaradi. Bu mahsulot qo'shimcha qiymat, sof foyda tariqasida ish beruvchi tomonidan o'zlashtiriladi. Ammo tovar qiymati yakka tartibda sarf qilingan mehnat miqdori bilan emas, balki, bir turdagi tovarlarning miqdorini ishlab chiqarish uchun sarf etilgan ijtimoiy zaruriy mehnat bilan o'lchanadi.

Ijtimoiy zaruriy mehnat bilan tovar qiymatining belgilanishi ishlab chiqarish jarayonining o'sishiga, mahsulot tannarxini pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ham ijtimoiy zaruriy mehnat ijtimoiy zaruriy ish vaqti bilan o'lchanadi.

Lekin har bir ishlab chiqaruvchining ma'lum bir tovar miqdorini ishlab chiqarishga sarf etgan mehnati yakka tartibda sarf etilgan zaruriy ish vaqtini tashkil etadi. Faqatgina ijtimoiy zaruriy ish vaqti tovar qiymatini belgilaydi. Ijtimoiy zaruriy ish vaqti jamiyat ehtiyojini qondirish uchun kerak bo'lgan vaqtdir. Shu sababli bu vaqtni anglatuvchi qiymatini bozor tan oladi..

**Ijtimoiy zaruriy ish vaqti** – bu tovarlar aksariyat qismini yaratishga sarflangan vaqt bo'lib: o'rtacha texnika darajasi; o'rtacha mehnat malakasi va mahorati; o'rtacha mehnat shiddati (intensivligi) sharoitidagi sarfni bildiradi.

Qiymat miqdori mehnat sarfining ko'payishi yoki kamayishiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida mehnat unumdorligiga kerak munosibdir. Unumdorlik oshsa, qiymat kamayadi va kamayadi. Chunki, unumdorlik oshsa, vaqt birligida yaratilgan mahsulotlar ko'payadi, binobarin, har bir tovar kamroq sarflangan vaqtda ishlab chiqariladi.

Mehnat unumdorligidan farqliroq mehnat shiddati (intensivligi)ning ortishi qiymatni ham oshiradi, ya'ni unga nisbatan to'g'ri munosiblikda o'zgaradi.

Agar mehnat unumdorligi vaqt birligida yaratilgan mahsulot miqdorini bildirsa, mehnat intensivligi vaqt birligida qancha mehnat sarf bo'lganini bildiradi. Shu sababdan mehnat sarfi ham kamayadi.

**Qiymat qonuni** – tovar ishlab chiqarish sharoitida tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida aloqalarni, ijtimoiy mehnatni muvofiqlashtirish va rag'batlantirishni tartibga soluvchi ob'ektiv iqtisodiy qonundur. Unga binoan ishlab chiqarish va ayirboshlash, tovarlarning qiymati asosida amalga oshiriladi. Bu qiymat ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan o'lchanadi. Qiymat qonuni bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan asosiy iqtisodiy qonunlardan biridir.

Bozor iqtisodiyotining eng asosiy talabi, korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotning qandirgandagina, foyda ko'rib ishlashi mumkin, aks holda u zarar beradi. Qiymat qonuni uchta muhim vazifani bajaradi: 1) ijtimoiy mehnatni hisobga olish va tartibga solish; 2) vaqtni tejashni rag'batlantirish; 3) tovar ishlab chiqaruvchilarni tabaqalashtirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qiymat qonuni ikki xil namoyon bo'ladi:

a) tovarlarning qiymati ijtimoiy zaruriy ish vaqti bilan bog'lanishga keladi;

b) tovarlarning qiymati ularning naflliligiga qarab belgilanadi.

Tovarlarning qiymatini pasaytirishdan ishlab chiqaruvchi manfaatdor bo'lsa, mahsulotning naflliligidan iste'molchi, xaridor

manfaatdor.

Bunday olib qaralsa, qiymat va naflilik nazariyasi bir-biri bilan qarama-qarshi tuyuladi.

Lekin ularning ikkisi ham tovar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, baholarni shakllantiradi, harajatlarni kamaytirishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Chunonchi, qiymat qonuni taklif tomonidan o'ziga talabni aks ettirib, talab qonuni sifatida maydonga chiqadi.

### Asosiy atama va tushunchalar

Iqtisodiy o'sish, iqtisodiy o'sish omillari, taklif omillari, ekstensiv va intensiv o'sish, iqtisodiy o'sish modeli, keynschilik modeli, neoklassik model, tarixiy-sosiologik model, V.Leontevning tarmoqlararo modeli, milliy boylik, moddiy nomoddiy boylik, tabiiy boylik.

## 5-mavzu. BOZOR IQTISODIYOTINING MOHIYATI VA ASOSIY BELGILARI

### 1. Bozor iqtisodi nazariyasi va unga o'tishning zarurligi

Jamiyat o'z rivojlanish jarayonida bir necha xil ishlab chiqarish usullarini bosib o'tdi. Lekin birortasi bozor iqtisodiyotini chetlab o'ta olmadi. Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti kabi samarali usulning muqobil turi kashf etilgan emas. Uning mohiyati, vazifalari haqida iqtisodchilar ko'plab asarlar yaratganlar.

Buyuk ingliz iqtisodchisi, «Siyosiy iqtisod» fanining «otasi» Adam Smit «Tabiat va aholining boyligini tahlil qilish» L.Valras «Sof siyosiy iqtisodning elementlari» asarlarida bozor iqtisodiyotining mohiyati va vazifalarini ma'lum darajada ochib berganlar. Adam Smit bozor iqtisodiyotining vujudga kelish sabablaridan biri sub'ektiv omil deb, bu omil kishilarning almashishga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi, deb hisoblagan.

Ob'ektiv sabab esa resurslarning cheklanganligi va kishilarning

talabning cheksizligidir deb hisoblagan.

Sobiq Ittifoqda uzoq vaqt mobaynida ishlab chiqarish vositalarining harakati moddiy texnika ta'minoti shaklida yuz berib keldi. Moddiy texnika ta'minoti bu ishlab chiqaruvchilar tomonidan iste'molchilarni bir-biriga biriktirib qo'yish asosida bozorlarni markazlashgan tartibda rejali sur'atda taqsimlashdir. Bunday sharoitda erkin raqobat, resurslarni tejash uchun hech qanday shart-sharoit bo'lmagan. Xo'jaliklarni rag'batlantirish sust bo'lgan. Boqimandalik kayfiyatining kuchayishi natijasida bozor talabini izdan chiqqan. Bunday hol esa, sobiq ittifoq respublikalaridagi kishilar turmush darajasining bozor iqtisodiy sharoitida yashayotgan davlatlardagiga nisbatan ancha orqada qolishiga sabab bo'lgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish O'zbekiston uchun ham muhim jamiyatga ega. Buni Prezidentimiz I.A.Karimov ham o'zining «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li» asosida ta'kidlab o'tgan: «Respublikaning bozor munosabatlariga o'tishida, o'z yo'lidan izchillik bilan borishi demokratik o'tishlar, respublikani, rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqish uning xalqaro obro'-e'tiborini mustahkamlash uchun asosiy moddiy negiz yaratadi», - degan edi<sup>15</sup>. Demak, bozor iqtisodiyotiga o'tish tarixiy zaruriyat tufayli muqarrar bo'lib qolgan.

Respublika iqtisodiyotining bozor iqtisodiyoti qonunlari talabi asosida rivojlanishi tufayli 2007-2008 yillar ichida aholining daromadlari 30,2 foizga ko'payib, 16872,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Shu davr ichida aholining pul harajatlari va jamg'armalari ham 30,7 foizga ko'payib 16572,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shu davr ichida pul harajatlari va jamg'armalari jon boshiga 30,1 foizga, korxonalaridan olinayotgan o'rtacha ish haqi va boshqa daromadlar 40,5 foizga<sup>16</sup> ko'paygan.

2008 yilda o'rtacha ish haqi byudjet tashkilotlarida 1,5 barobardan ziyod, butun iqtisodiyot bo'yicha esa 1,4 barobar oshdi. Natijada 2008 yilda o'rtacha ish haqi miqdori 300 dollarni tashkil etib, o'tgan 2007 yilga nisbatan 90 dollarga ko'paygan.

<sup>15</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - Toshkent: O'zbekiston, 1998. 73 b.  
<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi uchun 2007-2008 yillarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish strategiyasi» to'g'risida qarorga olingan qarori. - Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidentligi, 2007. 41-42 s.

Aholining real daromadi 2008 yilda 23 foizga jon boshiga o'sgan.

Bozor nima? – bozor tushunchasi, jamiyatning rivojlanishi bilan har xil ta'riflangan. Dastlab bozor deganda chakana savdo amalga oshadigan joy tushunilgan. So'ngra bozor deganda ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilarni uchratadigan joy tushunilgan boshlandi. Hozirgi kunda bozorni quyidagicha ta'riflash mumkin: **Bozor tovar ishlab chiqarish va muomala qonuni asosida tashkil etilgan ayirboshlashda, ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida tovar-pul munosabatlari asosida amalga oshadigan murakkab mexanizmdir.** Bozor iqtisodiyotining mohiyatini anglash uchun uning asosiy belgilarini ko'rib chiqamiz.

Bozor iqtisodiyotiga **erkinlik** xos bo'lib, uni mulkchilik shakli ta'minlaydi. Bunda iqtisodiyotda xususiy mulk, jamoat mulki va davlat mulki mavjud bo'lib, u yoki bu mulkning monopoliyasi bo'lmaydi.

Barcha mulklar teng, ular cheklanmagan holda rivojlanadi. Mulkchilikning asosini xususiy mulk tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyat erkin amalga oshadi, bir-birlari bilan olib boriladigan iqtisodiy aloqalar ham erkin bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitidagina **raqobat** kurashi amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyotida faqat raqobat emas, manfaatlar uyg'unlashgan sharoitda hamkorlik ham yuz beradi.

Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos rivojlanish mexanizmi bo'lib, u iqtisodiy qiziqishga kishilarni to'q va xotirjam manfaatlarini yuzaga chiqarishga asoslanadi. Bozor mexanizmi iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmidir.

Bozor sharoitiga xos belgilardan yana biri **erkin narxlarning** mavjud bo'lishi va hamisha narxni hisobga olib, foyda zararni nazarda tutgan holda ishlashdir.

Bozor iqtisodiyoti **taqchilsiz** iqtisod hisoblanadi. U kishilar uchun **daromadni** cheklab qo'ymaydi. Bozor jamiyat a'zolarining boyishiga imkoniyat yaratadi. Jamiyatning naqadar boy bo'lishi har bir oila, har bir kishining naqadar boy va farovon yashashiga bog'liq. Bu qoidaning yuzaga chiqishiga bozor mexanizmi xizmat qiladi, chunki u ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi kuch hisoblanadi.

Bozor kishilarga g'oyat foydali bo'lgani uchun vujudga kelgan va u uzluksiz rivojlanib boradi. Bozor ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilarni bog'lash vazifasini amalga oshiradi.

Masalan: qishloq xo'jaligi mashinalari ishlab chiqaradigan zavod o'zining mahsulotlarini dehqon (fermer) shirkat xo'jaliklariga sotadi. Undan olgan pulining bir qismini yana ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflaydi. Xuddi shunday holatni sobiq davrga misol qilib olsak, u quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan. Faraz qilaylik, qishloq xo'jalik mashinalari zavodi 100 birlikda traktor ishlab chiqargan va davlatga topshirgan.

Davlat rejasida belgilangan me'yorlar bo'yicha 100 ta kolxoz va sovxozga taqsimlangan. Agar 80-yillarda sovxoz va kolxozlarning 50% zarar ko'rib ishlaganligini hisobga olsak, 100 birlikdagi traktorning faqatgina 50%ga haq to'langan. Bunday holatda, xo'jalikning izdan chiqib ketishiga, taqchilikning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Tovar xo'jaligining bu shaklida oddiy ekvivalent almashish qonuni buzilgan.

Demak, bozor ishlab chiqarish bilan iste'molni bog'lash, kishilarga kerakli tovarlarni berish orqali ularning turmush darajalarini ta'minlashga xizmat qiladi:

-bozor mahsulotni tovar shakliga aylantirish funksiyasini bajaradi. Bozor avtomatik ravishda qanday mahsulotni ishlab chiqarish kerakligini talab va taklif qonuni asosida belgilab beradi.

Bozorda mahsulotlarning o'tmay qolishi, isrof bo'lishi ularning sifatini jamiyat a'zolari tomonidan tan olinmaganini anglatadi;

-bozor ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi texnika, texnologiyani ishlab chiqarishga jalb etish uchun imkoniyat yaratib beradi;

-bozor yordamida ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'zaro aloqasizlikdan xalotga ega bo'lalilar.

## 2. Bozor va uning turlari

Hozirgi davrdagi bozor murakkab mexanizm hisoblanadi. Har qanday tadbirkor bozorning turlari haqida bilimga ega bo'lishi kerak. Bozordagi tovarlarning xilma-xilligi, uning murakkab

tuzilishga ega ekanligini asoslab beradi.

Bozorda tovarlar emas, balki xizmat ko'rsatishlar ham taqdim etiladi. Bozorning turlari shartli ravishda quyidagi sinflarga ajratiladi. Ularning ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

#### I. Geografik joylashishiga qarab:

- mahalliy bozor – shahar yoki qishloqdagi bozorlar;
- milliy yoki ichki bozor – bu ma'lum bir davlatning bozori hisoblanadi;
- mintaqaviy bozor – bu har xil davlatlar bozori va uning birlashmalari hisoblanadi.

Masalan: Evropa iqtisodiy hamkorligi, Markaziy Osiyo mintaqasi, Arab davlatlari birlashmasi va h.k.

Jahon bozori rivojlangan davlatlar iqtisodini qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganda so'ng jahon bozoriga hissa qo'sha boshladi.

1992 yilda O'zbekistonning mahsulotlari chet ellarga 87 million AQSH dollar miqdorida eksport qilingan bo'lsa, 2007 yilda bu ko'rsatkich 3725 mln. AQSH dollarini, 2007 yilda eksport darajasi 47,5 foizni boshqa xorijiy davlatlarga 52,5 foizni tashkil etgan<sup>17</sup>

#### II. Faoliyat ko'rsatish, darajasiga qarab:

- asosiy bozor – bunda ishlab chiqarilgan tovarlarning asosiy qismi sotiladi;
- qo'shimcha bozor – mahsulotlarning birqismi sotiladi;
- samarasiz bozor – vaqtinchalik faoliyat ko'rsatadi;
- salohiyatli bozor – ma'lum sharoitdagina rivojlanib oladigan bozor;
- sust bozor – yashashi yoki yashamasligi noma'lum bozor.

#### III. Mahsulotlarning sotilish turiga qarab:

- ulgurji bozor;
- chakana bozor.

#### IV. Tovarlar bilan ta'minlash darajasiga qarab:

- muvozanatli bozor;
- muvozanatsiz bozor;
- taqchil bozor.

#### V. Qonunga qarab:

- qonuniy bozor;
- xufiya bozor.

#### VI. Raqobat kurashiga qarab:

- erkin raqobat bozori;
- monopolistik bozor;
- oligopolik bozori;
- sof monopolistik bozori.

#### VII. Tarmoq turiga qarab:

- avtomobil bozori;
- kompyuter bozori;
- samolyot bozori va hokazo.

#### VIII. Mazmuni va ishlatilishiga qarab:

**iste'molchilar bozori** – bunday bozorda ishlab chiqarish va shaxsiy iste'molchilar uchun sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari sotiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu bozor talab va taklif, qiymat qonunlari asosida faoliyat ko'rsata boshlaydi. Iste'molchilar bozori asosida, birja savdosi, barter turlari vujudga keladi. Iste'molchilar bozorini rivojlanishi uchun O'zbekistonda savdo va umumiy ovqatlanish ob'ektlari xususiy lashtirildi va erkin savdo baholariga o'tildi;

**xizmat ko'rsatish bozori** – bu bozorning rivojlanganligi, aholining moddiy ne'matlar bilan yaxshi ta'minlanganligini ifodalaydi. Xizmat ko'rsatish bozori o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi: kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish, turistik, transport vositalari bilan ta'minlash, tibbiy xizmat ko'rsatish, repetitorlik xizmati, axborot vositalari bilan ta'minlash xizmati va h.k. Iqtisodiyotning rivojlanishi bilan xizmat ko'rsatishning yangi shakllari vujudga keladi;

**uy-joy bozori** – bu bozor iqtisodiyotning o'tish davrida vujudga keladi. Ma'ulmki, bozor iqtisodiyotining birinchi bosqichida uy-joy xususiy lashtirildi. Uy-joy bozorining rivojlanishi ish kuchi migrasiyasiga ta'sir etadi. Ishchilar erkin ravishda o'zlarining ish joylarini o'zgartirish imkoniga ega bo'ladilar;

<sup>17</sup> Sosialno-ekonomicheskoe polozhenie Respubliki Uzbekistan za 2006. Tashkent, 2007. 24 s. O'zbekiston Respublikasi axborot statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

- **ish kuchi bozori (mehnat bozori).** Bozor iqtisodiy sharoitida avvalgi darslarda aytib o'tganimizdek, ish kuchi tovar hisoblanadi. Demak, ish kuchi ham sotiladi. Bozor iqtisodiyoti ish kuchini ortiqcha bo'lishini taqozo etadi;

- **investisiya bozori** – moliyaviy bozorning o'ziga xos bo'linishi hisoblanadi. Moliyaviy bozorning yana bir turlari qimmatbaho qog'ozlar bozoridir. Bu bozorda pul bilan birgalikda qimmatbaho qog'ozlar ham muomalada bo'ladi (aksiya, obligasiya, veksel, cheklar). Qimmatbaho qog'ozlar bozorini turlaridan biri – fond birjasi hisoblanadi;

- **innovasiya bozori** – innovasiyaga texnik va ijtimoiy iqtisodiy yangiliklar, ixtiro va rasionalizatorlik takliflari hamda ilmiy texnikadagi yangi yutuqlar kiradi. Ular ham bozorda tovar sifatida aylanadi.

Shu bilan birga innovasiya bozorida intellektual mahsulotlar ham sotiladi. Ularga takliflar, fikrlar, maslahat, axborot, modellar, usullar va ovozlari kiradi.

Yuqorida aytib o'tilgan bozorning turli xillari bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qilgan holda rivojlanadi. Ularning o'rtasidagi muvozanat natijasida iqtisodiy muvozanat vujudga keladi.

### 3. Bozor iqtisodiyoti va foyda

Bozor iqtisodiyoti tovarlar va turli xizmatlarning doimiy harakatlarini o'z ichiga oladi. Bozor iqtisodiyoti tartibsiz, stixiy harakatdan holi emas. Ammo u davlat tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar harakati bilan ma'lum darajada tartibga solinadi. Demak, bozor iqtisodiyotiga ta'rif bersak – bu erkin raqobat asosida tovar ishlab chiqarish, turli xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiy qonunlar asosida taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol qilish va davlat tomonidan boshqarilishi ta'minlanadigan demokratik asosda tashkil etilgan iqtisodiy majmuadir.

Respublika iqtisodiyotini bozor iqtisodiyoti asosida tashkil etish ishlab chiqarish sub'ektlarining o'zaro yaqindan iqtisodiy aloqalarini ta'minlashini va o'zaro birgalikda harakat qilishini ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyotini tashkil etish quyidagi muammolarni o'z ichiga oladi.

Jamiyat ehtiyojlarini to'liq ta'minlash uchun qanday tovarlar

ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarishning qaysi usullarini rivojlantirish, qanday ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qanday usul bilan iste'molchilar o'rtasida taqsimlashdan iborat.

Bozor muammolar korxonalar tomonidan ijobiy hal etilganda, korxonalar ishlab chiqarish jarayonida yaratgan yangi mahsulotning ichki mahsulot qiymati, ishlab chiqarishni tashkil etish uchun sarf etilgan avanslangan qiymatdan yuqori bo'ladi. Bunda korxonalar foyda olishlari mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning foyda ko'rishi korxonaga o'z mahsulotidan olgan umumiy daromadiga va ishlab chiqarish uchun sarf etilgan ishlab chiqarish harajatlari farqiga bog'liq bo'ladi.

Korxonalar ishlab chiqarish harajatlari ishlab chiqarish mahsulotlari, xom ashyo va ish kuchi harajatlari o'z ichiga oladi. Harajatlarni doimiy (S) va (V) o'zgaruvchan harajatlarga bo'linadi.

Doimiy va o'zgaruvchi harajatlar darajasi ishlab chiqarish mahsulotining narxlariga bog'liq bo'ladi. Korxonalar ishlab chiqargan mahsulotni sotishdan qanchalik ko'p umumiy daromad olsalar, korxonaning ishlab chiqarish harajatlari kamayotganligidan dalolat beradi. Erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotlarga yuqori talab bo'lgan tarmoqlar rivojlanib boradi. Korxonaning iqtisodiy samaradorligi oshib boradi.

Iqtisodiy samaradorlik deb ma'lum mahsulot hajmini eng kam harajatlar bilan ishlab chiqarish va ko'p foyda olishda ifodalaniadi. Ammo, bozor tizimining ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Bu tomonlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: «Bozor iqtisodiyoti yuqoridagi muammolarning eng maqbul yechimini topadi, ularni hal qilish mumkin emas. Ammo, hozirgi sharoitda bu savollarga qisqartirib javob topgan bozor tizimidir, demak uning ijobiy taraflari mavjud. Ikkinchi tarafdin, bozor mexanizmlarini ideallashtirish katta muvaffaqiyat bo'lar edi....»

Bozor iqtisodiyotining faqat ijobiy tomonigina emas, balki salbiy tomonini ham ko'ra bilishi kerak», degan edi<sup>18</sup>. Shuning uchun ham davlat bozorning salbiy taraflarini oldini olish uchun bozor iqtisodiyotini tartibga solishda faol qatnashishi kerak.

<sup>18</sup> Karimov I.A. «O'zbekiston o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li». Toshkent. O'zbekiston. 1992. 44 b.

#### 4. Bozor mexanizmining asosiy xususiyatlari

Bozor turli mulk shakllariga asoslangan ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasida, raqobat asosida iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Bozor mexanizmi bu ishlab chiqaruvchi sub'ektlar bilan iste'molchi sub'ektlar o'rtasida xomashyo, ishlab chiqarish vositalari, texnologiyalari va tayyor iste'mol tovarlar narxlarini shakllantirish daromadlarni olinishi, uni taqsimlanishida ifodalanadi.

Bozor sharoitida ishlab chiqarish sub'ektlari bilan iste'molchi sub'ektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tovar va xizmat shaklida to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyotini turli mulk shakllariga asoslanganligi tufayli ularni iqtisodiy mustaqil sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatishi bozor iqtisodiy mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Bu sub'ektlar iqtisodiy munosabatlarni mustaqil ravishda tanlab oladi. Iste'molchi sub'ektlar bozor sharoitida asosiy iste'mol tovarlarni xarid qiluvchi sub'ektlar sifatida ishlab chiqaruvchilarni nima uchun qanday va qancha miqdorda mahsulot ishlab chiqarishini belgilaydi. Chunki, bozor erkin raqobati shuni talab etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor mexanizmi o'zini o'z tartibga soladi. Bu tartibga solish ishlab chiqarish hajmi, sifat turlari va narxlarida ifodalanadi.

Ingliz iqtisodchisi A.Smit talab va taklif asosida bozor narxlarining shakllanishi iste'molchilar talablari asosida ko'rsatilgan ko'rinmas qullar orqali ishlab chiqarish hajmini va ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni belgilaydi deb ta'kidlaydi.

Ishlab chiqaruvchi sub'ekt mahsulotlariga iste'mol talabini qondirish bo'lgan taqdirdagina u foyda olishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotining xo'jalik faoliyatida vositachilik funksiyalari narxlarni shakllantirish, ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida axborotlar yetkazish, boshqarish, rag'batlantirish va ishlab chiqarish sub'ektlarini sog'lomlashtirish vazifalarini ham bajaradi.

Bozor tizimi murakkab tizim bo'lib, unda mustaqil, o'zining xususiyatlariga ega bo'lgan turli maqsadlar uchun xizmat ko'rsatadigan bozor yo'nalishlarini umumlashgan shaklidir.

#### 5. Bozor infratuzilmasi

Infratuzilma deganda, bozorning normal faoliyat ko'rsatishi uchun zarur xizmat ko'rsatadigan muhit tushuniladi. Bu xususida bozor tizimining I.A. Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy o'zgarishlarini chuqurlashtirish yo'lida» asarida shunday ta'kidlagan: «Bozor munosabatlarini shakllantirishini tegishli muhimsiz – tovar, xizmat ko'rsatish va mehnat resurslari bozorida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlash kerak bo'lgan bozor infratuzilmasiz tasavvur etib bo'lmaydi»<sup>19</sup>.

Bozor infratuzilmasining vazifalari: bozor sub'ektlarining o'z manfaatlarini amalga oshirishni engillashtirishi; ularning ishlari muvaffaqiyatini oshirish, bozor munosabatlarini amalga oshirishni ta'minlash va ularning ishlari ustidan huquqiy va iqtisodiy nazoratni amalga oshirish hisoblanadi.

Bozor infratuzilmasining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi:

- Tijorat bank tizimi va sug'urta kompaniyalari;
- Rivojlangan maxsus birjalar tarmog'i (tovar, xomashyo fond, sug'urta, mehnat birjalari);
- Ishlab chiqarishdagi kommunikasiya vositalari teleks, fax, uyali telefon aloqalari, rivojlangan transport vositalari;
- Nollq va bojxona tizimi;
- Konsalting kompaniyalari (iqtisodiy va huquqiy masalalar yuzasidan maslahat beruvchi malakali mutaxassislar xizmati);
- Reklama va ommaviy axborot vositalari;
- Auditor kompaniyalari va h.k.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov bozor infratuzilmasi to'g'risida shunday degan: Umuman bozor infratuzilmasi shakllantirildi.

Bank, moliya, soliq tizimlari, fond va tovar – xomashyo birjalari, sug'urta, auditorlik, kompaniyalari va boshqa bozor infratuzilmalarining yangi tarmog'i vujudga keltirildi. Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyati kuchaytirilmoqda.

<sup>19</sup> Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari». T.: O'zbekiston, 1998, 260-261 betlar.



Markaziy Osiyoda eng yirik, zamonaviy kompyuter texnika va telekommunikasiya tizimi bilan jihozlangan birja markazi tashkil topib tushirildi. Eng muhimi, bozor tuzilmalari amalda ishga boshladi»<sup>20</sup>.

Yuqorida keltirilgan shartlar bozor infratuzilmasini tashkil etib, uning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

### Asosiy atama va tushunchalar

Bozor iqtisodiyoti, bozor mexanizmi, bozor tuzilmasi, bozor ob'ekti, bozor sub'ekti, bozor infratuzilmasi, audit, konsaltlar, investisiya, innovasiya, bozorning afzalliklari, bozorning salbiy tomonlari.

## 6-mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOZOR IQTISODIYOTINING SHAKLLANISY NAZARIYASI

### 1. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning zarurligi va ularning asosiy shartlari

XX asrning oxirida jahon taraqqiyotida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Bu o'zgarish, socialistik tizimning yemirilishi natijasida sobiq socialistik respublikalarning o'z mustaqilligini erishganligidir. Shuning uchun bu davr maxsus xususiyatlarga ega davrdir. Chunki, mustaqil davlatlarning tashkil topishi nafaqat barcha mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni o'rnatish, balki rivojlangan mamlakatlar bilan ham aloqalarni rivojlantirish uchun zarur qilib qo'ydi. Lekin jahon xo'jaligiga kirib borish uchun yangi mustaqil davlatlar o'z iqtisodiyotini jahon talablariga javob beradigan tarzda tashkil qilib, rivojlantirishlari lozim.

Lekin bu juda murakkab jarayondir. Chunki, sobiq Ittifoqning hamma respublikalari singari O'zbekistonga ham sobiq Ittifoqdan batamom barbod bo'lgan iqtisod meros bo'lib qoldi. Uning hayotga layoqatli emasligi, butun iqtisodiy tizim yoppasiga davlat mulkchiligiga asoslanganligi, korxonalarining markaziy

<sup>20</sup> Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shiorlari va taraqqiyot kafolatlari». - T.: O'zbekiston, 1997, 208-209 betlar.

hukumatligi va iqtisodiy huquqlarga ega emasligi, xalq xo'jaligi markazlashirilgan tashqari monopoliyalashtirilganligi va markazlashtirilgan iqtisodiy siyosati, bozor iqtisodiyotini tartibga soluvchi omillarga va bozorni samimiy e'tiborning yo'qligi bilan asoslangan edi. Bu davrda insonga boshqaruv sohasida «vint» va iqtisodiy munosabatlar tizimida «omil» roli berilgan edi. Qisqasi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiyot o'zining oxirgi davrida bozor iqtisodiyotini chiqarishning pasayishiga olib keluvchi, tobora kuchayib borib kelayotgan iqtisodiy inqiroz, giperinflyatsiya kabi ko'pgina muammalarga zarar keltiruvchi hodisalar bilan ifodalanadi. O'zbekiston misolida olib qaraydigan bo'lsak, markazlashirilgan iqtisodiyotning manfaatlarini hisobga olmagan holda, uni xom ashyo bazasiga aylantirib qo'ygan edi.

Korxonalarining ko'pchiligi tovarni respublikada ichki bozor uchun emas, balki tashib ketish uchun ishlab chiqargan. Aksariyat korxonalarda tugallanmagan texnologik jarayonga ega ishlab chiqarish tashkil qilingan edi. Ular xom ashyoni dastlabki qayta ishlash va yarim tayyor mahsulotlarni chiqarish bosqichida to'xtab qolgan edi.

Xalq xo'jaligi tarkibining buzilishi 1990 yilda O'zbekistonning respublikalararo savdo oborotida salbiy 3,7 milliard rublni yoki yalpi milliy mahsulotning 11 foizini tashkil etgan. Shu bilan birga respublika neft va boshqa energetika mahsulotlari bilan o'zini-o'zi ta'minlash imkoniyatiga ega bo'la olmadi. 10 million tonnadan ziyod neftni chetdan olar edi.

Q'alla, qand, go'sht, sut mahsulotlari ham aksariyat chetdan olinar edi. Bularning oqibatida 1990 yilda respublika mahsulotining 70 foiziga yaqinining jami daromadlari tirikchilik uchun zarur bo'lgan eng quyi darajadan ham past edi. 2007 yilga kelib importni eksport bilan qoplanishi 169,8 foizni tashkil qilgan. Natijada aktiv savdo balansi ya'ni saldosi 3755,9 million dollarni tashkil etgan. 2007 yilga kelib, aholining pul darajalari 30,7 foizga o'sib, 16572,8 mlrd. so'mni, daromadlari esa 30,2 foizga ko'payib 16872,7 mlrd. so'mni tashkil etgan. Umumiy aholi daromadi umumiy harajatlarga nisbatan 274,2 foizga ko'p bo'lgan. Sobiq tizim davrida respublika iqtisodiyotini boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda, kambag'allik

chegarasidan ham past darajada yashashga olib kelgan edi.

Totalitar byurokratik tizim mamlakatni xomashyo bazori aylantirgan edi. Respublikaning tabiiy resurslari va ekologiya muhitiga juda ko'p miqdorda va qaytarib bo'lmaydigan darajada zarar yetkazdi. Bunga Orolning fojeasi misol bo'ladi.

Yuqoridagi va shunga o'xshash juda ko'p salbiy oqibatlarni respublikada siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltirishi natijasida 1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasi o'zini mustaqil deb e'lon qildi. Bu kundan boshlab O'zbekiston nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy mustaqillikka ham ega bo'ldi. Endi bu mustaqillikni mustahkamlash vazifasi o'z-o'zini bajarishdek ulkan va murakkab vazifa turar edi. Bu vazifa o'z-o'zini imkon qadar ijobiy hal qilishning birdan-bir yo'li respublikamiz bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida rivojlantirishdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish yagona xo'jalik yuritish tizimiga o'tish joriy etish bo'lib, insonlar uchun mutlaqo yangi hayot falsafasini yaratadi. Respublikamiz bozor munosabatlariga o'tishning hamda ichki bozor tashqi siyosiy shakllantirishning nazariy asoslari, shuningdek amaliy dasturini ishlab chiqdi.

## 2. Iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining bir qator chiqishlarida iqtisodiy islohotlarni o'tkazish tajribasini hisobga olgan holda, o'z ichiga eng asosiy tamoyillarni olib respublikamiz bozor munosabatlariga o'tishidagi modellar mohiyatini umumlashtirib berdi. Bu haqda I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: «Biz boshqa davlatlarning rivojlanish jarayonida to'plagan va respublika sharoitida tatbiq qilingan bo'ladigan barcha ijobiy tajribalaridan foydalanish imkoniyatini istisno qilmaymiz.

Ayni chog'da biron bir andozadan, hatto u muayyan mamlakatda ijobiy natijalarga olib kelgan bo'lsa ham, ko'p qo'lda ko'rona nusxa ko'chirish mutlaqo nomaqbuldir. Shunisi ayni ravshanki, muayyan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mos bo'lsa, ular o'sha mamlakatga xos bo'lgan alohida

boqimandalikni bartaraf etish, yangicha munosabatlarni shakllantirish, o'z taqdiriga va farovonligiga mas'uliyatni o'z-o'ziga o'tkazish zarur.

Bizning muhimi esa bizning respublikada 2007 yilda aholini bozor bandligi 216% ko'paygan. 2007 yilda mehnat va aholini bozor muhojirlik himoya qilish vazirligi ma'lumotlariga asosan «Bandlik» bozoridagi aholiga asosan 628,9 ming ish joylari yaratilgan bo'lsa, 2008 yilda 601 mingga yaqin, jumladan, kichik biznes sohasida – 374 mingta, xizmat ko'rsatish va servis sohasida qariyb 220 mingta, aholi bandchilik hisobidan esa – 97 ming 800 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Demak, bozor munosabatlariga birdaniga o'tish orqali, bozor munosabatlarining asosiy qismini bozor iqtisodiyotining shafqatsiz munosabatlariga duchor qilib qiynash bizning maqsadimizga ziddir. Bozor munosabatlariga o'tish uchun bozor munosabatlariga o'tish bir zumdagi hodisa bo'lib, balki bir qator o'zaro bog'langan bosqichlardan iborat bo'lgan davrdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining birinchi bosqichida (1991-2000) yillar ichida ikki asosiy masala: ma'muriy bozor munosabatlarini tugatish, iqtisodiy krizisdan chiqish, bozor iqtisodiyotni barqarorlashtirish va respublika sharoitlaridan kelib chiqqan holda bozor munosabatlarini shakllantirishni amalga oshirishdan iborat edi.

Respublikada birinchi galda iqtisodiy islohotlarning huquqiy asosini yaratish tashkil etildi.

«O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida»gi Qonun, yer osti boyliklari to'g'risidagi, joylarda bozor munosabatlarini tashkil etish to'g'risidagi, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari to'g'risidagi va boshqa ko'p qonunlar bozor munosabatlariga o'tishda hokimiyatning birdan-bir to'la huquqli bo'lgan hokimlik sharoitini yaratildi.

Ikkinchidan, yangi iqtisodiy munosabatlarga asoslangan bozor munosabatlarini shakllantirildi.

Uchinchidan, xo'jalik yuritishning va institusional munosabatlarining bozor sharoitlariga mos keladigan yangi muhojirlik sharoitlari: bozor infratuzilmasi, xo'jaliklarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha yangi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi.

To'rtinchidan respublikani xalqaro munosabatlarda huquqli sub'ekt sifatida ta'minlovchi huquqiy me'yorlar yaratildi. Ya'ni tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida Respublikaning xalqaro yetakchi tashkilotlarga a'zoligi to'g'risida, valyutani tartib solish to'g'risida, chet el investisiyalarini jalb etish, ularga egalari huquqlarini himoya qilish to'g'risida qonunlar yaratildi.

Beshinchidan, insonlar ishonchini ta'minlovchi, konstitutsion va yuridik huquqlarni himoya qiluvchi jamoat tashkilotlarining huquqlari vijdon va din erkinligi qonunlari qabul qilindi. Bu degani so'z respublikamizda qonun ustuvorligi ta'minlandi.

2001-2007 yillarni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich davri mamlakatimiz rivojlanishi qayta yangilash asosida iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, «Islohotlar – islohot uchun emas, avvalo inson uchun uning manfaatlari uchun», degan shior ostida amalga oshirildi.

### 3. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari

Bozor sharoitida xaridorni hukmi ahamiyatlidir. Ya'ni xaridor o'ziga nima kerak ekanligini o'zi belgilaydi, tovar qoniqtiradimi, yo'qmi? Lekin shu bilan birga xaridor bozorni uzoq yoki yaqinligi, unga yetib borishi uchun transport vositalarining qulayligi, bozordagi mahsulotlarning sifati va bahosining qoniqarli bo'lishi bilan qiziqadi. Bu masalaning bir tomonidir. Masalaning ikkinchi tomonida esa, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi sohalarning o'ziga xos talab taklif xususiyatlari yotadi. Bu hol tabiiyki, iste'molchilar bilan ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Shunday sharoitda bozor infratuzilmasi yuzaga keladigan barcha ziddiyatlarni hal qilish ya'ni, ham iste'molchilarning talablarini qondirish, ham ishlab chiqarish va savdo uchun qulay sharoit yaratib berishdan iborat bo'ladi.

Xo'sh shunday ekan, bozor infratuzilmasi nima?

Infratuzilma deganda, bozorning qulay faoliyat ko'rsatish uchun xizmat ko'rsatadigan muhit tushuniladi. I.A.Karimov «Bozor munosabatlarini shakllantirishni tegishli muhimsiz – tovar

bozorlarida va mehnat resurslari bozorida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlash kerak bo'lgan bozor infratuzilmasisiz tasavvur etib bo'lmaydi» degan edilar (6. q. 261 betlar).

Infratuzilma shartli ravishda quyidagi unsurlardan tashkil topadi: - tadbirkorlikni tayyorlash va o'qitish tizimi; asosiy biznesni ro'yxatga oluvchi bo'limlar; moliya-kredit tizimi; kommertsiya bank tizimi va sug'urta kompaniyalari, reklama va ommaviy axborot vositalari, kommunikasiya vositalari; soliq va bojxona tizimi; konsalting xizmatlari; iqtisodiy va huquqiy masalalar yuzasidan maslahat beruvchi mahalliy mutaxassislar xizmati, auditor kompaniyalari xizmatlari va boshqalardan tashkil topadi); ulgurji – savdachiilar tuzilmalari; birja bozorlari; agroxizmat bozori; transport ta'minoti; xizmat bozori; tashqi iqtisodiy aloqalar ta'minoti.

Bozor infratuzilmasining bu barcha unsurlari ishlab chiqaruvchilarning savdo-sotiq, moliya-kredit ishlariga, sherik bo'lishga, ish kuchini yollashga ko'maklashadi, davlatning iqtisodiyotni tartibga soluvchi tadbirlarini amalga oshiradi, ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasida aloqalar o'rnatishga yordam beradi. Ularning ba'zilari davlat tizimidagi korxonalar va tashkilotlar bo'lsa, qolganlari mustaqil muassasa, yoki korxonalaridan iborat bo'lib, ko'rsatilgan xizmati uchun haq oladi. Bozor infratuzilmasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. **Sanoat mahsulotlari bo'yicha:** qabul qilish, joylash, saqlash, talabga muvofiq iste'mol uchun yetkazib berish;
2. **Qishloq xo'jalik mahsulotlari bo'yicha:** qabul qilish, ravish, quritish, sortlarga ajratish, joylash, o'rnatish, konteynerlarga solish, saqlash, jamlash, kerak bo'lganda sovutish va iste'mol uchun bir maromda yetkazib berish;
3. **Hamma turdagi mahsulot uchun:** yirik iste'molchilarga yetkazib berish uchun tovarlarni to'plash yoki aksincha, mayda iste'molchilarga talabga muvofiq yetkazib berish uchun yirik partiyadagi tovarlarni komplektini maydalashtirish;

4. Tadbirkorlik faoliyatini kreditlash;
5. Tadbirkorlik tavakkalligini sug'urtalash;
6. Tovar topishni ta'minlash;
7. Tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish;
8. Bitishuvlarni ro'yxatdan o'tkazish;
9. Bozor ishtirokchilarini manfaatlarini huquqiy himoya qilish;
10. Bozor ishtirokchilariga konsalting, injiniring, auditor loyiha-smeta xizmatini ko'rsatish.

Shunday qilib, bozor infratuzilmasi va uning unsurlari barcha bozor turlarini faoliyat ko'rsatishi hamda davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni ta'minlaydi.

#### 4. Hozirgi davrdagi respublika iqtisodiy ahvoning tahlili

Ma'lumki, O'zbekiston tabiiy ne'matlarga boy jannatmakon o'lkadir. Respublikamizda mineral xomashyoning 95 turi mavjuddir. Markaziy Osiyo bo'yicha O'zbekistonga gaz kondensati zahiralarning 71%, neftning 31%, tabiiy gazning 40%, ko'mirning 55%, gidroenergetika resurslarining 14% foydalanilayotgan gidroenergetika resurslarining 21% to'g'ri keldi. Respublikada keyingi 2005-2007 yillar ichida garchan paxta ekin maydoni 1,7 foizga kamaygan bo'lsada, yetishtirilayotgan paxta miqdori 3600,3 ming tonnani tashkil etadi. Bular bizning respublika juda boy zahiralarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Mustaqil davlat sifatida bizning asosiy vazifa, bu zahiralardan oqilona foydalangan holda respublika iqtisodiyotini ko'tarish, xalq turmush darajasini yaxshilashdir.

Respublikada islohotlarni olib borishda yengil yo'l qidirilmadi. Shuning uchun isloh qilishning dastlabki bosqichlarida iste'mol bozori biroz cheklandi.

Ayni chog'da mablag' va zahiralarni iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga sarflab, xorijga mahsulot tayyorlaydigan, ilg'or texnologiya bazasi bilan jihozlangan zamonaviy korxonalarni barpo etib, ichki bozorni o'z mollarimiz bilan o'zmi ko'pmi to'ldirishga erishdik. Bu yo'lda hukumat tomonidan ishlab

chiqaruvchi korxonalariga turli imkoniyatlar berilmoqda. Respublikada ishlab chiqarishni tashkil qilish va rivojlantirish uchun investisiyalar ko'paytirildi.

Qisqa vaqt ichida bu tadbirlar o'z natijasini berdi. Bu korxonadagi avtomobil zavodi, Buxoro neftni qayta ishlovchi zavodning ishga tushirilishi, Ko'kdumaloq, Mingbuloq va shu korxonalarining ishga tushirilishi, Andijon, Qo'kon va Yangiyulda ishlab chiqaruvchi korxonalarni, Xorazmda qand zavodi, Olmaliq fosfor kombinati, Qo'ng'irotda soda zavodini qurish, O'zbekiston qiyin eriydigan va o'tga chidamli materiallar kombinati, Olmaliq va Navoiy kon-metallurgiya kombinati va boshqa ko'pgina korxonalar mustaqilligimiz mevasi bo'lib, Respublikamiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

2008 yilda mamlakatimizda 250 milliard so'mlik asosiy fondga ega bo'lgan 423 ta ob'ekt ishga tushirildi. Shulardan, 145 tasi oziq-ovqat sanoati tarmoqlariga tegishli. Shu yili respublikada Farg'ona vodiysini elektr energiyasi bilan ta'minlovchi 165 kilometrlik «Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi -O'zbekiston» yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyasi, Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasini «Sug'diyona» kuchlantirish stansiyasi bilan bog'laydigan G'o'zor-Surxon yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyasi ishga tushirildi, 2 ming 600 kilometrdan ortiq ichimlik suv banda 825 kilometrdan ziyod tabiiy gaz tarmoqlari ishga tushirilgan.

Ijtimoiy yo'nalishlarda esa, 169 ta kasb-hunar kolleji, 23 ta akademik lisey, 69 ta yangi maktab binolari, 184 bolalar sport klublari, 26 ta qishloq vrachlik punktlari va 7 million 240 ming kvadrat metr turar-joy binolari qurilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bir davlat sifatida o'zining iqtisodiy aloqalarini davlat, xalq manfaatlaridan kelib chiqqan holda o'rnatadi.

Ko'pgina xalqaro tashkilotlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Evropa tiklash va taraqqiyot banki, Evropa Ittifoqi Komissiyasi va boshqalarga a'zo bo'ldi.

Respublika tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, uning huquqiy negizlarini yaratib berish maqsadida «Tashqi iqtisodiy

faoliyat to'g'risida», «Chet el investisiyalari va xorijiy sarmoyadorlar faoliyatining kafolati to'g'risida» qonunlar boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining ikkinchi bosqichida eng ustuvor vazifalar bo'lib davlat xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, raqobatchilik muhitini yaratish, xorijiy investisiyalar va texnologiyalarni jalb etish, makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishishdan iboratdir.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida xalq xo'jaligining tarkibiy tuzilishiga katta e'tibor berildi. Bundan maqsad, ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobiga chet eldan kamroq mahsulotni keltirish, aholining iste'mol talabini ichki ishlab chiqarilgan mahsulot evaziga qondirish, ishlab chiqarishni yakuniy mahsulotlarga o'tkazish, chetga eksportni rivojlantirish, mehnat resurslaridagi unumli foydalanishni ta'minlash va tarmoqlar, iqtisodiy mintaqalardagi o'rtasidagi notenglikni tugatishga erishishdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining ikkinchi bosqichining maqsadi respublikada kuchli ijtimoiy kafolatni ta'minlovchi demokratik davlatni uzil-kesil toptirishdir.

### Asosiy atama va tushunchalar

O'tish davri, bozor islohotlari, iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy tuzilish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, islohotlar konsepsiyasi, iqtisodiyotni barqarorlashtirish.

## 7-Mavzu. TALAB VA TAKLIF MUVOFIQLIGI NAZARIYASI

### 1. Talab qonuni va talab tushunchasi

Bozordagi xaridor o'ziga zarur bo'lgan narsalarni sotib olib, ehtiyojlarini qondirishga intiladi.

Ammo kishi ehtiyojlarining qay darajada qondirilishi, uning muayyan tovarga bo'lgan talabi, aholining pul daromadlari va uning o'zgarishi, bozor hajmiga, bozordagi mollarning narxlariga, iste'molchilarga beriladigan imtiyozlar kabi omillarga bog'liq bo'ladi.

Bularning ichida talabni aniqlab beradigan asosiy omil bu tovarning bahosidir. Talab qonuni iqtisodiy qonun bo'lib talab

bilan baho o'rtasidagi bog'liqlikni belgilaydi. Muqobil bo'lgan davrda talab hajmi baho darajasiga bog'liq bo'ladi. Baho darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, talab darajasi shunchalik kam bo'ladi. Chunki, bu omil talabni u yoki bu tomonga qarab o'zgarishiga olib keladi. Xo'sh, talabning o'zi nima?

Talab - bu iste'molchining muayyan joyda va muayyan vaqt davri uchun tovar yoki xizmat sotib olish istagi va imkoniyatidir. Iste'molchi qilib aytadigan bo'lsak, bu pul bilan ta'minlangan iste'mol, ya'ni to'lovga qodir ehtiyojdir.

Aynan mana shu ehtiyojga qarab, bozorga chiqarilishi lozim bo'lgan tovarlarning miqdori va assortimenti aniqlanadi. Talab iste'molchi sotib olish qobiliyatiga ega bo'lgan tovar miqdorini belgilay beradi.


Demak, talabni iste'molchi tomonidan tovarlarni sotib olish istagi bo'lgan baho sifatida ko'rishimiz ham mumkin. Tovar iste'molchi bilan xaridor sotib olishi mumkin bo'lgan tovar miqdori bozordagi bog'lanishni ko'rib chiqamiz.

### 1-jadval

| Tovar birligining bahosi (so'm) | Talab miqdori (dona) |
|---------------------------------|----------------------|
| 500                             | 1000                 |
| 400                             | 2000                 |
| 300                             | 3000                 |
| 200                             | 4000                 |
| 100                             | 5000                 |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tovar birligining bahosi kamroq bo'lsa, iste'molchining xarid quvvati, ya'ni sotib olishi mumkin bo'lgan tovar miqdori shunchalik ko'p bo'ladi va talab kuchayadi.

Demak, tovar bahosi bilan tovar miqdori o'rtasidagi bog'lanish (Rasm 1) nisbat ko'rinishda bo'ladi va talab egri bo'ladi.



1-rasm. Talab egri chizig'i

bu erda: OP - tovarlar bahosi.  
OQ - tovarlar miqdori.  
T - tovar talabi.

Talab egri chizig'i talab hajmini iste'mol tovarlari bahosi bog'liqligini ifodalaydi. Talab faqat baho omili bilan belgilanmaydi, uning o'zgarishiga quyidagi omillar ham ta'sir ko'rsatadi:

- iste'molchilar odat va didlarining o'zgarishi. U reklamaning yoki modaning o'zgarishi natijasida ro'y beradi;
- bir-birini o'rnini bosuvchi tovarlarning mavjudligi. Xil bir turdagi tovar bir xil talabni qondirishi mumkin. Bu tovarlar bir-birini o'rnini bosuvchi tovarlar deyiladi. Bu tovarlar birining, narxi o'zgarishi, ikkinchisiga bo'lgan talabni o'zgartirishiga olib keladi;
- to'ldiruvchi tovarlar narxlarining o'zgarishi. Bir turdagi tovarlar birgalikda sotib olinadi. Poyafzal bilan moy birini to'ldiradi. Shuning uchun poyafzal narxining o'sishi moyga bo'lgan talabni pasaytiradi. Binobarin, poyafzal moyiga bo'lgan talab ham pasayadi;


tovar nafilligining o'zgarishi. Sabzavot mevalarini bahosiga qarab, sog'liq uchun foyda ekanligi haqidagi ma'ruza bo'lgan talabni oshiradi;

daromadning o'zgarishi. Aholi daromadlarining oshishi, daromadning sarid quvvatini oshiradi, bu esa tovarlarga bo'lgan talabni oshiradi;

atrof-muhitdagi o'zgarishlar. Agar havo isib ketsa, yog'li ichimliklar va muzqaymoqqa bo'lgan talab oshadi va aksincha;

aholi sonining o'sishi. Aholi tug'ilish darajasining oshishi akusherlik xizmati, maktabgacha tarbiya, maktab tarbiyasi va sportlarga, bolalar uchun kerak mahsulotlarga talabni oshiradi va aksincha.

Umuman, talab bahoga bog'liq bo'lmagan (2-rasm) omillar ta'sirida u yoki bu tomonga o'zgarishi mumkin.




2-rasm. Talab egri chizig'ining narxdan tashqari omillar ta'sirida o'zgarishi.

- $I_0$  - ish haqi o'zgarmagan holdagi egri talab;
- $I_1$  - ish haqi ko'tarilgandagi egri talab;
- $I_2$  - ish haqi pasaygandagi egri talab.

Lekin bu faqat talabning ortishi ( $I_2$ ) yoki talabning pasayishi ( $I_1$ )ni bildiradi.

Ammo iqtisodiyotda «talab miqdorining o'zgarishi» degan tushuncha muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu o'zgarish (3-rasm) ko'rsatilgan chizmadagi talabning tovar bahosiga nisbatan o'zgarishini nazarda tutadi.

Bunda o'zgarish (3-rasm) egri chiziq bo'ylab kuzatiladi, ya'ni har bir bahoga mos ravishda mahsulot miqdori belgilanadi.



3-rasm. Talab miqdorining narx ta'sirida o'zgarishi.

Talabning bunday o'zgarishi talab egiluvchanligi deyiladi. Demak, talab egiluvchanligi talabning baho o'zgarishiga javoban o'zgarishidir.

#### 4. Taklif qonuni va taklif tushunchasi

Taklif qonuni tovarlar bahosi bilan taklif qilinayotgan mahsulotlar bog'liqligini ifodalaydi.

Bozordagi tovarlar bahosi faqat talabga bog'liq bo'lmay, balki taklifga ham bog'liq bo'ladi. Ya'ni bozordagi tovarlar miqdori ham ma'lum darajada bahoning shakllanishiga sabab bo'ladi.


Taklif – bu bozorga sotish maqsadida keltirilgan yoki keltirilishi aniq bo'lgan mahsulotlar miqdoridir.

Taklifning bahoga nisbatan yoki bahoning taklifga nisbatan o'zgarishini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin:

2-jadval

| Tovar birligining bahosi (so'm) | Taklif miqdori (dona) |
|---------------------------------|-----------------------|
| 500                             | 1000                  |
| 400                             | 2000                  |
| 300                             | 3000                  |
| 200                             | 4000                  |
| 100                             | 5000                  |

Jadvaldan ko'rinib turganidek, mahsulotga qo'yilgan baho shuncha yuqori bo'lsa, bozorga keltirilayotgan mahsulot miqdori shuncha kam bo'ladi. Demak, tovarning bahosi bilan bozorga taklif qilinayotgan miqdori o'rtasida to'g'ri munosabat mavjuddir. Bu bog'lanish **taklif egri chizig'i** orqali ifodalaniadi. Bu chizma (4-rasm) orqali ifodalaymiz.




4-rasm. Taklif egri chizig'i.

OR - tovarlar bahosi.

OQ - tovarlar miqdori.

S - bozordagi taklif.

Taklif hajmining o'zgarishi (5-rasm)dagi chizmadan ko'rinib turganidek tovar bahosiga bevosita bog'liq bo'ladi va aynan taklif egri chizig'i bo'ylab kuzatiladi.



5-rasm. Taklif egri chizig'ining narxdan tashqari omillar ta'sirida o'zgarishi.

Taklif hajmi darajasining baho oshishi (pasayishi)ga javoban o'zgarishi taklif egiluvchanligi deyiladi.

Lekin taklif ham talab singari faqat baho omili natijasidagi o'zgarish o'zgarmaydi. Buning o'zgarishiga bahoga bog'liq bo'lmagan omillar ham ta'sir qiladi. Bular quyidagilardir:

- resurslar bahosining o'zgarishi. Ma'lumki ishlab chiqarish jarayonlari resurslar bahosi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdori bevosita resurslar bahosiga bog'liq;

- texnologiyaning o'zgarishi. Yangi texnologiyaning jori etilishi resurslardan samarali foydalanishga, bu esa o'z navbatida ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga olib keladi;

- soliq va dotasiya miqdori. Ularning oshishi yoki kamayishi bevosita tovar taklifini o'zgartiradi;

- o'rindosh tovarlar bahosining o'zgarishi. Masalan «Coka-Cola» yoki «Fanta» bahosining oshishi boshqa shunga o'xshash ichimliklar bahosini oshiradi;

sotuvchilarning soni va hokazo.

Bir xil yoki shunga o'xshagan mahsulot ishlab chiqaruvchi mahsulotning o'sishi yoki kamayishi. Ishlab chiqaruvchi mahsulotning ekanligi va ekanligi kutishlari.

Ushbu omillar tovarlarga narxlarini pasayishi yoki ko'tarilishi natijasida, xom ashyo resurslariga bo'lgan narxlarini arzonlashuvi yoki ko'tarilishi bilan yoki eksport va import uchun boj to'lovlari o'zgarishlari bilan bog'liq bo'ladi. Lekin talab qonuni singari bu omillar ham taklifni o'zicha o'zgartiradi, (5-rasm) taklif hajmini o'zgartiradi.

Taklifning S<sub>1</sub> yoki S<sub>2</sub> tomonga o'zgarishi yuqorida keltirilgan, buning natijasida baho bahoga bog'liq bo'lmagan omillar natijasidir. Bu erda taklif S<sub>1</sub> tomonga o'zgarsa, u holda taklif ko'payadi.

Aksincha, taklif egri chizig'i S<sub>2</sub> tomonga o'zgarsa, taklif kamayadi. Taklifning egri chizig'i bo'ylab pastga yoki tepaga o'zgarishi taklif hajmining ko'payishi yoki kamayishini oshiradi. Shuning uchun iqtisodiyotda «taklif hajmining o'zgarishi» degan atama taklifning o'zgarishi» degan tushunchalar bo'lib, ular o'zaro bog'liq bo'lganidek bir-biridan farqlanadi.

### 3. Muvozanatli bozor narxlarini tashkil etish

Talab va taklif egri chizig'i bizga turli narxlarda xaridorlar qancha tovar xarid qilishi, sotuvchi esa qancha tovar taklif qilishi haqida fikrini ekanligini ko'rsatadi.


Ammo, ular qanday narx bo'lganida oldi-sotdi haqiqatan ro'y berishini aniq ifodalaymaydi. Buni aniqlash uchun talab va taklif egri chiziqlarini birlashtirish lozim bo'ladi. Buning uchun quyidagi ikkita jadvalni qiyosiy tahlil qilamiz. Agar 1 birlik mahsulot 500 so'mdan sotilsa, xaridor 1000 birlik mahsulot sotib olish imkoniyatiga ega. Ishlab chiqaruvchi esa, bu narxda 5000 birlik mahsulot taklif qila oladi.

Natijada 4000 birlik mahsulot ishlab chiqaruvchi qo'lida qolmay qoladi. Agar mahsulotni 1 birligi 100 so'mdan sotilsa, u holda xaridor 5000 ta birlik mahsulot sotib olish imkoniyatiga ega, ishlab chiqaruvchi esa, bu narxda faqat 1000 ta birlik mahsulot ishlab chiqaradi.



Demak, tovar yetishmovchiligi ro'yi beradi. Shu davom ettirsak, 300 so'mdan mahsulot sotilganda, xaridor bilan ishlab chiqaruvchi taklifi bir-biriga mos kelguzatiladi.

Aynan mana shu narx **muvozanat baho** deyiladi. Chizma (6-rasm) quyidagicha ifodalanadi.



6-rasm. Muvozanatlashgan bahoning shakllanishi

Bu erda: D - talab.  
S - taklif.  
E - muvozanatli baho.

Ana shu muvozanat (E-nuqtasi)dan yuqori miqdor mahsulot ishlab chiqarilsa talabga nisbatan ortiqcha ishlab chiqarilgan bo'ladi yoki undan past darajada bo'lsa talab darajasiga nisbatan kam mahsulot ishlab chiqarilgan bo'ladi.

Chizmadagi (6-rasm) «E» nuqtasidagi baho tovarlar bahosi bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi muvofiqlikni ko'rsatadi.

Demak, muvozanat narx o'rnatilishi uchun:

Birinchidan – xaridorlar sotib olishi mumkin bo'lgan tovar miqdori taklif miqdoriga mos kelishi kerak.

Ikkinchidan – baho va tovar miqdorining o'zgarishi

ta'minlaydi. Lekin hayotda bunday emas.

Ya'ni talab va taklif doimo u yoki bu tomonga qarab, turli darajada ta'sirida o'zgarib turadi. Goh talab taklifdan oshadi, goh talab kamayib, taklif talabdan yuqori bo'ladi.

Buzor muvozanatini ta'minlash uchun ishlab chiqarish lozim, talab va taklifga qarab baholarni pasaytirish yoki oshirish kerak.

Demak, xulosa qilib aytish mumkinki bozor muvozanati tovarlarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan talab va taklif muvozanati u moddiy boyliklarni ishlab chiqarish hajmiga mos bo'lishi ifoda etiladi.

Buzor baholarining muvozanati esa talab va taklif asosida muvozanatlanadi.

Ishlab chiqarish hajmi muvozanati esa ishlab chiqarish hajmini talab va taklifni muvofiqliligini ta'minlaydi.

#### 4. Talab va taklifning egiluvchanligi

Talab va taklif baholarga mos holda o'zgargan egiluvchanlik tushunchasi tushuncha qo'llaniladi.

Bu tushuncha talab va taklif dinamikasini belgilab beradigan omillarning o'zgarishiga bozorning moslashib borish jarayonini osonroq anglab olishimiz uchun yordam beradi. Har bir tovarlarga bo'lgan talab va taklif baholarining o'zgarishiga talab har xil bo'ladi. Birinchi darajali tovar bahosining oshishi talab darajasiga ta'sir o'tkazmasligi mumkin.


Masalan: non, yog', qand, kartoshka kabi mahsulotlarning bahosi oshsa-da, unga bo'lgan talab o'zgarmaydi.

Lekin o'rindosh tovarlarga bo'lgan talab o'zgarishi mumkin. Misol uchun qora nonni kam iste'mol qilib, qora nonni ko'proq iste'mol qilish boshlaydilar. Bunday holat jamiyatning asosiy maqsadi bo'lgan kishilar turmush darajasining pasayishiga, kishilarning daromad holdagi iste'mollarining pasayishiga sabab bo'ladi.

Ikkinchi darajali mahsulotlar bahosining oshishi ko'pgina hollarda ularga bo'lgan talabning pasayishiga sabab bo'ladi. Masalan: gilam, zargarlik buyumlari, mashina va h.k.


Bu hali ta'kidlash lozimki, birinchi darajali mahsulotlar

bahosining oshishi talabning hajmiga kam ta'sir etishi tufayli birinchi darajali mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar tezda krizisdan chiqib ketadilar. Ikkinchi darajali mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi moddiy sohalar esa, ishlab chiqarish krizisidan uzoq davom etadi. Shuning uchun sotuvchi umumiy tushumlarining miqdori tovarlar bahosiga va umumiy tovarlar hajmi qiymatining summasiga ko'paytirish natijasida hosil bo'lgan qiymatga bog'liq bo'ladi. Talab egri chizig'ining (7-8-9-rasm) quyidagi uchun ko'rinishini tahlil qilamiz.




Rasm 7. Egiluvchan talab chizig'i

Egiluvchan talabda (7-rasm) baholarning o'zgarishi mahsulotni ishlab chiqarish darajasini oshirishga kamayishiga olib keladi. Baholarning oshishi talabni pasaytirishning kamayishi esa talabni o'sishiga olib keladi. Egiluvchan bo'lmagan talabda (8-rasm) tovarlar baholari ma'lum darajada tushirilgan yoki oshirilgan taqdirdagina ham, ishlab chiqarish hajmi o'sishi yoki kamayishi mumkin. Masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining baholarini o'sishi unga bo'lgan talabni pasaytiradi, baholarini pasayishi bu mahsulotlarga bo'lgan talabni o'sishiga olib keladi.



8-rasm. Egiluvchan bo'lmagan talab chizig'i

Egiluvchan talab (9-rasm) baholarga bog'liq bo'lmaydi. Baholarning o'sib borishi yoki kamayishi talab darajasini o'zgarishiga ta'sir etmaydi. Masalan suv, gaz va elektr energiyadan foydalanish darajasi ularga belgilangan baholardan qat'i nazar fasilarga qarab o'zgarib boradi.



Rasm 9. Talab egri chizig'ining egiluvchanligi.

Taklifning bahoga nisbatan o'zgarishi taklifning egiluvchanlik koeffitsienti deyiladi va quyidagicha ifodalaniadi.

$$E_K = \frac{\text{Baholarning o'zgarishi}}{\text{Taklifning o'zgarishi}}$$

Egiluvchanlik koeffitsienti baholarning 1% oshganda, taklifning qanchaga o'zgarishini ifodalaydi.

7-rasmda baholarning pasayishi bilan tovarlar 2 baravar ko'proq sotilgan. Bunday hol ayrim holdagi egiluvchanlik deyiladi. Bunda  $E_K=1$  ga teng.

8-rasmda baholarning oshishi sotilgan tovarlar miqdori pasayishiga sabab bo'lgan.


Bunday hol egiluvchan bo'lmagan holatni ifodalaydi. Bunda  $E_K < 1$  dan kichik bo'ladi.

Nihoyat baholarning pasayishi natijasida (9-rasm) sotiladigan tovarlar hajmining oshishida egiluvchan talab ko'rinadi. Bunda  $E_K > 1$  dan katta bo'ladi. Ba'zi hollarda baho pasaysada talab o'zgarmaydi.

Bunday hol absolyut egiluvchan bo'lmagan talab deyiladi va u quyidagi ko'rinishda (10-rasm) ifodalanadi.

Absolyut egiluvchan bo'lmagan talabga baholarning ko'tarilishi yoki tushishi, ishlab chiqarish hajmining ko'tarilishi yoki pasayishi talabga aslo ta'sir etmaydi.


Masalan nonga bo'lgan talab, yoki tuzga bo'lgan talab ularning baholari oshgan taqdirda ham talab o'zgarmaydi.



10-rasm. Absolyut egiluvchan bo'lmagan talab

Absolyut egiluvchan talab (11-rasm)da baholarning ko'tarilib, tushishi absolyut talab egiluvchanlik darajasiga ta'sir etmaydi. Masalan metro yo'l to'lovlari unga bo'lgan talab egiluvchanligi o'sishiga olib keladi. Bunga sabab metro foydalanuvchi yo'lovchilarni ko'payishidir.

Absolyut egiluvchan talab (11-rasmda) ifodalangan.



11-rasm. Absolyut egiluvchan talab

Ba'zi vaqtlarda befarq talab tushunchasi qo'llaniladi. Bunday holda ayrim tovarlar umuman xarid qilinmaydi, bunda ular yo'q qilinadi, isrof bo'ladi. Yuqoridagi holatlar taklif egiluvchanligida ham takrorlanadi.

### Asosiy atama va tushunchalar

Talab tushunchasi, talab egri chizig'i, talab qonuni, muvaznatlik samarasi, talab egiluvchanlik koeffitsienti, talabga ta'sir etuvchi omillar, taklif egri chizig'i, taklif qonuni. Muvozanatli talab, talab egiluvchanligi. Taklif egiluvchanligi. Taklif egiluvchanlik koeffitsienti.

## 11-BO'LIM. TADBIRKORLIK KAPITALI VA UNING AYLANISHI

### 1. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va asosiy belgilari

Ma'lumki ishlab chiqarishni amalga oshirish va uning samaradorligini ko'tarish iqtisodiy resurslarga bog'liq. Iqtisodiy resurslarga moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyati ham kiradi. Yuqoridagi resurslar mavjud bo'lsada, tadbirkorlik faoliyati bo'lmasa, ishlab chiqarishda hech qanday yutuqlarga erishib bo'lmaydi. Ishlab chiqarishni ma'muriy buyruqbozlik sharoitida sobiq Ittifoqda, shu jumladan, O'zbekistonda ham tadbirkorlik faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Tabiiy boyliklar va mehnat resurslarining

yeterli ekanligi ham hech qanday samara bermagan. Agar Yaponiyani misol qilib olsak, tabiiy boyliklar yetarli darajada bo'lmasa-da, tadbirkorlik faoliyati yuqori darajada ekanligi tushuniladi. Ular yuqori yutuqlarga erishganlar.

Tadbirkor kim? Tadbirkorlik faoliyati deganda qanday faoliyat tushuniladi. Tadbirkor – tashabbuskor, g'ayratkor, tahlikali holatlardan qo'rqmaydigan, yuqori darajali tashabbus olish va jamiyatga ham naf keltirish maqsadida Adam Smith fikricha «ko'rinmas qo'l» qoidasi asosida ish yurituvchi. Tadbirkorlik faoliyati esa foyda olishga qaratilgan amaliy maqsaddir. Tadbirkor o'z faoliyatini biznes asosida amalga oshiradi. Tadbirkorlik bilan biznes tushunchasi bir tushuncha emas. Tadbirkorlik faoliyati rasmiylashtirilgan tadbirkor o'z mablag'i yoki kredit asosida ish yuritadi. Biznes tushunchasining qanday bo'lishidan qat'iy nazar foyda olishdir. Shuning uchun tadbirkorlik faoliyati biznes faoliyatining bir tomonidir. U qamrab oladi. Lekin hayotda biznes bilan shug'ullanuvchilarning barchasini tadbirkor deb ataydilar.

Tadbirkorlik faoliyati va uning mohiyatini birinchi marta Nobel mukofoti laureati, ingliz iqtisodchisi Fridrix fon Xayek tahlil qilgan. Fridrix fon Xayek tadbirkorlik faoliyatini erkin faoliyat hisoblansa-da, jamiyat qonunlari asosida rivojlanish kerak deb, hisoblangan.

Iqtisodiyot olamiga tadbirkorlik tushunchasi XVIII asrdan kirib kelgan va dastlab ko'p ma'noli bo'lgan. Tadbirkorlik rivojlanishini tarixini birinchi bosqichida tadbirkor – boshqaruvchi, ikkinchi bosqichda tadbirkor – boshqaruvchi va innovator, uchinchi bosqichda tadbirkor izlanuvchi, yangi mahsulot ishlab chiqarish texnologiyalarini ixtiro qiluvchi va to'rtinchi bosqichda esa – boshqaruvchi deb qaralgan.

Tadbirkorlik faoliyatining mezoni quyidagi omillar bilan ifodalanadi: moliyaviy barqarorlik darajasi, kapitaldagi samarali foydalanish darajasi, innovasiya darajasi, mahsulotning sifati va uning raqobatga bardoshli ekanligi, uning obro' va savdo markasi bilan.

Tadbirkorning obro'si esa soliqlarni o'z vaqtida to'lab borishi, jamiyat oldida javobgarlikni his qilish (eski zarur

talablar ishlab chiqarmaslik), sheriklariga zarar bermaslik, so'zining ustidan chiqish, intizomli ekanligi va mahsulotlar bilan ifodalanadi.

Tadbirkor faoliyati bevosita boshqarish bilan bog'liq faoliyatdir. Firmani boshqarish deganda, jamoaga boshqarish o'tkazish yordamida minimum resurslarni va vaqtni sarflab maqsadga erishish tushuniladi. Hozirgi kunda tadbirkorlik bilan birgalikda menejer, menejment degan tushunchalar qo'llanilmoqda.

Boshqarishning ma'muriy buyruqbozlik tizimida boshqaruvchi tayinlangan, mansab lavozimini ifodalagan. Hozirgi holatda umumxalq mulki hukm surgan davrda amalga oshirilgan. Bozor iqtisodiyotiga o'tilishi bilan davlat mulki bilan birgalikda bir necha xil mulk turlari vujudga keldi. Xususiy mulk egasi tadbirkor shaxs hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati davlat borishi bilan birgalikda tadbirkorning faoliyati davlatdan ajraladi.

Tadbirkor malakali boshqaruvchiga ehtiyoj sezadi. Davlatda tadbirkor boshqaruvchini yollaydi.

Demak, boshqaruvchi bilan menedjer sinonim tushuncha bo'lsa-da, bozor iqtisodiyoti sharoitida tayinlangan boshqaruvchilar emas, yollangan boshqaruvchilarning (menejer) faoliyati oshib boradi.

Ma'muriy buyruqbozlik usulidagi boshqarish vertikal boshqarishni ifodalasa, bozor iqtisodiyoti sharoitida gorizontal boshqarish amal qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoiti vertikal boshqarishni inkor etmaydi. Vertikal boshqarish gorizontal boshqarishni ta'minlash asosida olib boriladi. Bunda mikroiqtisodiy darajadagi firmalar, korxonalar mustaqil ish yuritishda to'la erkinlik beriladi.

Davlatning iqtisodga aralashuvi makroiqtisodiy darajada amalga oshadi. Mikroiqtisodiy darajadagi iqtisodiy rivojlanishga to'la erkinlik beriladi.

Menejment deganda boshqarish haqidagi fan tushuniladi. Bu fanning vujudga kelishiga 1930 yildan 1940 yilgacha davom etgan «Buyuk inqiroz» davri sabab bo'ldi.

Hozirgi vaqtda menejmentning eng rivojlangan va Amerika Qo'shma Shtatlari hisoblanadi. Bu erda 1300 dan ortiq biznes va boshqarish maktablari, 10000 dan ortiq maslahat beruvchi firmalar, 70 dan ortiq matbuot nashrlari, boshqaruv va biznesga taalluqli adabiyotlar nashr etuvchi o'zbek nashriyotlar faoliyat ko'rsatadi.

Bu ma'lumotlarni keltirishdan maqsad mustaqil O'zbekiston Respublikasining oldida turgan muammolarni aytib o'tishdir.

O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi ko'p jihatdan menejer faoliyatiga bog'liq, bu haqda I.A.Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo'lida» nomli risolasida: «...yangi boshqaruv tuzilmasini vujudga keltirish ularda ishlaydigan kadrlarga, ularning kasbiy tayyorgarligiga yanada yuqori talablar qo'yadi.

Hozirgi zamon boshqaruv kadrlari, menejerlari yuqori kasbiy mahoratga ega bo'libgina qolmay, balki har jihatdan ma'lumotli, o'z sohalarining bilimdoni, tashabbuskor topshirilgan ish uchun jon kuydiradigan, muammolarni hal qilishga ijodiy yondashadigan kishilar bo'lishlari, eng muhimi esa, Vatanimizni chinakam fidoyilari bo'lishlar lozim»<sup>23</sup>, deb ta'kidlaydi.

## 2. Korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari: shaxs bo'yicha egalik, sherikchilik, korporasiya

Uy xo'jaligi, firma va davlat bozor iqtisodiyotining sub'ektlaridir. Korxonalaridagi xo'jalik faoliyatlari firmalar tomonidan amalga oshiriladi. Firmalar turli ko'rinishda, yakka holda yoki bir necha ishlab chiqarish birlashmalaridan iborat bo'lishi mumkin. Firmalar quyidagilar bo'yicha o'zaro farqlanadi:

1. Xo'jalik faoliyati va harakat xususiyatlari.
2. Huquqiy holatlari.
3. Mulkiy holatlari.
4. Kapitalga bog'liqligi va nazorat ta'siri.

<sup>23</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -Toshkent: O'zbekiston, 1995. 87-88 betlar.

3. Faoliyat sohasi bo'yicha.

Demak, firma – korxonalariga egalik qiluvchi va xo'jalik faoliyatini olib boruvchi tashkilotdir. Ayrim firmalar bitta, bir necha korxonalariga egalik qilishi mumkin.

Korxonalar iqtisodiyotning asosiy va birlamchi bo'g'inini tashkil etadi. Iqtisodiyotning tuzilishini olib qarasa, u ko'plab korxonalardan iborat bo'lib, korxonalarining yig'indisi iqtisodiyotni tashkil etadi.

Korxonalar tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi sifatida o'z faoliyatini qoqlab, ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi.

Korxonalar iqtisodiyotning boshqa bo'g'inlaridan ajratib olinishi asosiy farq ularning iqtisodiy alohidaligi va mustaqilligidir. Iqtisodiy alohidalik – mulkchilik munosabatiga ko'ra yuzaga keladigan turli korxonalarda ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilikning chegaralanishi va ishlab chiqarish natijalariga ta'limlangan.

Iqtisodiy alohidalik to'la iqtisodiy va operativ xo'jalik mustaqilligini talab etadi. Xo'jalik sub'ekti imkoniyatlariga ko'ra yuzaga keluvchi iqtisodiy mustaqillik o'z navbatida iqtisodiy mustaqillikni ta'minlaydi. Iqtisodiy mustaqillikning mezonini iqtisodiy samaradorlik hisoblanadi.

«Operativ xo'jalik mustaqilligi huquqi» munosabatlari bo'yicha bo'lib, bu yuridik qonunlarda ifodalangan iqtisodiy mustaqillikdir. U korxonalar yuridik shaxs xususiyatlariga, shuning nizamiga, mustaqil daromadlar va xarajatlar olishiga, bankda o'z hisobiga, shartnomalar tuzish huquqiga ega bo'lganda yuzaga chiqadi.

Mulkiy maqomdan qat'iy nazar korxonaning korporativ – jamoaviy manfaatli mavjud. U foyda olishdan iborat manfaatdir, manfaat korxonalar me'yorda ishlagandagina yuzaga chiqadi. Korxonalar jamoasi maqomi jihatidan uch toifaga bo'linadigan tashkilotlardan tashkil topadi:

1. Korxonalar egalari;
2. Menejerlar;
3. Yollanma ishlovchilar.

O'zining faoliyat miqyosiga qarab, firmalar kichik va koralarga bo'linadi.

Kichik biznes tadbirkorlik faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Biznes yakka egalik qilish, shirkatlar va hattoki korporatsiya shaklida bo'ladi.

2004 yil 1 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq kichik tadbirkorlik sub'ektlari toifasiga quyidagilar kiradi: yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar; mikrofirmalar, ishlab chiqarish tadbirkorlari – o'rtacha yillik band bo'lgan ishlovchilar soni 20 kishidan kam bo'lmagan; xizmat va boshqa noishlab chiqarish sohaslarida – 10 kishidan kam bo'lmagan, ulgurijil chakana va umumiy ovqatlanishda – 5 kishidan kam bo'lmagan; kichik korxonalar, tarmoqlarda band bo'lgan o'rtacha yillik ishlovchilar soni, yengil, oziq-ovqat, metallurgiya, qayta ishlash, mebel va qurilish materiallari tarmog'ida – 10 kishidan kam bo'lmagan; mashinasozlik metallurgiya, yoqilg'ini energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat ishlab chiqarish sohaslarida – 50 kishi; fan, transport, aloqa xizmatlar sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari) savdo umumiy ovqatlanish korxonalari va boshqa noishlab chiqarish sohaslarida – 25 kishidan iborat bo'lishi belgilangan.

Kichik biznes o'ziga xos bo'lgan poligon hisoblanadi. U yerda yangi tovarlar va xizmat ko'rsatish sinovdan o'tadi.

Kichik biznes faoliyati tahlikali holda kechadi.

AQSh ixtisoschilarining hisoblashlariga qaraganda, yangi tashkil etilgan kichik biznesning 5400 tasidan 4700 ta korxonavayron bo'ladi. Kichik biznes katta biznesga o'tish shakllanishida zinapoya rolini o'ynaydi.

Ammo, kichik biznesning raqobat kurashiga bardosh berolmasligining asosiy sababi ko'p miqdorda kapitalga ega bo'lmaganligidir.

O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga juda katta e'tibor berilmoqda.

2008 yilda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun

korxonalar olinadigan yagona soliq to'lovi 10 foizdan 8 foizga kam qilinadi. 2008 yilda 400 mingtaga yaqin kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalar iqtisodiyot taraqqiyotida faol qatnashganlar. Kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmi 2008 yilda 22 foizga ko'paydi. Uning yalpi mahsulotdagi ulushi 48,2 foizni tashkil etdi. Bu 2007 yildagi ulushga nisbatan 3,3 foiz ko'pdir. Ish bilan band korxonalarining 76 foizidan ko'prog'i, shu sohada band bo'lganlar.

Kichik biznesga shirkatlar yoki sherikchilik jamiyatlari ham kiradi. Bu biznes turi kichik biznesga nisbatan bir qancha korxonalar uchun ega: bunda shirkat a'zolari maxsus soliqqa ega bo'lmaydi, ko'proq ishlab chiqarishga kapitalni jalb etishlari uchun. Kamchiligi shirkat a'zolarining huquqlari cheklanishidir.

**Korporasiya.** Korporasiya korxonani tashkil etishning eng muvofiq bir shaklidir, uni barpo etish chog'ida korporasiya tashkilotchilari ro'yxatdan o'tishlari kerak.

Korporasiyalarning ulushi rivojlangan davlatlarda yuqori. Masalan, AQShdagi «Jeneral elektrik», «Jeneral motors», «Ford», «General traysler», «Dyupon», «Yunion korbayd» kabi korporasiyalar gigant korporasiyalar hisoblanadi. Ular korporasiya ustavini tuzishda yuristlar xizmatidan foydalandilar.

Korporasiyalar qo'shimcha soliqlar to'laydilar. Korxonaning barcha turlari biz yuqorida aytib o'tgan shakllarga mos bo'lmaydi. S korporasiya turi mavjud bo'lib, bular qo'shimcha soliqlardan ozoddir. S korporasiya maqomini o'zlashtirish uchun firma ko'pi bilan 35 nafar aksiyadorga va boshqa korporasiyaning 80 foizdan ortiq bo'lmagan aksiyasiga ega bo'lishi kerak.

**Foyda olmaydigan korporasiyalar.** Bu firmalar xayriya, diniy tashkilotlari va diniy maqsadda faoliyat ko'rsatadi. Ular faoliyatiga ega bo'lmaganliklari tufayli soliqqa ham ega bo'lmaydilar.

**Davlat korporasiyalariga** korxonalar: tramvay, trolleybus, metro, kino, teatr va jamoatchilik foydalanadigan korxonalar kiradi.

**Kooperativlar:** Uy-joy, iste'mol, ishlab chiqarish kooperativlari.

**Franchaizlar** (ruxsatnoma) kichik korxonalar va korxonalardan lisenziya sotib oladilar va ularning nomidan yuritadilar. Uning emblema, marka, savdo znachoklari foydalanish huquqiga ega bo'ladilar.

Masalan, «KOKA-KOLA» lisenziyasiga ega bo'lgan firmalar. Ular savdo xodimlarini bir xil kiyimlar, qarorgohlarni bir xil jihozlashlari kerak. Bu o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Korporasiyalar mulkiga bo'lgan huquq aksiyalar bo'yicha qismlarga bo'linadi va shu boisdan aksiyalarning egalar aksiyadorlar deb ataladi.

**Aksiyadorlar** – korporasiyaning egalari hisoblanadi. AQShdan tashqarida ingliz tilida so'zlovchi korporasiyalar nomlariga «Ltd» belgisini qo'shadilar. «Ltd» tipidagi korporasiyalarning javobgarligi ularning ixtiyorida aksiyador miqdoriga qarab cheklangan hisoblanadi. Aksiyador korporasiyalari faoliyatlari uning ustavi asosida amalga oshiriladi.

Korporasiyaning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun uning direktor saylanadi.

Aksiya egalari korporasiya daromadlaridan dividend oladilar.

Dividend miqdori, ishlab chiqarishni rivojlantirish fondlari aksionerlar yoki direktorlar majlisida muhokama qilinadi. Dividend bu aksiya egasiga shu aksiyadorlar jamiyati qo'ygan mablag'iga qarab, aksiyadorlar korporasiya faoliyatida yaratilgan foydaning ma'lum bir qismini olish ta'minlaydi.

Aksiyadorlar aksiyalarining miqdoriga qarab ovoz berish huquqiga ega bo'ladilar. Ochiq turdagi korporasiyalar direktorlari milliy hisobotni e'lon qiladilar.

Korporasiyalar, kichik korxonalar va sherikchilik jamiyati mahsulotlari haqida qanchalik ko'p axborot bersalar, shunchalik mahsulotlar shunchalik sifatli hisoblanadi. Iste'molchilarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinadi. Kafolatlangan sifati mahsulotga odatda «UL» yorlig'i qo'yiladi.

### 3. Tadbirkorlik kapitali va uning mohiyati

Har bir tadbirkor o'z faoliyatini ma'lum bir pul-kapitalidan boshlaydi. Pul kapitali bo'lishi uchun tadbirkorlarga foyda olishi kerak.

Tadbirkor o'z faoliyatini odatda quyidagi formula asosida amalga oshiradi. (bu formulani boylikning oshishi, qo'shimcha qiymatning ko'payishi formulasi deb ham ataydilar).

$$P = \begin{matrix} & Iv & \\ & \dots L \dots T' - P' & \\ \left. \begin{matrix} T \\ \end{matrix} \right\} & & \\ & Ik & \end{matrix}$$

Hunda: P – avansgacha pul;

T – tovar;

Iv – ishlab chiqarish vositalari;

Ik – ish kuchi;

L – ishlab chiqarish jarayoni;

T' – unumli mehnat jarayonida tovar qiymatining oshishi;

P' – avanslangan kapitalning ko'payishi.

Formulaga muvofiq tadbirkor o'z mablag'i yoki kredit hisobiga tovar sifatidagi ishlab chiqarish vositalari va ish kuchi xarid qiladi. Natijada ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tovar ko'payadi, hamda boyliklar yaratiladi. (P' – boylik, qo'shimcha qiymat). Tadbirkorlik faoliyati va uning samarasi bevosita kapital miqdoriga bog'liq. Kapital ishlab chiqarishning omili hisoblanadi. Kapital klassik siyosiy iqtisod namoyandalari tomonidan turlicha ta'riflangan. A.Smit kapitalni jamg'arilgan mehnat deb hisoblagan, D. Rikardo kapital bilan ishlab chiqarish vositalari bir xil deb tushungan.

Kapitalga har xil ta'rif berilsa-da, kapital daromad keltiradigan qiymat degan tushunchaga taqaladi. Kapital ishlab chiqarish vositasi qimmatbaho qog'oz bo'lishi mumkin. Pul kapitali deganda insonning kamol topishi, bilim olishi uchun sarflanadigan mablag' tushuniladi. Mablag' sarflashdan maqsad foyda olishdir.

Kapitalning tabiati shundaki, u doim harakatda bo'ladi.

Harakatsiz u o'z-o'zidan o'sishdan, demak, yashash to'xtaydi. Bo'shliqsiz tabiat bo'lmagani kabi, harakat takror ishlab chiqarishsiz kapital ham bo'lmaydi. Kapital kengaytirilgan takror ishlab chiqarish xarakterli hisoblanadi.

Kapital o'z harakati jarayonida ketma-ket pul shakli unumli shaklga, unumdan shakldan yangi qiymatga bo'lgan tovar shakliga so'ngra tovar shaklidan kapital shakliga aylanib turadi. Shuning uchun, pul-kapital harakati tahlil qilishda, uni 3 bosqichga bo'lib o'rganamiz. Birinchi bosqichda avanslangan pul kapitali unumli kapital shakliga aylanadi.

$$P - T \begin{cases} / & Iv \\ \backslash & \dots \\ & Ik \end{cases}$$

Bu bosqichda avanslangan pulga (P) tadbirkor ishlab chiqarishni tashkil etish uchun ishlab chiqarish vositalari (I) sotib oladi va ish kuchini (IK) yollaydi. Natijada ishlab chiqarish jarayoni tashkil etiladi va bu jarayonda avanslangan pul unumli kapitalga aylanadi. Kapital harakatining ikkinchi bosqichida ishlab chiqarish jarayoni amalga oshiriladi, yangi qiymatga ega bo'lgan (T<sup>1</sup>) tovar kapitali tashkili topadi. Buni quyidagi formula orqali ifodalaymiz:

$$T \begin{cases} / & Iv \\ \backslash & \dots I \dots T^1 \\ & Ik \end{cases}$$

Kapital harakatining 3-bosqichida yaratilgan (T<sup>1</sup>) tovar qiymati yangi qiymat pul (P<sup>1</sup>) kapitaliga aylanadi. Bu holatni quyidagi ko'rinishda ifodalaymiz:

$$T^1 - P^1$$

Avanslangan kapitalning yuqorida bosib o'tgan ikkinchi bosqichga ketgan vaqtga kapitalni aylanish vaqti deb aytiladi. Tadbirkorlik kapitali o'zining harakatida hamma yuqorida keltirilgan bosqichlarda bo'ladi. Kapital bu bosqichni bosib

o'tishga kapital aylanish, bu jarayonni doimiy takrorlanishga aylantirishni doiraviy harakati deb aytiladi. Kapital unumlashgan holda quyidagicha ifodalanadi:

$$P - T \begin{cases} / & Iv \\ \backslash & \dots I \dots T^1 - P^1 \\ & Ik \end{cases}$$

Avanslangan kapital doiraviy harakatida uchala bosqichda ham harakatda bo'ladi. Ya'ni: pul shaklida P- P<sup>1</sup> tovar shaklida:

$$T \begin{cases} / & Iv \\ \backslash & \dots I \dots T^1 \\ & Ik \end{cases}$$

ishlab chiqarish shaklida:

$$I \dots T \begin{cases} / & Iv \\ \backslash & \dots I^1 \\ & Ik \end{cases}$$

Kapitalning uch bosqichini bosib o'tish ketgan vaqtga kapitalning doiraviy aylanish vaqti deyiladi. Bu vaqt ikki bosqichga: ya'ni muomala vaqti (1 va 3-bosqichlar) va ishlab chiqarish vaqti (2-bosqich)ga bo'linadi. Ishlab chiqarish vaqtida tadbirkor yangi qiymatga ega bo'ladi. Muomala vaqtida esa yaratilgan yangi qiymatga ega bo'lgan tovar pul kapitaliga aylanadi. Bu qiymat dastlabki avanslangan kapitalga nisbatan yuqori bo'ladi:

$$P^1 = P + \Delta P;$$

$P^1 - P = \Delta P$  - bu farq tadbirkor foydasini ifodalaydi.

Kapital turli qismlardan tashkil topadi va turlicha tezlikda harakat qiladi. Kapital o'zining mohiyatiga qarab asosiy va



aylanma kapitalga bo'linadi.

Kapitalning bir qismi ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etib, o'z qiymatini bir necha ishlab chiqarish davomida yangi yaratilgan qiymatga o'tkazadi. Mashhur uskunalar, ishlab chiqarish binolari va ishlab chiqarish vositalaridan iborat bo'lgan bu qism asosiy kapital deyiladi.

Kapitalning bir qismi bir ishlab chiqarish jarayonida qiymatini tayyorlanayotgan tovarga batamom o'tkazadi. Xomashyo, yoqilg'i, yordamchi materiallarda gavdalansa, aylanma kapital deyiladi. Ular jumlasiga mehnatga haq to'lov va avanslangan mablag'lar ham kiradi.

Asosiy kapital bir marta aylanganda aylanma kapitalga bir necha marta aylanadi. Kapital tushunchasi fondlar deb ham ifodalangan. Ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlar eskiradi va asta-sekin o'z iste'mol hossalarini yo'qotadi. Ularning qiymati esa, ishlab chiqarilayotgan tovarga ko'chiriladi. Asosiy fondlar (asosiy kapital) qiymatining ko'chirilishi keyinchalik esa, ularning o'z o'rnini to'ldirish uchun mo'ljallangan summasi amortizatsiya fondini tashkil etadi.

Amortizatsiya fondi qoplash fondi deb ham ataladi. Asosiy fondlarning xizmat muddati tugagandan so'ng ular o'zlarining tabiiy natural - ashyoviy sifati bo'yicha yaroqsiz holga kelib qolganlarida va iste'mol qiymatini batamom yo'qotganlarida (fondlarning jismoniy eskirishi), jamg'arilgan amortizatsiya fondi yangi mehnat vositalarini sotib olish va eskirganlarini ular bilan almashtirish imkonini beradi. Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida asosiy fondlar faqat jismonan eskirib qolmasdan, balki ma'naviy jihatdan ham eskiradi. Ma'naviy eskirish ikki turda bo'ladi: ma'naviy eskirishning birinchi turi shu bilan bog'langanki, mehnat vositalarining muayyan muddatda ishlab chiqarish samaradorligining oshishi natijasida jamiyatning ularning arzonlashuvi yuz beradi, ilgari ishlab chiqarilganlariga o'xshash bo'lgan mashinalar, uskunalar va qurilmalar arzonroq bo'lib qoladi.


Biror bir xil mashinalarning mehnat unumdorligi bir xil bo'ladi, qiymati har xil bo'lishi mumkin. Ularning real ijtimoiy qiymati dastlabki sarflar (dastlabki qiymat) bilan emas, balki ushbu fondlarni takror ishlab chiqarish hozirgi paytda jamiyatga qanchaga tushayotganligi bilan (tiklash qiymati)

belgilanadi. Shunga muvofiq ishlab turgan asosiy fondlar tayyorlanayotgan mahsulotga oldingiga qaraganda ko'proq qiymatni ko'chira boshlaydi.

Ma'naviy eskirishning ikkinchi turi yangi, sifat jihatdan mukammalroq va samaraliroq mehnat vositalari paydo bo'lishi bilan bog'langandir. Ulardan foydalanish ishlab chiqarilayotgan mahsulotni arzonlashtiradi yoki umuman mahsulotdan siqib chiqaradi. Mavjud fondlarning texnikaviy eskirishi buning natijasida o'zgarib qolmaydi, ularning jismoniy eskirishi yaxshi bo'lishi mumkin, lekin ular ma'naviy jihatdan, ma'naviy ishlab chiqarish vositalarining yangi turlariga o'tayotgan holda avvalgi fondlar qadrsizlanadi. Shunday qilib, ma'naviy eskirish turdagi ma'naviy eskirishning oqibatlaridir. Birinchi tomondan korxonalar yutqazadi, ikkinchi tomondan esa - ma'naviy eskirish yutadi, chunki eski fondlar qiymatini yo'qotishning natijasida yangi fondlardan foydalanishdan keladigan tejamning ko'p qismini bilan qoplab yuboradi.

Ilmiy texnika taraqqiyoti natijasida shu kunlarda davlat boshqaruv organlarida mamlakatlarda kapital (fondlar)ning ma'naviy eskirish davri o'rtacha 2-3 yilni tashkil etmoqda. Davlat boshqaruv organlarida davlatlarda undirma sanoatda investisiyalarning ko'p qismini qoplash fondiga sarflanmoqda. Amortizatsiya fondlarining asosiy kapital qiymatiga bo'lgan nisbati davlat boshqaruv organlarida amortizatsiya me'yori deyiladi. Ilmiy texnika taraqqiyotining natijasida amortizatsiyani hisobga olgan holda, davlat qonun asosida amortizatsiya me'yorini oshiradi. Bunday tadbirga jadallashgan amortizatsiya siyosati deyiladi. Ma'naviy eskirishdan keladigan zarar jadallashgan amortizatsiya fondining katta qismini sarflash natijasida qoplanadi. Jadallashgan amortizatsiya natijasida amortizatsiya fondiga foydaning katta qismini ajratish imkoniyati yaratiladi. Natijada, jamg'arish uchun imkoniyatlar yaratiladi. Foydadan olinadigan soliqdan foydalanish imkoniyati ozod qilinadi. Yuqoridagi amalga oshiriladigan tadbirlar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish natijasida amalga oshiriladi.

Ular quyidagilar (2-rasm)da keltirilgan.



2-rasm. Xarajat turlari

Xarajatlarning tarkibiy tuzilishi, ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liqligi doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni paydo etadi.

Ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liq bo'lmagan, ya'ni o'zgarmaydigan xarajatlarda doimiy xarajatlarda deyiladi. Ular rentalar, to'lovlari, qarz, foiz, reklama haqi, ijara haqi, oldindan to'lanish ko'zda tutilgan maoshlar kiradi.

O'z qiymatlarini ishlab chiqarishning bir siklida to'liq yangi qiymatga o'tkazadigan xomashyo resurslari, yoqilg'i, yuk tashish xarajatlari, ishlab chiqarish vositalari va inshootlar amortizatsiyasi qiymati, ishlab chiqarishda band bo'lgan mehnat resurslari to'lanadigan ish haqi kabilar o'zgaruvchan xarajatlarda deyiladi. Ular ishlab chiqarish hajmi bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning o'zgarishi to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi.

Ishlab chiqarish hajmi ortsa, o'zgaruvchan xarajatlarda ko'payadi, qisqarsa kamayadi.

Korxonaning (DX) doimiy va (O'X) o'zgaruvchan xarajatlarning yig'indisi yalpi xarajatlarni (YaX) tashkil etadi.

$$YaX = DX + O'X$$

Korxonani boshqarish uchun mahsulot birligiga o'rtacha keladigan xarajatlarni ham bilish zarur. Shu sababli o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari (O'YaX) yalpi xarajatlarning miqdori (YaX)ni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga (M) bo'lish orqali hisoblanadi.

Huddi shu ko'rinishda o'rtacha doimiy (O'RD) va o'zgaruvchan xarajatlarni hisoblash mumkin.

Korxonaning faoliyatining asosiy maqsadi foydani ko'paytirishdan iborat bo'lsa, unda mahsulotni hajmini ham hisoblash zarur. Bunda biz chegaraviy xarajatlarni hisoblashni qo'llaymiz.

Chegaraviy xarajatlarda hisoblangan ishlab chiqarish hajmiga nisbatan har bir qo'shimcha mahsulotga qilingan xarajatlardir. Lekin har qanday ishlab chiqarish jarayoni o'zining ma'lum chegaraviy o'sish holatiga ega. Shu chegaraviy o'sish chegarasiga etgandan so'ng uning o'sish darajasi pasayib boradi. Bunday holat unumdorligini pasayish qonuni asosida belgilanadi, ya'ni mahsulotga bo'lgan talabni qondirishgacha unumdorlik o'sib boradi va o'sish chegarasiga kelishi bilan unumdorlik ko'rsatkichi kamayib boshlaydi.

Ishlab chiqarish xarajatlari muttasil kamaytirib borish korxonaning foydaliligini oshirishning asosiy sababidir. Ishlab chiqarish xarajatlari kamaytirishning asosiy yo'llari quyidagilardir: fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishni, boshqarishni takomillashtira borish va boshqalar.

## 2. Daromad, foyda, uning tarkibi va shakllari

Har qanday firmaning eng birinchi maqsadi mumkin qadar ko'proq daromad olish yoki boshqacha aytganda foydani maksimalashtirishdan iborat. Avvalo, foydani qanday o'lehash kerak, degan savolga javob beramiz. Foyda deb, yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy qiymatidan ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni ayirishdan qolgan

qiymatga aytiladi.

Foydaning ikki ko'rinishi bor:

- me'yoriy foyda, u xarajatlar tarkibida bo'lgan tadbirkorlik qobiliyati uchun berilgan haqdan iborat;
- iqtisodiy foyda, u xarajatlarga kirmaydi. Bu me'yoriy foydadan ortiqcha bo'lib, mazmunan sof foydadir. Agar firmaning umumiy daromadidan xarajatlar chegirib tashlangan qolgan qismi iqtisodiy (sof) foydani tashkil etadi.

Firma uchun foydaning ikki jihati bor:

- foyda massasi, ya'ni umumiy miqdori.
- foyda me'yori, ya'ni uni nima evaziga foiz hisoblab olinganini ifodalaydi.

Foyda massasi odatda tarmoq korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning natural ko'rinishi bilan ifodalanadi va ular miqdori (kg, litr, m<sup>3</sup>, m<sup>2</sup>) va boshqa ko'rsatkichlarda ifodalanadi.

Foydani maksimalashtirish uning foyda me'yorini oshirish zarur. Ammo, firma uchun foyda me'yori muhimroq, chunki u firma faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi. Foyda me'yori jamiki foydaning uni topish uchun qilingan umumiy xarajatlarga bo'lgan va foizlarni ifodalangan nisbatidir.

$$F_M = \frac{F}{U_X} < 100\%$$

$F_M$  – foyda me'yori;

$F$  – foyda;

$U_X$  – umumiy xarajatlar.

Yoki foyda me'yorini aniqlashning ikkinchi usulida foydani asosiy va aylanma fondlarga bo'lgan nisbati orqali ham hisoblash mumkin. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$F_m = \frac{F}{Af_1 + Af_2} \times 100\%$$

$F_m$  – foyda me'yori;

$F$  – foyda;

$Af_1$  – asosiy fondlar qiymati;

$Af_2$  – aylanma fondlar qiymati.

Faoliyat turiga ko'ra daromadni ishlab chiqarish, tijorat (savdo-sotiq) va bank foydasi kabilarda ko'rsatish mumkin.

Tijorat (savdo-sotiq) daromadi asosan ishlab chiqarish korxonalarida yaratilgan sof foydaning bir qismi bo'lib, uni ishlab chiqaruvchilar tijorat xodimlariga tovarlarini ko'tara bahoda kechib beradilar. Tijoratchilar esa, tovarlarni chakana baholarda sotish orqali korxonalar daromadlarini va ular tijoratchilarga ko'tara baholalar orqali bergan sof daromadning bir qismini o'zlashtirishni ta'minlaydilar. Ishlab chiqaruvchilar tovarlarning muomala jarayoni bilan shug'ullanmaydilar. Sababi, ular yo ishlab chiqarishni ma'lum vaqtga tovarlarni sotib bo'lgunga qadar to'xtatib turishlari kerak, yoki qo'shimcha mablag' ajratishlari zarur bo'ladi.

Bank foydasi esa, odatda berilayotgan kreditlarga qarz oluvchilar tomonidan to'lanadigan foizlarni tashkil etadi.

Firma daromadi deganda uning pul tushumlarini sotish kerak. Daromad foydadan ko'p bo'ladi. Firma daromadi uchga bo'linadi.

a) umumiy daromad (UD) - barcha tovar va xizmatlarni sotishdan tushgan pul. Uning miqdori sotilgan tovar va xizmatlar soniga (Q) va ularning bozor narxiga (N) bog'liq. Bunda

$$UD = Q \times N;$$

Agar firma tovarni ko'p chiqarsa va yaxshi narxda sotsa, umumiy daromad ko'payadi.

b) o'rtacha daromad (O'rd) – tovar birligini sotishdan tushgan pul. Uni topish uchun umumiy daromad sotilgan

tovar miqdoriga bo'linadi.

v) me'yoriy daromad (Md) – qo'shimcha ravishda sotilgan tovardan tushadigan qo'shimcha pul (Qp), aniqlash uchun sotilgan qo'shimcha Qr tovarlar miqdoriga bo'linadi.

$Md=Qp : Qr$ . Bu ko'rsatkich tovarlarni qo'shimcha ishlab chiqarish, umumiy daromadni oshirishini ko'rsatadi. Agar umumiy daromad xarajatga teng bo'lsa, natija nolga teng, ya'ni foyda ko'rilmaydi. Foyda firma faoliyatining moliyaviy natijasi hisoblanadi. Firma me'yoriy foyda olishga intiladi.

Me'yoriy foyda – me'yoriy daromad bilan eng yuqori chiqimlar o'rtasidagi tafovutdir. Me'yoriy foyda mahsulot ishlab chiqarishning muayyan darajasiga qadar ijobiy bo'lishi ammo unga yetgandan so'ng salbiy bo'lib qoladi. (salbiy foyda ziyonning o'zidir). Firma foydaning miqdori maksimum bo'ladigan ishlab chiqarish darajasiga qanday erishadi? Agar qo'shimcha ishlab chiqarish jarayonida xarajatga nisbatan daromad oshsa, firma ishlab chiqarishni kengaytiradi va maksimal foydaga erishadi.

Iqtisodda iqtisodiy va balansdagi foyda degan tushuncha ishlatiladi. Iqtisodiy foyda (sof foyda) – olingan daromad bilan ichki va tashqi xarajatlarni o'rtasidagi farq hisoblanadi. Buxgalterlik foydasi tovarni sotishdan olingan yalpi tushumdan tashqi ishlab chiqarish xarajatlari ayirib olinishidan qolgan qismidir. Buxgalterlik foydasidan korxonada faoliyatining samarali yoki samarasiz ekanligi ifodalay olmaydi. Buxgalterlik foydasidan ichki korxonada ishlab chiqarish xarajatlari ayirgandan so'ng qolgan foyda iqtisodiy foyda hisoblanadi.

Ma'lumki, firma doimo foyda olishga va uning miqdori oshirib borishga harakat qiladi. Foydani xarajatlardan ko'paytirmasdan oshirish mumkin emas. Belgilangan xarajat miqdoriga nisbatan mahsulot miqdori ko'paytira borsam, foyda miqdori o'sib boradi. Ammo resurslar miqdori cheklangan. Qancha sarflab, qancha foyda ko'rganligi firma ishining samarasini belgilaydi. Shu boisdan iqtisodiyotda foydalilik yoki rentabellik deb atalgan ko'rsatkich qo'llaniladi. Uning

ni olish uchun olingan foyda qilingan xarajatlarni olinadigan foydadan ko'p bo'lmaydi va xarajatlarni birligiga foyda to'g'ri kelishi ta'min bo'ladi.

Rentabellik – xo'jalik faoliyatining samaradorlik darajasini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlardan biri bo'lib, u ma'lum vaqt (yil, oy, o'ngin) davomida ishlab chiqarish faoliyatining foydaliligi (yoki rentabelligini) ko'rsatadi.

Korxonada rentabelligi olingan foydani qilingan sarflarga nisbatan hisoblash orqali aniqlanadi va u foizlarda ifodalanadi. Korxonada umumiy xo'jalik faoliyati rentabelligini biror turdagi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligi asosida ham hisoblash mumkin.

Korxonada umumiy faoliyati rentabelligi (R) quyidagicha hisoblanadi:

$$R_1 = \frac{\text{foyda}}{\text{tamarx}} \times 100\%,$$

$$R_2 = \frac{\text{foyda}}{\text{asosiy va aylanna mablag'}} \times 100\%,$$

Rentabellik darajasining o'sishiga quyidagi: ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, materiallar, yoqilg'i, xomashyoning sarfliligi, xizmat ko'rsatish va boshqaruv sarflarining kamaytirilishi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

### 3. Bozorda firma harakatining umumiy tamoyillari

Bozor iqtisodiyoti tasodiflardan holi emas. Bozorda xizmat ko'rsatayotgan firmalar har xil vaziyatlarga tushib qolishlari mumkin. Firmaning ishi yurishib, boyib ketish yoki zararga uchrab, boridan ajralishi hech gap emas. Bunday holat bozordagi firmalardan birinchidan, firma ishini uquvsiz yuritishdan, ikkinchidan firmaga bozordagi resurslar va tovarlar narxining kutilmaganda o'zgarishi, uchinchidan, bozordagi resurslar va tovarlar narxining kutilmaganda o'zgarishi, mijozlar va sheriklarning aynib ketishi, soliq, boj pulining oshirishi, xalqaro vaziyatning keskinlashuvi xatarni yuzaga keltirishi, xalqaro vaziyatning keskinlashuvi xatarni yuzaga

chiqaradi. Firmalar yo'liqadigan xatarlarni uch guruhga bo'lish mumkin.

1. Ishlab chiqarish xatari. Bu kerakli hajmdagi va turdagi tovarlarni yaratishga rahna soluvchi xavf-xatar.

2. Tijorat xavf-xatari. Bu mo'ljallangan resurslarni boshqarishda qisqirish, qisqirish bilan o'zlashtirish va tovarlarni kutilgan miqdorda va narxda sotish imkoniyati bo'lmagan xavf-xatari.

3. Moliyaviy xavf-xatar. Bu firma moliya bozorida va tovar bozorida to'lash sohasida bo'ladigan xavf-xatardir.

Demak, eng, avvalo, firmalar xatarni chetlab o'tish yo'li o'zlashtirish kerak. Qaerga, qancha pul qo'yish, qaysi sohada boshlashdan oldin qaerlarda ish qanday ketayotganligi o'rganish kerak. Axborot to'planadi. Axborot tovar narxi, savdo imkoniyati, raqobatchilik vaziyati, xarajatlar darajasi, bozorning kengligi, imkoniyati, resurslar narxi, reklama holati va boshqa sohalar qamrab oladi.

Bozorda firma harakatining asosini raqobatchilik vaziyati o'rganish tashkil etadi. Har kanday firmaning maqsadi tez va qimmat foydani maksimallashtirish, oz foyda bilan qanoat qilgan holda bozorini kengaytirishi yoki raqibini bozordan siqib chiqarish yoki yangi bozorga sekin-asta kirib borishdir. Raqobatdagi iqtisodiy tanlov tamoyiliga ko'ra iqtisodiyot ishtirokchilari sarf qilgan yaxshi ishlagan firma boyib ketadi. Shu sababli har yili dunyo bo'ylab minglab firmalar yopilsa, minglab yangilari ochiladi. Firma raqibini siqib chiqarish uchun nisbatan sifatli va arzon tovar taqdim etishi shart. Raqobat qizg'in joyda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, u sustlashgan sharoitda esa iqtisodiy turg'unlik yuz beradi.

Respublikada makro va mikroiktisodiy barqarorlashtirishga erishish - iqtisodiy islohotlarning hozirgi davrdagi strategiyasining asosiy yo'nalish hisoblanadi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini barqarorlashtirish bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «...inqirozga uchrashgan davrda berish uchun ishlab chiqarish va chiqarilayotgan mahsulotning tarkibini o'zgartirish yuzasidan oldini olish chora-tadbirlarini ko'rishga undaydi. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va harakat qilishga, mahsulotning sifati va iste'mol xossalari

ta'minlashga, uning raqobatga bardoshlilikini oshirishga majbur bo'ladi» - degan edi.

## Asosiy atama va tushunchalar

Mehnat bozori, mehnat shartnomalari, vaqtbay va ishbay ish haqi, ish haqi tarif setkasi va stavkasi, nominal va real ish haqi, monopoliya va oligapsoniya, kasaba uyushmalari, insonga qaratilgan kapital.

## 10-mavzu. MEHNAT MUNOSABATLARI VA ISH HAQI

### 1. Ish haqining iqtisodiy mazmuni

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari asosida olib borilayotgan iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili bu inson omilidir. Mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslarning iqtisodiyotida faol ishtiroklari mamlakatimizni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishga qaratib bo'lishini ta'minlaydi.

Mehnatga yaroqli shaxslarni ishga jalb etishning asosiy yo'li, mehnatning mehnatlari darajalariga qarab ish haqi to'lovini to'g'ri ta'lim berish va ta'lim olishga bog'liq. Ish haqi bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat daromadlar qismida asosiy qismini tashkil etadi. Ish haqi iqtisodiy kategoriya bo'lib yollanma ish kuchi xodimini ishlab chiqarish jarayonida faol qatnashganligini mehnat darajasiga qarab yaratilgan yalpi mahsulotdan pul shaklida o'z mehnat qimmatini ish haqi sifatida olinishiga aytiladi.

Ish haqi insonning ishlab chiqarish jarayonida jismoniy va intellektual kuch yig'indisini sarflanishiga to'langan haqdir. Ish haqi mehnatning qiymatini qoplanishini ta'minlashi lozim. Ish haqi mehnat kuchi qiymatini qoplashi zarur. Ish haqi ishlab chiqarish jarayonini olib borayotgan har bir ishchini shaxsiy va ijtimoiy talablarni qondira olishi zarur. Bu talablar ishchi kuchini mehnat faoliyatida doimiy ravishda qatnashishini ta'minlaydi.

Ya'ni, uning iqtisodiy va ma'naviy talablarini qondirish

zarur. Ish beruvchi esa yollanma mehnatni ish beruvchi ta'minlashidan maqsad ma'lum darajada foyda olish asosida o'zining iqtisodiy manfaatdorligiga erishishdir.

Ish haqini quyidagi yo'nalishlarda ko'rib chiqish maqsadga to'g'ri bo'ladi. Ish haqi bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorida ish kuchi qiymati shaklida ifodalanadi, ishlab chiqarish jarayonida esa ish kuchining mehnati haqi sifatida ish beruvchi mehnatini miqdorini va qiymatini ifodalashi kerak, ish beruvchi ishchining shaxsiy oilaviy daromadining asosiy qismi shaklida ifodalanadi.

Ish kuchi bozorda tovar sifatida sotiladi. Ishchi o'z kuchini sotadi xaridor esa uni sotib oladi. Xaridor ish kuchini sotib olishdan maqsad ishlab chiqarish jarayonida undan foydalanish natijasida ma'lum bir foyda (daromad) darajasini o'zlashtirish iboratdir. Ishchi kuchi tovar ekan uning qiymati qancha bo'lsa, belgilanishini bilish zarur.

Uning qiymati quyidagilarga bog'liq:

- ish kuchini mehnat qilish qobiliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar va ularga ko'rsatiladigan xizmatning qiymatiga;

- ish kuchi o'z qiymati evaziga o'zining oila a'zolarini boqish darajasiga ega bo'lishiga;

- ish kuchini malakasini, kasbiy mahoratini oshirish uchun bo'lgan talablarini qondirishi kerak.

Ish kuchini sotuvchi sub'ekt bilan uni xarid qiluvchi ish beruvchi sub'ekt o'rtasida ishchi kuchini sotish va sotib olish bo'yicha bitim tuziladi.

Bu bitim o'zida talab va taklifni bir biriga muvofiq kelishini ifodalaydi. Ishlab chiqarish ob'ektlaridagi mehnat jarayonida ishchi haqi mehnatga to'lanayotgan haq sifatida nomoyon bo'ladi. Buning asosiy sababi quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish sub'ektlarini ish kuchini nafaqat mehnat qilish darajasi qiziqtiradi, balki, uning mehnatini haq olinmagan holda yaratgan foydasi qiziqtiradi;

- ish haqi ishlab chiqarish jarayonida ishchi kuchini qiymatli ekanligi bilan ish beruvchi sub'ektini qiziqtirmaydi, balki, ishchi qanday qiymat va sifatiga teng mehnat qilish darajasi qiziqtiradi.

Ish haqini ish kuchi qiymati shaklida ifodalanishining asosiy sababi, u ma'lum bir ish vaqtida bajarilgan ish uchun olgan ish haqi bo'lib ko'rinishidadir. Chunki, ish haqi ish bajarilgandan so'ng to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov – 2008 yilgi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi mamlakatni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi ma'ruzasida 2008 yilda o'rtacha ish xaqi «5 barobardan ziyod, butun iqtisodiyot bo'yicha esa 1,4 barobar oshirish» Natijada, o'tgan yili o'rtacha ish haqi miqdori 300 AQSh dollaridan ortiq bo'ldi.

Aholining real daromadlari esa yil davomida jon boshiga 23% oshirishga ko'paydi. Joriy 2009 yilni oladigan bo'lsa, o'rtacha ish haqi miqdorini byudjet sohasida va shunga mos ravishda xo'jalik beruvchi sub'ektlarda ham 1,4 barobar oshirish ko'zda tutilganida» – degan edilar.

Ish haqini tashkil topishi to'g'risida fransuz olimi J.B.Sey 1990-yilgi ma'ruzasida birinchi marotaba ko'rilgan. Uning fikricha ishlab chiqarish jarayonida uch omil, mehnat, yer va kapital faol ishtirok etib, ular daromad yaratadilar. Ya'ni, bu uch omil daromad yaratishni tashkil etadi.

Bu nazariyani amerikalik J.V.Klark yanada rivojlantirib ishchi kuchi unumdorligi qo'shilgan omil unumdorligi g'oyasini ishlab chiqarishga kelishiga asos bo'ldi.

J.B.Sey ishlab chiqarish omillarini o'zining «Boyliklarining taqsimlanishi» nomli asarida ishlab chiqarishda yaratilgan boylikni uch omil o'rtasida taqsimlanadi deb fikrni bildirgan. To'g'ri, bu omillar ishlab chiqarishda yangi yaratilayotgan boylikni yaratishning asosiy manbai hisoblanadi.

Ammo, bu boylik taqsimoti bu uch omil o'rtasida tenglik darajasida taqsimlanmaydi.

Aks holda ishlab chiqaruvchi sub'ekt o'zining tadbirkorlik faoliyatidan foyda olmagan bo'lur edi. Tadbirkor sub'ekt foydasi ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan ish kuchining ma'lum mehnatini qiymatiga haq to'lanmasligi oqibatida foyda oladi.

## Ish haqi to'lash turlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni bajaradi. Ish haqi ishchi kuchi qiymatini o'zida ifodalaydigan etadi. Hozirgi davrda ish haqi to'lashning quyidagi turlari ko'pincha qo'llaniladi. Bu ish bay va vaqt bay ish haqi to'lashdir. Ushbu turlarini quyidagi (1-rasm) da ko'rish mumkin.


Ishlab chiqarishda ish haqi to'lashni qaysi shaklda amalga oshirilishi ish beruvchining ixtiyorida bo'ladi. U ishlab chiqarish sharoitlaridan kelib chiqqan holda ish haqi to'laydi. Respublikada ish haqi to'lashning asosan ikki usuli ish bay va vaqt bay usulidir. Iqtisodiy rivojlanishining tarmoqlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo'llanilmoqda.

Hozirgi erkinlashgan bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'pincha bitim asosida xam ish haqi to'lash qo'llanilmoqda. Ish haqi to'lashning bu shakli ma'lum ish hajmini ish kuchlari bilan ta'minlash kelishilgan holatda ularga bajarish uchun topshiriladi. Ish haqi odatda tarif tizimi tarmoqlar va mamlakat mintaqalariga qarab tartibga solinadi.

Ish haqi xodimlar malaka ma'lumotlari e'tiborga olingan holda to'lanadi. Tarif tizimi tarif malaka so'rovnomasidan, tarmoq jadvaldan va tarif ish haqi darajalaridan tashkil topadi. Tarif tizimi malaka ma'lumotlarini va ish haqi to'lash bilan bog'liq bo'lgan koeffitsientlarni o'z ichiga oladi. Ish haqi to'lash koeffitsientlari ishning oddiyligidan murakkablik darajalariga qarab belgilanadi.

Tarif tizimi ishlab chiqarishda band bo'lgan ish kuchlarini yuqori darajada ish haqlari olishga ularni o'z mutaxassislik va kasbiy mahoratlarini oshirishga davat etadi.

Tarif malakasi, kasblar va mehnat turlarini batafsil ifodalaydigan etadi. Uni bajarilishi uchun zarur bo'lgan kaspiy mahoratlarini ishchi razryadlariga bo'lishni ifoda etadi. Ishchining malaka darajasi uning ishga qabul qilishda berilgan razryad bilan ifodalanadi.



1- rasm. Ish haqi shakllari va tizimlari

Tarif jadvali tarif razryadlari va tarif koeffitsientlaridan tashkil topadi. Respublikada tarif setkasi 22 razryadlardan tashkil topgan. Ishchilar mehnatini 1-8 razryadlar asosida, mutaxassis va amatchilar 9-16 razryadlar bo'yicha, yuqori lavozimli amatchilar esa, 17-22 razryadlar bo'yicha ishga qabul qilinadilar va ularga ish razryadlari asosida ish haqi to'lanadi. Respublikada ishchi ijtimoiy himoyalashni ta'minlash maqsadida iqtisodiy rivojlanishdagi inflyasiya jarayoni darajalarini e'tiborga olgan holda ish haqini eng past darajasi belgilash asosida oshirib berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy o'quv kengashlarini xodimlarini ish haqi to'lovlarini takomillashtirish va ularning mehnatini moddiy rag'batlantirish to'g'risida № PP-116 raqamli 24 iyul 2008 yilda farmoni e'lon qilingan. Bu farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1 avgust 2008 № 164 qaroriga binoan oliy o'quv

yurtlari professor-o'qituvchilari va rahbarlariga ish haqi to'lovini 1 sentyabrda lavozimlariga belgilangan oylik maoshi to'lanadi.

Vaqtbay ish haqi to'lash asosan mutaxassislarning va ishchilarning kasbiy malakaviy mahoratlariga qarab mehnat haqini o'lchash qiyin bo'lgan tarmoq korxonalarida to'lanadi. Ish haqi to'lash asosan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan ishchi xodimlarning mehnati asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar birligiga qarab ish haqi to'lanadi.

Ishbay ish haqi to'lash odatda ma'lum bir aniq ish bajarishda, uni miqdorini hisoblash mumkin bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlari korxonalarida qo'llaniladi. Oddiy ishbay ish haqi to'lashda bajariladigan ishning mahsulot birligiga qo'yilgan to'lov xaqi asosida to'lanadi.

Mukofotli vaqtbay ish haqi odatda mutaxassislarning, kasbiy mahoratli ishchilarning ularga berilgan ish vazifalarini o'z vaqtida sifatli bajarganlarida ular oylik, kvartal va yillik mukofotlarni olishga muvoffaq bo'ladi.

Ishbay mukofot tizimi ishchi tomonidan belgilangan ishlab chiqarish sifatli ko'p hajmda va arzon ishlab chiqarishga erishsa ishchilarga mukofotni olishga muvaffaq bo'ladi.

Mukofotli ishbay ish haqi to'lashda qo'shimcha yana yillik mukofot ham to'lanadi. Ish haqiga ta'sir etuvchi omillar o'z navbatida mamlakatda shakllanadigan an'anaviy udumlar, ijtimoiy madaniy ehtiyojlarni qondirish uchun kerakli mablag'lar taqab etadi. Vaqtbay ish haqi to'lash shakllari odatda bir korxonadan tomonidan bajarilgan ishlab chiqarish hajmini o'lchash bo'lmaydigan va aniq ishlab chiqarishni talab etuvchi tarmoqlarda va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida qo'llaniladi. Ishlab chiqarish haqlari nominal va real ish haqlariga bo'linadi. Nominal ish haqi ma'lum bir ish vaqtiga to'lanadigan haqqa aytiladi. Real ish haqi esa ana shu nominal ish haqi ish kuchini iste'mol talablarini qanchalik qanoatlantirish darajasida ifodalanadi. Ish haqini tirikchilik vositalarini xarid qilish va pul jamg'armasini hosil qilish uchun ishlatiladi.

Ish haqi darajasi bajarilayotgan ishlarning murakkablikiga qarab bajarish muddatlariga qarab belgilanib boradi. Ish haqi to'lov mehnatga qarab ish haqi to'lash qonuniga rioya qilgan holda

o'z oshirilishi iqtisodiyotni samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

Shakllantirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatni rivojlantirish tadbirkorining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Tadbirkor ish kuchlarini mehnatga jalb etish, uni ishlab chiqarishda har bir ishlab chiqarish xodimini psixologiyasini hisobga olish katta ahamiyatga egadir. Ish kuchiga faqat ishlab chiqarish tarmoqlarida ma'lum moddiy ne'matlar yaratuvchi sub'ekt sifatida qaramasdan, uning ko'p qirrali faoliyatini e'tiborga olish zarur. Tadbirkor maqsadi ishlab chiqarishdan foyda olish, mahsulotni bozorga oshirish uning tannarxini kamayib borishiga erishishdan iborat.

Ammo tadbirkorning ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan jarayoni ish kuchi talablari bilan mos kelmasligi mumkin. Ishbilarmon tadbirkor bu muammolarni hal etish uchun ishlab chiqarishni izlab topadi. Chunki, tadbirkor ish kuchini ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan sub'ektlarni topishda ham qarashi kerak. Tadbirkor buning uchun:

- 1. Ishlab chiqarish kuchi talablarini to'liq qondirishga intilishi;
- 2. Tadbirkor ish kuchini ishlab chiqarish korxonasi mahsulotlariga olish uchun uning zarurligini anglashlari;
- 3. Ishlab chiqarish kuchi ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantirishlari zarur.

Xorijiy mamlakatlarda ish haqi to'lash asosan uch qisimga bo'linadi. Birinchi qism bu manbaga, yoki ishchi mehnatiga qarab to'lanadigan xaq. Ikkinchi qismi shu firmada ishlash muddatlariga qarab to'lanadigan qo'shimcha ish haqi to'lanadi. Uchinchi qismi esa ishlab chiqarish sub'ektlarining qulga kiritgan yutuqlariga qarab to'lanadi. Buning mohiyati shundan iboratki ishlab chiqarish tarmoqlarini mehnatga bo'lgan munosabatini mustahkamlaydi va buning bir yerda ishlashga choralaydi.

### 3. Mehnat bozori

Mehnat bozori barcha bozor turlari ichida eng asosiy bozor bo'lib hisoblanadi. Mehnat bozori o'zining maxsus xususiyatlariga ega.



Bu bozorda oddiy mehnat tasirida yaratilgan tovarlar bilan ta'minlash qilish emas balki iste'mol va ishlab chiqarish vositalari yaratuvchi inson mehnati bozori ekanligi bilan ajralib turadi.

Mehnat bozorini rivojlanishi bozor talablari asosida uning tashkil topishi insonlarning psixologik qarashlari, ijtimoiy xususiyatlari hamda mehnat qilish faoliyati bilan bog'liq.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatni motivatsiyalash va ta'minlashni uning turli shakllarida, bozor talablari asosida rivojlanishi bilan ajralib turadi. Mehnat bozorida inson va uning oila a'zolari to'liq davr talablari asosida kamolotga yetkazish uchun ishlab bo'lgan moddiy omil ish haqi shakllanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozori ko'pincha mehnat bozor bo'lib, u jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy holatini ifoda etadi.

Mehnat bozorida ish beruvchilar bilan ish kuchlarini sotib olish sub'ektlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlar ham tovar va xizmat shaklida amalga oshiriladi, sababi bozor iqtisodiyoti sharoitida ish kuchini tovar bo'ladi. Bu maxsus tovar, foyda keltiruvchi hisoblanadi, bu tovarning maxsusligi shundan iboratki ish kuchidan uning mehnat qilish, tadbirkorlik xususiyatlarini ajratib bo'lmaydi.

Ishchi kuchi tovar deganda asosan ishchini mehnat qobiliyati darajasi tushunilishi kerak. Ishchi kuchini mehnat qilish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa uning qiymati shunchalik yuqori bo'ladi. Mehnat bozorida ish kuchini ishlab chiqarishning maqsad yo'nalishlari bo'yicha qo'llash uchun oldi-sottisi amalga oshiriladi.

Mehnat bozorining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:  
-ish kuchi egalari bilan unga talabgor bo'lgan ishlab chiqarish sub'ektlari o'rtasida iqtisodiy munosabat tovar shaklida amalga oshirish;

-mehnat bozorida ish kuchiga talab va taklifni shakllantirish;  
-mehnat bozorida ish kuchini tanlash va ishga yo'llanishni tashkil etish;

-ish kuchining harakati erkin harakat bo'lib, u istagan sohalar korxonalarida ishlash xususiyatlariga ega bo'lishi;

-mehnat bozorini maxsus yo'nalishlarga qarab uning kam malakaviy mahoratlaridan kelib chiqqan holda shakllantirish;

mehnat bozori ish kuchi mehnatiga to'lanadigan ish xaqini ta'minlashni ta'minlaydi;

mehnat bozor real iqtisodiy rivojlanish muhitlarni e'tiborga olinish holda ish kuchi mehnat bozorini shakllantirishni ta'minlaydi.

Mehnat bozorining xususiyatlari quyidagilarda ifodalanadi:  
-ish kuchlarini sotuvchi sub'ektlar bilan uni xarid qiluvchi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlar maxsus bitimga asoslanadi;  
-mehnat bozorida ish kuchi uchun uning mehnat qilishiga bo'lgan ishlab chiqarish va ijtimoiy muhit katta ahamiyatga ega;

-mehnat bozori mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyligini ta'minlaydi;

-mehnat bozori doimiy ravishda davlat va uning turli idoralari, kasaba ittifoqlari ta'sirida bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning asosiy siyosatlaridan biri ishsizlikka qarshi kurash darajasini oshirish yo'lida mehnat bozorini tartiblashdan iboratdir. Agarda 2006 yilda mehnat bozorida ishsiz sifatida hisobga olinganlar 29,1 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2007 yilga kelib 27,4ming kishini tashkil etgan. 2007 yilda mehnatga joylashtirish uchun talotlariga ishga joylashish bo'yicha murojaat qilganlar 557,4 ming kishini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2006 yildagiga nisbatan 1,4 foizni tashkil etgan yoki 165,9 ming kishiga ko'paygan.

2007 yilda ro'yhatga olingan ish qidiruvchilarning 75 foizi 16-18 yosh aholisini tashkil etgan bo'lib, uning 0,8 foizi 16-18 yoshgacha, 50,9 foizi 18-30 yoshgacha, 47,0 foizi 30-50 yoshgacha bo'lganlarni tashkil etgan. 2007 yila ishga joylashtirish uchun taloti orqali ishga joylashtirilganlarning soni 486,5 ming kishini tashkil etgan. Bu ishga joylashish uchun murojat qilganlarning 87,3 foizini tashkil etadi. Ishga joylashtirish 2006 yilga nisbatan 5,4 foizga ko'paygan.

Umumiy ishga joylashganlarning 52,2 foizi 16-30 yoshgacha bo'lganlarni tashkil etgan. 2007 yilda ishga joylashish to'g'risida murojaat qilganlarning 88,5 foizi ish bilan ta'minlanganlar. 2006 yildan 89,8 foizi ayollar, 89,5 foizi erkaklar, 84,6 foizi ni esa aholi qo'shig'ida istiqomat qiluvchi aholi tashkil etgan. Mehnat bozori

mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ta'sir etadi. Mehnat bozorining talab darajasida ishlashi mamlakat barqarorligi asosidir. Shuning uchun ham har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy holatdan kelib chiqqan holda mehnat bozori rivojlantirish uni takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqadi.

Ish o'rinlarini o'sib borishini ishsizlikni oldini olishni asosiy yo'li hisoblanadi. 2008 yilda Respublikada 661 mingta ish joyi yaratildi. Shundan 374 mingi kichik biznes sohasiga, 220 mingi xizmat ko'rsatish va servis sohasiga va 97800 tasi kasanalar hisobiga tashkil etilgan.

Mehnat bozorini tashkil etish va uni boshqarish dasturidan tomonidan qabul qilingan maxsus dastur asosida amalga oshiriladi. Mehnat bozorini boshqarish dasturi quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- bandlik darajasini oshirishni rag'batlantirish;
- mehnat xodimlarini malakalarini oshirish va qayta tayyorlash asosida kaspiy mahoratlarni oshirish;
- ish kuchlarini ishlab chiqarishga joylashtirishni ta'minlash;
- ish bilan ta'minlanmagan ishlashni xohlovchilarni ishga joylashtirish;
- ish bilan ta'minlanmagan mehnat qilishga layoqati bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilishini ta'minlash.

Shu bilan birga davlat qo'shimcha ravishda qiyosiy usul orqali mehnat bozorini rivojlantirish uchun chora va tadbirlar ko'rsatadi. Jumladan, mamlakatdagi iqtisodiy holatni, biznesni rivojlantirish uchun chora tadbirlarini amalga oshirishni ta'minlashda pul-kredit va moliya tizimlari orqali tartiblash asosida ishsizlik darajasini kamaytirish va ularga bo'lgan talab va takliflarni muvofiqlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni bo'lishiga erishadi.

Erkinlashtirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti turli mulkchilik shakllariga asoslangan ishlab chiqarish sub'ektlari o'rtasidagi raqobat asosida mehnat bozori shakllanadi.

Erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z ish kuchini sotuvchi va uni xarid qilib oluvchi sub'ektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar erkin ravishda ikkala sub'ektlarning kelib chiqish asosida amalga oshiriladi. Erkin raqobatga asoslangan mehnat bozori quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

1. Ish kuchini yollash ishlab chiqarish sub'ektlari o'rtasidagi erkin raqobatga asoslanadi;


2. Ish kuchini mehnat bozoriga taklif qilinuvchilarning asosiy qismi malakasiz va mutaxassis sub'ektlar tashkil etadi;

3. Ishlab chiqarish sub'ektlaridagi mehnat qilish sharoitlarini qiyaslanib birlay bo'lishi ish kuchiga bo'lgan tovar-pul munosabatlarini tengligiga va uni ish haqiga ta'sir qilmasligiga asoslanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish kuchiga bo'lgan talab bilan taklif o'rtasidagi muvozanat ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatga ega. Ish kuchlariga bo'lgan talab va taklif muvofiqligi iqtisodiy rivojlanishning hamma tarmoqlarini qamrab olishi kerak, shuning uchun iqtisodiyot inqirozsiz barqaror rivojlanadi.

Ish kuchiga bo'lgan talab ishlab chiqarish jarayonini, hajmini va uning turlarini o'sib borishiga bog'liq.

Demak, ish kuchiga talab moddiy va nomoddiy tarmoqlarini rivojlanish darajasiga bog'liq ekan, ish kuchini yollovchi tadbirkor sub'ekt uni ishga jalb qilishi unga qanday foyda keltirishini va uning qiymatini qoplab olishini bilishi zarur. Shunga qarab ish kuchiga talab va taklif (2-rasm) shakllanadi. Ishlab chiqarish sub'ekti bo'lgan tadbirkorni ish kuchini mehnat qilish qobiliyati va ish kuchi mehnati asosida yaratiladigan yangi qiymat ham qiziqitiradi. Xulosa qilib ayta olish mumkinki, ish kuchiga bo'lgan talabning o'sishi ish haqiga nisbatan teskari proporsional nisbatda bo'ladi.



2-rasm. Ish kuchiga talab va taklifni shakllanishi

- U- Ish kuchi qiymati;
- Q- Mehnat miqdori;
- S- Mehnatni taklif qilish egri chizig'i;
- D- Ish kuchiga bo'lgan egri talab.

Ish xaqini o'sishi ish kuchiga bo'lgan talabni kamaytiradi. Ish kuchiga bo'lgan talab iqtisodiy rivojlanishning sikli bosqichlariga, fan va texnika taraqqiyotida foydalanish darajasiga va iqtisodiy mintaqalarda mehnat bozorlarini xususiyatlariga bog'liq. Ish kuchini mehnat bozorida taklif qilishga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- iqtisodiy mintaqalarning demografik jarayonlari, ishlab chiqarishda qatnasha oladigan mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lganlar;
- ayollarning tadbirkorlik faoliyatlarida ularning faolligini o'sib borishi;
- aholining malakaviy va kaspiy mahorat darajalarini oshirib borishi;
- aholining migrasiya jarayonlari darajasi;
- ish haqlarining o'sib borishi va mehnat sharoitlari darajalariga ham bog'liq.

Ish kuchini ishlab chiqarish jarayonida bandligi davrida ishlab chiqargan mahsuloti uning pulda ifodalangan qiymati ish o'rnini egallash samaradorligini bildiradi. Demak, ish vaqtida unumli foydalanish zarur. Foyda samaradorligi esa ishlab chiqarishda band bo'lgan ish kuchi xodimi ma'lum ishlab chiqarish darajasiga erishgandan keyingi vaqtlar ichida u foyda (daromad) keltiradi.

Foyda samaradorligini o'sishi ishlab chiqarishda bandlik vaqtini qisqartirishda ifodalangan holda ish haqi darajasini kamayishiga ta'sir etmaydi. Foyda samaradorligi odatda mehnat tejamkorligini ifodalaniishi mumkin. U ish vaqtiga nisbatan bo'sh vaqtini ko'payishida ifodalanadi.

Tarmoq darajasida esa foyda samaradorligini o'sishi ishlab chiqarishda band bo'lgan ish kuchlarini qisqarishiga olib keladi.

Mehnat bozorida ish kuchiga talab va taklif doimiy ravishda o'zgarib turadi.

Mehnat bozorini o'rganishda mehnat bozori modellarini o'rganish zarur.

Mehnat bozori modellarini quyidagi turlari mavjud:

Erkin raqobatga asoslangan mehnat bozori, bu erda ishlab chiqarish sub'ektlari o'rtasida ish kuchiga bo'lgan talablarini taqdirlash erkin raqobat asosida amalga oshiriladi;

Monopsoniya mehnat bozori. Bu mehnat bozori ishtirokchilardan iborat bozor bo'lib, unda yagona monopsoniya monopoliya sub'ekti tomonidan ish kuchi mehnati xarid qilinadi;

Monopoliya mehnat bozorida ish kuchini xarid qilish bir necha turli yo'nalishdagi firmalar tomonidan amalga oshiriladi;

Oligopoliya mehnat bozorida odatda ish kuchi mehnati bozorida, odatda bir necha monopoliyalar ish kuchlarini ishga olib kelish bilan shug'ullanadilar;

Sof oligopoliya mehnat bozorida yirik monopoliyalar ish kuchi xaridorlari bo'ladi.

Monopsoniya asosiy xususiyatlari ma'lum bir yo'nalishda ish kuchlarini asosiy bandligi tashkil etadi. U mehnat turiga nisbatan alternativ mehnat deyarlik bo'lmaydi. Bunday mehnat turlari o'rtasida iqtisodiy mintaqalar xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda ish o'zgartirishining qiyinchiligidadir. Jumladan, qishloq joylarida qishloq yoki chorvador mehnati yoki duradgor mehnati va boshqalar. Mehnat bozorida kasaba uyushmalarining roli katta.

### Ish haqi belgilashda kasaba uyushmalarining o'рни

Kasaba uyushmalari ishchilarining assosiasiyalari bo'lib, ular o'z a'zolarining manfaatlarini ifoda etish uchun tuziladi. Kasaba uyushmalari o'zlarining a'zolari talablari asosida, ularning ish haqlarini oshirish bo'yicha, ularga zarur bo'lgan mehnat qilish sharoitlarini yaratish, ularning dam olishlari va sog'liqlarini ta'minlash yo'lida asosiy himoya qiluvchi tashkilot hisoblanadi.

Kasaba uyushmalari ishchilarning ish vaqtlarini, ularga beriladigan dam olish ta'tillarini to'g'ri tashkil etilishini, ishga qabul qilish, ishdan bo'shatilishni mehnat kodekslariga rioya qilingan holda amalga oshirilishini nazorat qiladi.

Kasaba uyushmalarining asosiy faoliyatlari bu ishchilarning

mehnatlarini muxofaza qilish va ish haqlarini o'sib borish ta'minlashdan iboratdir. Buning uchun kasaba uyushmalari mehnat bitimlarini ish kuchiga talabgor sub'ektlar bilan tuzish faol qatnashadi. Unda bajariladigan ish turlari va ish haqlari to'g'risida kelishiladi. Kasaba uyushmalari ish joylarini ko'paytirish uchun ko'rashadilar. Kasaba uyushmalari ish kuchlaridan mehnat bitimlariga rioya qilishni ish beruvchilardan talab qiladi. Ayollar va mehnat qilish yoshiga yetmagan yoshlarni asossiz mehnatlaridan foydalanishga qarshi kurashadilar. Kasaba uyushmalar ish kuchi mehnatini taklif qiluvchi monopoliya huquqiga ega bo'lgan jamoa tashkilotidir.

Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish sur'atlarining tezlashganligi natijasida xodimlarning mehnat qilish va yashash sharoitlari o'zgarib bormoqda. Bunda sharoitda asosiy masala ishchi va xodimlarning mehnat qilish sharoitlarini yengillashtirish, mehnat faoliyatlarini yanada rag'batlantirishdan iborat. U ma'lum ijtimoiy muhitda yuzaga kelib mehnati uchun to'lanadigan hamma to'lovlarni va mehnat sharoitlarini o'z ichiga oladi va ijtimoiy qonunlarda yoritiladi. Bu qonunlarga asoslangan holda davlat kasaba uyushmalari va mehnat jamoalari mehnat munosabatlarini takomillashtirib beradilar.

Biz bilamizki, korxonaning asosiy maqsadi ko'proq foydalanish olish bo'lib, ish haqi esa ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradi. Ishlab chiqarish jarayonida ishga yollovchilar va yollanuvchilar o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqadi. Bu ziddiyatlar esa ma'lum davrga kelishuvlar asosida jamoa bitimlarini imzolash orqali hal etish mumkin.

Ishga yollovchilar va xodimlar o'rtasidagi mehnat ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy hujjat jamoa bitimi deyiladi. Bitimda ikki taraf ya'ni korxonaning ma'muriyati va xodimlarning o'zaro majburiyatlari, ish haqi stavkasi me'yoridan ortiqcha bajarilgan ishlar uchun stavka, dam olish kunlari va tanaffuslar, pensiya fondlari va sog'liqni saqlashga ajratmalar aks ettiriladi.

Tarixan ishchilarning o'z huquqlarini, shu jumladan mehnatlarini to'g'ri baholash uchun kurashi kasaba

uyushmalarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Bu maqsadga erishish uchun ish haqi to'g'ri yo'llar bilan erishish mumkin.

Birinchidan mehnatga bo'lgan talabni kengaytirish orqali, ish kuchiga talab oshsa, o'z-o'zidan ish haqi stavkasi ham, ish o'rinlari ham oshib boradi. Bunda kasaba uyushmalarining vazifasi talabni belgilovchi bir necha omillarni qisqartirishdan iborat:

— ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ko'rsatilayotgan mehnatga bo'lgan talabni oshirish;

— mehnat unumdorligini oshirish;

— boshqa ishlab chiqarish omillari bahosini o'zgartirish.

Ikkinchidan, ish haqi stavkasini oshirishning yana bir yo'li - ish kuchi taklifini qisqartirish. Bunda kasaba uyushmalarining vazifalari:

— bolalar mehnatini qisqartirish;

— immigrasiyani cheklash;

— ish haftasini qisqartirishga yordam berish;

— nafaqaga muddatida chiqishni ta'minlash.

Uchinchidan, kasaba uyushmalarining yana bir vazifasi, korxonaning ma'muriyatiga ma'lum kasbdagi ishchilarni aniqlash va ko'rsatilgan talablarga javob bergandagina ishga qabul qilishlarini ta'minlashdir. Bu talablarga ishga bo'lgan ta'lim darajasi, mehnat tajribasi, mutaxassislik bo'yicha ish staji, shaxsiy tavsiflarini kiritish mumkin.

### Asosiy atama va tushunchalar

Mehnat bozori, mehnat shartnomalari, vaqtbay va ishbay ish haqi, tarif setkasi va stavkasi, nominal va real ish haqi, monopsoniya va oligapsoniya, kasaba uyushmalari, insonga qaratilgan kapital.

## 11-mavzu. BOZOR SHAROITIDA RAQOBAT VA MONOPOLIYA

### 1. Raqobatning mohiyati, iqtisodiy asoslari va shakllari

Raqobat kurashining ahamiyati shunchalik yuqoriki, bozorni tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki u bozor iqtisodiyotining mazmuniga aylanib ketgan. Shuni ta'kidlagan Prezidentimiz I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida raqobat kurashining mohiyati haqida shunday deydi: «iqtisodiyotni erkinlashtirish haqiqiy raqobat muhitini yaratish bilan bog'liqdir. Raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat - bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir»<sup>26</sup>.

Raqobat – umumijtimoiy toifa bo'lib, ijtimoiy jarayonlar o'zaro ta'atnashchilari o'rtasidagi ko'proq foydaga erishishi uchun kurash bo'ladigan kurashni anglatadi. Raqobat kurashi har qanday sharoitda amal qiladi. Kishilarning iqtisodiy faoliyati bozor iqtisodiyotining faoliyatlarining asosini tashkil qilgani uchun kishilik jamiyatining hayotida raqobat kurashi muhim rol o'ynaydi.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov – «Joriy kon'yuksion sharoitda keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportni oshirish mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarga raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish zarur»<sup>27</sup> – degan edi.

Bu chora-tadbirlar aylanma mablag'larni to'ldirish uchun korxonalariga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining oshirishini foizdan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatda imtiyozli kreditlar berish, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash asoslangan, xorijiy investisiya asosida tashkil etilgan korxonalar uchun qo'shimcha qiymat solig'idan tashqari barcha soliqlar turlarini 2012 yilgacha ozod bo'lishi, bank kreditlari bo'yicha to'lov muddatini

uzatish va joriy qarzar miqdorini qayta ko'rib chiqish uni to'lov muddatini bo'yicha imtiyoz berish, energiya manbalari va xizmatlarning asosiy turlari bo'yicha korxonalarining ishlab chiqarishini 6-8 foizdan oshirmaslik, elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish uni tejash, go'sht va sutni qayta ishlashga qo'llab-quvvatlash mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun bo'sh korxonalarini ishlab chiqarishni qayta jihozlashga sarflashi asosida korxonalar yagona soliq to'lovlarini 50 foizga qisqartirish va ma'lum korxonalar uchun ixtisoslashirilgan tayyor nooziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqaruvchi ixtisoslashgan korxonalar foyda va mulk soliqlaridan qisqartirish va kichik korxonalar yagona soliq to'lovidan ozod qilinishi, ularni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida raqobatdoshlik darajasini oshiradi.

Raqobat iqtisodiy sohadagi raqobat ishlab chiqarish korxonalarining sub'ektlari ishlab chiqaruvchilar, korxonalar, mulkchilar, tadbirkorlar, yollanma ishchilar va boshqalar bozor sharoitida qulayroq ishlab chiqarish sharoitida arzon ishlab chiqarish resurslari va ishchi kuchiga ega bo'lish, unumliroq ishlab chiqarish, mahsulot sifatini oshirish, mahsulotni o'z vaqtida yetkazish, ish joyi, yaxshi, samarali bozorga kira olish, umuman bozor daromad olish imkoniyati uchun olib boriladigan chora-tadbirlar iboratdir.

Raqobat bozor mexanizmini asosiy qismini tashkil etadi. Uning vazifasi:

1) ishlab chiqarishni, iqtisodiy ijtimoiy zaruriy mahsulotlarga ega bo'lishni ta'minlaydi;

2) raqobat iqtisodiy resurslarini iqtisodiy jihatdan samarali taqsimotini, kerakli yo'nalishga taqsimlashni ifodalaydi;

3) raqobat iqtisodiy resurslardan samarali va tejankorlik bilan foydalanishni ta'minlaydi;

4) raqobat daromadlarni taqsimotini ishlab chiqarish korxonalarini ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi nuqtai nazaridan baholash va baholashni ta'minlaydi;

5) raqobat bozor iqtisodiyoti talablariga zid bo'lgan va bozor iqtisodiyoti jihatdan nosamarador bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini iqtisodiy rivojlanishni tozalashni ta'minlaydi.

Raqobat iqtisodiy raqobatning asosini kishilar mulk egalari sifatida taqsimotini ta'minlashni ta'minlaydi.

chunki, har bir mulk egasini o'z manfaatli bor. Uning

<sup>26</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. 34 b.

<sup>27</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. T.: O'zbekiston, 2009, 33 bet.

barcha faoliyati o'z manfaatiga bo'ysungan bo'ladi. Bu ma'no raqobat ishlab chiqarish sub'ektlarining to'qnashuvidan iborat. Raqobat eng avval tadbirkorlikka xosdir, u investisiyaning tabiatini ifodalaydi.

### **I. Raqobat kurashi amal qilishi, hajmi va xarakteriga qarab bir necha turga bo'linadi:**

1. Moddiy texnika sohasida sifatli xomashyo, yanada ilg'or texnologiya, takomillashgan ishlab chiqarish vositalari uchun bo'ladigan raqobat kurashi.

2. Transport-geografik sohaga ega bo'lish uchun olib boriladigan raqobat kurashi, jumladan, firmaning bozor transport tarmoqlariga, resurslariga, yaxshi joyga ega bo'lish uchun olib boriladigan raqobat kurashi.

3. Kadrlar sohasida malakali mutaxassislariga ega bo'lish uchun olib boriladigan raqobat kurashi.

4. Yangi tovarlarni ishlab chiqarish uchun bo'ladigan raqobat kurashi.

5. Pirovard soha – mahsulotni sotish uchun, iste'molchilarning uchun bo'ladigan raqobat kurashi.

### **II. Raqobat kurashi amal qilish doirasiga qarab:**

1. Tarmoq ichidagi raqobat kurashi. Bunda bir xil tovarlar yaxshi sharoitda sotish va bozorning katta qismiga ega bo'lish maqsadida kurash olib boriladi.

2. Tarmoqlararo raqobat kurashi. Birinchidan kapital kerakli tarmoqlarga sarflash maqsadida olib boriladigan raqobat kurashi bo'lsa, ikkinchidan har xil tarmoqlarda ishlab chiqarish bir xil mahsulotni sotish uchun olib boriladigan raqobat kurashi hisoblanadi.

### **III. Raqobat kurashi usullariga qarab:**

Baholar yordamida olib boriladigan raqobat.

Baholarsiz bo'ladigan raqobat kurashlariga ajratiladi.

Bu raqobat kurash turlari sof haqiqatga asoslangan kurash hisoblanadi.

Chunki, bu kurash usullari asosan mahsulot sifatini oshirish, mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot tannarxini arzonlashtirish bilan bog'liq bo'lib, bundan raqobat ishlab chiqaruvchi sub'ektlar, balki iste'molchilar ham manfaatli-iqtisodiy jihatdan manfaatdor bo'ladilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida «g'irrom» raqobat turi mavjud bo'ladi. Bunday raqobat kurashiga iqtisodiy ayg'oqchilik, firma ichidan noqonuniy foydalanish, kontrakt talablariga rioya qilmaslik, ishlab chiqarish standartlariga rioya qilmaslik, bozorga dumping narxlarini qo'yish, shantaj, reket, korrupsiya, iqtisodiy jinoyatchiliklarni kiritish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor tuzilishini ifodalaydigan har xil raqobat kurashi mavjud:

1. Takomillashgan raqobat kurashi.
2. Takomillashmagan (monopol) raqobat kurashi.
3. Oligopoliya.
4. Sof monopoliya.

### **2. Mukammal va mukammal bo'lmagan raqobat**

Bozor raqobati va boshqa jarayonlar amalga oshadigan sharoitga bozor tartibi deyiladi. U bir qator xususiyatlar bilan belgilanadi. Xususan, korxonalarining soni, miqyosi, taklif qilayotgan tovarlarning turlari, baholar ustidan nazorat qilish darajasi, tarmoqqa kirish, chiqish sharoitlari va boshqalar.

Bozor tuzilmalarining har xilligiga qaramasdan, odatda bozor to'rt turi yoki bozor modellari farqlanadi. Bular:

1. Sof yoki mukammal raqobat;
2. Monopolistik raqobat;
3. Oligopoliya;
4. Sof monopoliya.

Bu tuzilmalarning har biri, avvalo, korxonalarining bozor bahosiga ta'sir eta olishi bilan farqlanadi. Qanchalik bu ta'sir kam bo'lsa, shunchalik bozor raqobatli hisoblanadi.

Quyidagi keltirilgan jadvallardan ko'rinadiki, mukammal raqobat va sof monopoliya juda kam hollarda uchraydi, monopolistik raqobat va oligopoliya hayotda ko'proq uchraydi degan xulosaga kelish mumkin:

**Mukammal raqobat kurashi deganda** – bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan ko'plab mayda korxonalarining mikrofirmalarning raqobat kurashi tushuniladi. Bunday raqobat kurashiga kirish va undan chiqish oson.

Bunda ko'p sonli sotuvchilar ishtirok etib, o'zlari baholani belgilay oladilar. Ularning belgilagan bahosi umumiy baholaga ta'sir etmaydi.

Takomillashgan raqobat kurashi sharoitida hech qanday yuridik, texnologik, moliyaviy to'siqlar bo'lmaydi.

Mukammal raqobatli bozorda narx talab va taklif asosida shakllanadi. Sotuvchilardan har birining bozorga chiqqan tovardagi ulushi kam bo'lgani uchun, ular bozordagi mavjud mahsulot bilan hisoblashishga majbur bo'ladilar.

**Erkin raqobat sub'ektlari** kichik tadbirkorlar va mikrofirmalar bo'lib, ularning ish yuritish faoliyatlari ham erkin harakatda bo'ladi.

Mukammal — erkin raqobatda korxonalarining bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa o'tishi yoki yangilarining ochilishida hech qanday deyarli hech qanday iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

### Raqobat turlari<sup>28</sup>

| Raqobat turlari      | Firmalar soni va miqyosi                    | Mahsulotning xarakteri                                 | Tarmoqqa kirish va chiqish sharoiti                     | Axborot olish                        |
|----------------------|---|--|---|--------------------------------------|
| Mukammal raqobat     | Mayda firmalar                              | Bir xil turdagi tovarlar                               | Hech qanday qiyinchiliklarsiz                           | Hamma turdagi axborotdan foydalanish |
| Monopolistik raqobat | Ko'p mayda firmalar                         | Har xil turdagi tovarlar                               | Hech qanday qiyinchiliklarsiz                           | Bir oz qiyin                         |
| Oligopoliya          | Firmalar soni ko'p emas, yirik firmalar bor | Bir xil turdagi tovarlar yoki har xil turdagi tovarlar | Ayrim to'siqlar mavjud                                  | Bir oz chegaralangan                 |
| Sof monopoliya       | Bitta firma                                 | Noyob tovarlar   | Kirishga amaliyot jihatdan o'tib bo'lmaydigan to'siqlar | Bir oz chegaralangan                 |

**Takomillashgan erkin raqobat** tarmoq ichida va tarmoqlar asosida ham bo'lishi mumkin. Tarmoq ichidagi raqobat bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa o'tish uchun zaruriy tovarlarni ishlab chiqarish uchun sarf etilgan ijtimoiy zaruriy tovarlarni xarajatlarini qoplovchi tovar bahosini belgilanishini talab qiladi. Ular o'rtasidagi raqobat arzon xom ashyo, ishchi va iste'mol bozori uchun bo'ladi. Takomillashgan erkin raqobat kurashida: ishlab chiqilgan tovar qiymati shu tarmoqlarda ishlab chiqilgan tovarlarning ijtimoiy-zaruriy qiymatiga yaqin bo'ladi.

**Tarmoqlar o'rtasidagi raqobat** esa turli tarmoqlardagi korxonalarini, firmalarni ko'proq foyda olish uchun o'zaro xom ashyo, arzon ish kuchi va iste'mol bozori uchun olib boriladigan tovarlarni raqobatida ifodalanadi, natijada kapitalarning bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa erkin o'tish raqobati tarmoqlardagi korxonalarining olayotgan foydasining (foйда me'yorini) pasayishiga olib keladi.

Ko'pgina iqtisodchi olimlar takomillashgan raqobat kurashini zaruriy jihatdangina tahlil qilish mumkin deb hisoblaydilar. Raqobat kurashining bunday turining kichik biznes, firma, fermer va dehqon xo'jaliklari, fond birjalari, valyuta bozorlarida amal qilishini hisobga olsak, u molekulyar raqobat kurashi deb belgilanishi ham mumkin. Mukammal bo'lmagan raqobat deganda, sof (mukammal) raqobat bozorining biror-bir sharti bo'lmaganligi tushuniladi. Mukammal bo'lmagan raqobat uchun bo'linadi, bular: a) monopolistik raqobat; b) oligopoliya; v) sof monopoliya.

**1. Monopolistik raqobat** asosan ishlab chiqarish monopoliyalari shaklida, ishlab chiqarish sub'ektlari o'rtasidagi raqobat asosida vujudga keladi. Fan va texnika taraqqiyoti asosida ishlab chiqarish yiriklashadi va markazlashadi. Bu monopoliyalar bozorining asosiy qismini ishlab chiqarish yo'nalishlariga qarab boshqarib turadilar. Monopoliyalar raqobat kurashini boshqarish maqsadida o'zaro qo'shilish holatlari bo'ladi, yoki mahsulotlarni sotish hajmi bo'yicha o'zaro kelishish bitmlarini tuzadi. Bu oqibatda monopoliyalanish harakatlarini rivojlanishiga olib keladi. Erkin raqobat kurashi asosida tovarlarni sotish bozorini asosiy qismini egallashi, ularga bozordagi narxlar ustidan.

<sup>28</sup> Dolan E., Mendşey D. Rinok: Mikroekonomicheskaya model. –S-Pb., 1992. S 115.

nazorat qilishni ta'minlaydi. Bu albatta bozor iqtisodiy raqobatini erkinlashtirishga zid va xavfliidir.

**Texnologiyalashgan monopoliyalar** asosan ishlab chiqarishda texnologik jarayon yuqori bo'lgan iqtisodiy tarmoqlar korxonalarida bo'ladi. Masalan energetika, samolyotsozlik metallurgiya va boshqa shunga o'xshash korxonalarda.

**Ilm-fan texnika sohalarida qo'llashdagi monopoliyalar** Bu monopoliyalar o'zlarining ishlab chiqarish jarayonida ilg'or texnologiya va mashinalardan foydalanishlari bilan ajratiladilar. Albatta bunday monopoliyalar uzoq muddat ichida yakka hukmronlik qila olmaydilar. Chunki fan va texnologiya yangiliklarini ishlab chiqarish sub'ektlari doirasida yoyilishi tanho hukmronlikni barbod etadi.

**Davlat monopoliyasi** milliy valyuta emissiyasini boshqarib boradi va ishlab chiqarish jarayoniga zarur bo'lgan iqtisodiy tovarlarni ishlab chiqarish tashkil etadi. Masalan, mamlakat mudofasini mustahkamlash bilan bog'liq ishlab chiqarish jarayonini investisiyalashtirish va boshqalar.

**Administrativ boshqaruv monopoliyasi** bu asosan iqtisodiy taraqqiyotni markazlashtirilgan boshqaruv usuli orqali amalga oshirishda ifodalanadi. Davlat direktiv rejalar asosida ishlab chiqarish yo'nalishlarini, ishlab chiqarish hajmlarini va boshqalar iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini belgilab beradi. Administrativ boshqaruv monopoliyasi shaklida umuman raqobat jarayoni bo'lmaydi. Administrativ boshqaruv monopoliyasi takomillashtirib bo'lmaydi. Uni faqat tugatish mumkin.

2. **Takomillashmagan raqobatning** yana bir turi oligopoliya sharoitidagi raqobatdir. Oligopoliya raqobati bir necha yirik firmalar hukmronlik qiladigan bozorlarda shakllanadi. Oligopoliya bu ma'lum tarmoqlarda ishlab chiqarishning katta qismini o'z qo'lida ushlab turadi. Natijada shu tarmoq bo'yicha bozorda ularning hukmronligi, ularga eng yuqori foyda olishni ta'minlaydi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turiga qarab, sof raqobat tabaqalashtirilgan oligopoliya farqlanadi. **Sof oligopoliya** korxonalarida bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarish **Tabaqalashtirilgan oligopoliya** turli mahsulotlarni ishlab

chiqarish bilan shug'ullanadilar. Oligopoliya hukmronlik tarmoqlarida ham standartlashgan, ham tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqariladi. Standartlashgan mahsulotlarga po'lat, ruh, mis, qalay, sement, texnik spirt kabi moddiy shakli aniq mahsulotlar kiradi. Tabaqalashgan mahsulotga har turli iste'mol xarakteridagi mahsulotlari (masalan: turli markali avtomobillar, kir yuvish mashinalari, elektr asboblari) kiradi.

Oligopoliya tarmoqlarida yirik 3-4 firma mahsulot ishlab chiqarishning asosiy qismini nazorat qiladi. Masalan: AQSH avtomobil sanoatida katta uchlik, «Jeneral motors», «Ford» va «Krysler» hissasiga sotilgan avtomobillarning 90%i to'g'ri qo'lida. Xuddi shunday mavqega Yaponiyaning «TOYOTA», «HONDA», «NISSAN» kabi avtomobil kompaniyalari ega. Oligopoliya tarmoqlariga yangi firmalarning kirib kelishi qiyin, chunki u erdagi firmalar bilan bellashuv uchun g'oyat ko'p pul kerak, unga esa ko'pchilik ega emas. Bu tarmoqqa kirib amallab kirib qolgan kichikroq firma texnologik mahsulotlarga ega bo'lgan yirik firmalar bilan raqobat qila olmay, bu tarmoqni tark etadi. Bellasha olgani uchun oligopoliya bor joyga faqat kuchli firmalar kelishi mumkin, boshqalari esa ular raqib qo'ygan to'siqlardan o'ta oladi. Oligopoliya tarmoqlarida raqobat cheklangan hisoblanadi.

Oligopoliyalarning vujudga kelishi bir necha firmalarning birlashishi natijasi hisoblanadi. Birlashishning sababi esa bozordagi o'z ulushini ko'paytirish, bozorni va baholarni takomillashtirish hisoblanadi.

3. **Sof monopoliya raqobati** deganda, mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda faqat bitta firmaning faoliyat ko'rsatishini nazardan o'tkazib olinadi. Bu erda butun bir tarmoq bitta firmadan iborat bo'ladi. Firma ishlab chiqaradigan mahsulot g'oyat noyob bo'lib, uning muqobili bo'lmaydi. Xaridor oldida ikki yo'l mavjud: tovarni monopolist aytgan narxda sotib olish yoki sotib olinmaydigan mahsulotni boshqa mahsulot turiga qarab olinmaydigan foydalanishi yoki foydalanmasligi mumkin. Sof monopoliyaga amalda kirish mumkin emas. Tanho hukmronlik tovarlarni monopol baholarda sotishni va monopol foyda olishni ta'minlaydi. Chunki unga kirish uchun



nihoyat darajada ko'p kapitalga erishgan bo'lishi kerak. **monopoliyani gohida tabiiy monopoliya deb ataydi.** Bunday holda tabiiy monopoliyaga davlat va uning monopoliya egalik qilishi tushuniladi. Masalan: elektr stansiyalari. O'zbekiston havo yo'llari, kommunal xo'jalik vazirligi. O'zbekiston «O'zbekneftgaz» Milliy Xolding kompaniyasi. Davlat kompaniyalar davlatga qarashli va uning tanho egaligini ifodalaydi.

Sof monopoliya sharoitida monopolist monopolist baholarni pasaytirish bilan ishlab chiqarish hajmini oshiradi. Foydani esa mahsulotlar sifatini va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga erishilgan holda oshirib boradi. Monopolist yuqori bahoni belgilamaydi. Yuqori xarajat va pasaytirilgan bahoni monopolistga yuqori bahoni belgilash va foyda olish imkoniyat bermaydi.

Monopolist daromadlarning taqsimlanishini hisobga olinmagan holda bir xil tovarlarga har xil baho belgilaydi. Buning natijasida aslo xarajatlarning har xil bo'lishi bilan bog'liq emas. **Ushbu tovarlarga har xil baholarning belgilanishi baholarning tabaqalashuvi deyiladi.** Baholarni har qanday sotuvchi baholarni tabaqalashtira olmaydi. Buning uchun 3 ta shart bajarilishi kerak:

1. Sotuvchi katta mablag'ga va bozorda hukmronlik mavqeiga ega bo'lishi.
2. Sotuvchi xaridorlarni aniq sinflarga ajrata olishi.
3. Dastlabki xaridor mahsulotni olib-sotish imkoniyatiga ega bo'lmasligi kerak.

Sof monopoliyaning mavjud ekanligi iqtisodiy jarayonlarda qarama-qarshi bo'lgan oqibatlarga olib keladi. Monopolist mahsulot hajmini qisqartirib, baholarni oshiradi. Resurslarning notekis taqsimlanishiga olib keladi. Monopoliyaning mavjud ekanligi daromadlarning notekis taqsimlanishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida ilmiy texnologiyalarni yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilishga to'sqinlik qiladi. Baholarni tabaqalashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan monopolistlar gina mahsulot hajmini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Davlat korxonalari, firmalar o'rtasida erkin raqobat

lash uchun ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlaydilar va monopoliyalar faoliyatini antimonopol va turli iqtisodiy tizimlar orqali cheklashga, monopol raqobatni oldini olishga harakat qiladi.

### 3. Monopoliya va antimonopol qonunchilik

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov monopoliyachilikka qarshi tadbirlarni amalga oshirish, ishlab chiqaruvchining iste'molchi ustidan tazyiqini tugatish, iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishiga, raqobatli muhit yaratilishiga, bozorning tovar va xizmatlar bilan boyishiga erishish kerak. Ayrim korxonalar va tijorat tizimlarining monopol mavqeini tugatish, ularni bozorga tazyiq ko'rsatish imkoniyatini taqsimlab olish bo'yicha kelishuvlariga yo'l ochilish, erkinlik sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, narx-navolarning sun'iy ravishda oshirishiga, monopoliya yo'li bilan ustama foyda olishga olib keladigan bo'lib xizmat qiladi»<sup>29</sup>, – degan edi.

Bozor iqtisodiyoti monopoliya raqobatiga qarshi kuch o'zlashtirishda maydonga chiqadi va u raqobat ta'siri sharoitini yaratadi. Monopoliya — bu bozorda yuzaga keladigan tabiiy hodisa bo'lib, unda yirik sotuvchi va xaridorlar o'z manfaatlarini qudratiga suyanib, boshqa bozor ishtirokchilariga manfaatlarini o'tkazadilar. Bunda monopoliyachilarning shaxsiy manfaatlariga asoslangan, ularning foydasini ko'zlagan holda qolgan barcha uchun majburiy hisoblanadi. Taklif qilinmagan va bozordagi baho monopoliya tomonidan belgilanadi.

Demak, monopoliya so'zi yunoncha so'z bo'lib, tanho degan ma'noni bildiradi. Uni o'zaro bir-biri bilan taqqoslanish uchun ikki ma'noda tushunish mumkin:

1. Tadbirkorlar o'rtasida tuzilgan uyushma, birlashma.
  2. Iqtisodiyotning biror bir sohasida tanho hukmronlik.
- Monopolistik birlashmalarning bir qancha shakllari mavjud:

<sup>29</sup> I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. 110 b.

**Kartel:** ishlab chiqarishning bir tarmog'iga mansub bir qator korxonalarining birlashmasi. Kartel a'zolari o'z ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlari egasi bo'lib qolaveradi. Kartel a'zolari monopoliya foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish, narx baholari, bozorni taqsimlab olish va shu kabilar haqida kelishilgan tuzadilar. Kartelning boshqa uyushmalardan farqi shundaki, uning kiruvchilar xo'jalik yuritish mustaqilligini saqlab qoladilar.

**Sindikatga** birlashayotgan korxonalar ishlab chiqarish mustaqilligini saqlab qolgan holda o'zlarining tijorat sohasida mustaqilliklaridan mahrum bo'ladilar. Bunda buyurtmalar taqsimlash, xomashyoni sotib olish, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish uchun o'zlarining tijorat faoliyatlarini birlashtirgan bozor olib borish uchun idora tuzadilar.

**Trest:** unda mahsulotni ishlab chiqarish, sotish korxonalarining moliyasi to'la birlashtiriladi. Trest muayyan tarmoqda hukmronlik qiluvchi yagona ulkan shirkatchi korporatsiya jamiyatidir.

**Konsern:** deganda ko'p tarmoqli korporatsiyalarni tushunish kerak. Ular tarkibiga har xil tarmoqlardagi o'nlab, yuzlab korxonalar kiradi. Demak, raqobat sharoitida xaridor bu xo'jalik bozor uning agenti, korxonalar esa uning xizmatchilari. Monopoliyalarning vujudga kelishi ushbu vazifani ko'zga o'zgartirib yuboradi. Ushbu masalani chuqur bilish uchun biz yuqorida biz mukammal va mukammal bo'lmagan raqobatni ko'rib chiqdik.

Raqobatni himoya etishning asosiy dastagi bu monopoliyalarning faoliyatini antimonopol qonunlar bilan cheklashdir. Iqtisodiyotda monopoliyalashuv tendensiyasi paydo bo'lishi munosabati bilan erkin raqobat cheklanadi. Ushbu sababli sog'lom raqobatchilik muhitini yaratishda davlatning faoliyat oshib boradi. Buni davlatning monopollashuv jarayoniga qarshi olib boradigan siyosatida ko'rish mumkin. Bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratishga emas, balki uni saqlash va qolishga, kezi kelganda qaytadan tiklashga, raqobatchilik madaniylashgan usullarini qaror toptirishga qaratiladi.

Davlatning xususiy monopoliyalarni jilovlashga qaratilgan tadbiri 1890 yilda AQShda qabul qilingan «Sherman qonuni»

bu tarixda antitrust qonuni deb nom olgan.

Bozordagi vaziyat tez o'zgarib turadi. Uning hisobini nazorat qilish qiyin kechadi. Shu boisdan antimonopol qonunlar qonun bo'yicha noaniqligi bilan ajralib turadi. Raqobatni cheklash bo'yicha konkret ahvol shundayki, bu qonunlarni keng talqin qilishga to'g'ri keladi.

Antimonopol qonunlarni qabul qilish va hayotga tatbiq qilish munosabatlariga o'tayotgan har bir mamlakat uchun hayotiy vaziyatdir. Chunki, erkin raqobatga yo'l bermay turib, bozorni birlashtirib bo'lmaydi. Shu maqsadda O'zbekistonda 1992 yilda antimonopolizmga qarshi kurash qonunchiligiga asos solindi. Shu yili O'zbekistonda monopoliya faoliyatini cheklash to'g'risidagi qonun qabul qilindi.

Qonunga ko'ra ataylab bozorda taqchilik hosil qilish, monopoliya monopollashtirish, raqobatchilarning bozorga kirib kelishiga to'sqinlik qilish, raqobatning g'irrom usullarini qo'llash usullari qabul qilinadi.

Qonunni buzganlar raqibiga yetkazgan zararni qoplashlari, monopoliya to'lashlari shart. Ular g'irromlik bilan olingan foydadan mahrum etiladi. Bu qonun raqobatchilik tizimiga xizmat qiladi. Ushbu qonunning amal qilishi qanday boryapti, uning faoliyatini kuchaytirish uchun nimalarga ahamiyat berish kerak? Ushbu munosabat bilan Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida shunday deydi: Biz monopoliya faoliyatini cheklash to'g'risida qonun qabul qilganmiz, lekin u amalda ish berayotgani yo'q.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, endilikda davlat monopoliyasidan butunlay chiqarilgan savdo, xizmat ko'rsatish sohasida ham monopoliya tuzilmalariga duch kelayapmiz. Ahvol qanday ekan, qonun va kishilar manfaatlarini himoya qilish bo'yicha bo'lgan, monopoliyadan chiqarish qo'mitasi, soliq qonunlari, prokuratura nima bilan shug'ullanmoqda? degan savol qabul qilinadi.

Afsuski, ular bu masalalar bilan jiddiy shug'ullanishmayapti. Ushbu qonun ishlab chiqarishga, eng muhimi esa, iste'molchiga, monopoliyalarning manfaatiga zarar yetmoqda.

Xo'sh, bu sohada ahvolni o'nglash uchun nima qilmoq

kerak? Avvalo, monopoliyalarga qarshi qonunni kuchaytirish monopoliya tuzilmalarini kamaytirish va tugatish yuzasidan amaliy jarayon ko'rish lozim. Tabiiy monopoliyalar to'g'risida qonun qabul qilish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqarish dardkor»<sup>30</sup>.

Respublikamizda iqtisodiyotning turli sohalarida xo'jalikni yuritayotgan sub'ektlarning huquqiy va iqtisodiy erkinligini ta'minlovchi qonunlar qabul qilindi. Monopolistik faoliyatni monopoliya faoliyatini cheklash qonuni asosida cheklab qo'yish

Bozor infratuzilmasini shakllantirish va uning faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilindi. Jumladan, bank va boshqa faoliyatlari to'g'risida tadbirkorlik tizimi, sug'urta tizimi, auditorlik faoliyati, qimmatli qog'ozlar, fond, birja to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Ular albatta bozor mexanizmlarini yanada takomillashtiradi. Bu esa demokratik bozor iqtisodiyotining munosabatlarining shakllanishini tezlashtiradi.

### Asosiy atama va tushunchalar.

Raqobat, monopoliya, sof monopoliya, oligopoliya, mukammal raqobat, mukammal bo'lmagan raqobat, baholalar bilan baholarsiz raqobat kurashi, monopoliya va uning turlari, monopoliya tushunchasi, narx turlari, sindikat, konsern, trest kartel.

## 12-mavzu. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA AGRAR MUNOSABATLAR

### 1. Yer ishlab chiqarishning omili sifatida

Bozor munosabatlari iqtisodiyotning hamma jabhalarida jumladan, qishloq xo'jaligini ham o'z ichiga olgan O'zbekistonning agrar sohasi ishlab chiqarish miqdori, aholining bandligi, eksport quvvati bo'yicha iqtisodiyotning yirik sohasi hisoblanadi. Aholining farovonligi va iqtisodiyot boshqaru-

<sup>30</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O'zbekiston 1997. 27 b.

mlarining rivojlanishi agrar sohaning holati, uning rivojlanish sur'atiga bog'liq.

2008 yilda fermer xo'jaliklarining qo'llab-quvvatlash uchun davlat paxta tayyorlashga 800 milliard so'm, g'alla yetishtirishga 100 milliard so'm mablag' avans tariqasida ajratildi. Qishloq xo'jalik texnikasini lizing asosida sotib olish bo'yicha maxsus tashkil etilgan fond hisobidan 43 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi. 2008 yilda fermer xo'jaliklarining paxta yetishtirishdagi ulushi 99,1 foizni, g'alla tayyorlashda esa 79,2 foizni tashkil etdi.

Buning uchun, agrar siyosat davlatimiz iqtisodiyotining muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi davlat agrar siyosatiga bog'liq. Agrar siyosatning ustuvor qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni industrializatsiyalashtirishning bir maromda rivojlanishiga va muayyan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga faol yordam beradi. Qishloq xo'jaligini isloh etish muammosini hal etmay tashlab, butun iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli davom ettirishimiz mumkin emas.

Agrar islohotlarning asosiy vazifasi — O'zbekistonning o'z-o'zidan o'sib chiqadigan darajada rivojlanishiga erishish yo'lidagi muhim bo'g'in sifatida agrar-sanoat majmuasining bir maromda taraqqiy etishini ta'minlash hisoblanadi. Bu muammoning qanchalik dolzarb ekanligini Prezidentimiz I.A.Karimov o'zlarining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» asarlarida quyidagicha ta'riflab bergan: «Butun iqtisodiy o'zgarishlarning yakuni, barqarorlik va muayyan farovonligini ko'p jihatdan tub o'zgarishlar jarayonlari agrar sektorini qanchalik keng qamrab olishiga, qishloqda islohotlar qanchalik chuqur borishiga bog'liq bo'ladi»<sup>31</sup>.

«Qishloqda bozor mexanizmlarini rivojlantirish dehqonda mulkchilik hissini uyg'otish, mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish, jamoa xo'jaliklarini qayta tuzib, ularni xo'jalik mulkining bir qismini, muayyan ulushini dehqonlarga ajratib berib, qo'yishga asoslangan xo'jaliklarga aylantirish, xo'jaliklarning o'zida ijara munosabatlarini chuqurlashtirish, yerni meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanishga

<sup>31</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O'zbekiston 1997. 27 b.

berib qo'yish orqali, shuningdek, dehqon (fermer) hamda shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni keng rivojlantirish asosida ro'y ko'rib chiqilgan lozim»<sup>32</sup>. Mazkur tizimda agrar munosabatlar alohida o'rta bo'lmadi. Yer bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar ham alohida munosabatlar deyiladi. Bu munosabatlarning ob'ekti yer, shuningdek, esa yer egalaridir.

Yerni vaqtincha ijaraga berish orqali tovarga aylantirilgan yerda xilma-xil mulkchilikning paydo bo'lishi, yerni qayta tadbirkorlik ob'ekti bo'lishi, yerning garovga qo'yilishi, yerni ijaraga renta shaklida pul undirilishi, agrobiznesning maxsus faoliyat turiga aylanishi bozor bilan bog'liq.

Agrar munosabatlarning ob'ekti bo'lmish yer maxsus resurs bo'lganidan uning xususida ham o'zigagina xos bo'lgan iqtisodiy aloqalar kelib chiqadi. Er har qanday ishlab chiqarishning umumiy sharti. Yerdan tashqarida ishlab chiqarishning bo'lishi mumkin emas, shu sababli har qanday iqtisodiy faoliyat ma'lum darajada yer bilan bog'langan deb ataymiz.

Qishloq xo'jaligi uchun yer asosiy ishlab chiqarishning muhim vazifasini o'taydi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning asosiy yoqlama xarakterga ega: birinchidan, iqtisodiy jarayon, ya'ni inson mehnatining natijasida yuz beradi, ikkinchidan, tabiiy biologik jarayon bo'lib, mahsulot yetishtirish tabiiy omillar ta'siri sharoiti, ob-havoning qanday kelishi, tuproqning iqtisodiy xossalari)ga bog'liq.

Qishloq xo'jaligi insonning tabiatga bo'lgan munosabatlarini yer bilan kishilarning o'zaro munosabatlari yaxlitlikda borishini ta'minlaydi. Qiladi va iqtisodiyotning agrar sektorini tashkil etadi. Shuningdek, kelib chiqqan holda, qishloq xo'jaligidagi mulkiy munosabatlar aniq hal etmasdan turib, uni yangi zamonaviy darajaga ko'tarish mumkin emas. Ushbu nuqta nazardan qaraganda eng asosiy yer to'g'risidagi masaladir.

Qishloq xo'jaligi yeri umummilliy mulk hisoblanadi va qayta sotish erkin olish-sotish mumkin emas. Bizningcha, qishloq xo'jaligi to'g'risida to'liq suv bilan ta'minlashga, yagona suv xo'jaligi tizimida faoliyat yuritishiga bog'liq bo'lgan O'zbekiston uchun yer

<sup>32</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari, Toshkent, «O'zbekiston» 1998 y. 578 bet

mulkchiligini saqlash, ammo uning byurokratlashgan emas, rivojlanayotgan bozor varianti eng maqbul hisoblanadi. Bu yerda asosiy resurs yer bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ammo, yer eng cheklangan resurs bo'lib, uni mehnat bilan ishlab bo'lmaydi, shu bilan birga erning o'rnini hech bir resurs o'zgartirib olmaydi. Uning yana bir xususiyati, yer boshqa resurslarga qaraganda qancha sifatida amal qilmaydi.

Yer cheklangan, uni ishlab chiqarib bo'lmaydi, ammo foydalaniladigan yerlarga investisiya sarflab, olinayotgan mahsulotning hosildorligini oshirish hisobiga ko'paytirish mumkin. Shuning uchun yerga bo'lgan talab ham taklifi ham ko'payadi, lekin yer tabiat mevasi bo'lganidan, uni mehnat bilan ko'paytirib bo'lmaydi. Yer hammabop resurs. Unda dehqonchilik ishlab, undirma sanoat yurgizish, qurilish qilish mumkin.

Yerga bo'lgan monopoliya ikki xil ko'rinishda bo'ladi. Birinchidan, yer qadr-qiymati baland resurs sifatida mulk monopoliyasida turadi, ya'ni egasi yo'q yer bo'lmaydi. Er cheklangan miqdorda bo'lganidan, uni mulk sifatida ko'paytirib bo'lmaydi. Bunday hodisa yerga mablag' sarflashni egasiga bog'liq qilib qo'yadi.

Yer egasining mulkdor sifatida manfaati bor, ya'ni u o'z mulkidan naf ko'rishi kerak. Shu sababli yer ishlatish uchun tekinga berilmaydi. Yer egasiga undan foydalanish haqini to'lash kerak. Birinchidan, yer xo'jalik yuritish ob'ekti sifatida egallab olinadi, ikkinchidan, yerda turli xo'jaliklar tashkil topadi, yaroqli yer bo'sh qolmaydi. Yer resurs sifatida egalari qo'lida bo'lar ekan, ular boshqa resurslar singari xo'jaliklar tarkibiga kiradi. Binobarin, xo'jaliklar o'rtasida munosabat yer xususida bo'ladi.

Yer mulk bo'lganidan mulkdorning roziligisiz uni ishlatib bo'lmaydi. Undan foydalanish uchun uning egasiga haq to'lash kerak. Yer o'z egasining mulki bo'lib qolgani holda vaqtincha boshqa mulk sohibi, xususan tadbirkor tomonidan ishlatilishi mumkin. Bu holat ishlab chiqarish ob'ekti monopoliyasi deyiladi. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlarda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etish, yerga bo'lgan munosabat bayon etilgan. Yer xususiy mulk sifatida ko'rib bo'lmaydi, balki uzoq muddatga ijaraga beriladi. Yerni ijaraga

topshirilishi, unga bo'lgan egalik hissiyotini kuchaytirish qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantiruvchi xizmat qiladi.

### 3. Yer resurslari bozori va yer rentasi. Yerning bahosi

Respublikada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan ekin maydoni 2007 yilda ming gektarni tashkil etgan. Shundan 1538,9 ming gektarni donli ekinlar tashkil etgan. O'tgan yilga nisbatan bu ko'rsatkich 95,1 foizni tashkil etgan. Donli ekin maydonlari hissasida bug'doy 95,5 foiz ekin maydonini tashkil etgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yerlardan foydalanish asosiy ishlash usulida amalga oshiriladi. Birinchi usulda yer egasini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etsa, ikkinchi usulda yer egasi yerni ijaraga berish orqali foyda ko'rishga intiladi. Yerni yerdan ma'lum bir vaqtga yerni ijaraga berish orqali daromad olishga intiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yerga haq to'lov bilan ma'lum muddatda foydalanish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy aloqalar ijara munosabatlari deyiladi. Yer egasi ijara beruvchi, yerni ishlatuvchi esa ijaraga oluvchi bo'ladi. Ularning munosabatlari ijara bitimi bilan qonunlashtiriladi.

Yer ijarasi belgilangan muddat ichida, kelishilgan qiymat yerdan foydalanganligi uchun to'langan ijara haqi. Yerni ijaraga olgan shaxslar yerdan qay tarzda, qancha muddatga foydalanish kelishilgan shartnoma asosida ularning ixtiyorida bo'ladi. Ijara shu davrda qo'lga kiritgan daromadlarning ijara haqidagi qismini uning ixtiyorida bo'ladi, hohlagan tarzda uni taqsimlaydigan ishlatadi.

Ijara haqi bilan yer rentasi bir-biridan farq qiladi. Ijara haqi faqatgina ijara olgan erdan foydalanish uchun haq bo'lmay, balki unda mavjud bo'lgan mevali daraxtlardan foydalanilgan asosiy yordamchi bino, inshootlar qiymatini o'zida ifodalaydi.

Yer rentasi esa quruq yerdan foydalanganlik uchun yer egasiga to'lanadigan haqdir. Renta darajasi qiymati quyidagi omilarga bog'liqdir:

- a) yerning tabiiy unumdorligi;

b) yerning iste'molchilarga nisbatan joylashish darajasi;

v) unga sarf etilgan moddiy va mehnat resurslariga, uning miqdori.

Yer rentalarining quyidagi shakllari mavjud:

**Absolyut yer rentasi.** Bu renta, asosan, yerning tabiiy unumdorligiga bog'liq bo'ladi. Hatto unumdorligi eng past yer uchun ijaraga bepul berilmaydi.

Absolyut yer rentasi eng unumdor, o'rtacha unumdor va eng past darajadagi unumdor yerlardan ham olinadi. Lekin unumdorligi eng past yerlardan olinadigan absolyut renta bu eng past yerni yoki hosildorligi o'rtacha bo'lgan yerlardan olinadigan rentaga nisbatan past bo'lib, bu yer uchun unumli rentani yaratmaydi. Absolyut rentaning vujudga kelishiga sabab, birinchidan qishloq xo'jaligida yaroqli yerlar cheklanganligi, ikkinchidan qishloq xo'jaligi tarmoqlarini xomashyoga va aholining iste'moliga bo'lgan talablarini faqat hosildor yerlar hisobiga qondirish mumkin bo'lmaganligi uchun ham yomon yerlardan foydalaniladi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga baholar talab yaratadigan tashkilotlarning ta'kidli qonuni asosida shakllanganda eng yomon yerlarga qaratilgan xarajatlar ham e'tiborga olinadi.

Differensial (tabaqalashgan) renta erning sifatiga qarab olinadigan va rentaning absolyut rentadan ortiqcha bo'lgan qismini bildiradi. Yer sifatining har xil bo'lishi uni yaratadigan omildir. Absolyut renta hosildorligi ikki xil bo'ladi:

Tabiiy hosildorlik tuproqning kimyoviy va fizikaviy xususlari bo'lib, uni tabiat in'om etgan.

Tuproqning iqtisodiy hosildorligi esa yerga qo'shimcha mahsulot yaratish, ishlov berish orqali, uning sifatini oshirish, uning unumdorligini ko'tarishni bildiradi.

Iqtisodiy hosildorlikni oshirib borish cheksiz emas, balki ma'lum chegarada bo'ladi.

Shu doirada renta ham farqlanadi.

a) I differensial renta.

b) II differensial renta.

## II Differensial rentaning hosil bo'lishi

| Yer maydoni (ga) | Ish. chiq. xaraj. (so'm) | I ga yerdan hosildorlik (sen) | Qo'sh. ish. chiq. xarajatlari (so'm) | I ga yerdan olin. qo'sh. xos. (sen) | I ga yerdan olin. umum. xos. (sen) | Jami xaraj. (so'm) | Qish. xo'j. mah. ish. chiq. (so'm) | Qish. xo'j. max. sotish bah. (so'm) | II Dif. renta |
|------------------|--------------------------|-------------------------------|--------------------------------------|-------------------------------------|------------------------------------|--------------------|------------------------------------|-------------------------------------|---------------|
| 1                | 1000                     | 4                             | 0                                    | 0                                   | 4                                  | 1000               | 250                                | 250                                 | 0             |
| 1                | 1000                     | 5                             | 200                                  | 3                                   | 8                                  | 1200               | 150                                | 250                                 | 100           |
| 1                | 1000                     | 8                             | 400                                  | 6                                   | 14                                 | 1400               | 100                                | 250                                 | 150           |

I Differensial renta yerning tabiiy unumdorligi eng yuqori yerlarga nisbatan unumdorligi o'rtacha va yuqori bo'lgan yerlardan olinadi yoki yomon yerdagi xarajatlar bilan boshqa sifatlir oq yerdagi xarajatlar o'rtasidagi farq I differensial rentani paydo qiladi. Bu mazmunan iqtisodiy foydaning bir turligini lekin u yer egalari uchun rentaga aylanadi.

I-jadvalda keltirilgan ma'lumot shuni ko'rsatadiki yerning unumdorligi oshishi bilan I differensial renta ham oshib bormoqda. Shu bilan birga I differensial renta faqat yerning hosildorligiga bog'liq emas, balki yer maydonlarining bozorga, transport yo'llariga iste'molchilarga yaqinligiga ham bog'liqdir.

Qo'shimcha, (2-jadval) moddiy xarajatlar qilish evaziga ikkinchi va uchinchi uchastka yer egalari gektariga hosildorlikni uchastka olti sentnerga oshirishga erishdilar.

Natijada ikkinchi va uchinchi yer uchastkalarida tabiiy unumdorlik hisobiga olingan I differensial (1-uchastkada 50, 2-uchastkada 125) rentaga nisbatan iqtisodiy unumdorlik asosida (1-uchastkada 100, ikkinchi uchastkada 150) II differensial renta olinadi.

## I Differensial rentaning hosil bo'lishi

| Yer sifati  | Yer maydoni (Ga) | Ish. chiq. Xaraj. -ali (so'm his.) | I ga yerdan hosil-k. sentner | I s. ishlab chiqarilgan mahsulot bahosi |                                  | I Differensial renta (so'm) |
|-------------|------------------|------------------------------------|------------------------------|---|----------------------------------|-----------------------------|
|             |                  |                                    |                              | Yakka tar. ish.chiq. bahosi (so'm)      | Ijtimoiy ish.chiq. bahosi (so'm) |                             |
| 1. Yomon    | 1                | 1000                               | 4                            | 250                                     | 250                              | 0                           |
| 2. O'rtacha | 1                | 1000                               | 5                            | 200                                     | 250                              | 100                         |
| 3. Yaxshi   | 1                | 1000                               | 8                            | 125                                     | 250                              | 150                         |

Iqtisodiy unumdorlik hisobiga olingan II differensial renta birinchi uchastkada 50 so'mni, ikkinchi uchastkada 25 so'mni tashkil etdi.

Monopol renta alohida tabiiy iqlim sharoitiga ega bo'lgan, kam uyushgan kamyob mahsulot etishtiriladigan yer uchun uning egasiga to'lanadigan rentadir.

Uchastka uchun talab katta bo'lgani holda raqibning bo'lgani uchun kamyob mahsulotlar monopol narxda sotiladiki, bu narx ularni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlardan ancha yuqori bo'ladi, natijada yer egalari monopol renta olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Undirma sanoatda renta — qazilma boyliklarning tabiiy xohishi va ularning qiymatiga qarab yuzaga keladi. Misol uchun: oltin konlari joylashgan erlarga undirma sanoat rentasi to'lanadi. Oltin konlari joylashgan yerlardagi undirma sanoat rentasiga nisbatan monopol renta to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida yer egalari uchun to'lanadigan renta to'lanmaydi deb belgilangan.

Demak, yer bebaho uning qiymati yo'q. Shu bilan birga yer egalari uchun kam darajada narxga ega. Yerning narxi, undan keladigan daromad yer rentasiga bog'liq.

Demak, yerning bahosi daromad yer rentasi miqdoriga va daromad to'lanadigan foiz darajasiga qarab belgilanadi.

$$E_b = \frac{E_R}{F} \cdot 100\%$$

$E_b$  — yer baho;  
 $E_R$  — yer renta;  
 $F$  — banklarda to'lanadigan foiz.

### 3. O'zbekiston Respublikasida yangicha agrar munosabatlarning shakllari

O'zbekiston Respublikasining agrar sohasi ishlab chiqarish miqdori, aholining bandligi, eksport quvvati bo'yicha iqtisodiyotining yirik sohasi hisoblanadi.

Aholining farovonligi va iqtisodiyotning boshqa sohalari rivojlanishi agrar sohaning holati, uning rivojlanish darajasi bog'liq.

Qishloq xo'jaligini isloh qilish muammosini hal etmay butun iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli davom ettirishimiz mumkin emas. Bunga erishish uchun qishloq xo'jaligida tadbirkorlikka keng e'tibor berish kerak. Buning namusi agrobiznesdir.

Agrobiznes deganda qishloq xo'jaligi sohasidagi bish tushuniladi va u bozor tizimining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi.

Agrobiznes O'zbekistonda ham mavjud, u agrosanoat kompleksi ko'rinishida rivoj topadi.

Agrosanoat kompleksi (ASK)-bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berishda ishtirok etadigan xalq xo'jaligi tarmoqlarining majmuidan iborat.

ASK umumiy holda 4 sohani o'z ichiga oladi:

Birinchi soha-qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalarini yetkazib berayotgan sanoat tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish, texnika xizmati ko'rsatish bilan band bo'lgan tarmoqlar;

Ikkinchi soha-qishloq xo'jaligi korxonalarining o'zi;

Uchinchi soha-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazib berishni ta'minlaydigan tarmoqlar (qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, tashib berish, sotish);

To'rtinchi soha-infratuzilma, ya'ni ishlab chiqarish tarmoqlari kishilar faoliyati shart-sharoitini ta'minlab beradigan xo'jalik tarmoqlari, (yo'l-transport xo'jaligi, aloqa, moddiy-texnika xizmati, moddiy bo'lmagan) ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil topadi. Agrobiznesning birlamchi sub'ektlari bugungi

(dehqon) xo'jaligi hisoblanadi, chunki u qishloq xo'jaligi mahsulotini yaratadi. Fermer xo'jaligi kichik biznesning ko'rinishidir.

O'zbekistonda fermerlashtirish totalitar tuzumdan meros bo'lgan va nochor ahvolga tushgan davlat xo'jaliklarini fermerlar hisobiga aylantirish va ular tarkibida fermer xo'jaliklarini tashkil etish, shuningdek, ishlab turgan davlat va jamoa xo'jaligidagi resurslarning bir qismi hisobidan fermer, jamoa xo'jaligini uyushtirish tarzida boradi. Qishloq xo'jaligida fermer xo'jaligi miqyosli xususiylashtirish jarayoniga qaramay, yer davlat xo'jaligi bo'lib qoladi. Eng zarur strategik ahamiyatga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari paxta va bug'doyga qayta buyurtmalarini o'rnatish orqali qishloq xo'jaligi boshqarib bormoqda. Boshqa bir tomondan esa davlat qishloq xo'jaligini rivojlantirish ko'p jihatlardan subsidiyalar, kreditlar, soliqlardan yengilliklar orqali qo'llab-quvvatlamoqda.

Natijada fermer xo'jaliklari soni yil sayin oshib bormoqda.

3-jadval

Fermer xo'jaliklari

| ko'rsatkichlar                       | 1999  | 2001 <sup>33</sup> | 2002   | 2004   | 2005   | 2006   |
|--------------------------------------|-------|--------------------|--------|--------|--------|--------|
| soni (ming)                          | 31,1  | 55,4               | 72,4   | 103,9  | 125,7  | 189,2  |
| umumiy maydoni (ha)                  | 665,7 | 1054,7             | 1591,7 | 2935,4 | 3775,3 | 4953,3 |
| fermer xo'jaliklarining maydoni, ga. | 21,4  | 19,0               | 22,0   | 28,2   | 30,0   | 26,2   |

Agrofirmalar — muayyan turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va uni sanoat usulida qayta ishlashni ta'minlab berayotgan sanoat tarmoqlaridan iborat bo'lgan korxonalar. Bu korxonalar fermer xo'jaliklarga tayyor mahsulotlar yaratadilar. Agrosanoat birlashmalari to'g'risida biz ular haqida

1. O'zbekiston Respublikasi Axborot-Kommunikatsiya Agentligi. "O'zbekiston Respublikasida 2000-T. 2001. 47s.  
2. O'zbekiston Respublikasi Axborot-Kommunikatsiya Agentligi. "O'zbekiston Respublikasida 2002-T. 2003. 29 s.  
3. O'zbekiston Respublikasi Axborot-Kommunikatsiya Agentligi. "O'zbekiston Respublikasida 2005-T. 2006. 72-76 s.

yuqorida qisqacha to'xtalib o'tgan edik. Shuni qo'shimcha qilmamkinki, fermer xo'jaligidan farqliroq, birlashmalar individual xususiy mulkka asoslanmaydilar. Birlashmalar ishtirokchilarning mustaqil individual mulki bilan bir galda umumiy-koooperativ mulki ham bo'ladi.

Agrobiznes ishiga fermerlar assosasiyasi (uyushmalar) ittifoqlari ham xizmat qiladi. Ular ko'ngilli va poytaxt mablag'iga asoslangan uyushmalar bo'lib, o'z a'zolariga xizmat ko'rsatadi, ularning manfaatini himoya qiladi.

Yer maydonlaridan samarali foydalanish va soliq tizimini bir shaklga keltirish maqsadida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ining bazaviy stavkasi tasdiqlandi.

Yangi tuzilgan dehqon xo'jaliklari farmonga binoan yagona yer solig'idan ikki yilgacha ozod qilinadi.

Agrar sohani taraqqiy ettirish uchun qishloq xo'jaligi kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishni, qishloqdagi tovar ishlab chiqaruvchilarning daromadlari o'sishini, kim vijdonan mehnat qilgan bo'lsa, har bir kishiga arziqli va to'kis hayot ta'minlaydigan xo'jalik yuritishning iqtisodiy sharoitlarini yaratib berish ta'tbiq etish kerak. Ushbu maqsadlarga quyidagilar asoslanib amalga oshirilishi mumkin:

-mamlakatning asosiy boyligi erning haqiqiy qayta ishlashini vujudga keltirish maqsadida mulkchilikning ko'p turdali shaklini qo'llab-quvvatlash;

-pachilik munosabatlari, oilaviy pudrat, fermer va xususiy xo'jalik tizimini taraqqiy ettirish, fermer xo'jaliklarini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, shuningdek, o'zaro kreditlash bo'yicha shirkatlarga ixtiyoriy birlashuvlarga ko'ngil bilan imkoniyat yaratish;

-qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi zavodlar, korxonalar va savdo tashkilotlarining aksiyalarini nazorat qilish, paketlarini ular xizmat ko'rsatadigan qishloq tovar ishlab chiqaruvchi sub'ektlari o'rtasida taqsimlash va aksionerlashtirish;

-qishloq xo'jaligi boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish va ma'muriy va buyruqbozlik usullaridan voz kechish;

Yerda davlat mulkchiligi sharoitida undan foydalanuvchilarga uzoq muddatli qo'yilmalarning o'z-o'zini ta'minlashiga kafolat beradigan yerdan ijara tartibida foydalanish imkoniyatini takomillastirish;

Yer baho bahoni shakllantirish tizimini o'zgartirish, qishloq tovar ishlab chiqaruvchilarning huquqlarini poymol etishga yo'l qo'yishni to'xtatish.

Prezidentimiz yerdan foydalanish madaniyatini oshirish, qishloq ishlab chiqarish bilan aloqasini tiklash va rivojlantirish, qishloq mehnatkashlari uchun huquqiy va kasbiy ta'lim berish, qishloqda keng ko'lamlı tadbirlar o'tkazilishini faol qo'llab-quvvatlamog'dalar.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining mahsuldorligini o'sishiga imkon beradigan, yerning holatini yaxshilaydigan, yerni qayta ishlash ishlarida faol qatnashadigan, o'zlarining shaxsiy tovar mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflaydigan qishloq xo'jaliklarga katta iqtisodiy imtiyozlar berilishi, davlatimizning qishloq xo'jaligi muddat ichida ilg'or, sanoatlashgan qishloq xo'jaligi shakliga aylinishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtda agroservis, navlashni sanoatlashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini joylash va qayta ishlab chiqariladigan mahsulotlarni saqlash, ulgurji oziq-ovqat bozorlari va tovar birjalarini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda.

Qishloq iqtisodiyotimizda borayotgan islohotlarning tashabbuskori va rahbari davlatimizning ilhomchisi davlatdir.

O'zbekiston Respublikasida davlat iqtisodiyotning faoliyatini oshirish mexanizmiga aralashmaydi, balki iqtisodiy taraqqiyotning o'ziga xos yo'nalishlarigina belgilab boradi, xolos.

Biz buni Prezidentimiz I.A.Karimovning yuqorida qayd etgan fikr asarlaridagi quyidagi xulosalarida ko'rishimiz mumkin: "Qishloq xo'jaligi asosiysi - qishloq xo'jalik yuritishning shunday tizimini yaratish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, yetishtirgan mahsulotdan foydalanish, o'z oilasining ma'murchiligini ta'minlash va qishloq xo'jaligini isloh qilishning eng muhim yo'nalishi".

Qishloq xo'jaligini isloh qilishning eng muhim yo'nalishi qishloq xo'jaligi kunda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda band bo'lgan



ortiqcha ishchilarni bo'shatib olish va ularni iqtisodiyotdan boshqa sohalarga jalb etishdan iboratdir.

Qishloq xo'jaligining o'zi qishloq joylarida yashayotganlarning hammasini ish bilan ta'minlay olmayotir.

Natijada bu hol qishloq xo'jaligini rivojlantirish va ta'min qilishga g'ov bo'lmoqda.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning yuqori sariq industrial usullari, ilg'or agrokimyo usullari sust joriy etilmoqda.

Mehnat unumdorligi ham past darajada qolmoqda. Lekin faqat masalaning iqtisodiy jihati, xolos. Uning ijtimoiy jihati bor.

Qishloqda yashovchilarning ko'pchiligi, ayniqsa yoshlari ishga joylashish, o'z hayotlarini yo'lga qo'yish imkoniga ega emaslar. Bu esa qishloqda keskin ijtimoiy muamolarni keltirib chiqarmoqda, ijtimoiy barqarorlik xavfining manbai aylanmoqda. Shu sababli, biz qishloq joylarida zamonaviy texnologiyaga ega harakatchan kichik korxonalar ochish hisobida yangi ish joylarini tashkil etishni eng muhim vazifa deb hisoblaymiz.

Biz o'z zimmamizga qishloqda mutlaqo yangi tarmoqlar ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani, kommunikatsiya tarmog'ini, zamonaviy maishiy va servis xizmat ko'rsatishni barpo etish vazifasini olganmiz.

Xizmat ko'rsatish sohasi etarlicha tashkil etilsa, qishloqda hojlovchilarning hammasini ish bilan ta'minlash mumkin.

Shu bilan birga, qishloqning qiyofasini, turmush madaniyatini tubdan o'zgartirib yuborish imkoni tugiladi. Bu mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishda yordam beradi»<sup>34</sup>

### Asosiy atama va tushunchalar

Agrara munosabatlar, yer rentasi, ijara munosabatlari, ish haqi, absolyut renta, differensial renta I, differensial renta II

<sup>34</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 300-301 betlar

absolyut renta, sanoat rentasi, yerning bahosi, agrosanoat rentasi, agrosanoat.

## 13-mavzu. MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARI

### 1. Yalpi milliy mahsulot ijtimoiy ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichi

Chet ellarda 1930 yildan boshlab, iqtisod makro va mikroga bo'linib boshladi. Unga Dj. Keynsning 1920 yil «Obuvaya teoriya iqtisodiyoti, presenta i deneg» nomli kitobi bosmadan chiqqandan so'ng turtki bo'ldi. Chet ellarda Dj. Keynsni iqtisodni makroiqtisodiy darajada tahlil qilishning asoschisi deb hisoblaydilar. Makroiqtisod deyilganda, jami ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan muammolar hisoblanadi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, ularning qanday darajada ekanligini tahlil qilish iqtisodiy sog'lomlashtirishning muhim omillaridan hisoblanadi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi ma'lumotlari asosida tarkib topadi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar «milliy», «milliy hisoblar tizimi» deb ham ataladi. Ular xalq xo'jaligida ishlab chiqarishni ikki bo'limga bo'linishiga tufayli ko'rsatkichlar yaxlit holda ifodalanmagan. Chet ellarda ko'rsatkichlar makroiqtisodiy yaxlit holda hisoblanadi.

Milliy hisob tizimi qayta hisoblardan holi mahsulot qiymati hisobini bog'laydigan bo'lganligi tufayli bunday hisoblar yanada soddaroq ham. O'zbekistonning jahon iqtisodiga qo'shilishda, biz ham o'z hisoblarini BMTda ishlab chiqarilgan milliy mahsulotlar tizimiga o'tishini taqozo etadi.

Hozirgi davrda davlatning iqtisodiy rivojlanishini o'lchashda, davlatning iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda, quyidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanadi; yalpi milliy mahsulot (*YaMM*), sof milliy mahsulot (*SMM*), milliy daromad (*MD*), shaxsiy daromad (*ShD*), mavjud daromad (*MD*) va boshqalar. Quyidagi ko'rsatkichlar milliy hisoblash tizimi asosida

hisoblanadi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga narxlar darajasi miqdori, bandlik kabi ko'rsatkichlar ham kiradi.

Iqtisodning sog'lom holda ekanligini belgilaydigan muhim ko'rsatkichlardan biri *YaMM* hisoblanadi. *YaMM* davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar yig'indisining bozor narxida ifodalanishidir. Yaratilgan mahsulotlarni aholi, davlat korxonalari harid qiladi. Buning uchun mahsulotlar umumlashgan holda qiymat ko'rsatkichi ifodalanadi. *YaMM*ning hajmini to'g'ri aniqlash uchun hisoblashdan holi bo'lishini talab etadi. Buning uchun *YaMM* yaratish uchun kerakli bo'lgan oraliq mahsulotni hisoblash kerak. Shuning uchun *YaMM* hajmi hisoblanganda, qo'shilgan qiymat mahsulotlarning bozor narhsidan uni ishlab chiqarish uchun ketgan material va yarim fabrikatlarning qiymatini ayirib olinadi. Iqtisodiy mazmunda qo'shilgan qiymat, korxonada yaratilgan mahsulotga qo'shgan ulushini ifodalaydi. Ishlab chiqaruvchilar va mahsulot soni juda ko'p bo'lgani tufayli *YaMM* hisoblardan holi bo'lgan miqdorini juda aniqlash qiyin.

Jahon tajribasida «Xarajatlar oqimi» degan ko'rsatkich qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichda: aholining iste'molga sarflaydigan davlatning tovarlar va xizmatlarni harid qilishga ketadigan xarajati va sof eksport bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar yig'indisi ifodalanadi. Yuqoridagi ikkala ko'rsatkich *YaMM*ni hisoblashda muhim ahamiyatga ega. Yalpi ichki mahsulot *YaMM*dan eksport va importdagi farqni ayirgandan qolgan qiymatiga teng bo'ladi. Respublikada 2006 yilda yaratilgan yalpi ichki mahsulot 2007 yilda 12,1 mlrd so'mni tashkil etgan, 2008 yilda esa bu ko'rsatkich 2007 yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,5 foizga yuqori bo'lgan. Sanoatda ishlab chiqarish xajmi 2007 yilda 12,1 foizga, qishloq xo'jaligida esa 6,1 foizga ko'paygan. 2008 yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 9 foizni, sanoatda 12,7 foizni, jumladan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda 17,7 foizga, xizmat ko'rsatishda esa 21,3 foizga, qishloq xo'jaligida esa 4,5 foizga ko'paygan.

### 2. Sof milliy mahsulot, milliy daromad va milliy hisob tizimidagi boshqa ko'rsatkichlar

Sof milliy mahsulot (*SMM*) yalpi mahsulot bilan ammortizatsiya o'rtasidagi farqni ifodalaydi. *SMM* yillik ishlab chiqarish hajmini ko'rsatadi. Bu iqtisodiyotni ishlab chiqarishni qisqartirmasdan davom ettirishni ta'minlaydi.)

*MD* bu ishlab chiqarish resurslari sifatida ishlatiladigan milliy daromadlar miqdori: ish haqi, renta, foiz va foyda.) *MD* – yaratilgan tovarlar va xizmatlarning qiymati hisoblanadi. *MD*ni aniqlashda *YaMM*dan ammortizatsiya xarajatlari va biznesdan qolgan qimmat olib tashlanadi.

*MD* ishlab chiqarilgan *MD*, hamda sarflanadigan *MD*ga ajratiladi.

Ishlab chiqarilgan *MD* bir yil davomida yangidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar yig'indisi hisoblansa, sarflanadigan *MD* tabiiy ofat, saqlash natijasida isrof bo'lganlarni hisobga olgan holdagi qiymat hisoblanadi.)

*MD*ning bir qismi iste'molga sarflansa, qolgan qismi ishlab chiqarishga sarflanadi.

Iste'mol foizi milliy daromadning bir qismi bo'lib, jamiyat tomonidan yaratilgan moddiy va madaniy ehtiyojlarini, ijtimoiy himoyalash ehtiyojlarini qondirishga sarflanadi.

Ishlab chiqarish ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflanishni hisobga olinsa, uning natijasi kelajakda iste'mol qilinadi.

Shaxsiy daromad – kishilarning ish haqi shaklidagi olgan daromad.)

Mavjud daromad (*MD*) daromadning soliq to'langanidan qolgan qismi. Bunda shaxsiy daromaddan daromad solig'i, korporativ mulkdan mulk solig'i, merosdan meros solig'i to'laydilar.)

### 3. Narx darajasi. Nominal va real *YaMM*

Yalpi milliy mahsulot nominal va real milliy mahsulot hisoblashida ham ifodalanadi. Nominal milliy mahsulot joriy narxlarida hisoblangan milliy mahsulotdir. Real milliy mahsulot o'tmish odatda o'zgarmas bazis narxlarida hisoblangan yalpi milliy

mahsulotni ifodalaydi. Real *YaMM* inflyasiyani hisobga olib olinadigan natijasida hisoblangan miqdor. Real *YaMM*ni hisoblashda *YaMM* indeksidan foydalaniladi.

Real yalpi milliy mahsulot miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$N_I = \frac{J_B}{B_B} \times 100\%$$

$N_I$  – narx indeksi;

$J_B$  – joriy yildagi yalpi milliy mahsulot narhsi;

$B_B$  – bazis yilidagi yalpi milliy mahsulot narhsi.

*YaMM*ning deflyatorini hisoblashda iste'molchilarning savatchasining tarkibidagi iste'mol tovarlari va xizmatlarning narhi, investitsiya, tovarlarining eksport va import tovarlarining narhi hisobga olinadi.

Deflyatsiya bu muayyan yildagi narxlar baza yildagi narxlar nisbatan yuqori bo'lganda, real yalpi milliy mahsulot hajmi muayyan yilda ishlab chiqarilgan *YaMM* qiymatini kamaytirish yo'li bilan aniqlash. Masalan 1990 yilda ishlab chiqarilgan *YaMM* 1416,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2007 yilda 9664,1 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa unda deflyator 6,82 yoki 682 bo'lgan bo'lib teng bo'ladi ( $9664,1 : 1416,2 \cdot 100 \% = 682$  yoki 6,82 bo'lgan). Demak 2007 yilda real *YaMM* teng bo'ladi ( $9664,1 : 6,82 = 1417,0$  mlrd so'm) ga teng bo'ladi.

*YaMM* deflyatoridan tashqari, narhlarning umumiy darajasi iste'mol narhlari indeks (*IBI*)dan foydalaniladi. Iste'mol narhlari indeksini asosida iste'molchilarning iste'mol savatchasining qiymatini va o'tgan yildagi iste'mol savatchasiga nisbatan qiymatining yoki arzonlashganligini aniqlash mumkin.

*IBI* – joriy yildagi iste'molchilar savatchasining muayyan davrdagi iste'molchilar savatchasining narhsiga nisbatan ifodalanishida aniqlanadi. Bu quyidagi formulada hisoblanadi.

$$IBI = \frac{JI_{SB}}{MI_{SB}} \times 100\%$$

*IBI* – iste'mol narhlar indeksi;

$JI_{SB}$  – joriy yildagi iste'molchilar savatchasi narhi;

$MI_{SB}$  – muayyan davrdagi iste'molchilar savatchasi narhi.

*YaMM* deflyatori va *IBI* o'rtasida farq mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. *IBI* xarid qilingan tovarlar va xizmatlarning narxini hisoblashda, *YaMM* deflyatori ishlab chiqarilgan barcha tovarlar va xizmatlarning narhini ifodalaydi.

2. *YaMM* deflyatorida import tovarlar narxi hisobga olinadi.

3. *IBI* va *YaMM* deflyatorlari turli-tuman agregatlashtirish usulidan iborat bo'lib, ular bilan bir-biridan farq qiladi. *IBI* o'zgaraydigan tovarlar bilan mo'ljallangan bo'lsa, *YaMM* deflyatori *YaMM* tarkibining o'zgarishi bilan o'zgaradigan narxlarga mo'ljallangan. Yuqoridagi o'zgarishlarga qaramasdan *IBI* va *YaMM* deflyatorining o'zgarish natijalari o'rtasidagi farq katta emas.

O'zbekistonda *IBI* qismdan iborat bo'lgan 267 ta tovarlar va xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lgan iste'molchilar savatchasini hisoblash mo'ljallangan:

1 bo'lim. Iste'mol tovarlari – 93 tur.

2 bo'lim. Kiyim va poyabzal – 81 tur.

3 bo'lim. Uy-joy, issiqlik, elektro-energiya va boshqa umumiy xohajlik xizmatlari to'lanadigan haq – 9 tur.

4 bo'lim. Maishiy xizmat tovarlar – 28 tur.

5 bo'lim. Medisina xizmati – 6 tur.

6 bo'lim. Transport va aloqa – 14 tur.

7 bo'lim. Dam olish, bilim olish, madaniy tadbirlar – 26 tur.

8 bo'lim. Shaxsiy gigiena buyumlari – 10 tur.

#### 4. Sof iqtisodiy farovonlik va yalpi milliy mahsulot

Biz respublikada ishlab chiqarishning nihoyat darajada oshib ketishga ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslik, ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantirish uchun sharoitlar yaratish, iqtisodiyotning bir tomonlama xomashyoviy yo'nalishiga qat'iy e'tibor berish respublika ichki siyosatining eng muhim vazifasidir. Bu vazifa bo'lishi, ...qishloq xo'jaligi xomashyosi va mineral resurslarni chuqurroq qayta ishlash, raqobatga bardoshli tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan texnologik siklning

tugallanganlik darajasini oshirish kerak», – degan edi I.Karimov.

Yalpi milliy mahsulot davlatning xo'jalik yomirini ifodalaydigan asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Lekin ko'rsatkich kishilarning hayotining sifati va milliy farovonligini ifodalamaydi. Shu maqsadda, jahon tajribasida iqtisodiy farovonlik *NEW* – degan atama qo'llaniladi (bu degan atama 70–yillarda V.Nordxaus va D.J. Tolson tomonlaridan tavsiya etilgan). Yuqoridagi ko'rsatkich yalpi mahsulot qamrab olgan omillarni ham o'zida ifodalaydi. Masalan, uy–ro'zg'or ishlari, shaxsiy tomorqa xo'jaligidagi ishlar, boshqarilgan tarbiyalash, bo'sh vaqt kabilar *SIF* ko'rsatkichida o'z aksini topadi. Bo'sh vaqt, daromadlarni oshishi bilan ko'paysa, aholi farovonligi ham oshgan hisoblanadi. «Sof iqtisodiy farovonlik ko'rsatkichiga yashirin iqtisodni ham kiritish zarur. Unga ta'sir lekin soliq to'lamaydigan (kasallarga qarash, repetitorlik, uzoq ta'mirlash qo'shib hisoblansa, giyohvand moddalarni sotish va rekort, qo'shib yozish) hisoblanmaydi.

Sof iqtisodiy farovonlik ko'rsatkichiga ekologik omillar ta'sir o'tkazadi. Atrof muhitning ifloslanishi, iqlim sharoitlari o'zgarishi aholining farovonligiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Davlat aholining sof iqtisodiy farovonligini quyidagicha ifodalash mumkin:

$NEW = YaMM - \text{farovonlikka ta'sir etuvchi omillar} + \text{bozor faoliyatida hisoblanmagan omillar} + \text{bo'sh vaqt}$

Sof iqtisodiy farovonlikni tajribada qo'llash qiyin bo'lsa ham nazariy jihatdan uni hisoblash va asoslab berishga harakat qilinmoqda.

### Asosiy atama va tushunchalar

Milliy hisob raqamlari, milliy iqtisodiyot, yalpi mahsulot, yalpi ichki mahsulot, sof milliy mahsulot, daromad, shaxsiy daromad, narxlar indeksi, sof iqtisodiy farovonlik, YaMM defolyatori.

<sup>35</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 52, 53, 54 betlar.

## 14-mavzu. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA DAVLATNING O'RNI

### 1. Bozor iqtisodiyotining davlat tomonidan boshqarish zarurligi

Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat bosh islohotchi sifatida ish olib borib, iqtisodiyotni va ijtimoiy turmushning muammolarini o'zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishi lozim. Sobiq tizimni parchalanishi natijasida davlatga kelgan mustaqil davlatlarning ko'pchiligi, demokratiyaning nihoyatda keng talqin qilinishiga yo'l qo'yib, davlatning tashkilotchilik roliga yetarli e'tibor bermadilar va shu tashkilotchilik ularda bozor iqtisodiga o'tish ko'p tartibsizliklarga olib kelib.

Mustaqil O'zbekiston bu yo'ldan bormadi, iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solib borish eng oqil yo'l ekanligini anglab oldi. O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimov ikkinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida (22 yanvar 2000y.) nutqida: «Davlatning kuchayishi avvalo, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, fuqarolar va jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy, salohiyatini ro'yobga chiqarish, mustaqillik va iqtisodiy tashabbuslar erkinligi uchun zarur sharoitlarni tashkil etib borish qobiliyati bilan o'lchanadi», – degan. Davlatlar olib borayotgan iqtisodiy siyosatlari ma'lum davrlarda u yoki bu mamlakatlarni iqtisodiyotini ko'tarishi, ayrim davrlarda esa iqtisodiy o'sishning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Albatta, iqtisodiy tanglik holatiga tushgan davlatlarning iqtisodiy siyosati tanqidga uchrashi va iqtisodiy taraqqiyotga olib borilayotgan davlatning iqtisodiy siyosatiga ijobiy baho berilib, u muammolarga sazovor bo'lishi ham mumkin. Umuman olganda, yangi bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davrda biz bozor iqtisodiyoti oldida turgan muammolarni hal qila olish qobiliyatiga ekanimizmi? – degan savol tug'iladi. Albatta, bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda tutgan o'rni inkor etolmaymiz, chunki u ko'p iqtisodiy muammolarni hal eta oladi. U avvalo ishlab

chiqaruvchilar va iste'molchilar manfaatlarini birlashtiradi va birgalikda iqtisodiyotni rivojlantirishga undaydi. Chunki, ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar iste'molchilar talabini qondiradigan darajada sifatli va qiymati jihatidan ularga qanoatlantiradigan qiymatlarda u mahsulotlarini va xizmatlarini taklif etadilar.

Bozor mexanizmlari fan va texnika yutuqlarini yangi ishlab chiqarish texnologiyalari ko'rinishida ishlab chiqarishga joriy etishlari natijasida, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishiga va uning qiymatini arzonlashuvga olib keladi.

Bozor orqali tovarlarga belgilanayotgan narxlar ishlab chiqarish jarayonini ma'lum yo'nalishlarga yangi investitsiya mablag'larini qaysi sohalarga yo'naltirishni belgilaydi. Bozor iqtisodiyoti davrida davlatning o'rni, uning vazifasi mohiyat kamaydimi? Albatta yo'q. Jamiyatda shunday sohalar borki, ularning ustiga bozor mexanizmi ta'sir eta olmaydi. Bular birinchi gilda ijtimoiy tovarlar, ya'ni jamoa bo'lib, iste'mol qilinadigan tovarlar va bajariladigan xizmatlar (milliy mudofaa, transport, ta'lim tizimidir. Bu sohada ishlab chiqarishni tashkil etish vazifasini davlat o'z zimmasiga oladi. Undan tashqari bozor mexanizmi hal eta olmaydigan muammolar mavjud. Ular quyidagilardir: atrof-muhitni muhofaza qilish, ishsizlikka qarshi kurashish, inflyasiyalarning oldini olish va boshqa muammolarni davlatning aralashuvsiz hal etish mumkin emas.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov – «Ma'muriy buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o'tish jarayonida taxiriy yondoshuvni, «Yangi uy qurmasdan turib, eshikni buzmag» – degan hayotiy tamoyilga tayangan holda, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanladik. Eng muhimi, parokandalik va boboshdoqlik ta'siriga tushib qolmaslik uchun o'tish davrida aynan davlat bosh islohotchi sifatida ma'suliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini biz o'zimizga aniq belgilab oldik. Mamakatimizni uzoq va davomli manfaatlari taqozo etgan holatlarda va keskin vaziyatlardan chiqish, ular tug'diradigan muammolarni hal etish zarur bo'lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo'llandi va bunday yondoshuv oxir-oqibatda o'zini o'zi

qiladi»<sup>36</sup> – degan edi.

Davlat o'zining alohida mavqeiga ko'ra, hamma davrlarda iqtisodiy jarayonlarga ta'sir o'tkazib kelgan. Hozirgi o'tish davrida davlat xalq xo'jaligining, ayniqsa uning asosini belgilaydigan tarmoqlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlashi, narx-avolarni tartibga solib turishi, soliq solish va qarz berishda ma'lum tabaqalarga imtiyozlar yaratishi, shuningdek, bevosita yordam ko'rsatish yo'li bilan muhim tarmoqlarga madad berishi bor. Bozor munosabatlariga o'tishning qiyin davrida aholining manfaatlarini faqat kuchli qayta taqsimlash vositasiga ega bo'lgan davlatgina himoya qilishga qodirdir.

Ayni paytda, davlatning vazifasi himoya bilan cheklanibgina qolmay, bozor munosabatlarining qaror topishi davrida davlat islohot jarayonida faol ishtirok etishi, uning tashabbuskori bo'lishi va islohotlarning asosiy yo'nalishlarini va bozorga o'tish yo'llarini ishlab chiqishda peshqadam bo'lishi kerak. Davlat iqtisodiy islohotning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda bevosita ishtirok etadi. Eng muhimi esa shundaki, ularni amalga oshirish kerak. Chunki, faqat davlatgina umummilliy iqtisodiy manfaatlarini mujassam holda ifodalashga va himoya qilishga, aholining barcha kuchlarini umum maqsadlar asosida birlashtirishga qodir.

Davlat o'z iqtisodiy faoliyatining huquqiy asoslarini, o'ziga xos «bozor shart-sharoiti»ni vujudga keltiradi va tasdiqlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat iqtisodiy erkinliklarning safoatchisi bo'ladi. Shu tufayli davlat iqtisodiyotga o'zining tartibga solish ta'sirini maqbul ravishda o'tkaza oladi. Tartibga solinadigan bozor sharoitida asosiy maqsad yo'llarini ishlab chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning strategik yo'lini belgilash va bu yo'lni o'tkazish yuzasidan taktik qarorlar qabul qilish, davlat zimmasiga yuklatiladi. Ijtimoiy muammolarni hal etishda, aholini ijtimoiy himoyalashning zaruri va aniq — ravshan tizimini vujudga keltirishda davlat katta o'rin tutadi. Vujudga kelayotgan ishbilarmonlik munosabatlarining qaror topishi va rivojlanishiga ko'maklashish ham

<sup>36</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari «O'zbekiston» T.: 2009, 7-8 betlar.

davlatning burchidir. Yuqorida aytilganlarga xulosa qilib aytish kerakki, hozirgi davrda, ya'ni aholini ijtimoiy himoyalash muhim o'rin tutayotgan bir davrda, bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan boshqarish muhim o'rin tutadi. Prezidentimiz I.A.Karimov haqida lo'nda qilib aytib qo'ygan.

«Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning hamma sohalarda o'zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirish zarur. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan hozirgi bozor davlat tomonidan tartibga solib turadigan bozordir»<sup>37</sup>.

Bozor sharoitida davlat o'z zimmasiga oladigan, ya'ni bozor mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni quyidagi guruhlariga bo'lib ko'rishimiz mumkin. Bular:

1. Iqtisodiyotni kerakli miqdorda pul bilan ta'minlash.
2. Bozor faoliyatini tashqi, salbiy (masalan ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatlarini) ta'sirlardan himoyalash boshqarish.
3. Pul bilan o'lchab bo'lmaydigan va talabga aylantirib bo'lmaydigan jamoatchilik noz-ne'matlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish. Ya'ni, mudofaa, jamoat tartibini saqlash, davlat boshqaruvi, yagona energetik tizimi kabi jamoat foydalanishdagi xizmat va tovarlarni etkazib berish ham davlat zimmasidadir.

«Respublikani hozirgi sharoitda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan inqirozga qarshi choralar dasturi O'zbekistonni 2009 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi», – degan edi Respublika Prezidenti I.A.Karimov<sup>38</sup>. Bu masalalarni davlatni faol boshqarish asosida hal qilish mumkin.

Iqtisodiyotda davlat aralashuvini biz davlatning 3 ta vazifasi orqali ifodalashimiz ham mumkin. Bular: samaradorlik, adolatlilik va barqarorlikdir.

**Samaradorlik vazifasini** bajarishi davlatning tadbirkorlik

muhojir uchun muhit yaratib berishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga davlat o'zining monopoliyaga qarshi siyosati orqali bozor olamida raqobat muhitini ham yaratadi. Bunday muhitning yaratilishi esa o'z navbatida tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish bilan birga alohida sifatli va mahsulot hamda xizmat yaratilishi uchun zamin bo'ladi.

**Adolatlilik vazifasi** davlatning ijtimoiy siyosatida o'z muvofiqini topadi.

**Barqarorlik vazifasi** esa davlatning iqtisodiy rivojining davriy muvofiqini tugatuvchi: ishsizlik, inflyatsiya, ishlab chiqarish tangligi kabi muammolarni hal etuvchi makroiqtisodiy barqarorlashtirish choralarida amalga oshiriladi. Yuqoridagi uchta global vazifadan tashqari davlat huquqiy asosni va ijtimoiy iqlimni ta'minlash, kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ilm-fan sohasidagi muhim tadqiqotlarni rivojlantirish, ilmiy-texnik faoliyatni rag'batlantirish, hududiy muammolarni hal etish kabi vazifalarni ham davlat o'z zimmasiga olgan.

## 2. Davlatning iqtisodiy siyosatiga nazariy jihatdan yondoshishi

Bozor iqtisodiyoti davrida davlatning aralashuviga munosabat, uni vujudga keltirish va rivojlanishi har xil bo'lgan.

Bozor munosabatlari tarkib topgan davr (XVII va XVIII asrlarda) merkantilistlar fikri hukmron bo'lgan.

Uning mohiyati sanoat va savdoni rivojlantirish uchun davlat tomonidan iqtisodiyotning tartibga solinishi zarurligida edi. XVIII asr oxirida merkantilizmning o'rniga kelgan klassik maktab namoyandalari A.Smit, D.Rikardo va boshqalar davlatning iqtisodiyotni tartibga solishga aralashuviga salbiy munosabatda bo'lganlar. Bu g'oyani birinchi marta A.Smit asoslab bergan. Uning fikricha, bozor iqtisodiyotida asosiy tartibga soluvchi omil bozor hisoblanadi, bundan kelib chiqqan holda bozorga to'liq davlat taqillik berilishi lozim. Davlat esa, iqtisodiyotga aralashmaslik siyosatini olib borishi lozim. Hozirgi zamon neoklassik iqtisodiyotshunoslari (monetarizm, rasional kutish nazariyasi) g'oyalari klassik maktab g'oyalari bilan bog'lanib kelib chiqadi.

<sup>37</sup> Karimov I.A. O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. IV bo'lim «O'zbekiston — buyuk kelajak sari». Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 112—113 betlar.

<sup>38</sup> Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish davri talabi. O'zbekiston ovozi. 2009 14 fevral

Endi iqtisodchilar, davlat hukumatlari oldida iqtisodiy inqirozlarning oldini oladigan, uning oqibatlarini yumshatadigan inflyasiya va ishsizlikni bartaraf etadigan milliy iqtisodiy tartibga solish mexanizmini topish asosiy masala bo'lib qoldi. Shunday mexanizmni angliyalik iqtisodchi Dj.M.Keyns asoslagan bo'ldi. Dj.M.Keyns iqtisodiy inqirozlar va ishsizlikning asosiy sababi, iste'mol buyumlari va ishlab chiqarish vositalariga yomon iste'mol talabning bo'lmasligi, deb ko'rsatadi.

Bunga asosiy sabab, daromadlar o'sgan sari foydalanish ne'matlarga bo'lgan talab pasayib, insonlarda daromadning kamayib ketishiga olib keladigan jamg'arish harakati kuchayadi. Bu degan so'z, tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan talabi ham pasayib borishi natijasida foyda ham kamayib boradi. Shuning uchun ham u fikricha, davlat iqtisodiyotga aralashishi va uni tartibga solish zarur. Demak, Dj.M.Keyns davlat o'zining iqtisodiy sohasida muvofiqlashtirish boradigan siyosati vositasida, jami talab va jami taklifni bir holatga muvofiqlashtirish, iqtisodiyotni tanazzul holatidan chiqarish va barqarorlikni ta'minlashi kerak, degan fikrni ilgari surgan.

Nazariy jihatdan Dj.M.Keynsning qarashlari iqtisodiy nazariyasida yangi, makroiqtisodiyot bulimi vujudga kelishiga asos bo'ldi. Amaliy jihatdan esa, ikkinchi jahon urushidan keyin Dj.M.Keynsning g'oyalari (ya'ni, pul kredit va moliya vositalari jami talabni tartibga solish) hamma rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy siyosatning asosi qilib olindi. Bu esa, ushbu mamlakatlardagi iqtisodiyotni davriy tebranishlarning yumshatishiga olib keldi. Aytish mumkinki, ushbu nazariyani ko'pgina mamlakat hukumatlari o'z iqtisodiy siyosatlarining yangi yo'nalishiga asos qilib oldilar. Davlatlar iste'mol buyumlari va ishlab chiqarish vositalari bozorlarini kengaytirish yo'li bilan samarali talabni kuchaytirishni maqsadga muvofiq, deb e'tirof etdilar.

G'arb mamlakatlarda iqtisodiyotni davlatlashtirish siyosati olib borilishi natijasida iqtisodiyotda davlat sektori vujudga keldi. Hukumatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va yo'nalish rejalarni tuzishni tashkil etdi, katta davlat bozorini vujudga keltirib, o'zining buyurtmalarini bajarishga (ular katta foyda keltirar edi) katta firmalarni jalb etdi.

Rivojlangan G'arb mamlakatlarida, erkin tadbirkorlikni cheklanmagan raqobat tarafdorlari bo'lgan neokonservatorlik

siyosatiga qarshi chiqdilar. Ularning namoyondasi amerikalik iqtisodchi Milton Fridman iqtisodiy erkinlik himoyachisi bo'lib tanilgan bo'ldi. Fridman (1974—1975) yildagi krizislar natijasida, Amerika iqtisodiyotini barqarorlashtirish konsepsiyasini ishlab chiqdi. U inflyasiyaning oldini olish uchun davlat bozoridagi pul hajmini qattiq, nazoratga olishga asosiy e'tibor berdi. Fridman monitar ya'ni (fiskal) siyosatini ilgari surdi. Davlat siyosati makroiqtisodning asosiy elementi bo'lib pul-kredit siyosati orqali taklif qilinayotgan pul hajmiga va unga bog'liq bo'lgan foiz darajasiga ta'sir etadi.

Monitar siyosati Rossiya davlatida ham E.Gaydar tomonidan qo'llanildi. U larzali terapiya nomi bilan mashhur bo'lib, davlat bozoridagi natijalarni bermadi. AQSh, Angliya, GFR va boshqa mamlakatlarda neokonservatorlik yo'riqlariga asosan iqtisodiy siyosat asosida «samarali taklif» – xususiy tadbirkorlikni rivojlantiruvchi qoida asos qilib olindi. Erkin tadbirkorlikni o'zini o'z bo'lishi uchun, foydadan va mehnat daromadlaridan kamaytirilgan soliq stavkalari pasaytirildi. Kam samarali deb topilgan korxonalar davlatni xo'jalik ishlariga aralashuvi kamaytirildi. Davlat korxonalarining bir qismi xususiy lashtirildi. Ko'pgina mamlakatlarda xalq xo'jaligini rivojlantirish qisqardi, ijtimoiy muvofiqlashtirishni moliyalashtirish birmuncha kamaytirildi. Ammo, davlatning o'zi davlat tomonidan tartibga solinishiga muhtoj.

Chunki bozorning o'zi hal eta olmaydigan muammolar bor, davlatning muhtojlik, inflyasiya, ishsizlik va h.k. Demak, rivojlangan mamlakatlarda, ya'ni bozor iqtisodiyotini hozirgi o'zining muvofiqlashtirishiga, fe'liga ko'ra qarama-qarshi bo'lgan ikki vosita, ya'ni bozor va davlatning bozor munosabatlariga aralashuvi zarur bo'ladi. Professorlar P.Samuelson va N.Nordxaus (AQSh) fikricha, hozirgi zamon makroiqtisodiy boshqarish fe'lini shunday muvofiqlashtirish kerak. Bozor mexanizmi ko'pgina sohalarda narh va ishlab chiqarishni aniqlaydi, ayni vaqtda davlat va soliq, xarajatlar bozor muvofiqlashtirish yordamida bozorni tartibga soladi. Ikkala tomon – bozor va davlat muhimdir. Ularning unisi yoki bunisi bulmagan davlatda iqtisodiyotni boshqarishga harakat qilish – bir qo'l bilan bozorni muvofiqlashtirishga harakat qilish bilan barobardir.

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti

varianti qabul qilingan. Ya'ni, bizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat bozor mexanizmini yaratadi va uning harakat harakat qilishini ta'minlab beradi. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday deydi: «Iqtisodiyotni erkinlashtirishda bosh vazifa, eng asosiy davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalarini funksiyalarini qisqartirish, birinchi galda, xususiy tashkilotlarning faoliyatiga aralashuvini cheklashdan iborat. Ayniqsa, xususiy tashkilotlarning biznesga ko'proq erkinlik berish lozim. Umuman, iqtisodiyotning faoliyatning bozorga xos mexanizmlariga ko'proq erkinlik berish zarur.

Buning uchun tegishli huquqiy zamin, tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoit va kafolatlarni yaratishimiz kerak»<sup>39</sup>. Keyin bosqichda esa, ya'ni bozor mexanizmi ishga tushganda, bozor iqtisodiyotimiz mavjud sharoitlardan kelib chiqqan holda, bozor mexanizmi va davlat tomonidan boshqarilib boriladi.

### 3. Davlatning iqtisodiy siyosati va davlatning boshqarish mexanizmlari

Davlat iqtisodiyotni ma'muriy, xususiy, iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqaradi. Davlat, firmalar o'zining korxonalariga tayinlagan rahbarlari va ma'muriy muassasalari tomonidan iqtisodiyot rivojini nazorat qilib borishga ma'muriy boshqarish deyiladi. Davlatni iqtisodiy usullar orqali bozor iqtisodiyotni tartibga solish tadbirlari davlat ixtiyoridagi korxonalar boshqarish byudjet, soliq va pul-kredit siyosati orqali, hamda kapital sarflarni nazorat qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Iqtisodiy usullar shunday qo'llanishi kerakki, bunda bozor kuchini, o'rnini bosmasliklari kerak. Aytaylik, bozor borilayotgan soliq siyosati ishlab chiqarish darajasini ko'tarishda narxlar esa talab va taklif muvozanatini ta'minlashi kerak. Iqtisodiy usullar orqali, davlat iqtisodiyot taraqqiyotini saqlash tomonlarini doimo kuzatib, uni oldini olishi yoki hal etish mumkin. Keyingi davrlarda iqtisodiyotni tartibga solish

<sup>39</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Toshkent. «O'zbekiston», 2000 y. 19 bet.

va bilvosita usullaridan ham foydalanilmoqda. Bevosita usullar asosan davlat tomonidan rejalashtirish hisobiga iqtisodiyotni tartibga solinmoqda. Bilvosita usulida iqtisodiyot bozor iqtisodiyotida kamchiliklarni o'rganib, ularni bartaraf etish yo'li bilan va moliya kredit vositalari, soliqlar siyosati orqali iqtisodiyotni tartibga solinadi.

O'zbekiston Prezidenti «Bozor sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, odatda, iqtisodiyotning davlat sektorini rejalashtirishni boshqarish, hamda ijtimoiy muammolarni hal etish yo'li bilan bevosita, shuningdek, huquqiy va iqtisodiy vositalar orqali bozor iqtisodiyotida bilvosita amalga oshiriladi»<sup>40</sup>, – degan edi.

Milliy iqtisodiyotni boshqarishdan maqsad: a) ijtimoiy muammolar tarkibi; b) zarur bo'lgan foydali ne'matlar va xizmatlar ta'mini; v) ijtimoiy ishlab chiqarish strukturasi o'rtasida muvozanatlikka erishishdan iboratdir.

Davlat o'z faoliyati natijasida qanday asosiy masalalar va muammolarni hal etmog'i zarur. Bular quyidagilardan iboratdir, a) fan va texnika taraqqiyotini strategik istiqbollashtirish, umumiy bilim va texnika taraqqiyotini kuchayishi b) fan va texnika taraqqiyotini strategik istiqbollashtirish, umumiy bilim va texnika taraqqiyotini kuchayishi c) bilim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga baho berish va ularni muddatga xalq xo'jaligining rivojlanishini istiqbollashtirish, d) iqtisodiyotning kam ta'minlangan qatlamlarini himoyalash pul-moliya tizimini talabga javob beradigan holda harakat qilishini ta'minlash, transport, aloqa va madaniyat muassasalari, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot moddiy texnika bazasini davlat tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya asosida rivojlantirish. e) hozirgi davrda iqtisodiyotni tartibga solishning muhim shakli bo'lgan iqtisodiyotni davlat tomonidan dasturlashtirish keng qamrovli bo'lib bormoqda. Bunda davlat tomonidan eksport, import, kredit, sublag'lar, malakali ishchilarni tayyorlash ilmiy tadqiqotlar olib borish dasturlarini ishlab chiqishdir. Endi yuqoridagi vazifalarni bajarishda davlat qanday vositalardan foydalanadi? Davlatning asosiysi quyidagilardan iborat: fiskal va pul siyosati, ijtimoiy siyosat va daromadlarni tartibga solish siyosati, tashqi iqtisodiy siyosat.

<sup>40</sup> Karimov I.A. O'zbekiston – buyuk kelajak sari. Toshkent. «O'zbekiston», 1998 y. 117 bet.



Umuman olganda, davlat iqtisodiy faoliyatining yo'nalishlari quyidagicha:

- bozor iqtisodiyoti huquqiy asoslarini ta'minlash;
- bozor mexanizmi yaxlitligi va uning normal ishlayotganligi uchun shart-sharoit yaratish;
- aholini iqtisodiy jihatdan himoya qilish va daromadlarni adolatli taqsimlash;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlarning samaradorligini va rivojlanishini ta'minlash.

Davlatning byudjet mablag'larini taqsimlash siyosati uning fiskal siyosati deyiladi. Pul siyosati ham iqtisodiyotning barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Pul miqdori tartibga solish orqali davlat narx darajasiga, investitsiya jarayonlariga va aholining iste'moliga, milliy ishlab chiqarish hajmiga va iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir etishi mumkin. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning vositalari bir-biri bilan bog'liqdir. Bunda bir sohada qabul qilinayotgan qarorni boshqa sohalariga ta'sirini, albatta, inobatga olmoq zarurdir. Ularga asosan narx-navolarning oshishi bilan jamg'armalarni indeksasiyalashtirish yashash minimumini o'rnatish, kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatishdan iborat. Undan tashqari ta'lim, sog'lomlikni saqlash, madaniyat sohalarini ham o'z ichiga oladi.

Tashqi iqtisodiy siyosat davlatning xalqaro savdo, valyuta va munosabatlarida tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlarini tarkib toptirilgan bozor mexanizmi shakllantiriladi va u iqtisodiyotni tartibga solish vositalardan biri bo'ladi. Bunda davlat o'ziga xos bo'lmagan funksiyalarni bozor mexanizmiga o'tkazib, iqtisodiyotni tartibga solish hammaga ma'lum dasturlar – moliya, kredit, soliq, valyuta siyosati, narxlarni nazorat qilish, hamda bilvosita ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari yordamida amalga oshiriladi. Iqtisodiyotni tartibga soluvchi ikkinchi vosita bo'ladi.

### Asosiy atama va tushunchalar

Davlat, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish siyosati, kredit-pul siyosati, tashqi iqtisodiy siyosat.

## 15-mavzu. IJTIMOY ISHLAB CHIQUARISHNING DAVRIYLIGI. ISHSIZLIK VA INFLYASIYA

### 1. Ijtimoiy ishlab chiqarishning mohiyati

Iqtisodiyot uchun ishlab chiqarish birlamchi bo'lib, muvoriylikka egadir. Ishlab chiqarish deganda faqat mahsulotlarni yaratish emas, balki kishilarning talab-ehtiyojlarini qondiruvchi turli mahsulotlarni yaratish ham tushuniladi. Iqtisodiyot nazariyasida ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan omillar, ishlab chiqaruvchi kishilar va ularning yuqori samara bilan ishlatilishini ta'minlovchi iqtisodiy shart-sharoit (munosabatlar) ijtimoiy ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Iqtisodda ishlab chiqarish keng tushunilganiga ega. **Kishilar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy ishlab chiqarish hisoblanadi.** Umuman, ishlab chiqarish ijtimoiy hayotning o'ziga xos ijtimoiy shakllariga bog'liq bo'lmagan asosiy iqtisodiy omilning umumiy belgilarning yig'indisidan iborat. Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining taraqqiyoti insoniyat madaniyatining taraqqiyotiga qarab rivojlanishida moddiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarish bir yo'la harakat emas, ishlab chiqarish bu davriy jarayondir. Ishlab chiqarish jarayonida tovarlar hajmi va qiymati davlatda uning qiymati ham oshib boradi.

Ishlab chiqarish jarayoni 2 turga bo'linadi: **moddiy ishlab chiqarish va xizmatlar ishlab chiqarish jarayoni.** **Moddiy ishlab chiqarish jarayoni** jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan xomashyo, turli ishlab chiqarish vositalari texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishni qamrab oladi. U turli ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi, kommunal xo'jalik, maishiy xizmat va boshqa tarmoqlardan tashkil topadi. Xizmatlar nomoddiy ne'matlar, **ishlab chiqarish** ma'naviy qadriyatlar, nomoddiy xizmatlar ta'minlanadigan sog'liqni saqlash, maorif va boshqa shunga o'xshash tarmoqlardan tashkil topadi.

Ishlab chiqarish munosabatlari kishilar o'rtasida moddiy mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol jarayonida vujudga keladigan munosabatlardir. Ular turli sohalarida o'ziga xos belgiga ega bo'lib, o'zaro farqlanadi.


## 2. Iqtisodiy rivojlanishning davriyligi. Iqtisodiy sikl va uning bosqichlari.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, hech qaysi mamlakatda iqtisodiy rivojlanish bir tekis bo'lmaydi. U davriy xarakterga bo'lib, iqtisodiy o'sish ketidan doimo tanazzul kelib turadi. Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy davrga (siklga) quyidagicha ta'rif beriladi: «Davriy – bu mulkiy xo'jaliklar va jahon xo'jaligini bir butun holda harakat qilishining umumiy shakli. Iqtisodiy dinamikaning muhim omili, makroiqtisodiy muvozanatning aniqlovchilaridan biri..., progressiv iqtisodiy rivojlanishning shakli»<sup>41</sup>.

«Iqtisodiy sikl iqtisodiy rivojlanish darajasining ketma-ket yuksalishi va tushkunlikka tushish jarayonidir»<sup>42</sup>. Demak, iqtisodiy davr bu rivojlanishning shakli bo'lib, iqtisodiy davr bir inqirozdan ikkinchi inqirozga bo'lgan harakat davri o'z ichiga oladi. Davrlar davomiyligi turlicha, ya'ni qisqa va uzun bo'lishi mumkin. Shuning uchun «uzun to'lqinlar» va «qisqa to'lqinlar» davri farqlanadi. Uzun to'lqinlar davri 40 yillik davrni o'z ichiga oladi. «Uzun to'lqinlar» nazariyasi inglizlik X.Klark asos solgan. 1847 yilda 1793 va 1847 yillardagi inqirozlar o'rtasida 54 yillik farqga e'tibor berdi va tasodifiy emas, bu jarayon ob'ektiv shartlangandir, degan xulosaga keldi.

Davriylik nazariyasini rivojlantirishda ko'pgina iqtisodiy olimlar ham o'z hissasini qo'shgan. Ular o'z asrlarida to'lqinlar iqtisodiy adabiyotlarda ortiqcha ishlab chiqarish davri va inqirozlarni o'rganishga katta ahamiyat bergan. Yuqoridagidek ta'kidlab o'tiladigan iqtisodiy davr (sikl) ishlab chiqarishning iqtisodiy inqirozdan ikkinchisi boshlanguncha qadar takrorlanib turadigan harakati tushuniladi.

Buni sxematik ko'rinishda ifodalashimiz mumkin (rasm 1).



1-rasm Iqtisodiy davr va uning bosqichlari

T – yillar;

Q – milliy ishlab chiqarishning real hajmi;

A – o'tgan ishlab chiqarish siklining eng yuqori hajmi;

AV – krizis davrida ishlab chiqarishni pasayish hajmi;

VV – turg'unlik va jonlanish bosqichlarining iqtisodiy rivojlanish;

D – bosqichning yuqori nuqtasi;

CD – yuksalish bosqichining iqtisodiy rivojlanish.

Iqtisodiy davr (sikl) inqiroz, turg'unlik, jonlanish, yuksalish bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichlar iqtisodiy davr davri deyiladi. Fazalarning har birida navbatdagi fazaga o'tish sharoit yuzaga keladi. Endi fazalarni alohida ko'rib o'tamiz. Vaqti-vaqti bilan ijtimoiy ishlab chiqarish harakatida turg'unlik bo'lib turadigan uzilish, ya'ni iqtisodiy nomutanosiblik iqtisodiy inqiroz deyiladi. Uning ikki turi farqlanadi:

1) qisqacha tovar ishlab chiqarishdan yuzaga keladigan inqiroz.

2) ishlab chiqarishning qisqartirish natijasida yuzaga keladigan inqiroz.

Inqiroz davrida ishlab chiqarishning qisqarishi narxlarning oshib ketishi, ishsizlar sonining ortishi, ish haqining pasayishi, aholi (mehnatkashlar) turmush darajasining pasayishi kabi holatlar yuzaga keladi. Inqiroz bosqichida aholining sotib olish qobiliyati bilan belgilanuvchi tovarlar nisbatan ortiqcha ishlab chiqarilganligi va sotilmay

<sup>41</sup> Kamaev V. D. Uchebnyk po osnovam ekonomicheskoy teorii. M. Vldos, 1994 g. 358 bet.

<sup>42</sup> Makkanell R., Bryu S.L. Ekonomiks. Referat. M., Menedjer. 1992 g. 72 str.

qolayotganida yaqqol ifodalanadi, narxlar va foyda miqdori pasayadi, ishlab chiqarish hajmi qisqaradi. Buning natijasi ish-sizlar soni ko'payadi, ish haqi pasayadi, kreditga talab oshib, foiz ko'tariladi, banklardagi qo'yilmalar ommaviy ravishda qaytarib olinadi.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov – «Bugungi kunning dolzarb muammosi bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlaridir. Inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida yuz bergan tenglik holatidan boshlandi..., moliya-bank tizimida inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olgani, resurs va iqtisodiy pasayishining muqarrarliligi, investitsiyaviy faollashish ko'lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va Ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi..., moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qanday davlatdagi miqyosi, ko'lam va oqibatlari qanday bo'lishi va buni jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi. Ya'ni bu avvalo, shu davlatning moliya-valyuta tizimi nechog'lik mustahkam ekaniga, milliy institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (to'lov imkoniga), ularning chet El va korporativ boshqaruv tuzilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek oltin-valyuta zahirasi hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada-mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog'liq... jahon moliyaviy inqirozidan mumkin qadar tez chiqish, uni oqibatlari yengillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida, umuman, Dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning birinchi bilan uyg'unligiga bog'liq»<sup>43</sup> – degan edi.

Inqirozdan keyin **turg'unlik** fazasi boshlanadi. Bu bosqichda ishlab chiqarishning pasayishi to'xtaydi, u turg'unlik holatga kelib turadi. Tovarlarini bozorda juda past narxlarda sotish boshlanadi. Bo'sh pul kapitali tashkil topib, foiz pasayadi. Bu **jonlanish** bosqichi uchun sharoitni vujudga keltiradi. **Jonlanish** bosqichida

ishlab chiqarish oyoqqa turib oladi. Ishlab chiqarishning hajmi asta-sekin krizisdan ilgari darajasiga yetadi, narxlar ko'tariladi, bozorda miqdori oshadi, jonlanish fazasini o'rnini **yuksalish fazasi** egallaydi. **Yuksalish fazasi** uchun ishlab chiqarishning oyoqgacha bo'lgan darajasidan oshib ketish, tovar narxlarining oshishi ko'tarilishi, korxonalarining ishga tushurilishi, ish-sizlar sonining kamayishi, bank va kredit ishlarining yo'lga qo'yilishi bozorga talabning oshishi va foiz me'yoringa ko'payishi xarakterlidir. Nisbiy ortiqcha ishlab chiqarish va nisbiy kam ishlab chiqarish shaklidagi inqirozlardan tashqari **strukturaviy inqiroz** ham mavjud bo'lib, ular davriy xarakterga ega emas. Bu holda **qimmat soha** va tarmoqlar o'rtasida chuqur nomunosiblik yuz beradi. Bunday inqiroz sababi homashyolarning keskin kamshasligidir. Masalan, energiya inqirozi bilan boshlanadi. Strukturaviy inqiroz natijasida talab va taklif munosabatligi buziladi va xomashyoning narxi ko'tarilib ketadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, strukturaviy inqiroz davriy xarakterga ega emas, u ko'pincha uzoq muddat davom etishi bilan xarakterlanadi. Siklli inqirozdan farqli ravishda, struktura inqirozda, bir yoki bir necha tarmoq izdan chiqqan sharoitda qolgan tarmoqlar tez rivojlanadi.

Albatta, davlat inqirozga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirib turadi. Inqiroz va tushkunlik davrlari salbiy oqibatlarini bartaraf olish, ularni bartaraf etish uchun nafaqat bir mamlakat doirasida, balki mamlakatlararo faoliyatlar muvofiqlashtirilmoqda, globallikda milliy dasturlar ishlab chiqarilmoqda.

### 3. Pulning qadrsizlanishi

Pulning qadrsizlanishini oldini olish, unga qarshi kurashish uchun avvalo «narx belgilash tizimini, yanada tartibga solish, bozorni tartibga solib turuvchi vosita sifatida narxning rolini mustahkamlash, narx navoni erkin qo'yib yuborishning I.A.Karimov «bankrotatadigan» mexanizm O'zbekiston uchun noma'qul ekanligini ko'rsatib berish va yan e'tirof etgan holda, ulgurji va chakana narxlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish, erkin (kelishilgan) narxlarda sotiladigan tovarlar doirasini kengaytirish yo'lini izchil amalga oshirish, ... tovarlarni qayta baholash tuzilmalarini ajratish hisobiga narx-navoning

<sup>43</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan choralari. «O'zbekiston» T.: 2009. 4-6 betlar.

sun'iy ravishda oshirib yuborishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish lozim»<sup>44</sup>, – degan edi.

Iqtisodiy tebranishlar davrida narxlar va bandlilik darajasi o'zgarishlar vujudga keladi. Narxlarning oshishi — inflyatsiya deyiladi. Bu atama XIX asrning oxirida vujudga kelgan bo'lib, kengayish katta bo'lish degan mazmuni anglatadi. Monitoring asosiy qonunga binoan, inflyatsiya jarayoni mahsulot ishlab chiqarishga nisbatan tovarlar narxining oshishi natijasida vujudga keladi. Bunday hol ishlab chiqarishning barcha sohalarida bo'lib, inflyatsiya narxlar indeksi yordamida hisoblanadi.

Inflyatsiya sur'atlarini quyidagi formula asosida aniqlash mumkin:

$$I_d = \frac{J_b - B_b}{J_b} \times 100 \%$$

$I_d$  – inflyatsiya sur'ati;

$J_b$  – joriy narx indeksi;

$B_b$  – bazis narx indeksi.

Masalan, 1990 yilda bazis iste'mol mollari narhlari indeksi 113,6 % ga teng bo'lgan bo'lsa, 2008 yilga kelib, u – 118 % ga teng bo'lsa, inflyatsiya sur'ati 2008 yilda teng bo'ladi 3,7 % ga.

Nima uchun inflyatsiya bo'ladi?

Birinchidan: muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori nisbatan ortiqcha pullarni chiqarilishi.

Ikkinchidan: davlatning xarajatlari daromadlaridan ortiq ketganda, inflyatsiya bo'ladi. Bunda davlat odatda inflyatsiyani boshqarish uchun harbiy sanoatga ko'p mablag' sarflaydi. Jahon bo'yicha ham inflyatsiyaga ta'sir etishi mumkin. Inflyatsiya tashkiloti iqtisodchilar talab va taklif inflyatsiyasini qayd etadilar.

**Talab inflyatsiyasi.** Yalpi taklif va yalpi talab o'rtasidagi muvozanatni yalpi taklifning o'zgarishi natijasida buzilishi ifodalaydi. Unga davlat xarajatlarning oshishi, ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan talabning oshishi va aholi daromadlarining oshishi ta'sir o'tkazadi. Ya'ni daromadlarning oshishi ishlab chiqarilayotgan tovarlarga nisbatan ko'p bo'lishi ham inflyatsiyaga

sabab bo'ladi. Xarajatlar inflyatsiyasi, xarajatlarning oshishi bilan narxlarning ko'tarilishini ifodalaydi. Yashirin narxlarni ko'tarilishi ham, xomashyo narxining oshishi kasaba korxonalarining ta'siri ostida ish haqining oshishi narxlarning oshishiga sabab bo'ladi.

Inflyatsiya o'sish sur'atlari bo'yicha uch turga bo'linadi.

**Mo'tadil inflyatsiya.** Bunda narxlar sekin o'sadi (yiliga 10 % gacha o'sadi), pulning qiymati saqlanadi.

**Tezkor inflyatsiya** – yiliga narxlar 200 % gacha o'sadi, pulning qiymati o'rtasida tuziladigan iqtisodiy shartnomalar chet el tovarlariga bog'liq holda narxlarning o'sishini e'tiborga olib bo'lmaydi.

**Giperinflyatsiya.** Bunda narxlar 200 % ortiq yiliga o'sadi, pulning qiymati kamaladagi pul hajmi va narxlar astronomik sur'atlar bilan oshadi, narx bilan ish haqi o'rtasida juda katta farq vujudga keladi. Ishlab chiqarilayotgan ish haqlari minimum iste'mol savatchasi talabini qondirmaydi. Inflyatsiya bir turdan ikkinchi turga o'tishi mumkin. Umuman, tezkor inflyatsiya sanoati rivojlangan mamlakatlarda ham bo'lib turadi.

Ammo, mo'tadil inflyatsiya rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan to 1993 yilgacha, ya'ni rubl zonasida bo'lgani uchun, pul – narx munosabati doirasida samarali nazorat qilish imkoniyatiga ega emas edi. 1993 yil noyabridan so'm-kuponni va 1994 yil o'rtasidan milliy rublga o'tish bilan nazorat qilishni to'liq, o'z qo'liga olishini ta'minladi. Natijada yillik inflyatsiya asta-sekin pasaygan bo'lsa ham, lekin rivojlangan davlatlarga qaraganda, yuqoriroq darajada bormoqda.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, iste'mol narxlarining inflyatsiyasi 2003 yilga kelib bu 3,8 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2007 yilda tasdiqlangan parametrlar doirasida saqlanish holida, 6,8 foizni tashkil etdi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, inflyatsiya bu narxlar umumiy darajasining oshishi tushuniladi. U ochiq va yashirin turda bo'ladi. Ochiq inflyatsiyada narhlar sekin ko'tariladi yoki ko'tarilmasligi ta'minlanishi mumkin. Bunda tovarlarning kamomadligi kuzatiladi, tovarlar va xizmatlarning sifatsizligi ortadi.

<sup>44</sup> Karimov I.A. O'zbekiston – buyuk kelajak sari. Toshkent. «O'zbekiston», 1998 y. 191 bet.

Inflyasiya balanslashgan bo'lganda, narxlarning oshishi tovarlar miqdori ham oshadi, balanslanmagan inflyasiyada esa oshadi, mahsulotlar va xizmat ko'rsatish miqdori pasayadi. Yil kutilayotgan va kutilmayotgan inflyasiya turlari ma

**Kutilayotgan inflyasiya** bashorat qilish mumkin, **kutilmayotgan inflyasiya** to'satdan narhlarning oshishi bilan namoyon bo'ladi. **Kutilayotgan inflyasiya** va uning oqibatlarini oldini bashorat qilish mumkin, **kutilmagan inflyasiyani** oldindan bashorat qilish bo'lmaydi. Birinchi holda inflyasiyaning kutilayotgan oqibatlariga tayyorlanib, uni sezilarli darajada yumshatish mumkin.

Ikkinchi holda narxlarning kutilmagan o'sishi natijasi mamlakat iqtisodiy ahvolidan sezilarli yomonlashuvi ro'y berishi mumkin. Inflyasiyaga qarshi kurashning taktikasi mavjud bo'lsa, qisqa muddat ichida uning natijalarini tahlil qilish strategiyasini uzoq muddatga belgilangan maqsadlar va usullar bilan amalga yig'indisidir.

O'zbekiston Respublikasida davlat tomonidan iqtisodiy moliyaviy, soliq va pul-kredit siyosatini erkinlashtirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida inflyasiya darajasining keskin kamayishi ta'minlandi. Xususan, agar inflyasiya darajasi oldingi yilga nisbatan 2000 yilda 24,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda atigi 6,4 % ni tashkil etgan. 2008 yilda inflyasiya darajasi 7,8 %ni tashkil etgan. Bu esa rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan mo'tadil inflyasiyani tashkil etadi.

Inflyasiyaning bunday keskin pasayishi – ish haqi, aholi daromadlarining o'sishiga, bank tijorat stavkalarining pasayishiga buni natijasida esa iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ajratiladigan kreditlar hajmining ortishiga asos yaratdi. Inflyasiyaning iqtisodiy ijtimoiy oqibatlari murakkab va turli ko'rinishlarga ega bo'lgan hol hisoblanadi: aniq qadriyatlar miqdori kamayadi, jamiyat a'zolarining keskin tabaqalanishi (boylar va kambag'allar) narxlar tizimining buzilishi, iqtisodiy rivojlanishning keskin pasayishi kuzatiladi. Inflyasiyaning oqibatlarini yo'qotish maqsadida har qanday davlat inflyasiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Inflyasiyaga qarshi kurashishning taktikasi mavjud bo'lib, qisqa muddat ichida uning natijalarini tahlil qilish

inflyasiya esa uzoq muddatga belgilangan maqsadlar va usullar bilan amalga yig'indisidir.

## 2-jadval

2005 yil O'zbekiston Respublikasida inflyasiya darajasi (narxlarning oldingi yilga nisbatan % da oshishi)

| Yillar | Umumiy iste'mol narxlari indeksi |
|--------|----------------------------------|
| 2000   | 24,9                             |
| 2001   | 27,4                             |
| 2002   | 27,6                             |
| 2003   | 10,3                             |
| 2004   | 1,6                              |
| 2005   | 6,4                              |
| 2006   | 6,8                              |
| 2007   | 6,8                              |
| 2008   | 7,8                              |

**Strategik usulda** – uzoq muddatli pul siyosati amalga oshiriladi. Pul massasining o'sishiga qattiq limit belgilanadi. Byudjet kamomadini qisqartirishga harakat qilinadi.

**Taktik usullar:** korxonalaridan imtiyozli soliq olish, davlat korxonalarining xususiyashtirish, iste'mol mollarini sotib olishni qisqartirish, jamg'arish normasini, davlat obligatsiyalari foizini kamaytirish va h.k. qo'llaniladi.

## 4. Ishsizlik va uning iqtisodiy oqibatlari. Ouken qonuni

Mehnat bozorida ish kuchiga bo'lgan talab va taklif bozoridagi muvozanat qator omillar ta'sirida buzilib turadi. Bu omillardan biri mehnat bozorining boshqa tovarlar bozoriga bog'liqligidir. Iste'mol tovarlariga bo'lgan talabni o'zgarishi talab chiqarish tarkibining o'zgarishiga olib keladi. Masalan, bir tovarni ishlab chiqarishga qaraganda boshqasining ishlab chiqarishi foydali bo'lib qoladi. Mehnat bozorida ham shunga mos ravishda birinchi sohada ishchilarni yollash qisqarib, ikkinchi sohada ishchilarga bo'lgan talab oshadi. Ishchilar bir ishdan bo'shasa, ikkinchisiga kirishlari lozim bo'lib qoladi. Toki, ular boshqa soha bo'yicha tovar ishlab chiqarish, malakasini egallab,

unga moslashib olgunlariga qadar, ya'ni, ish kuchining talabga moslashguncha, mehnat bozorida muvozanat bo'ladi. Natijada ishsizlar paydo bo'ladi.

Ishsizlik mamlakatda ishga layoqatli, belgilangan mehnat ishlashni xohlovchi va ish qidirib yurgan fuqarolarning barchasi bilan ifodalanadi. Mehnatga layoqatli aholi deganda, 16 yoshdan katta (respublikamizda 16 yoshdan boshlab mehnat qilish qo'sh bo'yicha ruxsat etilgan) va mehnat qilishga qodir kishilarni tushuniladi. Mamlakatning barcha mehnatga layoqatli aholisining uning mehnat resurslarini tashkil qiladi.

Muvozanatsizlikning sabablaridan yana biri ishsizlik hisoblanadi. Ishsizlik bu mehnatga layoqatli aholining barchasiga sabablarga ko'ra beish yurishi hisoblanadi. O'qish bilan bog'liq bo'lgan talabalar, pensionerlar, uy bekalari, to'liq bo'lmagan ish kuni bilan ishlayotganlar, ishsizlar soniga qo'shilmaydi.

Ishsiz yurishning sabablariga ko'ra ishsizlikning quyidagi turlari mavjud:

**Friksion ishsizlik** – ixtiyoriy ishsizlik, turli sabablarga ko'ra chunonchi bir hududdan boshqasiga ko'chish, kasbini o'zgartirish uyida bola parvarish bilan shug'ullanish sababli yuzaga keladigan ishsizlikni bir turi bo'lib, u doimo mavjud bo'ladi. Friksion ishsizlikka yuqori ish haqi olish maqsadida ish qidirayotganlar ham kiradi.

**Mavsumiy ishsizlik** mavsumiy ishlarning tugashi natijasida kelib chiqadi. Masalan, qish oylarida qishloq xo'jalik ishlarida to'xtab, qishloqlarda ko'pchilik ishsiz qoladi.

**Tarkibiy ishsizlik** ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarish natijasida vujudga keladi. Bunday ishsizlar o'z ixtisosliklarini o'zgartirishga majbur bo'ladilar.

**Davriylik ishsizlik** ishlab chiqarish hajmi qisqarganida vujudga keladi. Biz «to'liq bandlilik» tushunchasini ishlatganda, 100 % bandlilik ko'zda tutilmaydi. Iqtisodchilar friksion va tarkibiy ishsizlikning bo'lishini maqsadga muvofiq ravishda hisoblaydilar.

**Davriy ishsizlik** mamlakat iqtisodiyotining davriy rivojlanishi bilan bog'liq ishsizlikdir. Davriy ishsizlik mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarini inqirozga yuz tutgan davrda mav-

judi. Bu paytda iqtisodiy faollik pasayadi, jami talab kamayadi. Davriy ishsizlik esa o'z navbatida ishsizlik darajasining keskin oshishiga olib keladi. Mamlakat iqtisodiyoti jonlangan davrda esa jami talab ortadi. Bu esa o'z navbatida ishsizlik darajasining pasayishiga olib keladi va hokazo. Bunday ko'rinishdagi ishsizlik davriy ishsizlikda goh o'sib, goh pasayib turadi va jamiyat uchun juda og'ir bo'ladi. Davriy ishsizlikning uzoq vaqt davom etishi iqtisodiyotni izdan chiqarishi oqibatida butun jamiyatni larzaga keltirishi mumkin.

**Ixtiyoriy ishsizlik** – tabiiy ishsizlik turi bo'lib, bunda mehnatga layoqatli kishilarning mehnat faoliyatidan o'z xohishi bilan chetlashgan, ya'ni ishlashni xohlamaydigan qismi hisoblanadi.

**Institusional (muassasaviy) ishsizlik** ham tabiiy ishsizlikning navbatdagi turi hisoblanadi. Ishsizlikning bu turi ish bozori infratuzilmasi amal qilishi hamda shu bozorda talab va taklifni o'zgartiruvchi omillarni keltirib chiqaradi.

**Texnologik ishsizlik** ishlab chiqarishning amal qilishida texnologik usullar bir-birining o'rniga kirib kelishi bilan birga vujudga keladi. Ularning ishida asosiylari bo'lib mexanizatsiya, avtomatlashtirish, robotlashtirish va axborot texnologiyasini ishlatish hisoblanadi.

**Hududiy ishsizlik** tarixiy, demografik, madaniy, milliy va iqtisodiy-psixologik xususiyatdagi bir qator kompleks omillar bilan vujudga keladi.

**Yashirin ishsizlik** uchun ish kuni yoki ish haftasi davomida ishlab chiqarish band bo'lmaslik xos. U o'z ichiga ish kuchi ishlarining hajmini bajarmaydigan bir qismini oladi.

**Turg'un ishsizlik** mehnatga layoqatli aholining ish joyini qidirib bo'lmagan, ishsizlik bo'yicha nafaqa olish huquqidan mahrum bo'lgan va faol mehnat faoliyatiga hech qanday qiziqishi bo'lmagan qismini qamrab oladi.

Ayrim hollarda milliy mahsulotning haqiqiy hajmi potensialidan ortib ketishi mumkin. Bunday hol ishsizlik darajasi oshib ketishidan ham past bo'lgan davrlarda ro'y beradi. Ishlab chiqarishga ishlarning qo'shimcha smenalarini jalb qilish, kapitalni o'zlashtirish, smenalardan, o'rnatilgan me'yordan yuqori darajada foydalanish,

ish vaqtidan ortiqcha ishlash va o'rindosh ishlarda band bo'lganlar kabilar buning asosiy sabablaridir.

Shuning uchun to'liq bandlilik friksion va tarkibiy ishsizlik bo'lishi bilan birga, siklik ishsizlik 0 ga teng bo'lganda, o'zlashtiriladi. Ishsizlikning bunday ko'rinishi, ishsizlikning darajasi deyiladi. Ishsizlik darajasini aniqlash uchun mamlakatning barcha aholisi uch guruhga bo'linadi:

1. 16 yoshga to'lmagan yoshlar, ruhiy kasallik bilan og'ir aholo tuzatish kolonniyalarida yashayotganlar;
2. Nafaqaxo'rlar, talabalar, uy bekalari qandaydir sabablarga ko'ra ishlamayotganlar va ish qidirayotganlar;
3. Ish kuchi.

Ishsizlik darajasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$I_d = \frac{I_{shs}}{I_{shk}} \times 100 \%$$

Bunda:  $I_d$  – ishsizlik darajasi;

$I_{shs}$  – ishsizlar soni;

$I_{shk}$  – ish kuchi.

Ishsizlik hozirgi kunda jamiyatimizning eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki u, birinchilikda resurslardan to'liq foydalanilmayotganlikdan va daromadning pastligidan dalolat beradi. Ikkinchidan, mamlakatning yalpi milliy mahsulotni ishlab chiqarishning muhim imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganlikdan dalolat beradi. Bular o'z navbatida ma'lum salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Ulardan birinchisi ijtimoiy sohada kuzatiladi. Bu oqibatlar munosabatlarda vaziyatning keskinlashuvi va jamiyat miqyosidagi noroziliklarning ko'payishiga olib keladi.

2006 yilda ishga joylashish maqsadida mehnat bazariga murojat qilganlar soni 391,5 ming kishini tashkil etib, 2005 yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,6 foiz kam bo'lgan. 2007 yildagi ko'rsatkich 2007 yilga kelib yana 5,0 foizga kamaygan, 2006 yildagi ishsiz deb ro'yxatga olinganlarining 74,7 foizga qishloq aholisi tashkil etgan. Ishga joylashtirish tashkilotlarida ishsizlik

ro'yxatga olinganlarining 15,3 foizi to'g'ri kelgan.

2008 yilda 661 mingga yaqin ish joylari tashkil etildi. Shu jumladan kichik biznes sohasida - 374 mingga, xizmat ko'rsatish va servis sohasida esa 220 mingga, kasanachilik hisobidan esa 97,8 mingga yangi ish joylari tashkil etildi. 2008 yilda ish bilan band bo'lganlarning 76 foizi kichik biznes sohasida band bo'lganlar.

Respublikada ishsizlikni oldini olish va bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoyalashni ta'minlash uchun kompleks tadbirlar ishlab chiqilib hayotga qo'llanilmoqda. Jumladan, tovarlarga, xizmatlarga, tariflarga chakana narxning oshirilishiga muvofiq aholi daromadlarini indeksasialash tizimi tashkil etilib, yashash qiymatini eng kam miqdori aniqlanib, davlat tomonidan ish haqining eng quyi miqdori belgilab berilmoqda. Yilim oziq-ovqat mollari davlat tomonidan dotatsiya mablag'lari bilan chakana narxlar nisbiy arzon darajada ushlab turilibdi. Tashkil etilgan mehnat birjalarida ishsizlarni ro'yxatga olish ularni ishga qo'yish uchun mutaxassislikka o'qitish va ishsizlik nafaqalari berish tashkil etilgan. Bu olib borilayotgan tadbirlar ma'lum darajada ishsizlik muammolarini hal etishini yengillashtiradi.

Ishsizlik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy oqibatlarga egadir. Ishsizlik (depressiya) bosqichi ish kuchining faoliyatsizligiga olib bo'ladi, faoliyatsizlik esa malakaning yo'qolishiga hamda ijtimoiy va siyosiy tartibsizliklarga olib keladi.


Ishsizlikning salbiy oqibatlaridan biri uning YaMM hajmiga salbiy o'tkazishi hisoblanadi. Ishsizlikning haqiqiy darajasi 1 % ga oshganda YaMM ning hajmi 2,5 % ga tushadi. Ishsizlik darajasi oshganda YaMM o'rtasidagi bunday teskari bog'liqlikni amerikalik iqtisodchi A.Ouken tahlil qilgan, shuning uchun bu bog'liqlik Okunen qonuni deyiladi. Ishsizlikni o'sishidan jamiyat juda katta iqtisodiy talofat ko'radi.

## 5. Ishsizlik va inflyasiya o'rtasidagi bog'liqlik. Fillips egri chizig'i

Ishsizlik inflyasiya bilan bog'liqdir. Oddiy Keynes modelini ishsizlik va ishlab chiqarish hajmi modeliga solishtirsak, iqtisodiyotda ishsizlik va inflyasiya birdan yuzaga kelmaydi. Balki

inflyasiya bilan ishsizlik o'rtasida bog'liqlik mavjuddir. Bu bog'liqlik strategiyasi deyiladi. Inflyasiya va ishsizlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni Fillips egri chizig'i grafikasida yanq ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda «bozor iqtisodiyotiga o'tish islohoti ikkinchi bosqichining eng asosiy vazifasi har bir kishi mehnatining qadrini oshirish, ish shaklini tanlashda erkin bo'lishini huquqiy ta'minlash, mehnat qilish huquqi, tadbirkorlik bilan shug'ullanish imkoniyati hamda o'z mehnatidan daromad olish huquqi, mehnatga yaroqli aholining ish bilan bandlik muammosini hal etish zarur», – degan edi I.A.Karimov.



2-rasm. Fillips egri chizig'i

Bu chizmadan ko'rinib turibdiki, inflyasiya bilan ishsizlik o'rtasida bog'liqlik mavjud.

O'zbekiston Respublikasi hukumati davlat tomonidan aholi bandligini ta'minlash bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda va sezilarli natijalarga erishilmoqda.

Agarda 2000 yilda ish qidirayotganlar sifatida ro'y qilinganlarning 66 foizi ish bilan ta'minlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2007 yilda 81,9 foizni 2008 yilda esa 84,6 foizni tashkil etgan.

«Bozor iqtisodiyotiga o'tish islohotlarining ikkinchi bosqichining eng asosiy vazifasi har bir kishi mehnatining qadrini oshirish,.... ish shaklini tanlashda erkin bo'lishi huquqi...

...tanlanishi,.... mehnat qilish huquqi, tadbirkorlik bilan shug'ullanish imkoniyati hamda o'z mehnatidan daromad olish huquqi mehnatiga yaroqli aholining ish bilan bandlik muammosini hal etish zarur», – degan edi I.A.Karimov<sup>45</sup>.

Inflyasiya tushunchasi birinchi marta G'arbiy Amerikada, 1860-1865) yillardagi fuqarolar urushi davrida ishlatila boshlagan. Inflyatsiya bog'oz pul muomalasining ko'payib ketish jarayonini bildiradi. Iqtisodiy adabiyotlarda inflyasiya tushunchasi XX asrning birinchi jahon urushidan keyin keng tarqaldi.

30-yillardagi tadqiqotlar natijasida ishsizlik va inflyasiya o'rtasida teskari bog'liqlik borligi aniqlandi. Bunday teskari bog'liqliklarning sababi mehnat bozorining muvozanatsiz holda mavjudligidir.

Jamiyat a'zolari to'liq band bo'lgan holda ham ba'zi bir kasablarda mehnatga bo'lgan talabning yuqori bo'lishi ish haqini oshirish natijasida harajatlarning va narxning oshishi natijasida bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, ahvol to'liq bandlilik darajasiga oshirilgan sari kasaba ittifoqlari ish haqini oshirishni talab qiladilar. Tadbirkorlarga esa malakali ish kuchini yollash tobora qiyinlashib boradi. Shuning uchun, firmalarga ish tashlash imkoniyatiga tushishi sababli, kasaba ittifoqlarning talabiga yon qaratilgan ish haqining oshishi natijasida xarajatlar ham oshganligi natijasida, bu xarajatlar narxni oshirish hisobiga qoplanadi.

Lekin, 70-yillardan boshlab ishsizlik bilan inflyasiya moslashib osha boshladi, ya'ni staggeinflyasiya holati yuz beradi. (qarang 1). Taklifda karaxtlik holatlari kuzatiladi. Shu davrda ko'pchilik davlatlarida neftning narxi to'rt marta oshgan, natijada harajatlari oshgan, qishloq xo'jalik mahsulotlari narxlari oshgan. Shuning uchun, ishchilar ish haqini oshirishni va ish haqini oshirish natijasida ko'rilgan zararni qoplashni talab qiladilar.

Oddiy keynsian modeliga asosan bandlik darajasi va ishlab chiqarish hajmi shuni ko'rsatadiki iqtisodiyotda inflyasiya yoki deflyatsiya yuzaga keladi, ikkalasi birdaniga yuzaga kelmaydi (qarang 2).

<sup>45</sup> I.A. O'zbekiston – buyuk kelajak sari. Toshkent. «O'zbekiston». 1998 y. 403 bet.



## Atama va tushunchalar

Ishlab chiqarish, moddiy ishlab chiqarish jarayoni, moddiy ishlab chiqarish jarayoni, iqtisodiy davr, inqiroz, turg'unlik, jonlanish, yuksalish, iqtisodiy davr, ishsizlik, friktsion ishsizlik, mavsumiy ishsizlik, tarkibiy ishsizlik, davriy ishsizlik, mavsumiy ishsizlik, institusional ishsizlik, texnologik ishsizlik, mavsumiy ishsizlik, yashirin ishsizlik, turg'un ishsizlik, A.Ouken ishsizlik, Fillips egri chizig'i, inflyasiya, talab inflyasiyasi, inflyasiyasi, tezkor inflyasiya, giperinflyasiya, strategik taktik usul.

### 16-mavzu. IQTISODIY O'SISH VA MILLIY BOYLIK

#### 1. Iqtisodiy o'sishning mohiyati va omillari

Jamiyat taraqqiyoti moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishni rivojlanishi bilan bog'liqdir. Respublika Prezidenti I.A.Karimov 2008 yilgi ma'ruha ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 9 foizni, sanoatda 13,1 foizni jumladan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda 17,7 foizni ta'kid etdi, xizmat ko'rsatish hajmi esa 21,3 foizga o'sdi. Iqtisodiy o'sish boshqa muhim tarmoqlari ham barqaror sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash uchun qurilish 8,3 foiz, transportda yuk tashish va yo'lovchi tashish hajmi 10,2 foiz, savdo sohasi 7,2 foizga o'sdi.

Qishloq xo'jaligida 4,5 foiz o'sishga erishilib 3 million 100 ming tonna paxta xomashyosi tayyorlandi, 6 million 100 ming tonna g'alla, shu jumladan, 6 million 145 ming tonna ta'min etishtirildi<sup>46</sup> – degan edilar. Jamiyatda qanchalik ishlab chiqarish rivojlangan bo'lsa, tovarlar ishlab chiqarish hajmi o'sib borsa, ulardan yaxshilanib borsa, milliy daromad hajmi shunchalik ko'payib boradi.

Iqtisodiy o'sish ana shu milliy daromadning o'sishidir.

ifodalanadi. Iqtisodiy o'sish jamiyat taraqqiyotining asosiy omili bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy o'sish doimiy o'sish talabni qondirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy o'sish har bir tomonlama mustahkamlaydi. Iqtisodiy o'sishning asosiy maqsadi jamiyat a'zolarining talablarini to'liq qondirishdan iborat. Iqtisodiy o'sish deganda ishlab chiqarishning natijalari va omillarining miqdori va sifatining oshganligi tushuniladi. Iqtisodiy o'sish bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy islohotlar strategiyasi va yo'lini shakllantirish mexanizmi bilan uzviy bog'liqdir.

Iqtisodiy o'zgarishlarning pirovard maqsadini ta'minlash uchun o'zgarish olish hozirgi isloh qilish strategiyasining boshlang'ich qadam bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «biz markazlashtirilgan, ma'muriy–buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish – eski usulni yuritish mexanizmini shunchaki yangilash yoki markazlashtirish emas, balki bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tish ekanligini qayta–qayta ta'kidladik. Bu bir iqtisodiy o'zgarishlar va tashkiliy–boshqaruv tuzilmalarining boshqa usul bilan munosabatlar va tashkiliy–boshqaruv tuzilmalari bilan bog'liqdir», – degan edi<sup>47</sup>. Demak, sobiq totalitar socialistik iqtisodiyotdan qolgan iqtisodiy taraqqiyotni bozor iqtisodiyoti talablari bilan demokratik yo'nalishda rivojlanishini ta'minlash uchun bozor xo'jalik yuritish mexanizmlarini shakllantirish va markazlashtirib borish lozim.

Iqtisodiy talabalar yaxshi anglab olishlari kerakki, yangi xo'jalik iqtisodiyotini respublika uchun uning aholisi uchun nima beradi va qanday qilib erishishi mumkin. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun avvalo o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirib borish, islohotlarning qonuniy huquqiy bazalarini yaratish, markazlash turli shakllaridagi mulkchilikka aslangan ishlab chiqarishni joriy etish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun shart–sharoitlar yaratish, ishlab chiqarishning o'sishini ta'minlash va makroiqtisodiy muvozanatga erishish, iqtisodiy tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni

<sup>46</sup>I.A.Karimov Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish uchun davr talabi. O'zbekiston ovozi. 2009. 14 fevral

<sup>47</sup>I.A.Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 186 bet.

ta'minlash, xalq xo'jaligi tarmoqlarida chuqur ta'minlash o'zgarishlarini amalga oshirish, korxonalar va fuqarolarning iqtisodiy erkinlik berish, davlat tomonidan ularning iqtisodiy chiqarish faoliyatiga aralashmaslikni ta'minlash lozim.

Erkin iqtisodiy o'sishni ta'minlash «Bozor munosabatlari shakllantirishni tegishli muhimsiz – tovar, pul, bozorlaridagi mehnat resurslari bozorida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zaro aloqani ta'minlashi kerak bo'lgan bozor infrastrukturasi ta'savvur etib bo'lmaydi», – degan edi I.Karimov<sup>48</sup>.

Iqtisodiy o'sish nima bilan o'lchanadi? Iqtisodiy o'sish tushunchasida yaratilgan yalpi milliy mahsulotning, milliy daromad va sof foydaning ko'payishi bilan yoki jon boshiga o'sish bilan o'lchanadi. Uni quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$Uo' = \frac{YaMM}{As}$$

Uo' – iqtisodiy o'sish;

YaMM – yalpi milliy mahsulot;

As – aholi soni.

Iqtisodiy o'sishning omillari quyidagilardan iborat: mehnat resurslari, tabiiy resurslar, investitsiyalar va ishlab chiqarish texnologiyalari va tadbirkorlarning ilmiy tashkiliy salohiyatlari. Iqtisodiy o'sishning bu omillaridan unumli foydalanish uchun ilmiy salohiyat tashkil etadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi milliy kadrlarni jahon standarti talablari bilan tayyorlashiga jiddiy e'tibor bermoqda. Chunki, har qanday ishlab chiqarish texnologiyani harakatga keltirish milliy kadrlarning ilmiy salohiyatiga bog'liq.

## 2. Iqtisodiy o'sish turlari

Iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichining muvaffaqiyatli yo'nalishlarining asosiy vazifalaridan biri «davlat mulkiyatini xususiy lashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish va ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ham korxonalar, tarmoqlarning ham, davlat tomonidan davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga ta'minlashidan iboratdir», – degan edi I.A.Karimov<sup>49</sup>.

barqarorlikni ta'minlash, ham korxonalar, tarmoqlarning ham, davlat tomonidan davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga ta'minlashidan iboratdir», – degan edi I.A.Karimov<sup>49</sup>.

Iqtisodiy o'sishda ham barqarorlikka erishishning strategik tushunchasini respublika iqtisodiyoti tarkibini tubdan o'zgartirish, asosiy xom-ashyo ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish darajasiga o'tishini rivojlantira borish ham ijtimoiy ham iqtisodiy ahamiyatga ega. Iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish mahsulotini kengaytirilgan usulda olib borish bilan bog'liqdir. Bu usul o'z navbatida ishlab chiqarish qaysi omillar hisobiga olib borilayotganligiga bog'liqdir. Umuman, iqtisodiy o'sish ikki xil bo'lishi mumkin: intensiv va intensiv turga bo'linadi.

**Ekstensiv turdagi** iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning asosiy texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish mahsulotlari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Iqtisodiy o'sishning **intensiv turida** mahsulot ishlab chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish: yanada progressivroq mehnat vositalarini ishlab chiqarishda tejamliroq mehnat buyumlarini qo'llash, ish kuchi mahsulotini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish texnologiyasidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Iqtisodiy o'sish holda intensiv yoki ekstensiv turda rivojlanmaydi. Sobiq davrda iqtisodiy rivojlanishning ekstensiv yo'lining ulushi yuqori bo'lgan bo'lsa, G'arbiy Evropa, Yaponiya, AQSh davrlarida intensiv rivojlanishning ulushi yuqori bo'lgan. Iqtisodiy o'sishni shakllariga qarab quyidagi turlarga ajratiladi: **salbiy sur'atlar**, **yuqori sur'atlar** va **nol sur'atlar**. Yuqori sur'atdagi iqtisodiy o'sish maqsadga muvofiq bo'lishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini o'sib borishi bilan bog'liq bo'lsa, iqtisodning umumiy darajasi o'smasada (**nol darajada** bo'lganda) ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi o'zgarishi, mahsulotiga iste'mol mollarni ishlab chiqarishni ko'payishi bilan bog'liq bo'lsa, salbiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi qisqarishi mumkin.

Iqtisodiy o'sishning **salbiy sur'atlari**, ya'ni oldingi yilga

<sup>48</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 361-362 betlar.

<sup>49</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 332 bet.

nisbatan yalpi milliy mahsulot hajmining kamayishi iqtisodiyotda tanazzul jarayonlarining mavjudligidan dalil beradi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv xususiyatlarini ishlab chiqarishning samaradorlik darajasini aniqlash orqali hisoblash mumkin.

Ishlab chiqarishni samaradorlik darajasini ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini, ishlab chiqarish harajatlari bilan nisbatan foizda quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$S = \frac{Mux}{Ux} \times 100 \%$$

$S$  – samaradorlik;

$Mux$  – mahsulotning umumiy hajmi;

$Ux$  – umumiy xarajatlar.

Yalpi mahsulotning ishlab chiqarish samaradorligi faqat hajmiga emas, balki sifatiga va sarf etilayotgan xarajatlarning hajmini qisqartirishga ham bog'liqdir.

Iqtisodiy o'sishning sur'atlari foizda o'lchanadi va quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$Uu = \frac{YaMM}{UYaMM} \times 100 \% \text{ yoki}$$

$Uu$  – iqtisodiy o'sish;

$YaMM$  – joriy yildagi  $YaMM$ ;

$UYaMM$  – o'tgan yildagi real  $YaMM$ .

Iqtisodiy o'sish, uning sur'atlari, hajmi mavjud zahiralarning zahiralari bilan ifodalanadi:

- tabiiy zahiralarning miqdori va sifati;
- mehnat zahiralarning miqdori va sifati;
- ishlab chiqarish fondlarining miqdori va sifati;
- texnologiya;
- yalpi harajatlarning miqdori;
- zahiralarni taqsimlashning samaradorligi.

Yuqorida keltirilgan 4 ta omil taklif omillari hisoblanadi. 5 va 6 omillar iqtisodiy o'sish va real mahsulot hajmini oshirish imkoniyatini beradi. 5 va 6 omillar talab omillari hisoblanadi va real iqtisodiy o'sish sur'atlariga ichki omillar bilan taqqoslanishda tashqi omillar (jahon bozoridagi narxlar, siyosiy ahvol va h.k.) ta'sir o'tkazadi.

Iqtisodiy o'sish sur'atlariga o'lchash mumkin bo'lmaydigan omillar (ishlashni xohlash, tadbirkorlik faoliyati, xo'jalikdagi muvofiqlik buzarlilar, mehnatga ongli yondoshish, qishloq xo'jaligidagi tabiiy sharoit, tabiiy ofat va h.k.) ham ta'sir o'tkazadi.

Iqtisodiy o'sish juda ham yuqori darajada bo'lishi, yuqori talabga ya'ni talab va to'lov darajasiga nisbatan ortiqcha ishlab chiqarilgan, u iqtisodiy krizisga, inflyatsiyaga olib kelishi mumkin. Iqtisodiy o'sish uchun ham iqtisodiy o'sish talab va taklif iqtisodiy muvoziatiga rioya qilingan holda olib borish maqsadga muvofiq. Iqtisodiy o'sishni, iqtisodiy krizislardan holi etish iqtisodiyotimizda tub islohotlarni amalga oshirish, ya'ni xomashyo ishlab chiqarishdan jahon standartlari talablariga javob beradigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish bilan ta'minlash mumkin.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash, avvalo ishlab chiqarish mahsulotini o'zgartirish hisobiga jamiyat iste'mol talablariga mos keladigan tovarlarni ishlab chiqarish, kredit tizimlaridan oqilona foydalanish, iqtisodiy inflyatsiyani oldini olish, gorizontali iqtisodiy muvoziatni rivojlantirish, xo'jalik mexanizmlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish tarmoqlarini xomashyo bilan ta'minlash orqali erishishi mumkin.

### 3. Iqtisodiy o'sish modellari

Iqtisodiy o'sish mamlakatning tabiiy, ishlab chiqarilgan, mehnat resurslarining miqdori va sifatiga va investitsiya resurslarining ishlab chiqarish texnologiyalariga sarf qilinayotgan hajmiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy o'sishi uchun yetarli darajada xomashyo, ilmiy salohiyat va ishlab chiqarish kuchlari mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov

aytganidek, «O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat, ta'kidlamog uchun barcha asoslar bor. Respublikada hamma tabiiy boyliklar, unumdor yer, qudratli iqtisodiy va texnikaviy, insoniy va ma'naviy salohiyat mavjud»<sup>50</sup>.

Hozirgi kunda, shartli ravishda, iqtisodiy o'sish modellarining 3 xil nazariyasi va 3 xil yo'nalishni aytib o'tish mumkin:

- Keynsanchilik yo'nalishi;
- neoklassik yo'nalishi;
- tarixiy-sotsiologik yo'nalish.

Iqtisodiy o'sishni birinchi marotaba Fr. Kene o'zining iqtisodiy jadvalida (1758 y.) ko'rgan edi. U milliy xo'jalik o'zining balansiga ega bo'lgan tizim sifatida aks ettirdi. Faqat qishloq xo'jaligidagi mehnat, unumli mehnat va unda qo'shimcha mahsulot yaratiladi degan fikrga asoslangan edi. U qo'shimcha mahsulot deb qishloq xo'jaligini umumiy mahsulotining iste'mol qilingan hajmidan ortiqchasini tushungan. Ya'ni faqat qishloq xo'jaligidagi mehnat unumli mehnat deb hisoblaydi. Fr. Kene qishloq xo'jaligida mahsuloti iqtisodiyotining boshqa sohalarga sotish yo'li bilan harakat qiladi degan.

1. Fr. Kene jadvali amaliy ahamiyatga ega bo'lmasada, u bu yo'nalishda birinchi bo'lib o'zining iqtisodiy o'sish modelini bergan. Dj. Keyns modeli yalpi talabga asoslanadi. Yalpi talab muvozanatlashgan iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Ijtimoiy talab kapital quymalar asosida qanoatlantiriladi va daromad oshirib boradi.

U. Domar modeliga asosan, kapital mablag'lar daromadnigina emas, balki ishlab chiqarish quvvatlarining ham oshirish omili deb hisoblagan. Kapital mablag'larning o'sish dinamikasi, yalpi talab va yalpi taklifning muvozanatini ta'minlaydi, shu bilan birgalikda yangi ishlab chiqarish quvvatlarining va kapital mablag'larni vujudga keltiradi degan.

U. Domar yuqoridagi muammoni hal qilishda uchta tenglama yordamida yechishni taklif etdi:

a) taklif tenglamasi:  $dx = Ub$

bu erda:  $dx$  – ishlab chiqarishning o'sishi;

$U$  – kapital mablag'lar hajmi;

$b$  – kapital mablag'larning o'rtacha unumdorligi;

b) talab tenglamasi:  $M = dUa$

$d$  – jang'arishga bo'lgan o'rtacha moyillik

(multiplikator miqdorining teskarisi);

$U$  – mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi kapital mablag'lar

miqdori;

$a$  – daromad miqdori;

v) muvozanat asosiy tenglamasi – daromad va harajat

miqdorining asosiy tenglamasi:

$$Ub = \frac{dY}{\alpha}$$

Yuqoridagi tenglamalarga asoslangan holda kapital mablag'larning o'sish normasini aniqlash mumkin. Domar modeli bir faktorli va bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan sohaga asoslangan.

**Xarrd modeli.** Bu model akselerator nazariyasiga asoslangan bo'lib, tadbirkorlarning investitsiyani qo'llashdagi bo'lgan qararlarni tahlil qilinadi. Xarrd ikki xil shart-sharoitidan kelib chiqadi. Birinchisi: jang'arish darajasining o'sishi bilan daromad darajasining o'sishi ( $APC = MPC$ ) bo'lsa, ikkinchisi: kapital mablag'lar hajmining oshishi bilan daromad miqdorining oshishi hisoblanadi. Keyns tenglamasiga asosan (jang'arish hajmining investitsiya hajmi) o'sish normasini, kapital koeffitsientiga ko'paytirib,  $MD$  dagi jang'arish ulushiga teng bo'lgan miqdorini aniqlash mumkin.

2. **Neoklassik model** ikki model va uning o'zaro bog'liq ekanligidan foydalaniladi. Neoklassik modelning asosiy tahlil ushbu vositasi ishlab chiqarish funksiyasi hisoblanadi. (P. Duglas, X. Kobb). Avtorlar asosiy kapitalning ko'payishi, ishlab chiqarish vaqti va ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishgan. Natijada quyidagi formula tavsiya etiladi:

$$V = 1,01 \cdot L^a \cdot K^v$$

<sup>50</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. «O'zbekiston», 1998 y. 95–bet.

Bu erda:  $V$  – ishlab chiqarish hajmi;  
 $L$  – mehnat sarfi;  
 $K$  – kapital sarfi;  
 $av$  – koeffisient darajasi;

Bunda  $a = 3/4$  va  $b = 1/4$  ga teng. Bu koeffisientni taq- qilayotgan omil 1 % ga ohsa, ishlab chiqarish hajmi qanchaga oshganligini ifodalaydi.

**Tarixiy–sosiologik model.** Rostau U. – iqtisodiy bosqichlari nazariyasining avtor. U quyidagi bosqichlarni e'tiborni qaratgan:

1. Sinfy jamiyat (statistik muvozanat, III) foydalanishning chegaralangan ekanligi, aholi jon boshiga taq- keladigan daromad darajasining pasayishi.

2. Taraqqiyot uchun shart–sharoitlarni yaratish bosqichi (ayrim ishlab chiqarish sohasida samaradorlikning oshishi).

3. Taraqqiyot bosqichida (milliy daromadni yaratish uchun yangi texnika inqilobining yutuqlaridan keng foydalaniladi).

4. Yetuklik davrida (iqtisodiy o'sish sur'atlari oshib ishlab chiqarish hajmi aholi soni o'sishiga nisbatan yanada oshib bo'ladi).

5. Ko'p miqdorda iste'mol qiluvchi jamiyat qatlamining muddatli mahsulotlarga bo'lgan talabni cheklash natijasida, u muddatga mo'ljallangan tovarlarni iste'mol etishining ahamiyati oshib boradi.

**3. V. Leontevni tarmoqlararo balans model.** Bu model iqtisodiy o'sishni boshqarishga mo'ljallangan bo'lib, ishlab chiqarishni xarajatlari sifatida namoyon bo'ladigan natural qiymat ko'rinishidagi tizimini ifodalaydi.

Amaliyotda foydalanish mumkin bo'lgan iqtisodiy o'sishning universal modelini Nobel mukofoti laureati V. Leontev yaratgan. Uning yaratgan tarmoqlararo balansi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarishda ko'p mamlakatlarda foydalanilmoqda. Tarmoqlararo balansi asosida mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat va resurslar harajatini aniqlash mumkin bo'ladi.

#### 4. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tushunchasi

Milliy boylik insoniyat jamiyat taraqqiyoti davomida davlat tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy, nomoddiy va intellektual hamda tabiiy boyliklardan iboratdir. Milliy boylikning bir qismini inson mehnatining natijasi, boshqa qismini esa tabiat boyliklari tashkil qiladi. Bunday ekan, milliy boylik keng ma'noda nafaqat moddiy va nomoddiy ne'matlar, yaratilgan san'at asarlari, intellektual mahsulotlarni, barcha tabiat resurslari va boyliklarni, tabiiy iqlim resurslarini ham o'z ichiga oladi. Milliy boylikning barcha tabiiy qismlarini miqdoran qiymat o'lchovlarida hisoblab chiqarish bir qator ob'ektiv sabablarga ko'ra ancha qiyin, jumladan, tabiiy resurslarning tabiat in'omlaridan iborat qismi inson mehnatining natijasi hisoblanmaydi va qiymat o'lchovlariga ega emas. Shu sababli iqtisodiy tahlil amaliyotida milliy boylikning insoniyat mehnati bilan yaratilgan va takror ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan qismini moddiy boyliklardan iborat qismi ko'proq e'tiborga olinadi. Milliy boylikning bu qismi milliy iqtisodiyot rivojining tarixi davomida doimiy takrorlanib turuvchi ishlab chiqarish natijalarining umumiy natijasi sifatida chiqadi va moddiy buyumlashgan shaklda namoyon bo'ladi.

Demak, milliy boylikni shartli ravishda quyidagi uchta yirik qismlarga ajratish mumkin:

1. Moddiy buyumlashgan boylik.
2. Nomoddiy boylik.
3. Tabiiy boylik.

Moddiy buyumlashgan boylik oxir-oqibatda ishlab chiqarish natijasi, unumli mehnatning natijasi hisoblanadi. U ishlab chiqarishda yaratilgan mahsulotlarning joriy iste'mol qilishdan ortiqcha qismini jamg'arish oqibatida vujudga keladi va o'sib boradi.

Ammo moddiy buyumlashgan boylikni qator yillardagi yillik mahsulotlar yig'indisi sifatida tasavvur qilish noto'g'ri bo'ladi. Chunki bu boylikning bir qismi har yili ishdan chiqarilib, yangidan yangilanib (ishlab chiqarish vositalari, iste'mol vositalari) turadi. Shu sababli ishlab chiqarish vositalarining

o'rnini qoplash bilan bir vaqtda yalpi mahsulotning faqat bir qismi moddiy buyumlashgan boylik sifatida jamg'arilib bo'lmaydi. Demak, qoplash fondi va moddiy buyumlashgan boylik o'sishi yalpi milliy mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan moddiy qismi qiymat shakliga ega bo'lib, tarkibiy tuzilishi bo'yicha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— ishlab chiqarish xususiyatidagi asosiy (fondlar) kapital. Bular butun milliy boylikning tarkibida ancha katta salmoqqa ega bo'ladi, hamda o'zining texnikaviy darajasi bo'yicha yalpi milliy mahsulotning o'sish imkoniyatini belgilab beradi;

— noishlab chiqarish xususiyatidagi asosiy (fondlar) kapital. Asosiy kapitalni bu turiga mamlakatning uy-joy fondi, ijtimoiy madaniy xususiyatdagi ob'ektlar kiradi;

— aylanma (fondlar) kapital. Milliy boylikning bu qismi mehnat omillaridan iborat bo'lib, asosiy kapitalning ma'lum qismini tashkil qiladi;

— tugallanmagan ishlab chiqarishning moddiy buyumlashgan qismi. Ular ishlab chiqarish bosqichida mehnat jarayoni ta'siri ostida bo'lib, potensial tayyor mahsulot hisoblanmaydi;

— moddiy zaxiralar va ehtiyojlar, ularga muvofiq ravishda bosqichidagi tayyor mahsulot, korxonalar va savdo tarmoqlaridagi moddiy zaxiralar, davlat ehtiyojlari va zaxira fondlari kabi. Moddiy zaxiralar iqtisodiyotda ro'y berishi mumkin bo'lgan holatdan oldindan bilib bo'lmaydigan favqulodda holatlarda foydalanish maqsadida ushlab turiladi.

Davlat ehtiyojlariga oltin zaxiralari, sug'urta va moddiy ehtiyojlari uchun zarur zaxiralar ham kiradi:

— aholining uy, xususiy va yordamchi xo'jaliklarida jamg'arilgan mol-mulk. Bunga uy-joy, avtomobillar, madaniy maishiy buyumlar, kiyim-kechaklar va shu kabilarning qiymati kiradi.

Moddiy buyumlashgan boylik tarkibiy qismlarining ma'nosini va ularning salmog'i o'zgarishsiz qolmaydi. Asosan fan taraqqiyoti sharoitida moddiy, buyumlashgan boylik tarkibi yirik o'zgarishlar ro'y beradi. Sanoat tarmoqlarining asosiy

qismlari tez ko'payadi va yangilanadi, noishlab chiqarishning asosiy kapitali tarkibida ilmiy, o'quv, sog'liqni saqlash muassasalarining ulushi tobora ko'payib boradi. Tabiiy resurslarni moddiy faoliyatga jalb qilish sur'atlari o'sib boradi.

Moddiy buyumlashgan boylik o'sishining asosiy omillari bularni quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

— mehnat unumdorligining o'sishi;

— ishlab chiqarish samaradorligining ortishi;

— milliy daromadda jamg'arish me'yoringining ortishi.

Moddiy buyumlashgan boylikning o'sishi ishlab chiqarish darajasini o'sib borishiga bog'liq. Moddiy boylik ishlab chiqarishning natijasi va shart-sharoiti hisoblanadi. Moddiy boylikning o'sishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifatini oshirishga ham bog'liq. Qancha ishlab chiqarish samali va sifatli olib borilsa, moddiy buyumlashgan boylik shunchalik ko'payib boradi.

Bunda ishlab chiqarishning o'sish sur'ati va miqyosi milliy boylikdan foydalanish xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Milliy boylikning boshqa qismi - **tabiiy boyliklar** ishlab chiqarishning shart-sharoitini va inson faoliyatining tashqi sharoitini tashkil qiladi. Tabiiy boylikning vujudga kelishi jamiyat rivojiga bog'liq emas, u tabiat qonunlari asosida ro'y beradi. Foydali qazilma boyliklar, o'rmonlar, suv va yer resurslari xuddi shunday vujudga kelib, ishlab chiqarishdan tashqarida turadi.

Tabiat in'omlari o'zlarining dastlabki ko'rinishida tabiiy boylik bo'lib, shu holatida inson faoliyatining natijasi hisoblangan tabiiy boylik tarkibiga kirmaydi. Buning ma'nosi shuki, tabiiy boyliklar jamiyat uchun faqatgina potensial boylik hisoblanadi. Ular real boylikka inson mehnatining ta'siri oqibatida aylanadi.

**Milliy boylik** nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratiladi. Uning bir qismi nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida vujudga keltiriladi va jamiyatning nomoddiy boyligi hisoblanadi. Nomoddiy sohalarida ashyoviy buyum shakli bilan bog'liq bo'lmagan alohida turdagi iste'mol qiymatlari hosil bo'ladi. Ular ham moddiy ishlab chiqarish sohalarining faoliyati va rivojlanishi uchun, shuningdek, bevosita aholining turmush darajasini oshirish va aminlash va oshirib borish uchun zarur bo'ladi. Bunday

boyliklarga ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, san'at, sport sohalarida vujudga keltiriladigan nomoddiy qiymatlar hisoblanadi. Uning tarkibida tarixiy yodgorliklar, arxitektura obidalari, nomoddiy adabiyot va san'at asarlari alohida o'rin tutadi.

Jamiyatning nomoddiy boyliklarida madaniyat va san'atning rivojlanish darajasi, jamiyat a'zolarining to'plagan ilmiy bilimlari va intellektual darajasi, ishlovchilarning ixtisosligi va malakasi, bilim darajasi, sog'liqni saqlash, ta'lim va sportning rivojlanish darajasi o'z ifodasini topadi. Moddiy buyumlashgan boyliklarning o'sishi jamiyatdagi moddiy qiymatlar ko'payishining asosiy hisoblanadi. Agar fan-texnika taraqqiyoti yuqori sur'atlar bilan rivojlansa, madaniyat, san'at, fan kabi nomoddiy sohalar ham rivojlanib o'sib va takomillashib boradi.

### Asosiy atama va tushunchalar

Iqtisodiy o'sish, iqtisodiy o'sish omillari, taklif omillari, ekstensiv va intensiv o'sish, iqtisodiy o'sish modellari, keynschilik modeli, neoklassik model, tarixiy-sosiologik model, V.Leontevning tarmoqlararo modeli, milliy boylik, moddiy va nomoddiy boylik, tabiiy boylik.

## 17-mavzu. PUL-KREDIT TIZIMI. DAVLATNING MONETAR SIYOSATI

### 1. Pul muomalasi. Pulga talab. Pulning taklifi.

Bozor iqtisodiyotida pul mablag'lari to'xtovsiz harakatlanib bo'ladi, tovar va xizmatlarni ayirboshlash, resurslar uchun to'lovlarni amalga oshirish, ish haqi hamda boshqa majburiyatlarni to'lash, pul vositasida amalga oshiriladi.

Xo'jalikda pulning doimo harakatda bo'lishi, pulning funksiyalarini uzluksiz bajarib turishiga pul muomalasi deyiladi. Pul muomalasi barqarorligiga pul muomalasi qonuni asoslanib erishiladi. Tovarlarni muomalasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagilarga bog'liq:

— muayyan davrda sotilishi lozim bo'lgan tovarlar

ning summasiga;

— pul birligini aylanish tezligiga bog'liq, chunki ayni bir pul summasining ko'proq yoki ozroq miqdori ayirboshlashga xizmat qilishi mumkin;

— pul to'lov vositasi sifatida foydalanish darajasiga bog'liq, chunki ko'pgina sotiladigan tovarlar nasiyaga sotiladi va boshqa vaqtda ularning qiymati to'lanadi. Shunga yarasha muomaladagi pul birliklari miqori kamayadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$P_m = \frac{T_b - X_k - X_t - K_t}{O_t}$$

$P_m$  — muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul birligining miqdori.

$T_b$  — sotilishi lozim bo'lgan tovarlar narxining summasi.

$X_k$  — sotish davridan boshqa vaqtda to'lanadigan tovarlar birligining summasi.

$X_t$  — haqini to'lash muddati kelgan tovarlar narxining summasi.

$K_t$  — bir-birini qoplaydigan tovarlar summasi.

$O_t$  — pul oboroti tezligi.

Biz bilamizki, pul tovar bo'lib, bu talab va taklif ta'siriga uchiriladi. Pul taklifi muomalaga chiqarilgan ma'lum turdagi pul miqdoridir.

U talabdan ortiq yoki kam bo'lishi mumkin, kam bo'lganda to'lov krizisi yuzaga keladi.

Demak, pul taklifi uning muomalaga chiqqan miqdori bilan o'zlashadi, bu miqdor esa uning oborot tezligiga qarab har xil bo'ladi.

Pulga talab xo'jalik oboroti uchun kerak pulga ehtiyojdir. Uni shakllanishining ikki asosiy sababi bor:

a) pulning muomala vositasi vazifasidan kelib chiqadi. Muomalalarda har doim tovar va xizmatlarni sotib olish uchun, korxonalariga esa xom ashyo, yoqilg'i energiyani sotib olishga, ish haqi to'lash uchun zarur bo'ladi. Bular uchun zarur bo'lgan pul miqdori nominal  $YaMM$  hajmi bilan belgilanadi.

Muomaladagi tovar va xizmatlarning pul qiymati qanchalik

katta bo'lsa, ularni sotib olish uchun shunchalik ko'p pul kerak bo'ladi. Pulga talab bilan *YaMM* o'rtasida to'g'ri proporsional bog'liqlik mavjud;

b) pulning jamg'arish vositasi vazifasidan kelib chiqqan insonlar o'zlarining pullarini har xil shakllarda (aksiya, obligatsiyalar, qimmatbaho tovarlar holatida) ushlab turadilar. Ishlab chiqarish jarayonini o'sishi pulga bo'lgan talabini oshiradi. Pulga bo'lgan talabni o'sishi undan foydalanish uchun to'lanadigan foiz darajalariga ham bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda pul agregatlari haqqida ham to'xtalib o'tish lozim. Bozor iqtisodiyotiga o'tgan mamlakatlarda pulning har xil guruhlari qo'llaniladi. Ular pul agregatlari deyiladi va muomaladagi pul massasining muqobil o'lchovlari bo'lib xizmat qiladi.

Hozirda quyidagi agregatlar farqlanadi.

*M 1* – unga naqd pullar (metall va qog'oz pullar), chek va qo'yilmalar, gohida kredit kartochkalari kiradi;


*M 2* – unga *M 1* + muddatsiz jamg'arma hisoblaridagi qo'yilmalar, mayda muddatli qo'yilmalar kiradi;

*M 3* – *M 2* + muddatli yirik qo'yilmalar kiradi.

Barcha pul agregatlari yig'indisi yalpi pul massasi yoki pul taklifini tashkil qiladi. Naqd pullar rivojlangan bozor iqtisodiyot mamlakatlarida umumiy pul massasining 9-10 foizini, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mustaqil hamdo'stlik davlatlarida 35-40 foizini tashkil qiladi.

Mohiyatiga ko'ra, pul davlat, banklar, jamg'arma muassasalarini qarz majburiyatlari hisoblanadi. Unga bozordagi tovar va xizmatlar sotib olish mumkinligi tufayli ular qiymatga egadirlar. Binobarin, pul qadri deganda, pulning tovar va xizmatlarni xarid etish, chet el valyutalariga almasha olish qobiliyati tushuniladi.

Pul bozori pul taklifi va unga bo'lgan talabni, muvozanat stavkasini (1-rasm) bir-biriga qo'shadi.



1-rasm. Pul bozorida muvozanatni tiklanishi

*S* – bu pulning taklifini aks ettiradi va vertikal shaklga ega bo'ladi, chunki pul – kredit va moliyaviy muassasalar biror miqdordagi pul hajmi yaratgan deb olinadi va u nominal foiz stavka miqdoriga bog'liq bo'ladi. *D* – esa pulga bo'lgan talabni aks ettiradi.

Pul bozoridagi talab va taklifning bir-biriga to'g'ri kelishi iqtisodiyot uchun o'ta muhim masala hisoblanadi. Ayrim mamlakatlarga ko'ra muomaladagi pul massasining ko'payib ketishi moliyaviy jarayonlarining zo'rayishiga, jami talabning jami taklifga nisbatan oshib ketishi makroiqtisodiy muvozanatning buzilishiga olib keladi. Shuning uchun pul bozorida talab va taklifni muvozanatlab turish lozim, deb hisoblanadi. Buni asosan davlat o'zining chiqargan qimmatli qog'ozlarini sotish va sotib olish natijasida amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov iqtisodiyotni barqaror ishlab turishini ta'minlash uchun kredit – bank tizimini, pul muomalasini mustahkamlash, valyuta munosabatlarini tartibga solish... pulning qadrsizlanishiga qarshi monopoliyachilikka yo'l qo'ymaslik, boshqarish borasida amaliy choralar ko'rish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan muhofaza qilishning ishonchli tizimini vujudga keltirish», – zarur degan edi<sup>51</sup>.

<sup>51</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 159–160 betlar.



## 2. Kredit va uning bozor iqtisodiyotidagi o'rn

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov - «Axborot puxta ishlab chiqilgan va etarli darajada qattiq bo'lgan kredit siyosatini amalga oshirish respublikaning munosabatlariga o'tishdagi eng muhim bo'g'in hisoblanadi» degan edi<sup>52</sup>.

Kredit deganda vaqtincha o'z egalari qo'lida bo'sh turgan mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq va sharti bilan qarzga olish va ma'lum foizlar to'lash evaziga qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatlarni tushirib berish kerak.

Kredit sub'ektlari har xil, bularga korxonalar, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.

Kredit ob'ekti bo'lib har qanday pul emas, balki vaqtincha bo'sh turgan, egasi tomonidan ishlatilmay va qaytarib berilishi mumkin bo'lgan pul hisoblanadi.

Kreditning manbai bo'lgan bo'sh pulning kelib chiqishi quyidagilardan iborat:

- amortizatsiya puli uning muddati tugagan ma'lum qismi ishlatilmay to'planib borishi;

- ishlab chiqarishni o'stirish uchun foydalanilgan investitsiya puli muhim ajratib boriladi, lekin bu pul ma'lum miqdorda yig'ildandan keyingina investitsiya qilish mumkin;

- xom ashyo, yoqilg'i va materiallar uchun sarflangan pul tovar sotilishi bilan egasiga qaytib keladi, bu pulni ularni yangidan sotib olish shu vaqtning o'zida yuz bermaydi;

- ish haqi pulini kelib tushish va sarflanishi bir vaqtning o'zida yuz bermaydi;

- davlat byudjetiga pul daromadlarining kelib tushishi va ularning sarflanishi bir xil vaqtda yuz bermaydi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarini izchil amalga oshirish uchun qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil hisoblanadi» kelmog'ida, 2008 yilda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha

qulay manbalar hisobidan 6,4 milliard AQSh dollari hajmida investisiya jalb etildi. Bu 2007 yil bilan taqqoslanganda 2,5 baravar ko'p bo'lib, YaIM nisbatan investisiyalar hajmi 23% ga oshirishni ta'minlash uchun tashkil etdi. O'zlashtirilgan barcha investisiyalarning 50% ni qayta qayta ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik jihatdan jihozlashga yo'naltirilganini yangi tashkil etilayotgan kichik va o'rta korxonalar qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar bilan jang'armasining resurs bazasini ikki barabarga oshirish, shuningdek, 2008 yil bilan birga imtiyozlarning amal qilish muddati uzaytirildi, shuningdek, barcha mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlarning muddati uzoq muddati 12 oygacha imtiyozli kredit beriladi»<sup>53</sup> degan

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida kreditning quyidagi turlari mavjud:

tijorat krediti — ishlab chiqarishda va savdoda foydalanilgan kreditni yuritayotgan tadbirkorlar o'zaro bir-birlariga, sotilgan tovarlarni o'tkazish ko'rinishida foydalanadi. Bunda veksel muomala shartida bo'lib xizmat qiladi. Veksel — pulni qarzga olgan tovar egasiga belgilangan muddatda qat'iy to'lash majburiyatini o'z ichiga olgan qiymatga ega bo'lgan qarzdorlik hujjati hisoblanadi;

bank krediti — xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga kreditni yurituvchi muassasalari tomonidan beriladigan suda beriladigan kredit.

Bank krediti yo'nalishlarining, muddatining va kredit hajm va shartlarini summasining cheklanmaganligi bilan tijorat krediti bilan kamchiliklarini to'ldiradi:

iste'mol krediti — aholiga tijorat krediti (tovarlar sotib olishni to'lash muddatini uzaytirish orqali sotish) yoki bank krediti (iste'mol maqsadlari uchun ssuda berish) shaklida beriladi;

ipoteka krediti — uzoq muddatli ssuda ko'chmas mulkni (yer, bino, inshootlar)ni garovga olish orqali beriladi;

xo'jaliklararo pul krediti — xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bir-birlariga aksiya, obligatsiya, kredit biletlari va shu turlardagi qimmatli qog'ozlar chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladigan kredit;

<sup>52</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 160 bet.

Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish da...  
O'zbekiston ovozi 2009 yil 14 fevral.

– xalqaro kredit — xalqaro iqtisodiy aloqalar doirasida pul (valyuta) yoki tovar ko‘rinishidagi kredit tarzida amalga oshiriladi.

Ssuda juda ko‘hna hodisadir. Ssuda kapitali ma‘lum muddat mobaynida foydalanilganligi uchun haq foiz to‘lash sharti bilan qarzgga berilgan pul mablag‘idir. Bozor sharoitida ssuda kapitalining narhi, ssuda kapitaliga bo‘lgan talab va taklif o‘zaro bilan belgilanadi. Kredit ssuda kapitalining harakati shakli sifatida xizmat qiladi. Hozirgi zamon iqtisodiyotida kreditning turli quyidagilarda ko‘rish mumkin:

– kredit ijtimoiy ishlab chiqarish miqyosini kengaytirishga turtki beradi;

– kredit bo‘sh pul mablag‘larini tezda jalb etish va ularni iqtisodiyotning ko‘proq foyda keltiruvchi tarmoqlariga foydalanishga yordam beradi;

– kredit muomala xarajatlarida naqd pullar kamaytirish yo‘li bilan qisqartiriladi, chunki, to‘lovlar salmoqli qismi naqd bo‘lmagan formada (veksel, chek va boshqalar) amalga oshiriladi.

### 3. Davlat kredit tizimining tuzilishi.

#### Bank va bank operasialari

O‘zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o‘z munosabati bilan butunlay yangi davr talabiga javob beradigan mustaqil pul–kredit siyosatini shakllantirishni talab etib Respublikada ikki bosqichli bank tizimi tashkil etildi. Bu bank munosabatlarini shakllanishi talablariga javob beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov bu to‘g‘risida shunday degan: «Bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida kredit siyosatini amalga oshirish vositasi tubdan o‘zgaradi. Kredit mablag‘lar birinchi navbatda oziq–ovqat mahsulotlari, boshqalar xalq iste‘mol mollari va ularni tayyorlash uchun xom ashyo boyliklari ishlab chiqarishni ko‘paytirish, yakka tartibdagi uy qurilishini keng aytirish, ijtimoiy sohani, respublikaning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlovchi asosiy tarmoqlarni ekspanziya mahsulotlari va importning o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab

chiqaruvchi korxonalarini kengaytirish bilan bog‘liq yuksak darajali tadbirlarni o‘tkazishga sarflanadi»<sup>54</sup>.

Kredit tizimi deganda – pul resurslarini tarkib toptiruvchi, turgaga jamlovchi, ma‘lum muddatda qaytarib berish va haq to‘lash shartlari asosida ularni qarzgga beruvchi muassasalarini majmui tashkil etiladi va uning uch bo‘g‘inini ajratib ko‘rsatish mumkin: 1. Markaziy bank. 2. Bank tizimi: tijorat, jamg‘arma, investitsiya banklari. 3. Maxsus kredit muassasalari; sug‘urta kompaniyalari va faqatgina fondlari investitsion kompaniyalar, moliya kompaniyalari va boshqalar.

Kredit tizimida banklarning alohida o‘rni bor. Hozirgi zamon zarur bo‘lgan vazifasiga qarab banklarni uch turga bo‘lish mumkin: a) markaziy bank; b) tijorat banklari; v) maxsus banklar.

Markaziy bank pul, obligasiya chiqarish (emissiya) bilan tashqari shuningdek, mamlakatning butun bank tizimini nazorat qilish bilan shug‘ullanadi, davlat pul–kredit siyosatini amalga oshiradi, vaqtida vaqtida valyuta rezervlarini saqlaydi.

Maxsus banklar – muayyan mijozlar guruhiga xizmat ko‘rsatadi yoki ayrim boshqalar harakatlarga ixtisoslashadi. Investitsiya, eksport, import. Xususan investitsiya bilan shug‘ullanuvchi banklar iqtisodiyotini har xil tarmoqlarini rivojlantirish va uzoq muddatli kreditlar berish bilan shug‘ullanadi. Eksport bilan shug‘ullanuvchi banklari esa tashqi savdo bilan bog‘liq bo‘lgan operasialarga ixtisoslashadi.

Tijorat banklari jismoniy va xususiy shaxslarga har xil bank xizmatlari ko‘rsatadi, xususan depozitlarni jalb etish, veksel hisobi, kredit berish, qimmatli qog‘ozlarni sotish va sotib olish.

Bankning asosiy hujjatlaridan biri balans hisoboti hisoblanadi. U **aktiv va passiv qismdan** iborat bo‘ladi. **Aktiv qismi** bank egalik qiladigan kassa naqdini (qog‘oz pullar va banknotlar), bank depozitlari (omonatlar), qimmatbaho qog‘ozlar, bank tomonidan berilgan ssudalarini o‘z ichiga oladi.

Bankning balans hisobotining **passiv qismida**, bank oldiga ko‘pyulgan hamma talablar (bank egalari talablaridan tashqari) o‘z aksini topadi. Passiv qismida bank depozitlari muhim o‘rin tutadi.

<sup>54</sup> Karimov I. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. «O‘zbekiston». 1998 y. 162–163 b. 162.

– xalqaro kredit — xalqaro iqtisodiy aloqalar dasturida pul (valyuta) yoki tovar ko‘rinishidagi kredit tarzida oshiriladi.

Ssuda juda ko‘hna hodisadir. Ssuda kapitali ma‘lum muddat mobaynida foydalanilganligi uchun haq foiz to‘lash sharti bilan qarzga berilgan pul mablag‘idir. Bozor sharoitida ssuda kapitalining narhi, ssuda kapitaliga bo‘lgan talab va taklif bilan belgilanadi. Kredit ssuda kapitalining harakati shakli sifatida xizmat qiladi. Hozirgi zamon iqtisodiyotida kreditning quyidagilarda ko‘rish mumkin:

– kredit ijtimoiy ishlab chiqarish muayyan muddatda kengaytirishga turtki beradi;

– kredit bo‘sh pul mablag‘larini tezda jalb etish uchun kompaniyalardan iqtisodiyotning ko‘proq foyda keltiruvchi tarmoqlarini foydalanishga yordam beradi;

– kredit muomala xarajatlarida naqd pulni kamaytirish yo‘li bilan qisqartiriladi, chunki, to‘lovlar salmoqli qismi naqd bo‘lmagan formada (veksel, chek boshqalar) amalga oshiriladi.

### 3. Davlat kredit tizimining tuzilishi.

#### Bank va bank operasialari

O‘zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o‘z munosabati bilan butunlay yangi davr talabiga javob beradigan mustaqil pul–kredit siyosatini shakllantirishni talab etadi. Respublikada ikki bosqichli bank tizimi tashkil etildi. Bu bank munosabatlarini shakllanishi talablariga javob beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov bu to‘g‘risida shunday degan: «Bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida kredit siyosatini amalga oshirish vositasi tubdan o‘zgaradi. Kredit mablag‘lar birinchi navbatda oziq–ovqat mahsulotlari, boshqalar xalq iste‘mol mollari va ularni tayyorlash uchun xom ashyo boyliklari ishlab chiqarishni ko‘paytirish, yakka tartibdagi uy–joy qurilishini keng aytirish, ijtimoiy sohani, respublikaning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlovchi asosiy tarmoqlarni eksport mahsulotlari va importning o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab

chiqaruvchi korxonalarni kengaytirish bilan bog‘liq yuksak darajali tadbirlarni o‘tkazishga sarflanadi»<sup>54</sup>.

Kredit tizimi deganda – pul resurslarini tarkib toptiruvchi, ularni jamlovchi, ma‘lum muddatda qaytarib berish va haq to‘lash sharti asosida ularni qarzga beruvchi muassasalarini majmui tuzilishi va uning uch bo‘g‘inini ajratib ko‘rsatish mumkin: 1. Markaziy bank. 2. Bank tizimi: tijorat, jamg‘arma, investitsiya banklari. 3. Maxsus kredit muassasalari; sug‘urta kompaniyalari va boshqa fondlari investitsion kompaniyalar, moliya kompaniyalari boshqalar.

Kredit tizimida banklarning alohida o‘rni bor. Hozirgi zamon davriyotgan vazifasiga qarab banklarni uch turga bo‘lish mumkin: a) markaziy bank; b) tijorat banklari; v) maxsus banklar.

Markaziy bank pul, obligasiya chiqarish (emissiya) bilan xizmat ko‘rsatadigan, mamlakatning butun bank tizimini nazorat qilish bilan shug‘ullanadi, davlat pul–kredit siyosatini amalga oshiradi, davlat vaqtda valyuta rezervlarini saqlaydi.

Maxsus banklar – muayyan mijozlar guruhiga xizmat ko‘rsatadi yoki ayrim boshqalar harakatlarga ixtisoslashadi. Ular investitsiya, eksport, import. Xususan investitsiya bilan shug‘ullanuvchi banklar iqtisodiyotini har xil tarmoqlarini rivojlantirish va uzoq muddatli kreditlar berish bilan shug‘ullanadi. Eksport bilan shug‘ullanuvchi banklari esa tashqi savdo bilan bog‘liq bo‘lgan operasialarga ixtisoslashadi.

Tijorat banklari jismoniy va xususiy shaxslarga har xil bank xizmatlari ko‘rsatadi, xususan depozitlarni jalb etish, veksel olishi, kredit berish, qimmatli qog‘ozlarni sotish va sotib olish.

Bankning asosiy hujjatlaridan biri balans hisoboti hisoblanadi. U **aktiv** va **passiv qismdan** iborat bo‘ladi. **Aktiv qismi** bank egalik qiladigan kassa naqdini (qog‘oz pullar va banknotlar), bank depozitlari (omonatlar), qimmatbaho qog‘ozlar, bank tomonidan berilgan ssudalarini o‘z ichiga oladi.

Bankning balans hisobotining **passiv qismida**, bank oldiga berilgan qog‘yilgan hamma talablar (bank egalari talablaridan tashqari) o‘z aksini topadi. Passiv qismida bank depozitlari muhim o‘rin tutadi.

<sup>54</sup> Karimov I. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. «O‘zbekiston». 1998 y. 162–163 betlar.

Banklar o'z vazifalarini ikkita o'zaro bog'langan passiv va aktiv operatsiyalari ko'rinishida amalga oshiradi.

a) passiv-bank operatsiyalari zahiralari shakllantirilgan operatsiyalari bo'lib, bunda depozitlar, ya'ni mijozlar omonatlarini bankga jalb qilish amalga oshiriladi;

b) aktiv-bank operatsiyalarida to'plangan resurslar joylashtirish va foydalanish operatsiyalari amalga oshiriladi.

Aktiv operatsiyalarda ssuda operatsiyalari va qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalar muhim o'rinni egallaydi. Mijozlar ssuda berar ekanlar tijorat banklari pul taklifini oshiradilar. Pul miqdorini o'sish hajmi, ortiqcha rezervlar miqdoriga va multiplikatorining hajmiga bog'liq. Ortiqcha rezervlar tijorat banklari tomonidan qonuniylashtirib qo'yilgan majburiy rezervlar va summasidan ortiqcha qismidir.

Pul multiplikatori majburiy rezervlar normasiga teskari mutanosibdir;  $m = \frac{i}{r}$  bu yerda:

m - pul multiplikatori;

i - umumiy pul multiplikatori;

r - majburiy rezervlar normasi.

Shunday qilib, pul taklifini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$M = E \cdot m$$

bu erda: M - pul taklifi;

E - ortiqcha rezervlar;

m - pul multiplikatori.

Ssuda operatsiyalaridan tashqari banklar keng doirada bank xizmatlarini ham ko'rsatadilar. Bunda ular oltinni sotib oladilar, pulni chet el valyutasiga almashtiradilar, aksiya va obligatsiyalar sotadilar va sotib oladilar, qimmatbaho qog'ozlarni joylashtirish saqlaydilar, qimmatbaho narsalarni saqlaydilar va boshqalar.

Shu munosabat bilan so'nggi vaqtlarda **konsalting**, **lizing**, **faktoring** va **injenering xizmatlaridan** keng foydalanilmoqda.

**Konsalting** - korxonalar, firmalar, tashkilotlarning iqtisodiy

faoliyatiga oid masalalar, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat bahasi bo'yicha ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va xaridorlarga maslahat berish.

**Lizing** - ishlab chiqarish inshootlarini, mashina, ishlab chiqarish, transport vositalarini shartnoma asosida ma'lum haq va muddatga uzoq muddatga ijaraga berish.

**Faktoring** - mijozga aylanma kapital uchun kredit berish bilan birgalikda o'tkaziladigan savdo-vositachilik harakatlarining turi.

**Injenering** - tijorat qoidalariga asoslangan injenerlik - maslahat xizmatlari: ishlab chiqarishni ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarishni uyushtirish, ishlab chiqarish ob'ektlarini qurib ishga solish yuzasidan maslahat berish.

Markaziy bank iqtisodiyotni samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Markaziy Bank qimmat pullar siyosatini amalga oshiradi (restriktiv):

- ochiq bozorda davlatning qimmatbaho qog'ozlarini sotadi;

- hisob stavkasini oshiradi;

- rezerv normasini oshiradi.

Qimmat baho pul siyosati pul taklifini qisqartirish orqali, kreditni qimmat va qiyin egallanadigan qilib qo'yadi. Natijada investitsiya qisqartirilishi orqali, jami talab kamayadi va inflyasiya cheklanganadi.

Keysanchilar nazariyasiga asosan monetar siyosati asosini foiz stavkalari darajasi asos qilinishi kerak, monetaristlar fikricha esa pul taklifining darajasi tashkil etishi kerak. Keysanchilar bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlat aralashuvi shart deb hisoblaydilar, monetaristlar esa uni inkor etadilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda pul kredit siyosatida ikkita modelni sintez qilingan varianti qo'llaniladi. Uzoq muddatli davrda monetaristik pul-kredit siyosati qo'llaniladi. Qisqa muddatli davrda esa foiz stavkalari asosida fiskal pul-kredit siyosatidan foydalaniladi.

«Bank ishini yanada takomillashtirish aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh mablag'larini tijorat banklari depozitlariga, jalb qilinishini rag'batlantirish ishlari ham 2009.

yilda ustuvor vazifa bo'lib qoladi»<sup>55</sup> degan edilar Respublika Prezidenti I.A.Karimov.

Banklar zimmasiga investisiya faoliyatini kengaytirish vazifalari yuklangani sababli ularning ishini tubdan qayta tashkil etish lozim.

#### 4. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklari hamda ularning vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini ta'minlashda banklar muhim rol o'ynaydi. **Banklar pul mablag'larini to'plash, joylashtirish va ularning harakatini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy muassasadir.**

Banklar kredit munosabatlariga xizmat qilib, kreditning turli shakllarini o'z ichiga olib, kredit muassasalarining asosiy tashkil qiladi. Banklar tizimi odatda ikki bosqichli bo'lib, u o'z ichiga Markaziy (emission) bank va tijorat (depozitli) banklarining tarmoq otgan shohobchalarini oladi. «Markaziy bank boshchiligidagi hamda keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklar ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish» ustuvor yo'nalish, degan edi I.A.Karimov<sup>56</sup>

**Davlat banki** mamlakat pul-kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi.

**Davlat banki Markaziy bank hisoblanadi.** Buning mazmuni shundan iboratki, **birinchidan**, ko'pchilik mamlakatlarda davlat banki yagona markaziy bankdan iborat bo'lib, u o'tkazadigan siyosat tartiblari yuqori davlat organlari tomonidan o'rnatiladi.

**Ikkinchidan**, Markaziy bank tijorat banklari va jamg'ar muassasalaridan mablag'larni qabul qilib, ularga kredit beradi. Xususan, shu sababga ko'ra Markaziy bank «banklar banki» deb ham yuritiladi.

**Uchinchidan**, Markaziy bank faqat foyda olishga intilib faoliyat qilolmaydi. Davlat butun iqtisodiy holatni yaxshilash siyosatini amalga oshiradi va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga to'liq mamlaklashadi.

**Markaziy bank ko'plab xilma-xil vazifalarni bajaradi.**

**Birinchidan**, boshqa bank muassasalarining majburiy zahiralarini saqlaydi. Bu zahiralar pul taklifini boshqarish uchun talab qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Markaziy bank mamlakatning rasmiy oltin – valyuta zahiralarini saqlash vazifasini ham bajaradi.

**Ikkinchidan**, cheklarni qayd, (inkassasiya) qilish mexanizmini ta'minlaydi va banklararo hisob-kitoblarni amalga oshiradi, ularga kreditlar beradi.

**Uchinchidan**, davlatning monitar siyosatini amalga oshiradi.

**To'rtinchidan**, barcha banklar faoliyatini uyg'unlashtiradi va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi.

**Beshinchidan**, xalqaro valyuta bozorlarida milliy valyutalarni ayirboshlaydi.

**Oltinchidan**, pul taklifi ustidan nazorat qilish mas'uliyatini o'z ichiga oladi, muomalaga milliy valyutani chiqaradi.

**Ettinchidan**, iqtisodiyotning ehtiyojlariga mos ravishda pul muomalasini tartibga soladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida banklar va korxonalar teng huquqli sheriklar sifatida chiqadi. Kredit berishdan fanning texnika taraqqiyotini jadallashtirishni, ishlab chiqarishni rivojlantirishning yangi sifat darajasiga erishishini ta'minlaydigan tedbirlarga ustunlik beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mustaqilligining ta'riflanishi muhim ahamiyatga ega. Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi va o'z vakolati doirasida qarorlar qabul qilishda mustaqildir. **Tijorat banklari** o'zlarining to'liq mavqeiga ko'ra aksionerlik turidagi muassasalar hisoblanadi. Huquqiy mavqeiga ko'ra faoliyatning biron-bir turiga xizmat ko'rsatuvchi, ixtisoslashgan yoki Milliy bank bo'lishi kerak.

Iqtisodiyotning tizimli transformatsiyasi jarayonida tijorat banklari kreditning qaytarilishini ta'minlash muammosiga duch keladilar.

<sup>55</sup> Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish davri talabi. O'zbekiston ovozi? 2009 14 fevral

<sup>56</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari – T.: O'zbekiston 1999, 2005.

Bu muayyan ravishda tijorat banklarining likvidlik ahvolarini o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tijorat banklari o'z faoliyatida foyda chiqarib olishni ta'minlaydi. Tijorat banklari daromadlarining manbai mijozlarning bank xizmati uchun to'lovi va aktivlardan – zayom, kassa va qimmatli qog'ozlardan olinadigan foiz hisoblanadi.

**Ixtisoslashgan tijorat banklari** – iqtisodiyotning turli sohalarida tijorat tamoyillarida kredit-pul operatsiyalarini muayyan turlarini amalga oshiradi. Jumladan, banklar respublikada sanoat qurilish banki, transport, aloqa va ma'muriy ta'minot sohalarida; Zamin, G'alla, Paxta banklar – agrotijorat kompleksi tarmoqlari va sohalarida faoliyat yuritadi. Tadbirkorlik banki kichik biznes, kooperativ va yakka tartibdagi muassasalarning faoliyati sohasida kredit-pul operatsiyalarini amalga oshiradi.

**Xalq banki** – mamlakatda omonat ishlarini tashkil etish, pulni naqd pulsiz hisob-kitob qilishni va aholi uchun kassa vazifalarini amalga oshirish, aholiga, shaxsiy ehtiyojlarga kredit berishni ta'minlash shu kabi operatsiyalarni ta'minlaydi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki** eksport operatsiyalarini bevosita amalga oshiruvchi korxonalar va muassasalarga kredit beradi, qo'shma korxonalariga kredit berishni ta'minlaydi, qatnashadi, yig'ma valyuta rejasining ijrosini, valyuta resurslarini ta'minlash, tejab foydalanishni nazorat qiladi, shuningdek, tashqi iqtisodiy operatsiyalarga oid hisob-kitoblarni tashkil qiladi va amalga oshiradi.

Tijorat banklari tizimida tor ixtisoslanish bo'yicha investitsion va ipoteka banklarini ajratib ko'rsatish lozim.

**Investitsion banklar** – maxsus kredit muassasalari bo'lgan, obligatsiya hamda qarz majburiyatlari boshqa turlarini chiqarish va uy-joy yo'li bilan uzoq muddatli ssuda kapitalini jalb qiladi va ulardan foydalanishni mijozlar (asosan davlat va tadbirkorlar)ga taqdim qiladi.

**Ipoteka banklari** – bu ko'chmas mulk (yer va inshootlar)ni kredit muassasasidir.

Ipoteka bankining resurslari o'zlarining ipoteka obligatsiyalarini chiqarish hisobiga shakllanadi. Olingan ssuda uy-joy va boshqa inshootlarni qurish, korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish uchun foydalaniladi.

Barcha tijorat banklari ehtiyoj (rezerv)larning hajmi va tuzilishi bo'yicha Markaziy bank tomonidan o'rnatiladigan ma'lum chegaralarga javob berishi zarur.

## 5. Pul–kredit (monetar) siyosatning olib borish tamoyillari va vositalari

Hozir iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishda pul-kredit tizimini takomillashtirish ishlab chiqarish korxonalarini davlat tomonidan qaytarib bermaslik shartlari bilan byudjet mablag'laridan foydalanishdan ozod qiladi.

Shuning uchun ham «Bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida kredit siyosatini amalga oshirish vositasi tubdan o'zgaradi,... Markaziy bank oldida pul muomalasini tartibga solishning iqtisodiy usullarini egallashdek g'oyat murakkab vazifa ko'riladi. Shu jumladan:

– tijorat banklarining operatsiyalarini qaytadan pul bilan ta'minlash. Bunda Markaziy bankning tijorat banklariga foiz berishidan kredit berish ko'zda tutiladi. Bu esa banklarni o'z mablag'lari darajasini Markaziy bank mablag'lari darajasi bilan solishtirishga majbur qiladi;

– pul bilan qayta ta'minlashga kreditlar beriladigan, shaxsiy hisobga olinadigan miqdor o'zgarishlarini tartibga soluvchi kredit siyosati;

– tijorat banklarining Markaziy bank hisoblaridagi mablag'larning bir qismini rezerv uchun olish me'yorini, Markaziy bank majburiy zahiralarning me'yorini tartibga solib, tijorat banklari operatsiyalarining hajmlariga muomaladagi mablag'larning hajmlariga ta'sir qila oladi,... shunday sharoitda Markaziy bank qattiq pul-kredit siyosatini o'tkazish borasida barcha zarur choralarini ko'rishi kerak», – degan edi I.Karimov<sup>57</sup>.

Pul–kredit siyosatini to'g'ri shakllanishi ishlab chiqarish va muomaladagi pul miqorini to'g'ri belgilashni ta'minlaydi. Ushbu nazariyaga ikki xil yondashuv mavjud. Bu keynsancha nazariya va monetar nazariyaviy pul miqdori nazariyasi (monetarizm).

<sup>57</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 162–164 betlar.

Monetar pul siyosati asosida yaxlit iqtisodiyotga pul va kredit siyosatining ta'sir jarayonlarini o'rganuvchi pul nazariyasi yaratilgan.

Pul-kredit monetar siyosatini amalga oshirishning yana bir vositasi, bu **hisob-kitob stavkasi siyosatidir**. Hisob-kitob stavkasi Markaziy bank belgilaydi. Agar ushbu stavka past bo'lsa, unda tijorat banklari ko'proq kredit olishga harakat qiladilar.

Natijada esa banklarning ortiqcha bank rezervlari kamayib boradi va muomaladagi pul miqdorining oshishiga olib keladi. Agar hisob stavkasi miqdori yuqori bo'lsa, unda banklar kamroq kredit olishga, olganlari esa qaytarib berishga harakat qiladilar. Pirovard natijada esa ortiqcha bank rezervlari qisqarib muomaladagi pul miqdori kamayadi.

Amaliyotda davlatlarda hisob stavkasi siyosatini amalga oshirish bozordagi operatsiyalar siyosati bilan muvofiqlashtirilgan bo'lib olib borishga harakat qilinadi.

Pul-kredit siyosatining vositalaridan yana biri – **majburiy bank rezervlarining** me'yorini (me'yorsini) o'zgartirish siyosatidir. Majburiy bank rezervlarining me'yori Markaziy bank belgilaydi va uni o'zgartirib turadi.

Agar Markaziy bank majburiy bank me'yori kamaytirilsa, ortiqcha bank rezervlari ortadi, bu esa pul taklifining ortishiga olib keladi. Masalan, ushbu me'yor 20% bo'lsa, unda bankka qo'yilgan 200 so'mdan 40 so'm majburiy bank me'yori tashkil etadi.

Bunda bank faqat 160 so'mni qarzga berishi mumkin bo'ladi. Endi faraz qilamizki, me'yor 10% ga tushirildi, unda bank 180 so'mni qarzga berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Majburiy bank rezervlari me'yori ko'tarish yordamida davlat pul taklifini kamaytiradi, chunki bu banklardagi ortiqcha bank rezervlarining qisqarishiga olib keladi. Pul-kredit monetar siyosatini o'tkazishda bu vosita kuchli, ammo shu bilan birga butun bank tizimining asoslariga ta'sir etadi.

Banklarning majburiy rezervlarini o'zgartirish banklarning depozit (pul omonatlari) va kredit miqdorida katta o'zgarishlarga olib keladi. Shuning uchun u ko'pchilik mamlakatlarda o'ta zararli vosita bo'lganda qo'llaniladi.

O'zbekistonda pul-kredit siyosatining yo'nalishi quyidagicha:

davlat tomonidan pul massasini oldindan bilish, uni qattiq nazorat qilish;

markaziy bank tomonidan tijorat banklarining operatsiyalarini pul bilan ta'minlash, bunda Markaziy bankning tijorat banklariga foiz hisobida kredit berishi nazarda tutilmoqda, bunda o'z navbatida markaziy bank tomonidan umuman pul muomalasi sohasini nazorat qilishga imkon beradi;

monetar kredit va byudjet tizimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muvozanatini takomillashtirish, kredit berish, byudjet kamomadi davrida pul berib chiqarishi hisobiga emas, davlatning kamomatsizlikdan qoq'ozlarini sotish hisobiga qoplash zarur. Hozirgi davrda mamlakatimizda pul-kredit siyosati inflyasiya darajasini kamaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mutahkamlash va valyuta bozorini erkinlashtirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ajburiy zahira fondlari, ichki valyuta bozorida operatsiyalar, depozitli operatsiyalar, davlat qimmatbaho qog'ozlari, obligatsiyalar bilan operatsiyalar kabi pul-kredit siyosati valyutalaridan keng foydalanmoqda. O'zbekiston Respublikasida kredit siyosati avvalo iqtisodiyotimizda asosiy muammolarni rivojlantirish maqsadida moliyalashtirishga qaratilgan. Ushbu davr 2002-2007 yillar ichida ishlab chiqarishga sarf etilgan investitsiya mablag'lari hajmi 13% ko'paygan.

3-jadval

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha iqtisodiyot sektorlarida investitsiyalarning tuzilishi

|                                  | 2002 | 2003 | 2004 | 2005 | 2007 |
|----------------------------------|------|------|------|------|------|
| 1                                | 2    | 3    | 4    | 5    | 6    |
| Jami                             | 100  | 100  | 100  | 100  | 100  |
| Ishlab chiqarish                 | 57,1 | 65,1 | 64,1 | 65,3 | 70,1 |
| Sanoat                           | 32,4 | 28,4 | 28,5 | 25,9 | 32,1 |
| Qishloq xo'jaligi                | 5,8  | 4,4  | 3,4  | 3,2  | 4,6  |
| Qurilish                         | 0,4  | 0,4  | 0,5  | 0,8  | 1,3  |
| Transport va aloqa               | 10,0 | 21,7 | 23,1 | 20,2 | 20,7 |
| Buydo va umumiy qo'ng'atlash     | 2,6  | 3,4  | 1,3  | 1,3  | 1,7  |
| Ushbu sohalar bo'yicha           | 5,9  | 6,8  | 7,3  | 9,9  | 7,7  |
| Ushbu sohalar bo'yicha chiqarish | 42,9 | 34,9 | 35,9 | 34,7 | 31,7 |

O'zbekistonda «Bozor munosabatlarini shakllantirish» sharoitida kredit siyosatini amalga oshirish vositasi tubdan o'zgaradi. Kredit mablag'lar birinchi navbatda oziq-ovqat mahsulotlari, boshqa xalq iste'mol mollari va ularni tayyorlash uchun xom ashyo boyliklari ishlab chiqarishni ko'paytirish, yakkalash tartibdagi uy-joy qurilishini kengaytirish, ijtimoiy sohasida respublikaning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi asosiy tarmoqlarning eksport mahsulotlari va importning o'zlashtirilgan bosadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini kengaytirish bilan bog'liq yuksak samarali tadbirlarni o'tkazishga sarflanadi»<sup>58</sup>

Agar keltirilgan jadvalga nazar tashlasak, mamlakatimizda 2007 yilda moddiy ishlab chiqarish sohasiga barcha investisiyalarni 70,1 % sarf etilgan. 2008 yilda esa o'zlashtirilgan barcha investisiyalarning 50 foizga yaqini ishlab chiqarishda modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga yo'naltirilgan. Bu esa mamlakatimizda aholining zarur tovar va xizmatlarni ehtiyojini qondirish uchun ishlab chiqarishda rivojlantirilgan ustuvorlik berilayotganligini ko'rish mumkin.

Pul-kredit siyosatining afzal tomoni uning tezkor va moslashuvchanligidir. Shuningdek, fiskal siyosatiga qaraganda siyosiy bosimga kamroq bog'liqdir.

O'zbekiston pul-kredit siyosatining yo'nalishlari quyidagicha:

– davlat tomonidan pul massasini oldindan bilish uchun qattiq nazorat qilish;

– Markaziy Bank tomonidan tijorat banklarining operatsiyalarini pul bilan ta'minlash, bunda Markaziy bankning tijorat banklariga foiz hisobida kredit berishi nazarda tutilmoqda, bu o'z navbatida Markaziy bank tomonidan, umuman, pul muomalasi sohasini nazorat qilishga imkon beradi;

– kredit va byudjet tizimlari o'rtasida o'zaro munosabatlar vositasini takomillashtirish, kredit berish, byudjet kamomadi sharoitida pul berib chiqarish hisobiga emas, davlatning qimmatbaho qog'ozlarini sotish hisobiga qoplashi zarur.

## Asosiy atama va tushunchalar

Pul muomalasi, pul tizimining tarkibi, pulga bo'lgan talab, pul taklifi, kredit, kredit turlari, bank tizimi, Markaziy bank, tijorat banki.

## 18-mavzu. DAVLATNING SOLIQ SIYOSATI

### 1. Soliq siyosati, uning tabiati, vazifalari va tamoyillari

Soliq siyosati iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Soliq siyosatini yuritishning asosiy maqsadi korxonalar va tashkilotlarga nisbatan to'g'ri soliq siyosatini shakllantirishdan iborat. Prezident I.A.Karimov «Soliq tizimining eng muhim vazifasi – ishlab chiqarishni rivojlantirishga moddiy, xom-ashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir»–degan edilar<sup>59</sup>.

Soliqlar qadim davrlardan ma'lum, faqat u paytlar o'lpon deb atalgan. Adam Smit soliq tizimining tamoyillari to'g'risida ancha uning fikrlar bildiradiki, ulardan bizning davrimizda ham foydalanilmoqda. Jumladan, u soliqlarni foydadan va ish haqidan undirib olishni taklif etadi. Adam Smit yana shunday deydi: «... davlat fuqarolar imkoniyati, iqtidori va kuchiga qarab hukumat jamg'armasini ta'minlab turishi kerak. Zero, ular oladigan foyda davlat himoyasi va homiyliги ostida vujudga keladi»,–degan edi.

Soliqning muqarrarligi uzoq davrlardanoq ko'nikmaga aylangan. AQSh mustaqillik Deklaratsiyasi mualliflaridan biri Benjamin Franklin 1789 yilda shunday deb yozgan edi: «Bu dunyoda o'lim va soliqdan tashqari biror narsaga qattiq ishonish mumkin emas».

Sharq iqtisodiy tafakkurida ham soliq munosabatlariga keng ahamiyat berilgan. Masalan, buyuk sarkarda Amir Temurning «Temur tuzuklari» asarida soliq masalasi bosh o'rinda turadi.

<sup>59</sup> Karimov I. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent. «O'zbekiston». 1995. 205 bet.

<sup>58</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. O'zbekiston, 1999, 19 b.



Chunki, soliq siyosati iqtisodiyotni tashkil etadi, boshqaruv mamlakatning iqtisodiy va harbiy hayotini tartibga solishda ta'minlovchi omil bo'lib xizmat qilgan. Sohibqiron o'z soliq siyosatida xalq manfaatini ustun qo'ygan, ya'ni aholi davlatning soliq siyosatidan orqali kambag'allashib ketsa, davlat ham kambag'allashib ketadi. Demak, adolatli soliq tizimini yaratish zarur, deb hisoblagan. Bu bilan birga u soliqlar odamlarni mehnat, yaratuvchi kuchlar bilan tadbirkorlik, sohibkorlikka rag'batlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Amr qildimki, aholidan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolda solishdan yoki mamlakatning qashshoqlikka qo'shib qolishidan saqlash kerak. "Negaki, aholini xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashuviga olib keladi degan edi.

Soliq siyosatini kuchli ijtimoiy himoyalashni ta'minlash asosida olib borishi lozim. Mustaqillikka erishgunga qadar O'zbekiston Respublikasi oldida soliq va soliq tizimini o'rganish muammosi turgan emas. Chunki, soliqlar markazlashgan davlat tashkil etilib, asosan aholidan daromad solig'i, uy-joy kommunal solig'i tarkibida undiriladi. Tashqi savdo orqali olinadigan soliqlar bilan faqat markaz shug'ullanar edi. Zero, hozirgi iqtisodiyot sharoitida soliqlar davlat byudjetining asosiy manbai hisoblanadi. Soliq tizimi davlatga iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida byudjet uchun zarur bo'lgan mablag'larni to'plash beradi. Soliq tizimi milliy mahsulotning ma'lum qismini qayta taqsimlashda va aholini ijtimoiy himoyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir mustaqil davlat o'z oldidagi vazifalarini bajarishda iqtisodiy muammolarni hal etishi uchun o'z byudjetiga rag'bat berib bo'lishi lozim. Byudjet esa asosan soliqlar hisobiga va qisman daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

Turli mulkchilik shakllariga asoslangan korxonalar, tashkilotlar va aholidan pul ko'rinishida soliqlar undiriladi. Soliq uni undiruvchi oluvchilar bilan to'lovchilar o'rtasida doimo takrorlanib turadigan iqtisodiy voqelikning o'zida aks ettiradi. Soliqning o'zi ham iqtisodiy-moliyaviy kategoriya hisoblanadi. Soliqlar majburiy to'lovlar ko'rinishga ham ega. Chunki soliqlar va ularni to'lovchi miqdori O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan demokratik asosda belgilanadi. Barcha tashkilotlar va korxonalar

uni bajarishga majburdilar, shuningdek Respublika Vazirlar Mahkamasini, Moliya Vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi bilan belgilangan holda maxsus ijtimoiy fondlarga belgilangan to'lovlarni ham to'lash majburiydir.

Soliqlarning shakllanishi va taqsimlanishini to'g'ri amalga oshirish ishlab chiqarish munosabatlarining shakllanishini ta'minlaydi. Chunki, soliqlarni kamaytirish orqali ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga erishish mumkin, xuddi shuningdek, soliqlarni ko'paytirish evaziga ishlab chiqarish hajmini kamaytirish mumkin bo'ladi. Barcha turdagi soliqlardan tushgan daromadlar byudjetga tushadi va uni davlat zarur yo'nalishlarga taqsimlaydi. Uning katta qismi davlatning mudofaa qobiliyatini ta'minlashga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarga, aholini ijtimoiy himoyalashga, davlatni boshqaruv organlarini saqlab turishga sarflanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamizda soliqlarni joriy byudjetdan maqsad davlat byudjetini shakllantirish va xalq daromadligining har tomonlama rivojlanishini va aholini ijtimoiy himoyalashni ta'minlashdir. Shulardan kelib chiqqan holda soliqlarning quyidagi vazifalarini aytib o'tishimiz mumkin:

Fiskal vazifa, ya'ni davlat xarajatlarini moliyalashtirish.

Iqtisodiy faollikni rag'batlantirish.

Ijtimoiy himoyalash, ya'ni aholining ayrim toifalariga daromadlar berish.

Davlat xazinasiga pul tushirish.

Milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash.

Soliq tizimining eng muhim vazifasi ishlab chiqarishni rivojlantirishga moddiy, xom ashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantirishga davat etishidir.

Turli mulk shaklidagi korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar to'lovchi to'lovchi bo'lib hisoblansa, davlat soliqlarni oluvchi oluvchi hisoblanadi. Nimaga soliq solinsa, uni soliq ob'ekti, soliq to'lovchilar esa soliq sub'ekti deb ataladi.

Soliq tizimini o'rganishda daromadlar soliqqa tortiladigan va soliqqa tortilmaydigan daromadlarga bo'lgan holda o'rganish muvofiqdir. Mamlakatimizda olinadigan soliq

Chunki, soliq siyosati iqtisodiyotni tashkil etadi, boshqaruvni mamlakatning iqtisodiy va harbiy hayotini tartibga solishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Sohibqiron o'z soliq siyosatida xalq manfaatini ustun qo'ygan, ya'ni aholi davlatning soliq siyosatini orqali kambag'allashib ketsa, davlat ham kambag'allashib bo'lar edi. Demak, adolatli soliq tizimini yaratish zarur, deb hisoblagan. U bilan birga u soliqlar odamlarni mehnat, yaratuvchilik, tadbirkorlik, sohibkorlikka rag'batlantirilishi zarurligini ta'kidlagan. Amr qildimki, aholidan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolda solishdan yoki mamlakatning qashshoqlikka qo'shilib qolishidan saqlash kerak. Negaki, aholini xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashuviga olib keladi degan edi.

Soliq siyosatini kuchli ijtimoiy himoyalashni ta'minlash asosida olib borishi lozim. Mustaqillikka erishgunga qadar O'zbekiston Respublikasi oldida soliq va soliq tizimini o'rganish muammosi turgan emas. Chunki, soliqlar markazlashgan asosda tashkil etilib, asosan aholidan daromad solig'i, uy-joy kommunal solig'i tarkibida undiriladi edi. Tashqi savdo orqali olinadigan soliqlar bilan faqat markaz shug'ullanar edi. Zero, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar davlat byudjetining asosiy manba hisoblanadi. Soliq tizimi davlatga iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida byudjet uchun zarur bo'lgan mablag'larni to'plab beradi. Soliq tizimi milliy mahsulotning ma'lum qismini qayta taqsimlashda va aholini ijtimoiy himoyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir mustaqil davlat o'z oldidagi vazifalarini bajarishi iqtisodiy muammolarni hal etishi uchun o'z byudjetiga ega bo'lishi lozim. Byudjet esa asosan soliqlar hisobiga va qisman esa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

Turli mulkchilik shakllariga asoslangan korxonalar, tashkilotlar va aholidan pul ko'rinishida soliqlar undiriladi. Soliq uni undirib oluvchilar bilan to'lovchilar o'rtasida doimo takrorlanib turadigan iqtisodiy voqelikning o'zida aks ettiradi. Soliqning o'zi ham iqtisodiy-moliyaviy kategoriya hisoblanadi. Soliqlar majburiy to'lovlar ko'rinishiga ham ega. Chunki soliqlar va ularni to'lash miqdori O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan demokratik asosda belgilanadi. Barcha tashkilotlar va korxonalar,

ularni bajarishga majburdilar, shuningdek Respublika Vazirlar Mahkamasini, Moliya Vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi bilan belgilangan holda maxsus ijtimoiy fondlarga belgilangan to'lovlarni ham to'lash majburiydir.

Soliqlarning shakllanishi va taqsimlanishini to'g'ri amalga oshirishi ishlab chiqarish munosabatlarining shakllanishini ta'minlaydi. Chunki, soliqlarni kamaytirish orqali ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga erishish mumkin, xuddi shuningdek, soliqlarni ko'paytirish evaziga ishlab chiqarish hajmini kamaytirish mumkin bo'ladi. Barcha turdagi soliqlardan tushgan daromadlar byudjetga tushadi va uni davlat zarur yo'nalishlarga taqsimlaydi. Uning katta qismi davlatning mudofaa qobiliyatini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarishni rivojlantirishga, ijtimoiy-madaniy tadbirlarga, aholini ijtimoiy himoyalashga, davlatni boshqaruv organlarini saqlab turishga sarflanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamizda soliqlarni joriy tashkildan maqsad davlat byudjetini shakllantirish va xalq to'lovchilarning har tomonlama rivojlanishini va aholini ijtimoiy himoyalashni ta'minlashdir. Shulardan kelib chiqqan holda soliqlarning quyidagi vazifalarini aytib o'tishimiz mumkin:

Fiskal vazifa, ya'ni davlat xarajatlarini moliyalashtirish.

Iqtisodiy faollikni rag'batlantirish.

Ijtimoiy himoyalash, ya'ni aholining ayrim toifalariga imtiyozlar berish.

Davlat xazinasiga pul tushirish.

Milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash.

Soliq tizimining eng muhim vazifasi ishlab chiqarishni rivojlantirishga moddiy, xom ashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantirishga davat etishidir.

Turli mulk shaklidagi korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar soliq to'lovchi bo'lib hisoblansa, davlat soliqlarni oluvchi hisoblanadi. Nimaga soliq solinsa, uni soliq ob'ekti, soliq to'lovchilar esa soliq sub'ekti deb ataladi.

Soliq tizimini o'rganishda daromadlar soliqqa tortiladigan va soliqqa tortilmaydigan daromadlarga bo'lgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda olinadigan soliq

darajalarini soliq stavkalari belgilab beradi.

Soliq tizimini o'rganishda daromadlarni soliqqa tortilishi va soliqqa tortirmaydigan davromadlarga bo'lgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda olinadigan soliq darajasi quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- proporsional soliq stavkasi;
- progressiv yoki o'sib boruvchi soliq stavkasi;
- regressiv soliq stavkasi.

**Proporsional stavkasi** asosan soliq ob'ektidan yagona foizlarda olinadi. Masalan: uy-joy, mol-mulklardan olinadigan soliq.

**Progressiv soliq stavkasi**, ya'ni o'sib boruvchi stavka asosan ob'ektlarning qiymati o'sib borishi bilan olinadigan soliq foizlari ham oshib boradi. 2009 yil 1 sentyabrdan boshlab minimal oylik maosh 28040 so'm qilib belgilanadi. Soliq olinadigan soliq foizlari quyidagicha 6 minimal oylik maoshdan 12%, 6-10 minimal maoshigacha 17%, 10 minimal va undan ortiq oylik maoshidan 22% soliq undiriladi.

**Regressiv soliq stavkasi** to'g'ri kamayib boruvchi soliq stavkasi bo'lib, korxonalar va tashkilotlarning ishlab chiqarish hajmi va daromadlariga aholining oylik maoshlari darajasiga bog'liq bo'ladi.

Respublikada regressiv soliq stavkasi amalda qo'llanilmog'chi. Jumladan, 2008 yilda tadbirkorlik faoliyatlarini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida kichik korxonalar va mikrofirmalardan olinadigan yagona soliq to'lovlarini 10 foizdan 8 foizga, 2009 yildan boshlab esa, 7 foizga tushurilishi belgilangan. 2009 yil 1 yanvardan aholi daromadlaridan olinadigan soliq stavkalari 6 minimal oylik maoshdan 13 foizdan 12 foizga, 6-10 minimal oylik maoshdan olinadigan soliq stavkalari 18 foizdan 17 foizga va 10 minimal oylik maoshdan boshlab soliq stavkasi 25 foizdan 22 foizga kamaytiriladi.

Respublikada jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan. Inqirozga qarshi choralar dasturiga asosan 2012 yilning 1 yanvarigacha go'sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik korxonalar va mikrofirmalar ishlab chiqarishni texnik qayta

qayta ishlash va modernizatsiya qilishga maqsadli ravishda yo'naltirish sharti bilan yagona soliq to'lovi stavkasini 50 foizga qisqartirish, yagona mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalar byudjetiga barcha turdagi soliq va to'lovlardan qo'shimcha qiymat (QQS) solig'idan soliq qisqartirish 2012 yilgacha ozod qilinadi.

Bank kreditlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan va joriy darajalar miqdorini qayta ko'rib chiqish, byudjetga to'lanadigan to'lovlarning peniyasidan kechish va boshqa muhim imtiyoz va preferensiyalar berish belgilangan. 2009 yilda barcha turdagi energiya manbalari va kommunal xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha narxlarning ko'tarilishini cheklash, ularni 6-8 foizdan kamaytirish mexanizmlari ishlab chiqildi.

Ya'ni daromad, ish haqi qanchalik o'sib borsa shunchalik regressiv soliq undirish darajasi past bo'ladi. Masalan, hamma turdagi soliqlar kabi mahsulotlarni yoki turli aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarga to'lanadigan haq yuqori daromad oluvchilarga nisbatan past daromadlar oluvchilar yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushadi. Chunki, bu soliq hamma iste'molchilar daromadlaridan qat'iy nazar to'laydilar. Shuning uchun bilvosita (egri) soliqlar regressiv tasnifga ega bo'ladi. Regressiv kamayib boruvchi soliq stavkasi korxonalar va tashkilotlar ishlab chiqarish hajmi daromadini yoki aholining mehnat qilish darajasi va olayotgan oylik maoshi qanchalik pasayib borsa, ularni to'layotgan solig'ining hajmi o'sib boradi. Regressiv soliq stavkasi daromadni o'sishi bilan kamayib boradi.

Daromad, foyda, qo'shilgan qiymat solig'i, rentabellik, tannarx, muomala xarajatlari, turli maqsadli fondlar chegirmalari kabi moliyaviy ko'rsatkichlar bo'lib, korxonalar, firmalarning iqtisodiy holatini belgilab beradi. Shu bilan birga birlashmalar, korxonalar muassasalarining ishlab chiqarish va tijorat faoliyatining iqtisodiy holatini nazorat qilish hamda ularning mexanizmlarini to'g'ri tashkil etilishiga e'tibor berish zarur.

## 2. Soliqlarning asosiy turlari.

### Hozirgi zamonda O'zbekistonda soliq tizimining mohiyati

Soliqlar dastavval egri va to'g'ri soliq'larga bo'linadi. To'g'ri soliq korxonalar yoki mehnatkashlarning daromadlaridan olinadi. Uning manbai korxonalar va fuqarolarning daromadlaridan hisoblanadi. Egri soliq'larni korxonalar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan to'lanishida, u asosan, iste'molchilardan ustama haq qo'yish orqali undiriladi.

To'g'ri soliq'larni moddiy harajatlarni, mol-mulklarni, mehnat va pul resurslarini tejashni ta'minlaydi. Egri soliq'larni esa boshqaruvchi munosabatlari mohiyatidan kelib chiqqan bo'lib, unga qo'shilgan qiymat solig'i, cheklangan tovarlarga aksiz solig'i, chetga chiqarilayotgan tovarlarga, xom ashyolarga solinadigan soliq'larni va eksport-import soliq'lari kiradi. Egri soliq'larning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, bu soliq'larni tovarlar yoki xom ashyolar oborotidan so'ng davlat byudjetiga tushadi, pulning muomala vazifasini mustahkamlash, pulning qadrsizlanishining oldini olishni ta'minlaydi.

Soliqlar ob'ektini soliq'larni undiriladigan tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar turlari tashkil etadi.

«Korxonalar birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliq'larni to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining hamda mahalliy byudjetlarning soliq'larni tarzidagi daromadlar manbalarini belgilab beradi. Bu soliq'larni joriy etishdan maqsad davlat ijtimoiy kafolatlarini moliyaviy bazasini ta'minlashdan, huquqiy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishdan, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanishni va atrof-muhitni muhofaza etishni rag'batlantirishdan iboratdir.

Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarning faoliyatini soliq yo'li bilan tartibga solish, quyidagi umumiy qoidalar asosida amalga oshiriladi:

- manbalardan qat'iy nazar barcha daromadlardan soliq to'lashi majburiyligi;
- barcha hududiy ma'muriy pog'onalar uchun yagona bo'lgan umumdavlat soliq siyosatini mahalliy hokimiyat

korxonalarining umumdavlat soliq siyosati doirasida soliq'larga oid qonun chiqarish faoliyatidagi mustaqilligi bilan uyg'un holda amalga oshirish;

- o'z faoliyati bilan eng muhim ijtimoiy iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashayotgan samarali ishlab chiqarish korxonalariga imtiyoz berish, shuningdek, to'g'ri soliq yuritishning ilg'or shakllarini rag'batlantirish tizimi orqali soliq mezonlarining rag'batlantiruvchi ahamiyatini ta'minlash;

- deklarasiyalar hamda tanlab o'tkaziladigan tekshirish va taftishlarni uyushtirish asosida barcha sub'ektlarning soliq to'lovlari yuzasidan olingan majburiyatlari ustidan moliyaviy nazorat qilish, qonunlarni buzuvchilarga nisbatan iqtisodiy choralar ko'rish.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 5-8 moddalariga binoan soliq tizimida 8 ta umumdavlat (respublika) soliq'lari va 5 ta mahalliy soliq'larni ko'rsatilgan. Lekin keyingi soliq tizimiga kiritilgan o'zgartirishlar bilan ularning soni yig'inalari ham qo'shilib 21 taga yetgan. Hozirgi paytda ular 30 tadan oshdi. Soliq yig'inalarining jami yig'indisi summasi soliq yuki tushunchasini keltirib chiqaradi.

### O'zbekiston soliq tizimi tuzilmasi:

Umumdavlat soliq'lari;  
Mahalliy soliq'larni.

### Umumdavlat soliq'lari quyidagilarga bo'linadi:

Huquqiy shaxslarning daromadiga (foydasiga) soliq;  
Jismoniy shaxslarning daromadiga soliq;  
Qo'shilgan qiymat solig'i;  
Aksiz solig'i;  
Yer ostidan foydalanish solig'i;  
Suv resurslaridan foydalanish solig'i;  
Savdo tashkilotlarining yalpi daromad solig'i;  
Bojxona solig'i;

Davlat boji;  
Qimmatli qog'ozlarni o'tkazish yig'imi;  
Boshqa daromadlar.

### Mahalliy soliqlar va yig'imlar:

Mol-mulk solig'i;  
Yer solig'i;  
Reklama solig'i;  
Avtotransport vositalarini qayta sotish solig'i;  
Kichik biznes uchun yagona soliq;  
Sosial infratuzilmani rivojlantirish solig'i;  
Savdo yig'imi, shu jumladan, alohida tovarlar turlarini sotish  
licenziya yig'imi;  
Ishbilarmonlik bilan shug'ullanuvchi huquqiy hamda  
jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi;  
Avtotransportlarning vaqtinchalik turar joyi yig'imi  
solig'i;  
Obodonlashtirish ishlari yig'imi.

### Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga qarab 3 guruhga bo'linadi:

Oborotdan olinadigan soliqlar.  
Daromaddan olinadigan soliqlar.  
Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona va yer osti boyliklari qiymatidan olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo'yicha avvalgidek mahsulot sotish oborotida emas, balki, mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o'lchanadi (qo'shimcha qiymat solig'ida). Yalpi tushumdan olinadigan soliq va oborotdan olinadigan yagona soliq ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga huquqiy shaxslarning daromadiga (foydasiga), jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan va

reklamadan olingan soliqlar kiradi. Bu guruh soliqlarga ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i ham kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i, yer solig'i, yer ostidan foydalanish solig'i, ekologiya, avtomobillarni qayta sotish solig'i va boshqalar kiradi.

Har qanday davlat o'z xazinasini to'ldirish maqsadida amalga olinadigan soliq ko'rinishlari turli xillarini kiritishga harakat qiladi.

Soliq tizimining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berishimiz mumkin:

- davlat soliq xizmati organlarining tizimi;
- soliq qonunchiligining tizimi va tamoyillari;
- soliq siyosatining tamoyillari;
- byudjetlar o'rtasida soliqlarni taqsimlash tartibi;
- soliq nazoratining shakllari va usullari;
- soliq ishini yuritishning tartibi;
- xalqaro soliq shartnomalari.

Soliq tizimi iqtisodiy va siyosiy – huquqiy ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi. Soliq tizimining iqtisodiy xususiyatiga to'g'ri va egri soliq solishning o'zaro nisbati, soliq to'lovlarining harakati (dinamikasi) va boshqalar kiradi.

O'zbekiston Reapublikasi Konstitusiyasining 123-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 5-moddasiga binoan esa, O'zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va yig'imlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan o'rnatiladi va bekor qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va yig'imlar O'zbekiston Respublikasining pul birligi – so'mda hisoblanib chiqariladi.

Ushbu qonunga muvofiq daromad keltiradigan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlarni to'laydilar:

- korxonalar daromadiga solinadigan soliq;
- qo'shilgan qiymat uchun soliq;

- aksiz solig'i;
- korxonalarning mol-mulkiga solinadigan soliq;
- respublikadan tashqariga olib chiqib ketilayotgan mahsulot va xizmat ko'rsatish mahsulotlariga solinadigan soliq;
- eksport-import solig'i;
- jamoa xo'jaligi a'zolarining mehnatiga haq to'lash uchun solinadigan soliq.

Soliq to'lovlarining summasi O'zbekiston Respublikasi byudjetiga Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyat va shahar byudjetlariga va boshqa mahalliy byudjetlarga har yili kelasi yil uchun byudjet tasdiqlanayotgan davrda belgilanadigan normativlar bo'yicha o'tkaziladi. Mahalliy hokimiyat idoralari O'zbekiston Respublikasining umumiy qonun yo'nalishiga asoslangan holda o'z hududlarida olinadigan mahalliy soliqlarni belgilaydilar. Soliqlarning aniq turini belgilash hokimiyat idorasi yoki u vakil qilgan boshqa idora belgilaydi:

- soliq to'lovchi;
- soliq to'lanadigan ob'ekt;
- soliq stavkalarini;
- soliq hisoblab chiqarish va to'lash tartibini;
- soliq solish bo'yicha imtiyozlarni;
- soliqning amal qilish muddatini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan ajnabiy fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risidagi qonunda quyidagilar ifodalangan:

- soliq to'lovchilar;
- soliq solinishi lozim bo'lgan daromadlar;
- soliq yuzasidan imtiyozlar;
- ikki yoqlama soliq solishni bekor qilish.

Soliqlarni tasniflash.

Soliqlarni bir necha asoslarga ko'ra tasniflash mumkin:

Soliq to'lovchilarga qarab:

yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, daromad solig'i);

jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar (daromad solig'i);

yuridik va jismoniy shaxslar uchun umumiy bo'lgan soliqlar (yer solig'i).

Soliq solish shakliga ko'ra:

to'g'ridan-to'g'ri undiriladigan soliqlar, ya'ni soliq ob'ekti egasi to'laydigan soliq;

egri soliqlar, ya'ni tovar qiymati ustiga qo'yiladigan ustama soliqlar bo'lib, uni soliq ob'ekti egasi emas, balki boshqa shaxslar to'laydilar.

Hududiyiligi ko'ra:

umumdavlat soliqlari;

mahalliy soliqlar.

Kelib tushish manbaiga qarab:

davlat byudjetiga o'tkaziladigan davlat soliqlari;

mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan mahalliy soliqlar.

Foydalanish xususiyatiga ko'ra:

umumiy ahamiyatga ega bo'lgan soliqlar;

maqsadli soliqlar.

Undirish muddatiga ko'ra:

bir gallik soliqlar;

doimiy soliqlar.

Soliqlarni o'rnatish deganda - uni to'lovchilarni va soliq ob'ektlarini, ya'ni: soliq solish ob'ekti, soliq bazasi, soliq stavkasi, soliqlarni to'lash muddati va tartibini belgilash ma'nosini bildiradi.

Soliq qonunchiligida shu bilan birga soliq imtiyozlari ham ko'rsatib o'tilgan. Soliqlar va yig'imlar bo'yicha imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yoki u vakolat bergan davlat organi tomonidan belgilanadi.

Imtiyozlar turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin:

soliq solish ob'ekti soliqqa tortilmaydigan minimumini belgilash;

soliq solishdan soliq ob'ekti ma'lum bir elementlarini chiqarish;

soliq to'lovchilarning ayrim toifalarini yoki ayrim shaxslarni soliq solishdan ozod qilish;

soliq stavkalarini pasaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni rivojlantirish yo'lida» nomli qarorida islohotlarning soliqlar tizimida amalga oshiriladigan

tamoyillari haqida alohida to'xtalgan. Islohotlarning maqsadi esa, soliqlarni ixchamlashtirish, ularni osonlashtirish iborat. U quyidagi tamoyillar orqali amalga oshirilishi lozim.

**Birinci tamoyil,** korxonalaridagi soliqlar yanada rivojlantirish, investisiyalarga ega bo'lish, yangi texnologiyalarni o'rnatish, kadrlar malakasini oshirish uchun imkoniyatlar yaratib berish.

**Ikkinchi tamoyil,** soliqlarni korxonalar va tashkilotlardan daromadlaridan emas, balki ularning foydalaridan olishga o'tish.

**Uchinchi tamoyil,** davlat va mahalliy soliqlar o'tirish mutanosiblikni o'rnatish, ya'ni mahalliy soliqlar ahamiyatini oshirish. Makroiqtisodiyotni rivojlantirishda korxonalar, hududlar tarmoqlarning ustuvorligiga katta ahamiyat berish. Bu sharoitda mahalliy soliqlar ahamiyatini ortib borishi.

**To'rtinchi tamoyil,** korxonalarni iqtisodiy kuchaytirish orqali ularning daromadlaridan hududiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yechishda hissasini oshirib borish.

Imtiyozli soliq to'lovchi korxonalariga (birjalar, tayyor mahsulot ulgurji, ta'minlovchi – sotuvchi, vositachi va savdo tarmoqlari) korxonalaridan tashqari) tuzilgan va ro'yxatdan o'tgan korxonalar kiradi va birinchi yili 25 foiz, ikkinchi yili 50 foiz miqdorda soliq to'laydilar.

Soliqlardan ozod etiluvchi korxonalariga xizmat qilayotgan xodimlarning 50 foizi nogironlar, 75 foizigacha maktab o'qituvchilari, bilim yurti talabalari bo'lsa yoki nogironlar uchun zarur bo'lgan mahsulotlarning ishlab chiqaruvchi korxonalar, ijtimoiy tashkilotlar, yoshlar jamg'armalari va boshqa shunga o'xshash tashkilotlar kiradi.

Respublikada soliq tizimi va soliq undirish darajalari bozorni iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tib borishida, uning iqtisodiy qonunlari talabiga qarab takomillashtirib boriladi.

Jismoniy shaxslar har yili soliq deklarasiyasini to'ldirish borishlari kerak. Bu hujjat jismoniy shaxs tomonidan yil ichida topgan daromadidan soliq to'lash miqdorini kuzatishni ta'minlaydi.

Korxonalar birlashma va tashkilotlardan hamda aholidan

olib beriladigan soliqlar Respublika davlat byudjetiga tushib, ular bilan zaif, kam ta'minlangan oilalar, nafaqalar, studentlar va yolg'iz bolalar onalarni ijtimoiy himoya qilishga byudjetdan foydalaniladigan maorif sosial ta'minot, sog'liqni saqlash tashkilotlari xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishga va davlat boshqaruv apparati talablarini qondirishga sarflanadi.

### 3. Davlatning fiskal siyosati va iqtisodiy barqarorlik

Davlatning fiskal siyosati – hukumat tomonidan davlat ehtiyojlari va soliq solish tartibiga kiradigan o'zgarishlardir. Davlatning asosiy maqsad to'la bandlik va to'la ishlab chiqarish hajmiga oshirishdir. Davlatning fiskal siyosati soliqlarni undirish va byudjet mablag'larining makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda ijtimoiy masalalarni hal etish maqsadida hukumat imkoniyatlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Fiskal siyosatning asosiy dastagi soliq stavkasini ishlab chiqishdir. Davlatning fiskal siyosati soliq stavkasini ishlab chiqishni shakllantiradi va uning o'zgarishini ta'minlaydi.

Soliq siyosatini takomillashtirish iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va moliyaviy ahvolini mustahkamlashga oid muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning mohiyati quyidagilardan iborat:

– bozor munosabatlariga o'tish sharoitida soliqlar iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo'lib qoladi;

– avvalo soliq tizimi o'ziga xos vazifani fiskal xazinani to'ldirish, qayta taqsimlash va rag'batlantirish vazifasini to'la darajada bajarishi kerak;

– soliqlar xazinani to'ldirish siyosatini asosiy unsuri bo'lib, davlat byudjetini daromad qismi eng muhim umumdavlat xalq xo'jaligi vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan miqdorda shakllanishini ta'minlashi lozim;

– soliq tizimi aniq maqsadga qaratilgan moliyaviy siyosat bilan birgalikda, yalpi milliy mahsulotning bir qismini qayta taqsimlaydi va shu tarzda iqtisodiyot tuzilishini o'zgartirishda, aholini ijtimoiy himoyalash kafolatini ta'minlashda bevosita ishtirok etadi;

– soliq tizimining eng muhim vazifasi ishlab chiqarishni rivojlantirishga moddiy xom ashyo, tabiiy, moliyaviy va mablag'lar resurslaridan to'plangan mol–mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir.

Moliya, bank va soliq tizimlari bozor infrastrukturasi tarkibiy qismi hisoblanar ekan, demak, bu tizimlarda juda ko'p ta'xil ma'lumotlarni yig'ilishi tabiiy. Bu ma'lumotlarni yig'ishni qayta ishlash muammolari mavjud. Bularni ishlashni telekommunikasiya va yo'ldosh aloqalaridan hamda kompyuter vositalaridan keng foydalangandagina hal qilib bo'ladi. Bunga misol sifatida hukumatimiz huquqiy asos yaratdi, ya'ni «Axborotlashuv va ma'lumotlar bazalarini huquqiy himoyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari va «O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish konsepsiyasini ma'qullash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Bu qonunlar va qarordan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda Respublikani kompyuterlashtirishni davr talab etmoqda va bunga keng yo'l ham ochilmoqda.

Hozirgi kunda bank va soliq tizimlarini axborotlashuvni maqsadida bir qator qarorlar qabul qilindi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasi soliq organlarida ma'lumotlarni qayta ishlaydigan yagona kompyuter tizimini yaratish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 avgustda 146 sonli qarori qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 18 martdagi «Bank tizimini takomillashtirish, pul kredit munosabatlarini barqarorlashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi 146 sonli qarorida esa, bank tizimini ham kompyuterlashtirish masalasi qo'yilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya bank va soliq sohasida bir–biriga mukammal bog'liq bo'lgan jabhalardir. Shuning uchun bu jabhalarning yagona avtomatlashtirilgan (integrallashtirilgan ma'lumotlar) tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Bu tizimini yaratish va joriy etishdan asosiy maqsad axborotni yig'ish, uni qayta ishlash va tahlil qilishda ko'p mehnat qilinishini kamaytirish, moliya rejalarini ko'p variantda hisob–kitob qilish va ularni eng maqbul tarzda bir–biri bilan muvofiqlashtirish, moliya

sohasidagi apparatlarini yaxshilash asosida moliya boshqaruvida samarali o'zgarishlarga erishishdan iboratdir. Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan boshqarishda yagona integrallashtirilgan moliya, bank va soliq jabhalarning ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati katta.

## Asosiy atama va tushunchalar

Soliq, soliq tizimi, soliq stavkasi, to'g'ri soliqlar, egr soliqlar, soliq imtiyozlari, umumdavlat soliqlari, mahalliy soliqlar, soliq tizimlari, soliq ob'ekti, soliq sub'ekti.

## 19-mavzu. MOLIYA TIZIMI DAVLATNING MOLIYA-BYUDJET SIYOSATI

### 1. Moliyaning mohiyati va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti iqtisodiy islohotlar strategiyasi va yo'lini shakllantirish mexanizmlaridan biri «moliya va soliq siyosati sohasida... - qattiq moliyaviy siyosatni amalga oshirish... xalq to'raligi tarmoqlarini, ayrim korxonalarni rivojlantirish uchun byudjetdan pul bilan qaytarmaydigan qilib ta'minlash amaliyotidan voz kechish. Ana shu maqsadlar uchun investitsiya kreditlaridan keng foydalanish, ...barqaror pul ta'minlash, kredit va naqd pul emissiyasini, jami pul massasining asossiz o'sishini keskin cheklash, ...narx belgilash siyosatini yanada tartibga solish, bozorni tartibga solib turuvchi, vosita sifatida narxning rolini mustahkamlash»dan iborat degan edi<sup>60</sup>.

Moliya tarixiy xarakterga ega bo'lgan iqtisodiy toifa hisoblanadi. U bozor munosabatlari sharoitida davlatning vazifalari va ehtiyojlarini rivojlantirib borish ta'siri ostida vujudga keladi. Moliya atamasi lotincha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, to'lov daromad ma'nosini anglatadi.

Moliya – pul mablag'lari fondlarini, moliyaviy kreditlarni taqsimlash va ulardan foydalanish xususiyati vujudga keladigan munosabatlar tizimidir. Maxsus fondlar orqali harakat qiluvchi pul munosabatlari moliya munosabatlarini tashkil etadi. Moliya

<sup>60</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston 1998. 190–191 betlar.



munosabatlari pul munosabatlarining bir qismi bo'lib, davlat byudjeti, jamoatchilik fondlari, sug'urta fondlari, davlat va shirkat rezervlari, firmalar, tashkilotlar va shunga o'xshashlarning pul munosabatlarini qo'llash uchun qo'llaniladigan fondlari va boshqa maxsus fondlar moliya tizimining muhim bo'g'inlarini tashkil etadi.

Moliya munosabatlari pul munosabatlarining muhim qismini tashkil etadi. Ular pul munosabatlarini taqsimlash va ulardan foydalanish xususida vujudga keladigan munosabatlar tizimidir. Xo'jalik faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ya'ni takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan pul zahiralari jamg'armalarini hosil qilish va ulardan foydalanish moliya tizimi mamlakat moliyasini tashkil etadi.

Xullas, moliyaviy munosabatlar deyilganda, pul mablag'larini jamg'armalarining harakati tufayli davlat, korxonalar, tashkilotlar, hududlar va fuqarolar o'rtasida vujudga keladigan barcha iqtisodiy munosabatlar tushuniladi. Moliya davlatning xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy munosabatlarni quyidagi qismlarga bo'lish mumkin:

- davlat bilan korxonalar o'rtasidagi munosabatlar;
- korxonalar bilan banklar o'rtasidagi munosabatlar;
- korxonalar ichidagi, bo'limlararo va ishchilar o'rtasidagi xo'jalik aloqalari;
- boshqaruvning turli darajasidagi davlat tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlar;
- davlat bilan uyushmalar, jamot tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlar;
- davlat bilan aholi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar.

Barcha pul munosabatlari ham moliyaviy munosabatlar bo'lmaydi. Shaxsiy iste'molga va ayirboshlashga, chakana sotuvga, transportga, maishiy, kommunal xizmatlarga, tomshaxonalar va boshqalarga to'lov uchun, shuningdek, jamiyatning ayrim a'zolari o'rtasidagi oldi-sotdi muomalasi, pul tortiq etish va meros qilib olish uchun xizmat qiladigan pul mablag'lari moliyaviy munosabatlariga kirmaydi.

Davlat bilan aholi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar avvalo, davlat tomonidan turli ijtimoiy iste'mol darajalarini qondirish xarajatlaridan turli to'lovlar, nafaqalar va imtiyozlar olish munosabati bilan yuzaga keladi.

Ta'limga, davolashga, aholiga tekin yoki arzonlashtirilgan mahsulot beriladigan buyumlarga qilinadigan chiqimlarni qoplashga qo'llaniladigan mablag'lar davlat tomonidan turli ijtimoiy himoyalash darajalarini qondirish harajatlariga kiradi.

Moliyaviy munosabatlar aholi soliqlarini hamda aholining pul mablag'larini, lotereyalar ko'rinishida davlatga beriladigan qarzlarini, shakllarga omonat tarzda qo'ygan vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larni ham o'z ichiga oladi.

Davlat o'z navbatida uy-joy qurish, qimmatbaho tovarlarni yaratish va olish va boshqa maqsadlar uchun aholiga kredit beradi.

Davlat moliyasi moliya tizimining asosini tashkil etadi. Davlat moliyasining asosiy bo'g'ini esa davlat byudjetidir.

Davlat moliya tizimi yordamida yalpi milliy mahsulotni taqsimlaydi va qayta taqsimlashni amalga oshiradi. Moliya tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat faoliyatining moddiy asoslarini yaratish;
- davlat yalpi milliy mahsulotlarining bir qismini pul munosabatlar ko'rinishida o'z qo'lida jamlaydi va moliya tizimi yordamida uni davlatdan taqsimlaydi.

Umuman olganda, moliyaning vazifalari uch guruhga bo'linadi.

1. **Taqsimlash** – bunda moliya vositasida jamiyatda yaratilgan yalpi milliy mahsulot va uning asosiy qismi bo'lmish davlat va jamiyat daromad xo'jalik sub'ektlari o'rtasida taqsimlanib, pul mablag'lariga aylantiriladi.

2. **Rag'batlantirish** – moliya o'z vositalari orqali xo'jalik sub'ektlarini iqtisodiy faollikka undaydi. Bunda moliya vositalari bo'lib moliya tizimida ishlatiladigan soliqlar, to'lovlar, imtiyozlar, subsidiyalar va subvensiyalar hisoblanadi.

3. **Ijtimoiy himoyalash** – bu jamiyat a'zolari ma'lum muhtojatlarining minimal tirikchilik yuritishni moliyaviy jihatdan ta'minlash, ya'ni moliyaviy kafolatlashdan iborat.

Davlat pul fondlarini shakllantirish va ishlatishni nazorat qiladi, ya'ni moliya tizimi yordamida davlat turli soliqlar va daromadlarni byudjetga yig'ish, ular o'rtasida belgilangan munosabatlariga rioya etilishi ustidan nazorat o'rnatadi. Moliya tizimi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy faoliyati, jamiyatning iqtisodiy faoliyatining yakunlari xususida axborot berish,

aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalash va mablag' bilan ta'minlash vazifalarini ham bajaradi.

Turli xarajatlar, foyda, ish haqi, soliqlar, qarz to'lovlari, sug'urta haqi, boj to'lovlari va shunga o'xshash boshqa to'lov va ajratmalar moliyaviy vositalar hisoblanadi.

Ular asosida moliyaviy zaxiralar, ya'ni turli pul fondlari shakllanadi.


Moliyaviy zahiralar markazlashgan, ya'ni umumdavlat va jamiyat miqyosida hamda korxonalar, tashkilot, firma va jamoat uyushmalari doirasida ham bo'lishi mumkin.

Markazlashgan moliyaviy zahiralar umumxalq ehtiyojlari uchun sarflansa, kichik moliyaviy zahiralar o'sha xo'jaliklarning ehtiyojlari va faoliyatlari uchun sarflanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida foydalanilmayotgan, vaqtincha ortiqcha bo'lgan mablag'lar moliya bozorida sotiladi. Moliya bozori – valyuta bozori, qimmatbaho qog'ozlar bozori, investitsiya bozori va ssuda kapitali bozorini o'z ichiga oladi.

Moliya bozori valyuta bozorida odatda valyuta sotish va sotib olish operatsiyalari, qimmatbaho qog'ozlar bozorida (aksiyalar, veksellar, sertifikatlar) sotish va sotib olish operatsiyalari, investitsiya bozorida investitsiya, ya'ni kapitallar sotish, sotib olish operatsiyalari va nihoyat ssuda bozorida, asosan, ssuda kapitali banklar orqali sotish va sotib olish operatsiyalari amalga oshiriladi.

Markazlashgan moliyaviy zaxiralar makromoliya, kichik moliya zahiralar mikromoliya (1- rasm) deb ataladi.



1-rasm. Markazlashgan moliyaviy-zahiralar tarkibi

Prezidentimiz – «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi» ma'ruzalarida Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qanday investitsiya muhitini yaratilgani asosiy omil bo'lib qolmoqda, 2008 yilda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan 6,4 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb etildi. Bu 2007 yil bilan taqqoslaganda, 2,3 foizga ko'p bo'lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan investitsiyalar hajmi 23 foizni tashkil etdi. O'zlashtirilgan barcha investitsiyalarning 50 foizga yaqini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga yo'naltirilganini ta'kidlash darkor»<sup>61</sup> degan edilar.

Aksiyalar qimmatbaho qog'oz bo'lib, uning egasiga foyda va dividend keltiradi. Aksiya egasini shu aksiyani chiqargan korxonalar kapitalida ma'lum hissasi borligini anglatadi. Ular oddiy va imtiyozli bo'ladilar. **Oddiy aksiya** egasi oladigan dividend korxonalar daromadlariga bog'liq bo'ladi va uning egasi aksionerlik jamiyatida ovoz berish huquqini kafolatlaydi.

**Imtiyozli aksiya** egasiga belgilangan foiz hisobida dividend berilishini ta'minlaydi, lekin u aksionerlar yig'ilishida ovoz berish huquqiga ega bo'lmaydi.

**Obligatsiya** – bu korxonalar qarzдорlik majburiyatini tasdiqlovchi qimmatbaho hujjatdir. U ma'lum muddatga ajratiladi va har oyda yutuq tariqasida foiz to'lash kafolatlanadi. Moliya bozorida **brokerlar** vositachilik qiladilar va komission foiz oladilar. **Dillerlar** esa, qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish va sotilishni amalga oshiradilar va ma'lum foydani o'zlashtiradilar.

## 2. Davlat byudjeti va uning tuzilishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov davlat byudjetini mustahkamlashga va undan samarali foydalanish yo'nalishida: «Davlat byudjeti defisitini iloji boricha kamaytirish, byudjetdan beriladigan dotasiyalar va subsidiyalarning turlarini

<sup>61</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. O'zbekiston ovozi, 2009 yil 14 fevral

bosqichma-bosqich qisqartirib borish, byudjet mablag'lari davlat tushganidan keyingina taqsimlashtiradigan yo'ldan og'ishmay bo'lgan birinchi darajali, eng zarur umumdavlat ehtiyojlari uchun byudjetdan mablag' ajratish,... soliq tizimini takomillashtirish, byudjet daromadlari barqaror suratda to'ldirib turilishini ta'minlaydigan iste'moli mollari ishlab chiqaradigan korxonalarining rivojlanishiga rag'batlantiradigan pishiq – puxta soliq siyosatini olib borish degan edi'.

**Davlat byudjeti** – bu umumjamiyat miqyosida markazlashgan davlat ishtirokida hosil bo'luvchi va sarflanuvchi moliyaviy resurslar bo'lib, moliya tizimining asosiy bo'lagi hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotini ma'lum maqsadda rivojlantirish, turli markazlashgan jamg'armalar, avvalo, umumdavlat pul mablag'lari fondini – davlat byudjetini tuzish yo'li bilan ta'minlanadi.

Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining markaziy bo'lagi vazifasini o'taydi.

Davlat byudjetining asosiy vazifasi moliya yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish, turli markazlashgan jamg'armalar, avvalo, umumdavlat pul mablag'lari fondini – davlat byudjetini tuzish yo'li bilan ta'minlanadi.

Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining markaziy bo'lagi vazifasini o'taydi.

Davlat byudjetining asosiy vazifasi moliya yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi ijtimoiy vazifalarni hal etish uchun zarur sharoitlarni yaratish iborat.

Turli mamlakatlarda davlat byudjetini tuzish va unda foydalanishning bir qancha umumiy xususiyatlari bor. Davlat byudjetining umumiy ko'rinishi (2-rasm) da keltirilgan.

Mamlakat rivojlanishining ayrim bosqichlarida moliya siyosatini yuritishning asosiy quroli bo'lgan davlat byudjeti o'zining tarkibi va sarflanish mohiyatiga ko'ra jiddiy farqlanadi.


O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti mamlakatimizning har yili oladigan daromad va xarajatlari hisobidan iboratdir.

Sub'ektlarning to'la xo'jalik hisobiga o'tib ishlashi natijasida ilgari respublikamiz byudjetiga tushadigan foydaning katta qismi korxonalar va birlashmalarda qoldiriladigan hamda ish haqi yoki rag'batlantirish vositasi sifatida foydalanadigan bo'ldilar.

Bundan tashqari, davlat byudjetining ijtimoiy–madaniy hamda

ijtimoiy himoyalashga sarflanadigan mablag'lari ko'paydi.

Aholining iqtisodiy moliyaviy nochorligiga taqsimotning pastligi hisoblanadi, balki ishlab chiqarish samaradorligining pastligi



2-rasm. Davlat byudjetining umumiy ko'rinishi

asosiy sababdir. Chunki, mehnat unumdorligining pastligi, ish xarajatlarning yuqoriligi ishlab chiqarish natijalarining salmog' sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Moddiy boyliklar ta'minlanmagan kapital mablag'larning sarflanishi tugallanmagan qurilish ob'ektlarini ko'payishiga olib keladi. Natijada korxonalarni o'z vaqtida ishga tushirilmay qolishi ham oqibatli. Bu mablag'larni qoplash uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga salbiy ta'sir etadi.

Natijada davlat byudjetiga tushadigan mablag' kamayadi. Bu esa byudjet kamomadining ortib borishiga olib keladi.

Moliyaviy tanglikdan chiqish yo'llaridan biri iste'mol mollarini aylanmasi keskin oshirish, iste'mol bozoridagi ahvolni tubdan yaxshilashdir.

Byudjet taqchilligining oldini olish bilan iqtisodiyotni moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, yetishtirilgan xomashyo va mahsulotlarni shaharning o'zida qayta ishlash, tayyor mahsulotga aylantirish orqali barham berish mumkin.

Davlat byudjeti intizomiga rioya qilish iqtisodiyotni barqarorlashtirishning asosiy omillaridandir.

### 3. Byudjet kamomadining muammolari va davlat qarzi

Davlat byudjetining xarajat qismi daromad qismidan ortib ketrsa, byudjet kamomadi tashkil topadi. Byudjetning kamomadi o'zida davlat qarzi degan ma'noni aks ettiradi. Davlat qarzi ikki turga bo'linadi:

1. Davlatning tashqi qarzi;
2. Davlatning ichki qarzi.

Davlatning tashqi qarzi deganda, uning tashqi davlatlarga, har xil moliyaviy uyushmalarga, xorijiy firmalar va alohida shaxslarga qarzi nazarda tutiladi. Davlatning ichki qarzi deganda, firma, kichik korxonalar, jamoa korxonalar va o'z xalqidan olgan qarzidir. Byudjet taqchilligi bilan davlat qarzi bir-biriga bog'liqdir. Chunki byudjetni tartibga solish masalasi har qanday hukumatning oldida turgan markaziy masaladir.

Byudjetni tartibga solishning uch tamoyili mavjuddir:

Birinchi tamoyil – davlat byudjeti har yili balanslanishi kerak.

Ya'ni davlat byudjetiga doimiy ravishda tashqi va ichki ishlab chiqarishdan kelib chiqqan holda o'zgartirishlar kiritishdan iboratdir. Bu usul davlat fiskal siyosatining samaradorlik darajasini oshirishga olib keladi.

Ikkinchi tamoyil – davlat byudjeti har yili emas, balki iqtisodiy sikl davrida balanslashtirilishi kerak degan g'oyani ilgari suradi.

Bu tamoyilda odatda iqtisodiy krizisga qarshi kurashda soliqlar me'yori kamaytiriladi, ishlab chiqarish xarajatlari esa kamaytiriladi, natijada bu byudjet kamchiligiga olib keladi.

Uchinchi tamoyil – byudjet emas, balki iqtisodiyotning o'zi balanslashtirilishi lozim, degan fikrni asosiy qoida qilib olinadi.

Iqtisodiyotning yuksalish davrida esa davlat soliq me'yorlarini ko'taradi va davlat xarajatlarini kamaytiradi. Natijada byudjet ijobiy saldogga ega bo'ladi.

Bunda moliyaning asosiy vazifasi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdir. Iqtisodiy o'sish byudjetga soliqlar tushumini ko'paytiradi, makroiqtisodiy barqarorlik esa, uni ta'minlaydi.

Davlat byudjeti taqchilligini bartaraf etishning asosiy yo'llari quyidagilardan iboratdir:

- ishlab chiqarishni kengaytirish, mehnat unumdorligini oshirish vositasida yalpi milliy daromadning o'sishiga erishish;
- ma'muriy–boshqaruv, mudofaa va boshqa turdagi xarajatlarni kamaytirish hisobiga byudjetning xarajat qismidan daromad qismining ortiq bo'lishini ta'minlash;
- ilmiy texnika yutuqlaridan foydalanish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni yangi texnika bilan qurollantirish hisobiga milliy daromadni keskin ko'paytirish;
- jahon bozoriga xomashyo chiqarish o'rniga ularni qayta ishlab, tayyor mahsulot sifatida chiqarish ham mamlakat milliy daromadini ko'paytirish yo'llaridan biridir.

Hukumat o'z mamlakatini iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan holda, byudjet siyosatini ishlab chiqadi. Bunday siyosat

mamlakatning mablag' imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladigan ishlar majmuidan iborat bo'lgan hukumatning moliyaviy faoliyati dasturi bo'lishi lozimligini, byudjet taqchilligi ustida qat'iy nazorat o'rnatilishini, uni qoplash manbalari ko'rsatishni juda katta iqtisodiy samara beradigan iqtisodiy dasturlarga byudjetdan mablag' ajratishni talab etadi.

## 20-mavzu. MAKROIQTISODIY MUVOZANAT SHARTLARI.

### MILLIY DAROMAD DARAJASINI ANIQLASH

#### 1. Makroiqtisodiy muvozanat tushunchasi

Prezident I.Karimov «Iqtisodiyot barqaror ishlab turgan taqdirdagina bozor munosabatlariga muvaffaqiyatli o'tish mumkin», – degan edi<sup>62</sup>.

Alohida bozorlardagi muvozanatga juz'iy muvozanat deyiladi. Ammo bozor iqtisodiyoti iste'mol buyumlari va ishlab chiqarish bozori moliya va ish kuchi bozori, ilmiy-texnikaviy va axborot bozori va boshqa turdagi bozorlar tizimidan iborat. U muvozanatdami yoki yo'qmi ekanligini turli tovarlar narxlarining nisbati bilan belgilanadi. Masalan: bugun 1000 so'mga o'nta non, 1 kg yog', 1,5 kg shakar sotib olish mumkin, deb faraz qilamiz.

Agar ma'lum muddatdan keyin 1000 so'mga sotib olish mumkin bo'lgan tovar miqdori nisbati saqlanib qolsa, demak o'sha muddatda iqtisodiyot umumiy (makroiqtisodiy) muvozanat holatida bo'ladi, deb hisoblanadi. Ammo hayotda makroiqtisodiy muvozanat iqtisodiyotning ideali, normal bir holatidir. Binobarin, juz'iy muvozanat alohida bozordagi talab va taklifning o'rtasidagi muvozanatga mos keladi. Umumiy muvozanat esa, o'z navbatida esa hamma bozorlarni muvozanatlashtirilgan va kelishilgan holda harakat qilishini aks ettiradi. Bunday bo'lishi uchun esa, iqtisodiyotda jami taklif va jami talab o'rtasida muvozanat ta'minlanmogi lozim.

«Isloh qilishning hozirgi bosqichidagi ikkinchi eng muhim vazifa – ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ham korxonalar, tarmoqlarning, ham umuman davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishishdan iborat», – degan edi I.Karimov<sup>63</sup>.

Makroiqtisodiyot darajada jami talab va jami taklif muvozanati narxlar va ishlab chiqarish jarayonida muvozanat o'rnatilishini ta'minlaydi. Bu iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga olib keladi.

#### 2. Jami talab va jami taklif

Bozor – tovar ishlab chiqarish, ya'ni sivilizasiya mahsuli va rivojlanib borayotgan umuminsoniy boylikdir. Bozor – iqtisodiy kategoriya sifatida u iste'molchi va ishlab chiqaruvchilar, sotuvchi va xaridorlar o'rtasidagi munosabatlar majmuidir. Lekin bu munosabatlar ma'lum qonun-qonuniyatlar asosida yuzaga keldi. Jamiyatning rivojlanishi talab va taklif iqtisodiy qonuni asosida talab va taklif o'rtasidagi muvofiq darajasiga bog'liq. Talab – bu iste'molchilarni tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarni pul va boshqa to'lov vositalari bilan ta'minlangan darajasidir. Chunki, u ana shu to'lov qobiliyati darajasida ma'lum miqdorda tovarlarni yoki xizmatlarni sotib oladi.

Talabga ta'sir etuvchi omillar, bu avvalo, aholining pul daromadlari, bozor hajmi va mollar narhi, iste'molchilarga berilayotgan imtiyozlar, bir mol o'rniga ishlatilishi mumkin bo'lgan, boshqa tovarlarning mavjud yoki mavjudmasligidir. Talab qonuni bu jamiyat a'zolarining iste'mol buyumlarini va xizmatlarni xarid qilish darajasi belgilab beradi. Jami taklif deganda (AS) iqtisodiyot ishlab chiqaradigan hamma tovar va xizmatlar tushuniladi yoki mumkin bo'lgan har bir narx darajasidagi ishlab chiqarishning real hajmi tushuniladi. Jami taklifning modeli AS egri chizig'i bilan ifodalangandir (rasm 1).


Jami talab (AD) har qanday narxlar darajasida iste'molchilar, tadbirkorlar va davlat tomonidan sotib olishni mumkin bo'lgan

<sup>62</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 158 bet.

<sup>63</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 332 bet.

jami mahsulot. Jamiyat ahli tomonidan mavjud tovarlar va xizmatlar ko'rsatishga bo'lgan talab umumiy talab yoki jami talab deyiladi, u grafik ravishda 1-rasmida AD egri chizig'i ko'rinishida berilgan. Jami talab mamlakatda har qanday narx darajasida iste'molchilar sotib olishi mumkin bo'lgan jami tovarlar va ko'rsatilishi mumkin bo'lgan xizmatlardir. Jami taklif deganda AS egri chizig'i bilan belgilangan iqtisodiyot ishlab chiqargan va sotilishi mumkin bo'lgan hamma tovar va xizmatlar tushuniladi yoki mumkin bo'lgan har bir narx darajasiga ishlab chiqarishning real hajmi tushuniladi. Jami talab va jami taklifga, avvalo, narxlar darajasi ta'sir ko'rsatadi.

Narx qancha yuqori bo'lsa, ishlab chiqarishning hajmi shuncha katta bo'ladi. Jami taklif (AS) bilan narxlar darajasidagi o'zgarishlar to'g'ri proporsional, jami talab (AD) bilan esa teskari proporsional bog'liqdir.



1-rasm. Jami talab va jami taklif egri chizig'i

- 1-klassik qism
- 2-oraliq qism
- 3-oraliq qism

Jami talabga quyidagi g'ayri narxiy omillar ta'sir ko'rsatadi: aholi daromadlari, investision sarflardagi o'zgarishlar, eksport va import daromadlari. Yuqorida sanab o'tilgan omillar natijasida

jami talab egri chizig'i o'ngga, yuqoriga (jami talabning o'sishi), chapga pastga (jami talabning kamayishi) siljiydi.

Jami taklifga bir qator narx-navoga bog'liq bo'lmagan omillar ham ta'sir ko'rsatadi, bular: resurslarga, baholarning o'zgarishi, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga bog'liqdir. Ushbu omillarning o'zgarishi ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatadi va AS egri chizig'ini siljitadi. Uning chapga siljishi jami taklifning pasayishidan dalolat beradi, bu hol esa, asosan, ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi bilan bog'liqdir. O'ngga siljishi jami taklif ortishi bilan bog'liqdir. Jami talab va jami taklif egri chizig'ining kesishish nuqtasi bozordagi muvozanat holatiga to'g'ri keladi. U ishlab chiqarishning muvozanat hajmiga va unga mos bahoning muvozanat darajasini ko'rsatadi.

### 3. Makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash

Jami talab AD va jami taklif AS va umumiy iqtisodiy muvozanatni ko'rsatuvchi, E nuqtasi (rasm-2) aks ettirilgan:

Har qanday milliy iqtisodiyotda qandaydir real chegaraviy milliy mahsulotning hajmi bo'ladi.

Agar milliy mahsulotning hajmi ana shu chegaradan oshib borsa, inflyasiya jarayonlar kuchayishiga olib keladi (bizning rasmda bu Q potensial nuqtaga to'g'ri keladi). Real milliy mahsulotning chegaraviy miqdori iqtisodiyotning tarkib topgan tuzilishi bilan aniqlanadi va har doim majburiy ishsizlikning ma'lum darajasiga mos keladi.

Agar joriy ishlab chiqarish chegaraviy miqdordan past bo'lsa (masalan, E<sub>1</sub> nuqta), jami talabni rag'batlantirish orqali ishsizlik darajasini sezilarli darajada kamaytirish mumkin bo'ladi.


Bunga soliqlarni pasaytirish, pul massasini ko'paytirish va davlat sarflarini ko'paytirish orqali erishish mumkin.

Agar aksi bo'lsa (E<sub>2</sub> nuqtada), unda iqtisodiyotda inflyasion jarayonlar kuchayadi, natijada tovar va byudjet kamomadi ko'payadi. Bunda jami talabni qisqartirish yo'li bilan iqtisodiyotni E nuqtadagi darajasiga yaqinlashtirish zarur bo'ladi.

Bunga esa soliqlarni ko'tarish, pul massasini qisqartirish va davlat sarflarini kamaytirish orqali erishiladi.

Ammo ushbu uchta vositani davlat har doim samarali ishlatmaydi. Qanchalik umumiy iqtisodiy muvozanat holatda bo'lsa, shunchalik uni ushbu holatga qaytarish qiyin bo'ladi.

Agarda o'ta qattiq barqarorlashtiruvchi siyosat olib borilsa, bu taklifni o'ta kamaytirib yuborishlari mumkin.



2-rasm. Umumiy iqtisodiy muvozanat

Bu esa AD egri chizig'i tasniflari bilan aniqlanuvchi narxlarning o'sishiga olib keladi. Buning natijasida ishlab chiqarish tanazzuli, inflyasiya mavjud bo'ladi. Aksincha, jami talabni rag'batlantirish natijasida inflyasiyaning o'sishini ma'lum darajada yumshatish mumkin, inflyasiyaning pasayishi bu vaqtning o'zida qo'llanilgan choralar natijasida albatta (AS<sub>2</sub> egri chizig'i) jami taklif hajmini o'sishini ifodalaydi.

### Iqtisodiyotni tartiblash muammolari

AS jami taklifning egri chizig'i u har xil narxlar darajasida ishlab chiqariladigan milliy mahsulot (1-rasm) hajmini ko'rsatadi va uchta bo'lakdan iborat bo'ladi: 1) vertikal yoki klassik qismi, bunda milliy mahsulot hajmi «to'la bandlik» darajasida doimiy turadi, narxlar darajasi o'zgarishi mumkin; 2) oraliq qismi, bunda milliy mahsulot hajmi o'zgaradi, narxlar darajasi doimiy hisoblanadi; 3) gorizontaal (keynscha) qismi sezilarli ishsizlik

davrida mahsulot birligiga xarajatlarni va narxlar darajasini oshirmay turib ishlab chiqarishni keng aytirish mumkin.

AD – jami talabning egri chizig'i shuni ko'rsatadiki, qanchalik narxlar darajasi past bo'lsa, shunchalik milliy mahsulot hajmi ko'proq sotib olinadi.


Klassiklar nuqtai nazaridan, bozor iqtisodiyotida mavjud mexanizm, to'la bandlik sharoitida ishlab chiqarish hajmini oshirib (vertikal qismi) beradi. Jami taklifning miqdorini o'zgarishi narxlarning o'zgarishi natijasida vujudga keladi. Jami taklif o'zgarishi ishlab chiqarish hajmiga, to'la bandlikka ta'sir qilmaydi. Sababi jami taklifning bog'liqligidir (Sey qonuniga muvofiq). Haqiqatdan ham shunday. Jami taklifning ortishi, ya'ni tovar va xizmatlarning ishlab chiqarish hajmini ortishi daromadlarni ortishi demakdir.

Klassik modelga muvofiq iqtisodiyotda muvozanatni ushlab tutuvchi narxlarning tebranishi, faqat tovar va pul bozorida emas, balki resurslar bozorida, avvalo, mehnat bozorida amalga oshadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: «Sivilizatsiyalashgan bozor sharoitlarini vujudga keltirish erkin narx belgilash mexanizmi mahsulotni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida ayrim tovar ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va butun jamiyatning manfaatlarini eng maqbul darajada uyg'unlashtirish imkonini beradi», degan edi<sup>64</sup>.

Tovar bozorlarida narxlarning pasayishi ishlab chiqarishning qisqarishiga, bu esa ishsizlikning vujudga kelishiga olib keladi, agarda ish haqi darajasi o'zgarmasa, ish kuchining taklifi talabdan yuqori bo'ladi. Ishchilar ishsiz qolish havfi ostida kamroq ish haqiga ko'nishga majbur bo'ladilar. Ish haqi stavkasi tadbirkorga hamma ishlovchilarni ish haqi berib yollash foydali bo'lguncha davom etadi. Bu esa ish kuchining to'la bandligiga olib keladi.

Dj.Keyns jami talab jami taklifni yuzaga keltiradi, degan fikrni ilgari suradi.

<sup>64</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajaksari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 253 bet.



3-rasm. Makroiqtisodiyotning Keynscha talqini

Agarda jami talab etarli bo'lmasa, unda ishlab chiqarish hajmi to'la bandlik sharoitidagiga teng bo'lmaydi. Narxlarning o'zgaruvchan emasligi natijasida iqtisodiyot yuqori ishsizlik va turg'unlik holatida bo'ladi. Grafik (3-rasm) ko'rinishida o'zgaruvchan bo'lmagan narxlarda Dj. Keynsning modelida jami taklifning gorizontal hajmiga yetganda, u vertikal ko'rinishiga ega bo'ladi.

Agarda biz taklif miqdori ishlab chiqarishni real hajmi talab bilan aniqlanadi, degan qoidadan kelib chiqadigan bo'lsak, unda jami talabning pasayishi ( $AD_1$  dan  $AD_2$  gacha), ishlab chiqarish hajmini  $Q_1$  dan  $Q_2$  gacha pasayishiga olib keladi.

Mikroiqtisodiyotning keynscha talqini bo'yicha bunday vaziyatda jami talab va jami taklif potensial ishlab chiqarish darajasidan yiroqda, ya'ni resurslarni to'la bo'lmagan bandlik sharoitida muvozanatlashadi. Bunday ahvol uzoq muddat saqlanib turishi mumkin. Bu hol o'zidan-o'zi o'zgarmaydi buning oldini davlatning jami talabni rag'batlantirishga qaratilgan faol makroiqtisodiy siyosati bilan olish mumkin bo'ladi.

Yuqorida qayd qilingan qarashlar nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

## Asosiy atama va tushunchalar

Juz'iy muvozanat, makroiqtisodiy muvozanat, jami talab, jami taklif, narxga bog'liq bo'lmagan omillar, jami taklifning gorizontal qismi, jami taklifning gorizontal (keynscha) qismi, davlatning makroiqtisodiy siyosati.

## II-mavzu. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIIY SIYOSATI

### I. Aholi daromadlari va ularning shakllanish manbalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish bozor iqtisodiyotining asosiy muammosi hisoblanadi. Chunki – barcha islohotlarning – iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi Insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat», – degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarida<sup>65</sup>.

Jamiyat taraqqiyoti moddiy ne'matlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lib, yaratilgan jami ijtimoiy mahsulotdan sarf etilgan moddiy va mehnat resurslari xarajatlari qoplangandan so'ng qolgan mahsulot milliy daromad tariqasida shakllanadi. Jamiyat taraqqiyotining omillari mehnat investitsiya va yer egalari o'rtasida dastlab ishlab chiqarish ne'matlari taqsimlanadi. Taqsimot mikroiqtisodiyot darajasida korxonalar va turli xo'jalik birlashmalari o'rtasida amalga oshiriladi.

Bu ish haqi, foyda, foiz va yer rentasi shaklidagi daromadlardan iborat bo'ladi. Bu daromadlar boshlang'ich va qayta taqsimot bosqichlaridan o'tadi. Bu jarayon moddiy ishlab chiqarishda bevosita taqsimot etganlardan tashqari qayta taqsimotga ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaganlar ham ishtirok etadi.

Ish haqi jami daromadlar qismida asosiy bo'lakni tashkil

<sup>65</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajaksari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 282 bet.



etadi. Ish kuchi bu insonning moddiy ishlab chiqarishda foydalanadigan mehnatga layoqatli bo'lib, jismoniy va ruhiy kuch omillaridir. Mehnat esa kishilarni biror maqsadga qarshilik faoliyati, ish kuchidan foydalanish jarayoni. Ish kuchi va mehnat tushunchalari bir-birlaridan farq qiladilar. Ish kuchi tadbirkor bilan bitim tuzish orqali ma'lum muddatga o'z mehnatini sotib olish haqi oladi, haqiqatda esa u tadbirkorga o'z ish kuchini ishlatishni tuzilgan bitim orqali topshiradi.

Ish haqi to'lash usullari vaqtbay va ishbay ish haqi usullari bo'linadi. Vaqtbay ish haqi to'lash mehnat faoliyatini moddiy ne'matlar bilan o'chab bo'lmaydigan tarmoqlarda qo'llaniladi. Ishbay ish haqi usullari asosan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish tarmoqlarida qo'llaniladi. Ish haqiga ta'sir etuvchi omillar o'z mamlakatda shakllanadigan an'anaviy udumlar, ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarni qondirish uchun kerakli mablag'larni tashkil etadi. Eng asosiysi ishchi kuchi qiymatidir.

U bozor iqtisodiyoti sharoitida talab va taklif iqtisodiy qonuniga asoslangan holda shakllanadi. Ish haqlari nominal va real ish haqlariga bo'linadi. Nominal ish haqi bu ma'lum ish davrida bajarilgan mehnat uchun to'langan haq. Real ish haqi esa nominal ish haqini ish vaqt ichida yashash darajasini ta'minlashga ifodalaydi.

Xulosa qilib aytsak, jamiyatda aholining daromadlariga qarab tabaqalashuvi mavjud. Respublikada kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalash uchun minimal ish haqi belgilanadi va u doimiy ravishda milliy iqtisodiyot yutuqlaridan kelib chiqqan holda o'zgarib boradi. 2008 yil 1 sentyabrdan minimal ish haqi 28040 so'm qilib belgilangan. Ishlab chiqarishning ijtimoiy samarasi kishilar farovonligi, ya'ni yashash darajasida namoyon bo'ladi. Kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yori yashash darajasi deyiladi.

Aholining yashash darajasiga baho berishda asosiy mahsulot turlarini jon boshiga iste'mol qilish, oila o'ziga egadigan qismini pul daromadi sifatida oladilar. Bu pul harid uchun sarflanib, ehtiyoj qondiriladi. Bozor iqtisodiyotida daromad olish cheklanmaydi.

Daromad deganda, nimani tushunish kerak? Daromadlar bu ma'lum vaqt mobaynida olingan va shaxsiy iste'mol uchun tovar va xizmatlarni sotib olishga mo'ljallangan pul mablag'lari summasidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul daromadlari to'rt manba asosida olinadi: a) ish haqi; b) foyda; v) mulkdan olinadigan daromad; g) ijtimoiy to'lovlar. Ish haqi daromadlar asosiy qiymatining asosini tashkil qiladi. Ish haqi yollanib olinuvchilarning ishlab topgan daromadidir ish haqi tirikchilik vositalarini harid etish va pul jamg'armasini hosil etish uchun ishlatiladi.

Foyda tadbirkorlarning pul sarflash, tavakkal ish qilib, xavf va zararlarni zimmasiga olgani uchun ularga tegadigan pul daromadi hisoblanadi. Tadbirkorlarning foydaga ega bo'lishi yoki uni boy berishi boshlagan ishning natijasiga bog'liq. Shuning uchun davlatdan foyda kafolatlanmagan daromad bo'lib, tez-tez o'zgarib boradi.

Mulkdan olinadigan daromad:

- dividend foydani aksiyadorlarga ulush sifatida tegadigan qismi. U aksiya chiqargan korxonaning rentabelligiga bog'liq. Oddiy aksiyaga tegadigan dividend kafolatlanmaydi. Ijtimoiy aksiyalarga beriladigan dividend esa kafolatlanadi;

- foiz pul egasi o'z pulini o'zgalarga qarzga bergani uchun oladigan daromadi. Foiz qarzga berilgan pul summasiga nisbatan ulush darajasida belgilanadi;

- renta ko'chmas mulk egalari muqobil ishlatishdan olingan daromadi. Yer, imorat, kvartiralar va boshqalar ijaraga berilib, undan daromad olinadi;

- ijtimoiy to'lovlar davlat tomonidan to'lanadigan mablag'lar ishsizlik bo'yicha to'lanadigan to'lovlar va shu kabilardir.

Aholi daromadlarining mohiyatini tushunishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- har qanday jamiyatning birlamchi bo'g'ini oiladir. Demak, daromadlar muammosi, eng avvalo, oilani jami daromadlari sifatida namoyon bo'ladi;

- oila daromadlari uch manba asosida shakllanadi. Ish haqi, ijtimoiy to'lovlar va qo'shimcha (tomorqa, transport va h. k.)

olinadigan daromadlar tashkil etadi.

Ma'lumki, insonning iqtisodiy faoliyati uning uchun daromad olish bilan yakunlanadi. Daromad xillarining asosiy qismi pul shakliga ega, chunki yaratilgan mahsulotdan odamlar o'z hissalarini sarf etgan mehnatlariga qarab ishlab chiqarilgan mahsulotdan pul shaklida oladilar. Aholi yashash darajasini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$Yad = \frac{Mx}{As}$$

Bunda: *Yad* – aholining yashash darajasi;  
*Mx* – iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmi;  
*As* – aholi soni.

«Aholi yashash darajasi»ni hisoblashda jon boshiga yashab bo'lgan iste'mol mahsulotlari hisoblanadi. U «Iste'mol savatchasi»ni tashkil etadi.

Iste'mol savati ma'lum iste'mol darajasini ta'minlovchi tovar va xizmatlar to'plamini o'z ichiga oladi. O'zbekistonda minimum tirikchilik ne'matlarini hisoblashda normativ usul qo'llaniladi. Minimum tirikchilik ne'matlari minimal iste'molchilar savatchasiga to'g'ri keladi. Oddiy iste'molchi savatchasiga 19 ta mahsulot kiradi. Iste'molchilar savatchasiga kiradigan mahsulotlar olimlar, biolog iqtisoshchilar tomonidan tahlil etiladi va hisoblanadi.

O'zbekistonda oddiy iste'molchilar savatchasida 1 kishiga mahsulotlar quyidagi miqdorda belgilangan:

Iste'mol savatchasi

| № | Mahsulot nomi | O'lchovi | Oylik me'yor | Yillik me'yor |
|---|---------------|----------|--------------|---------------|
| 1 | Non. Qora     | kg       | 7,7          | 92,4          |
| 2 | Non. Oq       | kg       | 7,25         | 86            |
| 3 | Guruch        | kg       | 1,5          | 1,8           |

|    |                       |         |      |          |
|----|-----------------------|---------|------|----------|
| 4  | Vermishel             | kg      | 0,6  | 7,2      |
| 5  | Shakar                | kg      | 2,1  | 25,2     |
| 6  | O'simlik yog'i        | kg      | 0,85 | 10,2     |
| 7  | Sariyog'              | kg      | 0,3  | 3,6      |
| 8  | Mol go'shti           | kg      | 3,5  | 42       |
| 9  | Kolbasa (pishirilgan) | kg      | 1,8  | 21,6     |
| 10 | Kolbasa (dudlangan)   | kg      | 1    | 12       |
| 11 | Sut                   | litr    | 15,5 | 186      |
| 12 | Qaymoq                | kg      | 0,35 | 4,2      |
| 13 | Pishloq               | kg      | 0,2  | 2,4      |
| 14 | Tuxum                 | 10 dona | 15   | 180 dona |
| 15 | Kartoshka             | kg      | 12,5 | 150      |
| 16 | Karam                 | kg      | 2,5  | 30       |
| 17 | Piyoz                 | kg      | 0,85 | 10,2     |
| 18 | Olma                  | kg      | 1    | 12       |
| 19 | Sigareta              | pachka  | 8    | 96       |

Daromadlarni real va nominal shakli farqlanadi:

– nominal daromad pul shaklidagi jamiki daromadni o'z ichiga oladi. Bu daromad turmush darajasini ifodalamaydi, chunki qancha noz–ne'matlar iste'mol etilganligi narx–navoga ham bog'liq. Moddiy farovonlik darajasi real daromad bilan belgilanadi;

– real daromad, iste'mol tovarlari va xilma–xil xizmatlarda ifodalangan daromad bo'lib, pul daromadining xarid qobiliyatini bildiradi, turmush darajasini umumlashgan holda tavsiflaydi. Real daromad jamiki pul daromadlaridan, turli to'lovning chegirib tashlanganidan keyin qolgan qismi sof pul daromadini narx o'zgarishlariga qiyosan hisoblash orqali topiladi. Real daromadning oshgan yoki pasayganligi real daromad (*Rd*)da ifoda etiladi va pul daromadi indeksining (*Pd*) narx indeksiga (*Ni*) bo'lgan nisbati bilan o'lchanadi.

$$Rd = \frac{P_i}{N_i} \cdot 100\%$$

$Rd$  – real daromad;

$P_i$  – pul daromadi indeksi;

$N_i$  – narx indeksi.

## 2. Daromadlarning tengsizligi va uning sabablari. Lorens egri chizig'i

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining daromad olishdagi tafovutlari kuchayadi. Shuning uchun «aholining eng himoyalangan muhtoj tabaqalarini o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash esa o'z navbatida islohotlarni muvaffaqiyatli o'tkazishning garovidir, boshlang'ich o'zgarish va poklanish jarayoni orqaga qaytarishga yo'l bermaydigan ijtimoiy tayanchdir... Shu sababli bozor mexanizmini joriy etishdan avval odamlarni ijtimoiy himoyalash bo'yicha kuchli ehtiyot choralar tadbirlari oldindan ko'rib qo'yilishi ob'ektiv zaruriyatdir», degan fikr I.A.Karimov<sup>66</sup>.

Bozor iqtisodiyotida daromadlarning tengsizligi va ularning farqlanishi xosdir. Daromadlardagi tengsizlik kishilar ishlab topgan pul miqdorida katta farqlar bo'lishini bildiradi. Tengsizlikni asosan paydo etadigan omillar quyidagilar:

- kishilarning ish qobiliyatlari, ya'ni kuch-quvvati, aql idroki, salohiyati, zakovatini bir xil emasligi;


- bilim olish, kasb egallash, malakani oshirish imkoniyatlarini bo'lgan va ish topiladigan joyda daromad ko'p bo'lsa, bunday sharoitlar yo'q joyda daromad oz bo'ladi;

- tengsizlikni oila tarkibi har xil bo'lishini ham yuzaga keltiradi. Agar oila tarkibida pul toparlar ko'p bo'lsa, uning jami daromadi ko'p bo'ladi. Aksincha bo'lsa, daromad oz bo'ladi;

- daromadlardagi farqlarni bozor xolatlarini o'zgarishlari ham yuzaga keltiradi. Bu ayniqsa tadbirkor daromadiga ta'sir etadi. Bozorda kutilmaganda, narx oshib ketsa, tadbirkor katta daromad topadi va aksincha bo'lsa, kutilgan daromad ham olinmaydi.

Tengsizlik yuzaki qaraganda, adolatsizlikni bildiradi, ammo adolatli va adolatsiz tengsizlik mavjudligini yoddan chiqarmaslik

erak. Yuqori malakali, demak yuqori unumli mehnat uchun past ish haqi olishdagi tengsizlik adolatsiz tengsizlikdir. Shuningdek, tadbirkorlikda ham shaxsiy xususiyatlar va tavakkalchilik darajalariga nisbatan yuqori yoki past foyda olishdagi tengsizlik ham adolatsizdir. Yoki dividend, renta kabi daromadlar ham adolatlidir. Adolatsiz daromadlar va tengsizlikni ham inkor qilib bo'lmaydi. Birjadagi kurs o'zgarishi hisobiga birdaniga katta foyda olishda adolatsizlik bor. Bu haqiqat omadning o'zi. Chunki bu chayqovchilik mazmunidagi daromaddir. Yirik puldorlarni bankka pul qo'yib, katta daromad olishi ham adolatli emas. Chunki bunda hech qanday mehnat, urinish, o'ylab to'rish ham sodir bo'lmaydi. Daromadlardagi tengsizlik tabiiy hol bo'lib, daromadi ozlarni yaxshi ishlab pul topishga undaydi. Daromadlardagi to'g'ri farqlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad summasiga qarab aniqlanadi. Buning uchun oila ko'rgan yalpi daromadni uning a'zolari soniga bo'linadi.



1-rasm. Lorens egri chizig'i

Mamlakat aholisining daromadlaridagi tafovutlar darajasi tahlil etilganda, 10% boy aholining daromadi bilan 10% kambag'al oilalar daromadi bilan taqqoslanadi. Daromadlarni

<sup>66</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 282-bet.

notekis taqsimlanishi Lorens egri chizig'ida (rasm 1) tasvirlanadi.

Chizmada agar daromad teng taqsimlanib, oila hissasi bilan daromad hissasi bir xil bo'lganda, daromad chizig'ini to'g'ri bo'linishini ko'rish mumkin ( $A$  nuqtadan  $S$  nuqta orqali  $E$  nuqtagacha).  $S$  nuqta 60% oila 60% daromadni olganda, bu daromad tekis taqsimlanishini ko'rsatadi. Amalda bunday bo'lmaydi. Oilalarning jamiyat miqyosidagi umumiy daromaddan olgan hissasi bir xil bo'lganidan, masalan 20% oila daromadlarining 50%ni olganidan daromad chizig'i egri chiziq shakliga kiradi. ( $AE$  chizig'i) daromadlarning umumiy miqdori bilan uning taqsimlanishi o'rtasida aloqadorlik bor. Umumiy daromad kam bo'lgan sharoitda uning taqsimlanishi keskin o'zgarib turadi, daromad ko'p bo'lganda esa, taqsimlanish bir me'yorda barqaror boradi. Rivojlangan jamiyat boy bo'lganidan bunday jamiyatdagi kishilarning daromadidagi tafovutlar kam bo'ladi.

### 3. Kambag'allik, ijtimoiy tenglik va adolat

Ijtimoiy tenglikni ta'minlash uchun respublikada ko'p ijtimoiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan «kam ish haqi va boshqa to'lovlar odatda, oldindan ko'paytirilib kelindi, narx navo o'zgarishi bilan bog'lab olib borildi, bu esa aholining to'lov qobiliyatini saqlanib qolishini ta'minladi va turmush darajasini keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaydi... Shu tariqa biz eng kam, ish haqini oshirish yo'li bilan aholining o'rtacha ish haqini, pul daromadlarini ham o'z-o'zida ko'tara bordik. Bu tizim turli toifadagi xodimlar mehnat haqi darajasi o'rtasida eng maqbul nisbatlarni ta'minladi, ish haqini bevosita sarflangan mehnatning miqdori va sifatiga bog'liq qilib qo'ydi, aholining daromadlari darajasida asossiz katta tafovut bo'lishiga va aholining ijtimoiy jihatdan tabaqalanishiga yo'l bermaydi» degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov<sup>67</sup>.

Tengsizlik bor joyda kambag'allik muammosi hamisha mavjud. Bozor iqtisodiyotiga umuman to'qchilik xos bo'lsa-da,

ammo aholining ma'lum qatlamlari kambag'al hisoblanadi. Hozirgi jamiyatning asosiy illatlaridan biri qashshoqlikdir. Jahondagi birorta ham mamlakat, hatto eng boy mamlakat ham hozircha undan qochib qutula olmagan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri qashshoqlik muammosi yana chuqur his etiladi. Bu hol eng avvalo kambag'allar toifasiga ijtimoiy nochor guruhlardan tashqari aholining ilgari ular jumlasiga kirmagan guruhlari, shu jumladan daromadlari o'rtacha yoki o'rtadan yuqori darajada bo'lganlar guruhlariga mansub ko'plab kishilar ham kirib qolishi bilan bog'liqdir. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida daromad ko'p bo'lganidan davlat boylar daromadi hisobidan kambag'allar daromadini oshirib boradi. Lekin aholi o'ta boy, o'ta kambag'allar ajralib qoladi. Lekin daromadlar qanchalik adolatli bo'lmasin, yuqorida ta'kidlanganidek kambag'allik muammosi saqlanib qoladi. Agar kimningki daromadi uning eng zarur minimum tirikchilik talab ehtiyojini qondirish uchun etmasa, shu kambag'al hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda kimning kambag'al ekanligi oila daromadining oila jon boshiga to'g'ri keladigan miqdoriga qarab aniqlanadi va oila tirikchiligining minimal qiymatiga nisbatan baholanadi. Agar daromad jon boshiga tirikchilik qiymatidan past bo'lsa, oila kambag'al hisoblanadi. Albatta, kambag'allik mezoni mamlakatdagi turmush darajasiga ham bog'liq. Masalan, agar Germaniya uchun kambag'al oilada jon boshiga yillik daromad 3000 marka bo'lsa, shunday daromadi oila Hindistonda to'q oila hisoblanishi mumkin. Shunday qilib, kambag'allik chegarasi har bir mamlakat sharoitida o'ziga hos xususiyatga ega.

Bozor iqtisodiyotiga xos umumiy yana bir qoida kambag'allar soni va salmog'ining qisqarib borishiga moyilligidir, chunki ishlab chiqarishni o'sishi bilan kam daromadli oila o'rta va ko'p daromadlilar qatoridan o'rin oladi.

Buning uchun jamiyat doimo kambag'allikni tugatish yo'lidan boradi. Birinchidan — davlat kambag'allarga ishlab pul topib, to'q yashashiga sharoit va imkoniyat yaratib beradi. Ikkinchidan — kambag'allarga davlatning va firmalarning moddiy yordam berishi tashkil qilinadi. Lekin agarda kambag'allarga ko'rsatilgan g'amxo'rlik bir tomondan insoniylik bo'lib, aholining

<sup>67</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston» 1998 y. 285–bet.

qashshoqlanishidan saqlash bo'lsa, ikkinchi tomonidan bunday ortiqchalik mehnatga intilishni pasaytirish va umuman, iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shuning uchun albatta uning ijobiy chegarasini topa bilish muhim ahamiyatga ega. P.Samuels va V.Nordxausing fikricha, bu oilada to'rtinchi sohinlik va boshqasiga kambag'allik mavjud bo'lsa, talab va taklif yomon ishlashi bozor mexanizmining aybi bilan emas, balki daromad taqsimotining kamchiligi va nomukammalligi tufayli yuz beradigan hodisadir. Bunga davlat qayta taqsimlash, orqali yordam berishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, aholini ijtimoiy himoyalash masalalarini ko'rib chiqamiz.

#### 4. Aholini ijtimoiy himoyalash

Sivilizasiyasi yuqori darajada rivojlangan jamiyat uchun bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'nalishi zarur holatdir. Bu inson manfaatini, himoyasi, uning turmush darajasi muammasidan kelib chiqib, jamiyat bozor munosabatlari kamchiliklariga, ular yuzaga keltirgan salbiy oqibatlariga befarq bo'la olmaydi. Bozor rivojining ijtimoiy yo'nalishda bo'lishi, hozirgi zamon talabi bo'lib, bu sohada, ayniqsa taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi katta.

Kambag'allik, ishsizlik, aholini ijtimoiy himoyalash muammolari bozor iqtisodiyoti taraqqiyoti natijasida o'zgarib bormoqda. Chunki sivilizasiyasi rivoj topgan bozor iqtisodiyoti o'zining ijtimoiy yo'nalishi bilan daromad darajasini ko'tarmoqdagi, bu jamiyat uchun ijobiy hodisadir.

Bunday iqtisodiy taraqqiyot darajasida insonparvarlik tamoyillarining moddiy asoslari yaratilgan bo'lib, boylar va kambag'allar qarama-qarshiligini keskinligi yo'qoladi. Iqtisodiyotning demokratik tamoyili ustunligi ta'minlanib, mulkdorlar ko'payadi. Ishchi kuchi egalarining ayni vaqtda mulk egasi bo'lish imkoniyati ko'payadi. Bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'nalishi ikki tomonlama amalga oshib boradi. Birinchidan, mulk egalarining faoliyati tadbirkorlikning rivojlanishidan iborat. Mulklaridan qat'iy nazar, kapitalmi, ish kuchimi, yermi, pulmi baribir har biri o'z mulkidan foydalanishni ko'paytirishga harakat qiladi, uning unumdorligini oshirib,

amarasini ko'paytiradi. Ikkinchidan, davlat ortiqcha daromadga ega bo'lganlarning bir qism daromadlarini markazlashtirib, kambag'allarga taqsimlab beradi va bularning farovonligini ta'minlab borishi bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Umuman, mulkdorlar ichida nufuzli bo'lishga harakat qilish asosan insoniylikni ta'minlash, insonparvar bo'lishga undaydi. Bu esa bozor iqtisodiyotidagi ijtimoiylikning eng muhim omillaridandir. Demak, bozor iqtisodiyotining o'zi ijtimoiy yo'nalishda bo'lib, farovonlikni ta'minlab boradi.

Lekin daromadlardagi tafovutlar, turmush darajasidagi past-balandlik, kambag'allik muammolari mavjud bo'lib, doimo ijtimoiy himoyani ko'ndalang qilib qo'yadi. Biz bilamizki, bevosita mehnatsiz daromad olganlarning soni ham katta, bular asosan mehnatga noloyiq odamlardir. Bularning asosini nafaqaxo'rlar tashkil etadi. Iqtisod nuqtai nazaridan himoyaga muhtoj bo'lganlar asosan shulardir, demak, bozor iqtisodiyoti shularning turmush darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Sivilizasiya sharoitida mehnatga noloyiq odamlarni iqtisodiy jihatdan qo'llash bozor ta'siridan himoya qilish har bir davlatning burchi bo'lib, zamonaviy nafaqa tizimini amalga oshirish, uning o'z fuqarolariga munosabati yoki kattalarni iqtisodiy qaramlikdan qutqarib, turmush darajasini pasayishiga yo'l qo'ymasligi davlatning haqiqiy insonparvarlik vazifasini ado etishlik darajasini belgilab beradi.

Aholini ijtimoiy himoyalashda «narxlarni erkinlashtirish va pulni qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirish ijtimoiy himoyalash chora tadbirlari tizimidagi eng ustun yo'nalishlardan biri bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi... ichki iste'mol bozorini himoya qilish, ...aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga izchillik bilan o'tish, ...ijtimoiy himoya aniq maqsadga va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan bo'lishi, ...mahalla tufayli tub aholi ijtimoiy va iqtisodiy hatti-harakati tarkib topish, ...ijtimoiy ko'maklashuvda aholining aniq talablarini mo'ljallab ish tutish, shu madadning imkoni boricha ko'proq samarali bo'lishga erishish choralari to'la-to'kis hisobga

olishi lozim», – degan edi I.A.Karimov<sup>68</sup>.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida barcha sohalarda bo'lganidek, aholini ijtimoiy himoyalash o'ziga xususiyatlarga ega bo'ladi. Birinchi navbatda kambag'allash o'sadi, ishsizlik ko'payadi, muhtojlik oshadi. Ma'lumki, ishsiz yaroqsizlar – nogironlar, qariyalar, ko'p bolali oilalar to'la davlat ta'minotidir. O'zbekistonda nafaqa tizimi bir hecha barcha takomillashib, yuzaga kelgan og'ir sharoitlarni e'tiborga olgan holda har tomonlama zamon talabiga javob bera oladigan darajaga etkazilgan. Nafaqa darajasi turmush darajasidan juda kam qilinib qiladi. Shu bilan birga aholining barcha qismi bu tizim bilan qamrab olingan. Hozir daromadsiz hech kim qolmagan. Ilgari esa faqat mehnat qilgan vaqti asosida nafaqa belgilanib, ko'pchilik mehnatga layoqati yo'qlar nafaqa olmas va haddan tashqari iqtisodiy og'ir ahvolda qolar edilar.

Ayniqsa bunday ahvol qishloq joylarda ko'p bo'lib, ko'pchilik ayollar shunday sharoitda edilar. Hozirgi kunda barcha qandaydir daromadga ega, nafaqalar turi ko'paygan.

Ko'p bolali onalar farzand ko'rayotganlar bolaligidan nogiron bo'lib mehnat layoqatini yo'qotganlar va shunga o'xshaganlarning hammasi to'la ijtimoiy himoya ostiga olingan. Nafaqalarning eng past miqdori belgilangan. Talabalar askarlar ham to'la davlat himoyasidir. Daromadga ta'sir ko'rsatuvchi davlat tomonidan qo'llaniladigan chora tadbirlardan yana bir turi ma'lum mutaxassislariga belgilangan imtiyozlardir. Masalan urush qatnashchilari, baynalminalchilar, tibbiyot xizmatchilar, askarlar kabilarga bir qancha iqtisodiy engilliklar tug'dirildi. Bular qatoriga shaxsiy daromad solig'idan ozod etish yoki imtiyoz berish, uy-joy to'lovi, kommunal xizmati haqi to'lashdagi imtiyozlar kiradi. Ma'lumki, bunday imtiyozlar shaxsiy daromadga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aholining daromadi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muhofazaning eng insonparvarlik xususiyati shuki, u insonning iqtisodiy erkinligi, iqtisodiy va jismoniy hayotini belgilash bilan bog'liqdir. Bu esa inson uchun eng muhim masaladir. Bu masalani to'g'ri hal qilish davlat

yetuklik darajasidan dalolat beradi. O'zbekiston davlatining iqtisodiy himoya sohasidagi alohida qayd qilishga sazovor tomoni bolalar taqdiri, ularga nisbatan alohida g'amxo'rlik, alohida e'tibor bilan qarashdir.

Aholini ijtimoiy himoyalashning eng asosiy omillari bu ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va muttasil rivojlantirish, davlat mablag'lari bilan mehnat jamoalari, jamoat va hayriya tashkilotlari jamg'armalarining mablag'laridan keng foydalanish, insonlarning kuch qobiliyatlaridan to'la-to'kis foydalanishni ta'minlashga loyiq bo'lgan kuchli boshqarish mexanizmini vujudga keltirish hisoblanadi. Aholi daromadlari va turmush darajalari o'rtasida asossiz katta farqlarni oldini olish va ijtimoiy barqarorlikni shakllantirish, qashshoqlikka qarshi kurashishni asosiy yo'llardan biridir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, aholini ijtimoiy himoyalash bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismiga aylanib ketgan. Shuning uchun ham ijtimoiy himoyalash asoslarini davr talablari asosida shakllantirish zarur, bundagi kechikish bozor sohasidagi muvaffaqiyatlarga teskari ta'sir ko'rsatishiga olib keladi. Buning oldini olib borish ayni vaqtda bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtiradi va bundagi og'irlik, yo'qotishlarni kamaytiradi. Iqtisodiy rivojlangan kuchli mamlakatlar tajribalari bozorni boshlang'ich davridayoq uning harakatiga ijtimoiy yo'nalish mazmunini berish madaniyatli bozor iqtisodiyotini yaratishdagi zarur shart ekanligini ko'rsatmoqda.

Lekin bozor mexanizmining mavjud ekanligi iqtisodiy tengsizlikni yo'qotmaydi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, zimmaga olingan vazifalarni amalga oshirishda aholining siyosiy va ijtimoiy faolligini kuchaytirish juda muhim ahamiyat kasb etayotganligini alohida ta'kidlash kerak.

### Asosiy atama va tushunchalar

Nominal daromad, real daromad, daromadlarning notekisligi, Lorens egri chizig'i, Mutlaq tenglik, Mutlaq tengsizlik, Djini koeffisienti, kambag'allik darajasi, minimum tirikchilik ne'matlari, iste'molchilar savatchasi, ijtimoiy siyosat.

<sup>68</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. «O'zbekiston», 1998 y. 284–285, 291, 295, 299–betlar.

## 22-mavzu. JAHON XO'JALIGI VA UNING EVOLYUSIYASI

### 1. Jahon xo'jaligining mohiyati, uning rivojlanish bosqichlari va tendensiyasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Barchamiz bir haqiqatni anglab etishimiz lozim – O'zbekiston butun xalqaro hamjamiyatining va global moliyaviy iqtisodiy bozorining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning tasdiqini tashqi Dune Bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko'magida iqtisodiy tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O'zbekistonning xalqarosavdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar import va eksportining o'sib borishida va boshqa misollarda ko'rishimiz mumkin»<sup>69</sup>

Har qanday davlat o'zining iqtisodiy taraqqiyotini o'ziga mamlakatlar bilan iqtisodiy va ishlab chiqarish aloqalarida tasavvur eta olmaydi. Bu xalqaro mehnat taqsimoti, jahon bozori, jahon savdosi, baynaiminal ko'lamda ishlab chiqarishning umumlashuvi, fan-texnika taraqqiyotining ishlab chiqarish kuchining xalqaro xarakteriga ta'siri kabi omillarning rivojlanishini talab etadi. Mamlakatlarning milliy xo'jalik yaxlitligini saqlab qilgan holda xalqaro mehnat taqsimoti asosida jahon xo'jaligi shakllanadi.

Yer yuzidagi ishchi kuchining 50 foizi kam rivojlangan mamlakatlarda joylashgan bo'lib, butun dunyoda olinayotgan daromadning 5 foizi ularning hissasiga to'g'ri keladi. AQShda 6 foiz ish kuchi joylashgan bo'lib, jahon bo'yicha yaratilgan daromadning 25 foizi unga tegishlidir. Hozirgi vaqtda jahon xo'jaligi davlatlari quyidagi guruhlariga bo'linadi: qolqoq rivojlanayotgan, rivojlangan (yoki industrilashgan) shuningdek, hozirgi vaqtda jahon xo'jaligi yangi industrial mamlakatlari (Meksika, Braziliya, Argentina, Janubiy Koreya, Tayvan,

Gonkong, Malayziya, Singapur) «Neft qirollar» (Saudiya Arabistoni, Quvayt va boshqa) deb atalgan mamlakatlar guruhi yuzaga keldi. Bular bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ayrim rivojlangan davlatlar darajasiga yaqinlashib qoldilar.

Umuman, iqtisodiy o'sish omillari, ya'ni mehnat resursi, tabiiy resurslar, kapital, texnologik rivojlanish hamma mamlakatlarda ham bir xil emas. Lekin har qaysi davlatda iqtisodiy rivojlanishi uchun ushbu omillardan foydalanishga yondoshish taktikasi tadbirlari turlichadir.

Jahon xo'jaligi bir-biridan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, mafkuraviy jihatdan tubdan farq qiladigan milliy davlatlarning xalqaro mehnat taqsimoti asosida o'zaro amalga oshiriladigan munosabatlarning tizimi hisoblanadi. Jahon xo'jaligi tarkibiga kiradigan davlatlarning o'zaro munosabati ularning har xil ekanligi sababli ziddiyatli tarzda amalga oshadi.

Jahon xo'jaligining dastlabki kurtaklari qadim davrlardayoq vujudga kelgan.

Tarixdan bizga O'rta Osiyo mintaqasidan «Buyuk Ipak» yo'lining o'tganligi ma'lum. Qadimgi davrlardayoq O'rta Osiyo davlatlari Xitoy, Afg'oniston, Arab davlatlari bilan savdo-sotiq ishlarini amalga oshirganlar.

Kapitalizmning rivojlangan davrida jahon bozorida kapitalistik davlatlarning hukmronligi yuqori bo'lgan.

Sobiq Ittifoq davrida Evropa iqtisodiy hamkorligiga kiruvchi davlatlarning jahon savdosidagi ulushi ham yuqori darajada bo'lgan. Hozirgi davrda 2000 dan ortiq elat va millatlar mavjud bo'lib, ulardan 150 tasi o'zining davlat maqomiga ega. Davlatchilik maqomiga ega bo'lganlarning soni qanchalik oshib borsa jahon xo'jaligining strukturasi ham shunchalik o'zgarib boradi. Uning o'zgarishiga shu bilan birgalikda ilmiy-texnika taraqqiyoti ham ta'sir o'tkazadi.

Jahon xo'jaligining vujudga kelishida integratsiya jarayoni muhim rol o'ynaydi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti, takomillashgan texnologiyalarning vujudga kelishiga olib keladi. Bunday ishlab chiqarish vositalarini bir mamlakat hududida ishlab chiqarish mumkin emas. Chunki, ularni ishlab chiqarish milliy davlatga juda qimmatga tushadi.

<sup>69</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralarini T.: «O'zbekiston», 2009, 11 bet.

Hozirgi zamon texnikasi shunchalik keng va chuqur mehmas taqsimotini taqozo qiladiki, bunday taqsimot ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turlari nihoyatda ko'payib ketganligi, ayrim ishlab chiqarishlar juda ham chuqur ixtisoslashganligi tufayli har qanday - hatto eng yirik va iqtisodiy rivojlangan mamlakatning ehtiyojlarini hamma turdagi mahsulot bilan faqat o'z kuchi orqali ta'minlashni norentabel holga olib keladi, ba'zan esa to'g'ridan-to'g'ri korxonalarining sinishiga sabab bo'ladi. Integrasiyalashuv yordamida ayrim bir davlatlar birorta mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Ixtisoslashuv oraliq sanoat mahsulotlarni, yarim fabrikatlarni ishlab chiqarishda ayniqsa qo'l keladi. Masalan Amerikada Boing - 747 rusumli samolyotni ishlab chiqarishda 4,5 millionga yaqin detallar va qo'shimcha ehtiyot qismlar ishlatiladi. Bu ehtiyot qismlar 1500 ta kompaniya tomonidan etkazib beriladi. Bunga chet el kompaniyalari ham kiradi.

Demak, AQSh ning ulkan ichki bozori ham shuncha quvvatga ega bo'lgan texnologiyani o'z kuchi bilan ishlab chiqarib olmaydi. Aynan bir mahsulotni bir nechta davlat ishlab chiqaradi.

Xalqaro iqtisodiy integrasiyaning shu vaqtgacha quyidagi shakllari mavjud bo'lgan:

- erkin savdo zonasi. Bunda savdoda ishtirok etuvchi davlatlarga to'siqlar qo'yilmaydi.

- bojxona ishtiroki asosida erkin savdo qilish bilan birgalikda xalqaro savdo tashkilotiga a'zo bo'lgan davlatlarga umumiy tarif belgilanadi, hamda umumiy bo'lgan savdo siyosati amalga oshiriladi.

Integrasiyaning rivojlangan formasi umumiy bozor hisoblanadi. Bunda yuqoridagi imtiyozlar bilan birgalikda kapitalning va ish kuchining erkin harakat etishiga imkoniyat yaratiladi hamda savdo siyosati birgalikda amalga oshiriladi. Erkin iqtisodiy zonalarining vujudga kelishi chet el investisiyalarini jalb etishda muhim rag'batlantiruvchi vosita hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan «Erkin iqtisodiy zona» haqidagi qonun bu zonaning chegarasi, huquqiy kapitalni yuksak texnologiyani jalb etish, zonaning ijtimoiy iqtisodiy jihatdan rivojlanish uchun kerak bo'lgan yo'nalishlarini

belgilab beradi.

Hozirgi kunda dunyoda 700 iqtisodiy zona mavjud bo'lib, bundan dunyodagi tovar oborotining 30% o'tadi.

Erkin iqtisodiy zonalaridan biri korxonalarining erkin zonasi hisoblanadi. Bunda korxonalar joylardagi hokimiyat organlaridan shu hududlarda erkin faoliyat yuritish huquqini oladilar.

Integrasiya jarayoni ishlab chiqarish kuchlarining haynayminallashuviga sabab bo'ladi.

Jahon xo'jaligi o'z holicha stixiyali rivojlanadigan tizim emas. Uning faoliyatini bir nechta tartibga soluvchi mexanizmlar boshqaradi. Bularga Xalqaro valyuta fondi (XVF), xalqaro taraqqiyot va rekonstruksiya banki (XTTB), xalqaro savdo tashkiloti (XST), xalqaro mehnatni tashkil etish (XMT) tashkiloti va boshqalar. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun investisiyalar ajratadilar va gumanitar yordam beradilar.

Demak, shu kunda milliy davlatlarning taraqqiyotini jahon iqtisodisiz tasavvur etish mumkin emas. Bu ob'ektiv jarayondir.

Jahon xo'jaligi o'z ob'ekti va o'z sub'ektiga ega. Jahon xo'jaligi munosabatlarining ob'ekti Xalqaro miqyosda savdo-otiq, resurslar taqsimlanishi, ularni samarali ishlatish, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, iqtisodiy integrasiya, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, qoloqlik va qashshoqlikni cheklash, atrof muhitni muhofaza qilish va boshqalar hisoblanadi.

Turli davlatlar, transmilliy korporasiyalar, Xalqaro tashkilotlar va institutlar esa jahon xo'jaligining sub'ektlari hisoblanadi.

Jahon xo'jaligi tarkibiga kiruvchi milliy xo'jaliklar turli - tuman. Milliy xo'jaliklar ayrim iqtisodiy adabiyotlarda markaziy davlatlarga va periferiya davlatlariga bo'linsa, boshqalarda shimol va janubiy davlatlarga, uchinchi adabiyotlarda rivojlangan, rivojlanmagan va qoloq davlatlarga bo'linadi.

Jahon xo'jaligidagi davlatlar yaxlit dunyoni tashkil etsa-da har xil davlatlardan iborat. Kishilar 2000 xil tilda gaplashadi, dunyoda 300 xildan ortiq pul birliklari ishlatiladi. Har bir davlat jahon xo'jaligining taraqqiyotiga turlicha ta'sir o'tkazadi. Har bir davlat o'ziga xos xususiyatga ega. Bunday holat dunyodagi



davlatlarni sinflarga ajratishni talab etadi. Davlatlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- rivojlangan industrial davlatlar: AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya, Fransiya, Shvesiya, Shveysariya, Avstriya, Yangi Zelandiya, Avstraliya Germaniya, Belgiya, Gresiya, Islandiya, Irlandiya, Niderlandiya, Norvegiya, Finlandiya. Jami: 20 ta davlat;

- 2008 yil noyabr oyida Vashingtonda, jahon yalpi mahsulotining 85 foizini ishlab chiqaradigan 20 ta yirik davlat ishtirokida bo'lib o'tgan sammit global moliyaviy inqirozning ko'lami tobora kengayib borayotganini tasdiqladi;<sup>70</sup>

- yangi industrial davlatlar: Singapur, Gonkong, Meksika, Janubiy Koreya, Xitoy, Malayziya, Tailand, Rossiya.

- rivojlangan, neft resurslariga ega bo'lgan davlatlar: Saudiya Arabistoni, Quvayt, Eron, Iroq 4 ta davlat

- Qoloq davlatlar: Chad, Efiopiya, Bangladesh.

- Qolgan davlatlar – rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiradi.

- Dunyodagi davlatlarning rivojlanganlik darajasi yil davomida YaIMda o'z ifodasini topadi.

Jahon xo'jaligi taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi yana bir xususiyati, milliy xo'jaliklar ixtisoslashuvini chuqurlashishi natijasida ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi hisoblanadi. Milliy iqtisodlar jahon iqtisodiyotining bir bo'lagiga aylanmoqda. Umumjahon xo'jaligini banalmilallashuvi mamlakatlarning jahon xo'jaligi aloqalarida qatnashuvini ifodalaydi.

Turli mamlakatlarning jahon bozoridagi ulushi uni iqtisodiy qudratiga bog'liq. Xalqaro mehnat taqsimoti chuqurlashuvi natijasida davlatlarning bir birlariga bog'liqligi kuchayadi. Jahon xo'jaligi tobora yagona kompleksga aylanib boradi. Lekin bu jarayon silliq kechmaydi. Bunday ziddiyatlarni hal qilish maqsadida ikkinchi jahon urushidan so'ng Xalqaro tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkilotiga asos solinadi. 1945 yil 24 oktyabrda uning ustaviga 51 mamlakat vakillari imzo chekdi.

Jahondagi barcha rivojlangan, rivojlanayotgan va yangi

<sup>70</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston, 2009, 6-bet.

mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatlar o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotlarini o'zaro iqtisodiy, moddiy-texnikaviy hamkorliksiz tasavvur qila olmaydilar. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng mustaqil tashqi iqtisodiyotni shakllantirib bormoqda. Chunki sobiq totalitar socialistik tuzumi davrida tashqi iqtisodiy aloqalarda davlat yakka hokimligi va iqtisodiy aloqalar markazdan boshqarilar edi. O'tish davrida ochiq iqtisodiyot poydevorini asosi siyosiy huquqiy va tashkiliy negizlari shakllandi. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: «O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilish yo'llarini mustaqil ravishda belgilashni, ...ma'muriy cheklashlarni, ...umum qabul qilingan xalqaro me'yorlar va qoidalar, tashqi savdoni boshqarishning, bozor vositalari bilan almashtirib, tashqi iqtisodiy faoliyatni asta-sekin erkinlashtirishni dolzarb vazifa qilib qo'ydi»<sup>71</sup>.

Hozirgi zamon iqtisodiyotni tarkibini shakllantirishi uchun birinchi navbatda ahamiyatga ega bo'lgan eng ilg'or, texnika jihatdan murakkab bo'lgan sanoat tarmoqlarini kengaytirish bilan ifodalanadi. Ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi, iqtisodiy rivojlanishi fan-texnika taraqqiyotning asosiy sharti bo'lib bormoqda. Lekin ishlab chiqarishning va kapitalning davlatlarning o'zaro iqtisodiy aloqalar yo'nalishining kuchayishi jahon xo'jaligi tizimidagi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini ko'proq xalqaro monopoliyalarga qaram qilib qo'ymoqda. Hozirgi zamon xo'jaligi xalqaro mehnat taqsimotida qatnashayotgan va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan bog'langan, ayrim mamlakatlar milliy xo'jaliklarning birlashuvidan iboratdir. Hozirgi zamon jahon xo'jaligiga davlatlarning o'zaro bog'liqligini o'sishi bilan birga ayrim regionlarni rivojlanishdagi nomunosiblik, raqobat kurashining kuchayishi, chet qoloq o'lkalarning industrialashgan markazlarga bo'ysunishining kuchayishi ham xarakterlidir.

<sup>71</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 266-bet.

## 2. Jahon xo'jaligining sub'ektlari, uning tuzilishi va infratuzilmasi, xalqaro iqtisodiy integratsiya, uning turlari va mohiyati

Munosib umumjahon infratuzilmasi bo'lmasa, hozirgi ishlab chiqaruvchi kuchlarining baynalminallashuvini rivojlantirish bo'lmaydi. Bunday infratuzilmasining ayrim tarkibiy qismlari jahon savdosi vujudga kelayotgan, jahon bozori tashkil topayotgan vaqtda paydo bo'lgan edi. Hozirgi zamon xo'jaligi infratuzilmasi kema, samolyot, poezd, avtomobil transporti tizimi, xalqaro gaz, neft mahsulotlari quvurlarini, elektr energiyasini etkazib berish tarmoqlarga axborot yetkazib berish kommunikatsiyalari telekommunikatsiya, radio, televidenie, kompyuter tizimi xalqaro birjalar, moliya markazlari, banklar tizimini o'z ichiga olgan. Har bir yuk tashish turi, dengiz, daryo, havo, temir yo'l, avtomobil yo'li uchun havo va suv ularning ishlash sharoitlari portlar passajirlar tashish va hokazo uchun umumjahon o'lchovlari mavjuddir. Chunki, bu masalalarni kelishib turib, hal etishgina barcha mamlakatlarni jahon transport yo'llarida foydalanish imkonini beradi.

Turli xalqaro darajada maxsus ma'lumotlar bosqichida tashkil topmoqdaki, bular ilmiy va ishlab chiqarish maqsadlari uchun zarur axborotni qidirib topishni ancha qisqartiradi.

Shuningdek jahon infratuzilmasi turli ziddiyatlarni bartaraf qilish orqali rivojlanmoqda, bulardan biri transport, aloqa, axborot tizimlari o'rtasidagi raqobatlar, ziddiyatlardir. Har qaysi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti to'g'risidagi strategik ma'lumotlarni tayyorlash, hisoblash ishlarini birxillashuvi jahon infratuzilmasining rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga egadir.

«O'zbekiston o'z tashqi siyosatini teng huquqli va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ... biron-bir davlatning ta'sir doirasiga kirmaslik, ... o'z milliy davlat manfaatlarimizga asoslanib, mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar, dunyoning barcha mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarni mustaqil belgilaverishga ahd qilganmiz».

degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov<sup>72</sup>.

Mamlakatlararo integratsiya ishlab chiqaruvchi kuchlarning yangi ancha yuqori darajada rivojlanganligi va ishlab chiqarishning umumlashuvi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, o'z navbatida ishlab chiqarish va kapitalning baynalminallashuvi jarayonining tezlashtiradi. Mamlakatlar o'rtasida mehnat taqsimotini chuqurlashtiradi, ijtimoiy ishlab chiqarishning o'sishga va samaradorligini ortishiga sharoit yaratadi. Integratsiya qanchalik muvofiq rivojlansa, mehnat taqsimoti shunchalik chuqurlashadi va ayrim tarmoqlar, ayniqsa monopolistik birlashmalar o'rtasida o'zaro kooperatsiya aloqalari shunchalik kengayadi. Aynan yuqori darajada mehnat taqsimoti va integratsiya jarayonining yuqori ko'rinishi rivojlangan region G'arbiy Evropa va Shimoliy Amerikada yuzaga keldi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa regional integratsiya hozircha bir qancha qiyinchiliklarga to'qnash kelmoqda. Bu asosan har qaysi mamlakat xo'jaligi ixtisoslashuvining bir tipligi bilan bog'liqdir. Tarixda mamlakatlar o'rtasida integratsiyaning birinchi va eng rivojlangan shakli bu Evropa iqtisodiy uyushmasi (EIU) hisoblanadi. EIU 1957 yilda G'arbiy Evropa mamlakatlaridagi: Germaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Belgiya va Lyuksemburg o'rtasida o'zaro boj chegaralarini yo'qotish va «umumiy bozorni» barpo etish maqsadida tuzilgan bo'lib, keyinchalik Angliya, Daniya, Gresiya, Argentina, Ispaniya, Portugaliya ham qo'shildi.

Hozirgi vaqtda jahon xo'jaligi uchta bosh markaz AQSh, G'arbiy Evropa va Yaponiya ta'siri va ularning o'zaro poygasi asosida shakllanib, rivojlanib bormoqda. Xalqaro bozorni egallash uchun kurashda har qaysi uchta markaz jahon xo'jaligidagi o'z o'rnini va imkoniyatiga ega. AQSh juda yirik ishlab chiqarish va fan-texnika potentsiallariga ega. Shu bilan birga ko'p tabiiy resurslar bilan o'zini-o'zi ta'minlaydi, mamlakat tashqarisida katta miqyosda kapital, baquvvat TMK asosida tashqi iqtisodiyotda harakat qilib turibdi.

Chuqur ilmiy tadqiqotlarga asoslangan ishlab chiqarish

<sup>72</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 266-267 betlar.

sohalarining rivojlanishi, eski material sarfiga asoslangan tarmoqlari chet el raqobatidan himoya qilish muammosini keltirib chiqarmoqda. Bu jarayonning ziddiyati shundan iboratki, bir tomondan an'anaviy bo'lgan tarmoqlar qora metallurgiya, yengil va oziq-ovqat sanoatlarini sun'iy ravishda qo'llab turish umumiy ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini to'xtatib qo'yadi. Boshqa tomondan iqtisodiyotning aynan shu sohada past malakali ishchi kuchining nisbatidan katta miqdori jamlangan bo'lib, bu tarmoqlarning keskin pasayishi ijtimoiy kelishmovchiliklarni keskinlashtirishi mumkin. Rivojlangan davlatlardan kelayotgan to'qimachilik poyafzal, maishiy elektrotexnika tovarlari Amerika va G'arbiy Evropa bozorlarini juda tez egallamoqda. Shu bilan barobar texnik jihatdan murakkab bo'lgan buyumlarni yetkazib beruvchilar o'rtasida ham raqobat kurashi keskinlashmoqda.

Davlatning iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liqligining kuchayishi, har qaysi mamlakat xo'jaligini, boshqa mamlakat aholisini turmush sharoitini yomonlashuviga bog'liq qilib qo'yimoqda. Krizis ko'rinishlari jahon xo'jaligini bir qismida boshqa qismiga ko'chishini tezlashtirmoqda. Biron-bir mamlakat yoki regionda valyuta kursi foiz stavkasi tovar va fond birjalarida bahoning o'zgarishi zanjirli halqasimon shakllarda boshqa mamlakatlarda yoyilmoqda. Jahon xo'jaligi taraqqiyotining beqarorligi uning rivojlanishi markazga intiluvchi va markazdan qochuvchi tendensiyalar o'rtasida kurashni keskinlashuviga olib kelmoqda, natijada ahvolni muvofiqlashtirishga faol urinish bo'lishiga qaramasdan jahon xo'jaligi ziddiyatlarini iqtisodiy va siyosiy rivojlanishda notekisliklarni, alohida mamlakatlar, guruhlar, regionlar o'rtasida kuchlar muvozanatini doimiy o'zgarib turishini keltirmoqda.

### 3. Kapitalning xalqaro integratsiyasi mohiyati, turlari, dinamikasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Biz tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda iqtisodiyotimizga xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay sharoit yaratishga juda katta ahamiyat bermoqdamiz. Xorijiy sarmoyalarni jalb etish

adabirlarini amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

birinchidan — tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni qo'zlab siyosat yuritish;

ikkinchidan — respublika iqtisodiyotiga kapital mablag'ni keng jalb etishni ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;

uchinchidan — respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani etkazib berayotgan, xalq xo'jaligini zamonaviy tarkibini vujudga keltirishayotgan xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan eshiklarini ochib qo'yish siyosatini izchillik bilan o'tkazish;

to'rtinchidan — mablag'larni respublika mustaqilligini ta'minlaydigan va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustivor yo'nalishlarda jamlash»<sup>73</sup>, — degan edi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar sistemasi asosan o'z ichiga:

- xalqaro savdoda tovar va xizmatlar xarajatini;
- kapital xarakatini va chet el investitsiyalarini;
- ish kuchi migrasiyasi;
- fan va texnika sohasidagi o'zaro aloqalarni;
- valyuta kredit munosabatlarini oladi.

Kapital asosan chetga chiqarish katta foyda olish maqsadida amalga oshiriladi. Chetga kapital chiqarish, agarda bu boshqa davlatlarda yuqori foyda normasini ta'minlansa amalga oshiriladi. Bunga asosiy sabab:

a) agarda mamlakatlarda kapital jamg'arish darajasi ichki talabga nisbatan yuqori bo'lsa, bu kapital monopol foyda olish uchun o'z kapitallarini unga muhtoj bo'lgan va yuqori monopol foyda beradigan davlatga chiqaradi;

b) talab va taklifni jahon xo'jaligi taraqqiyotiga mos kelmasligi davlatlarni notekis iqtisodiy taraqqiyotiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham kapitalni o'z iqtisodiyotlari taraqqiyotiga jalb qiluvchi davlatlar iloji boricha iqtisodga kirib kelayotgan kapitallarga to'liq shart-sharoitlar yaratadilar;

s) kapitalni import qilayotgan davlatlarda xom ashyo, ishchi

kuchi arzon bo'lsa, iste'mol bozori mavjud bo'lsa;

d) ishlab chiqarishning integrasiyalanishuvi ham kapitalning chetga chiqarishning asosiy sababi bo'ladi.

Kapitalni chetga chiqarish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. To'g'ri investitsiya yoki sohibkorlik (ya'ni sanoat savdi va boshqa korxonalar bilan hamkorlikda ishlash);

2. Portfeldagi investitsiya ya'ni chet el obligasiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarda;

3. O'rta va uzoq muddatli xalqaro kreditlar yoki savdi korporasiyalari bank va boshqa moliyaviy tashkilotlarga qarshi ssuda kapital berish shaklida;

Portfeldagi investitsiya yirik korporasiyalar davlat va xususiy banklar orqali chiqarilgan obligasiyalari mablag' bilan ta'minlash uchun chet el kapitalini jalb etishning eng asosiy manbaidir. Bunda yirik investitsiya banklari vositachilik qiladilar. Bu investitsion obligasiyalarning harakati (sotilishi) ayrim mamlakatlarning to'layotgan foiz stavkasi normasining farqiga bog'liq. Urushdan keyingi davrda chetga kapital chiqarish shaklida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Chet el investitsiyalarining jahon xo'jaligida notekis joylashganligini ta'kidlab o'tish zarur. Investitsiyalarning  $\frac{3}{4}$  qismi rivojlangan davlatlarga to'g'ri kelsa (bu erlarda foyda normasi yuqori), rivojlanayotgan davlatlarga sarflanmoqda.

Prezidentimiz aytganidek, ko'plab davlatlarning tashqi qarzi masalasidagi puxta o'ylanmagan siyosati ularni iqtisodiyotni zalf tashqi omillarga qaram, xatarli vaziyatlar oldida himoyasiz va nochor ahvolga solib qo'yganini ko'rish, kuzatish qiyin emas<sup>74</sup>

**Xalqaro ssuda kapitali** — pul bozori va kapital bozoriga bo'linadi.

Pul bozori pul taklifi va unga bo'lgan talab foiz stavkasi darajasi bilan aniqlanadigan bozor. Pulga talab xo'jalik faoliyati uchun zarur pulga ehtiyojdir. Uning shakllanishini asosiy ikkita sababi mavjud: a) insonlarga har doim tovar va xizmatlarni sotib olish uchun, korxonalariga esa resurslar olish uchun pul zaruri

<sup>74</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston, 2009. 9 bet.

bo'ladi; b) insonlar o'zlarini pullarini har xil (aksiya, obligasiya va h.k) shaklida saqlaydilar, demak, aktivlar tomonidan pulga talab bo'ladi. Pul bozorida talab va taklifning bir-biriga to'g'ri kelishi iqtisodiyot uchun o'ta muhim masala hisoblanadi.

Demak pul bozori — bu asosan qisqa muddatli, ya'ni bir yilgacha kredit berish ifodalanadi. Uning yordamida korporasiyalar vaqtinchalik yetishmayotgan aylanma mablag'lar o'rnini to'ldiradilar.

**Kapital bozori** — ikki yildan o'n yilgacha bo'lgan o'rta muddatli kreditlar va o'n yildan ortiqroq, ya'ni uzoq muddatli qarzlardan iborat bo'lib, obligasiyalarni chiqarish va sotish shaklida bo'ladi.

Keyingi vaqtlarda xalqaro bozorda ssuda kapitalining an'anaviy bo'lmagan shakllari, ya'ni sohibkorlik kapitaliga yaqin bo'lgan aynan ochiq sanoat loyihasi uchun yo'naltirilgan usullari qo'llanilmoqda. Xalqaro kredit bozorining tez sur'atda o'sishi jahon xo'jaligining rivojlanishiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan xalqaro iqtisodiy aloqalar mexanizmini samaradorligini oshirmoqda va kapitalga xalqaro takror ishlab chiqarishni ta'minlamoqda. Boshqa tomondan esa xalqaro miqyosida soxta kapitalning jam'arilishidagi mavjud jarayon o'rtasidagi farqni orttirib iqtisodiyotning ziddiyatlarini keskinlashtirmoqda. Kapitalning nazoratsiz harakati oqib yurishi to'lov balansi muvozanatini buzmoqda va valyutalar kursini beqaror bo'lishiga olib kelmoqda. Bu davlatning iqtisodiyoti boshqa davlatning xo'jalik iqtisodiy va siyosiy holatiga bog'liqligini xalqaro ssuda kapitali bozori esa davlatlarning o'rtasida raqobat va poygani kuchaytirmoqda.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov — keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar hajmining izchil va barqaror o'sib borayotgani e'tiborga sazovordir. 2008 yilda 1 milliard 700 million AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalar o'zlashtirildi. Bu 2007 yildagiga nisbatan 46 foiz ko'p demakdir. Eng muhimi xorijiy investitsiyalarning 74 foizi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar tashkil etdi.

«Jahon inqirozi davom etayotganiga qaramasdan, 2009 yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar hajmi 1 milliard

800 million dollarga ko'payadi, buning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri investisiyalardir»<sup>75</sup> – degan edilar.

#### 4. Mehnat resurslarining xalqaro migrasiyasi

Bozor iqtisodiyoti jamiyat a'zolarining mehnat qilish qobiliyatlaridan keng foydalanish uchun ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratadi. Respublikada o'tkazilayotgan xususiylashtirish siyosati natijasida turli mulkchilikka asosan ishlab chiqarish shakllanadi. Bu har bir kishiga o'z ishini tashkil qilishda shart-sharoitlar yaratib berdi. Tashkil etilayotgan kichik korxonalar katta investitsiya mablag'larini jalb qilmasdan turib, qo'shimcha ishchi o'rinlarini vujudga keltirishi mumkin emas. Bu respublikada makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishishda iqtisodiy islohotlarning hozirgi davrdagi strategiyasining ustivor vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlash, mehnat qilishning texnologiyalarga, xalqning tarixiy an'analari va udumlariga mos keladigan sohalarini barpo etish»dir<sup>76</sup>.

Xalqaro ishchi kuchi migrasiyasi ham jahon xo'jaligi miqyosida ishlab chiqarishni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. 90 yillarda jahonda band bo'lgan ishchilarning 25 mln.gacha yaqinrog'i ishchi kuchi migrasiyasini tashkil etib, asosiy rivojlanayotgan davlatlar hissasiga to'g'ri kelgan. Ishchi kuchi migrasiyasi qonuniy va noqonuniy migrasiyaga bo'linadi. 90 yillarda 5 mln.gacha yaqin ishchi kuchlari noqonuniy ravshda bir davlatdan ikkinchi davlatga o'tganlar. Keyingi davrlarda rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ham ishchi kuchi migrasiyasini ko'rish mumkin. Ayniqsa, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga bo'lgan qiziqish katta. Bu mamlakatlarda aholining 65% chetdan kelgan aholini tashkil etadi. Masalan: qator davlatlarda ishchilarning 85% chet elliklar, Birlashgan Arab Amirligida esa 90% ni tashkil etadi. Sobiq Ittifoq emirilgandan so'ng aholining

<sup>75</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari, T.: O'zbekiston, 2009, 18-19 betlar.

<sup>76</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 382-bet.

chetga chiqishi sobiq ittifoq respublikalarida tezlashdi. Hozir chet el davlatlarida 20 mln.gacha yaqin sobiq ittifoq fuqarolari yashaydilar, shulardan 8% gacha yaqini mehnat qilish sharoitiga ega emaslar, garchan aksariyati oliy ma'lumotli, malakali mutaxassislar bo'lsa ham. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning chet ellarda yakka tartibda faoliyat qilishlari uchun sharoitlar yaratilgan.

O'zbekiston aholisining soni va tarkibi, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotlar darajasi bilan boshqa regionlardan keskin farq qiladi. Bu farqlar tabiiy, tarixiy, milliy va ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Uzoq vaqt davomida jumhuriyat uchun aholi o'sishining mustamlaka tipi xarakterli bo'ldi. Ya'ni tug'ilishning yuqori koeffitsientiga o'limlarning o'ndan kam bo'lmagan darajasi to'g'ri kelardi. Faqat keyingi yillarda tabiat va sog'liqni saqlash sohasida ilg'orroq tajribani qo'llash xalq turmush darajasini yaxshilashga birmuncha ta'sir ko'rsatdi. Tabiiy o'sish asosan qishloq aholisi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shahar aholisining o'sishiga tug'ilish bilan bir qatorda migrasiya jarayoni ham katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Aholining tabiiy o'sishi bilan mehnat resurslaridan samarali foydalanish muammosi kelib chiqmoqda. Ish joylarini qurib, foydalanishga topshirish aholi tabiiy o'sishidan sezilarli darajada orqada qola boshladi. Ishlab chiqarish tarmoqlarining hozirgi tuzilishi mehnatga yaroqli aholini barchasini o'z bag'riga olishga hali to'liq qodir emas.

Iqtisodiy o'sishning hozirgi bosqichi mehnat resurslari malakasini oshirish muammosini ko'ndalang qilib qo'yadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan fan va texnika rivojining o'sishi va ayniqsa, vujudga keladigan yangi tarmoqlar maxsus malakali bilimni taqozo qiladi. Ayniqsa, malakali milliy mutaxassislardan iborat bo'lgan ishchi kuchining yetishmasligi keskin bo'lib qilmqda. Uning asosiy sabablari qilib, respublika umumta'lim darajasida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimining hali yetarli darajada mukammal emasligini ko'rsatish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoiti talablariga javob beradigan darajada ishlab chiqarishni tashkil etishga bozor iqtisodiyotini yaxshi biladigan, marketing menejment, moliya va kredit

masalalarini tushunadigan, tayyorgarlik ko'rgan menejer, ishbilarmon kadrlarga ega bo'lgandagina erishish mumkin. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: — «bozor o'zgaruvchan sharoitlarida mehnat qilishga layoqatli bo'lgan o'zimizning yuqori malakali mahalliy kadrlarimizsiz O'zbekistonning mustaqilligini tasavvur qilish qiyin»<sup>77</sup>.

Shuning uchun ham respublikada «Ta'lim to'g'risida» qonun va Milliy ta'lim dasturlari qabul qilindi. Qabul qilingan Qonun va dasturga asosan kadrlarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish asosida yagona uzluksiz milliy ta'lim tizimini yaratishga asos solindi. Shunga asosan iqtidorli yoshlarni xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy o'quv yurtlariga, ilmiy markazlarga, firmalarga o'qishga va malaka oshirishga yuborilmoqda.

O'zbekiston industriyasi, o'tmishda asosan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki xomashyoni dastlabki qayta ishlashga yo'naltirgan edi. Ular respublikadan tashqaridagi yirik korxonalariga yuborilar edi. Xalq iste'mol mollarining salmog'i sanoat mahsuloti umumiy hajmda 25% dan oshmas edi. Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston juda boy moddiy va mehnat resurslariga ega, faqat bu boyliklardan foydalanishni to'g'ri tashkil etish kerak.

## **5. O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jaligiga qo'shilishining xususiyatlari**

O'zbekiston o'zining mustaqilligini e'lon qilganidan keyin uning bevosita xalqaro bozorga kirishi jahon infrastrukturasi bilan bog'lanishi ob'ektiv realikka aylandi. Ammo, buning iqtisodiy va siyosiy suverenitetidan tashqari yana bir qator sharoitlari bo'lishi kerak. Birinchi navbatda iste'mol bozorini to'yintirib, so'mning qadr-qimmatini tiklab, asta-sekin respublikaning iqtisodiy va moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirib borish kerak. Bu erda yana bir muhim muammolardan biri yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdir. Ma'lumotlarga ko'ra,

mustaqillikka erishgunga qadar yetishtirilgan paxtaning 99% dan ortiqrog'i tola shaklidagi xomashyo sifatida eksport qilindi. Birgina Rossiyaning o'zida 10 mln.ga yaqin ishchi O'zbekiston paxtasini qayta ishlash sanoat korxonalarida ish bilan band bo'lgan. Bu degani O'zbekiston olishi mumkin bo'lgan milliy daromadning katta qismidan mahrum bo'lgan. Shuningdek, qayta ishlash sohasining rivojlanmaganligi sababli yetishtirilgan meva sabzavot mahsulotlarining 10% dan 40% gachasi iste'molchi dasturxoniga yetib bormasdan nobud bo'lmoqda.

Keyingi yillarda O'zbekistonning chet mamlakatlar bilan iqtisodiy hamda ilmiy-texnik aloqalarni rivojlantirish yuzasidan bir qator tadbirlar, qarorlar qabul qilindi.

Respublikada paxta tolasi eksporti hajmi yildan yilga kamayib bormoqda. 1930 yilda O'zbekiston jahon bozoriga chiqarilgan tovarlarning 80% paxta tolasini tashkil etgan bo'lsa, 1990 yilga kelib, ham eksportning 84,9% xomashyo tolasini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2007 yilga kelib 30,8% tashkil etdi. Chunki, xomashyo sotish jahon bozorida juda kam samara beradi.

Bozorda asosan tayyor mahsulot yuqori baholanadi. Eksport hajmini tayyor mahsulot hisobiga oshirish O'zbekistonga chet el investitsiyalarini ko'plab jalb etishni taqozo etadi. 1997 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi juda ko'p xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni o'rnatdi. Shulardan, Xalqaro Millatlar Tashkiloti, Xalqaro Valyuta fondi, Jahon banki, Evropa tiklanish va rivojlanish banki va boshqalar.

O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan rivojlanishida asosan chet el investitsiyalarni kiritish asosiy o'rin tutadi. Faqat 1997 yilda ularning hajmi 1,1 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa 2008 yildan boshlab u 1,7 milliard O'zbekiston iqtisodiga AQSh dollari miqdorida investitsiya sarflandi. O'zbekiston Respublikasining tovar va xizmatlar eksporti 2006–2007 yillarda 127,4 foizga ko'payib 8991,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tashqi bozorda kon'yukturaning yomonlashuviga qaramasdan 2008 yilda, tashqi savdo aylanmasi 21,4 foizga oshdi, ayni vaqtda tovarlar va xizmatlar eksporti 28,7 foizga o'sdi.

<sup>77</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. «O'zbekiston», 1998 y. 55-bet.

## Asosiy atama va tushunchalar

Halqaro iqtisodiy integrasiya, iqtisodiy xudud (zona) bo'jxona, industrial, yangi industrial, rivojlangan, rivojlanayotgan davlatlar, chetga kapital chiqarish, sohibkorlik, ssuda kapital portfel investisiyalari, infratuzilma.

### 23-mavzu. XALQARO SAVDO VA SAVDO SIYOSATI

#### 1. Xalqaro savdo haqidagi klassik nazariyalar va ularning shu kundagi ko'rinishlari

Xalqaro savdo qadimgi davrlardayoq bo'lgan. Grek, arab, xitoy davlatlari qadimgi davrlarda hunarmandlik buyumlari qimmatbaho toshlar, tirik tovarlar (qullar) bilan savdo sotiq ishlarini amalga oshirganlar. O'rta asrlarda Venesiya, Xiva, Buxoro, Qo'qon shaharlarida savdo gullab yashnagan, lekin u davrlarda chet davlatlar bilan savdo aloqalari ommaviy bo'lmagan. Pulning umumiy xarakterga ega bo'lmaganligi tufayli savdo ishlari barter ko'rinishida bo'lgan.

Yirik ilmiy kashfiyotlarning yaratilishi asosida orttexnikalarni ishlab chiqarilishi natijasida sanoat inqilobi milliy iqtisodni jahon iqtisodiyotiga o'sib o'tishiga sabab bo'ldi. Davlatlar o'zaro savdo aloqalarini amalga oshirish bilan o'zaro manfaatdorlikka erishishga harakat qila boshladilar.

Jahon xo'jaligini shakllanishi iqtisodiyot nazariyasi Fanining oldiga mamlakatlarni xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashishining foydalimi yoki yo'qmi degan muammoni aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Bu muammo bilan savdoning vujudga kelishi davridan boshlab qiziqib kelinmoqda. XV-XVI asrlarda birinchi marta savdo munosabatlariga merkantilistlar e'tibor berganlar. Ular dastlab yopiq savdoni targ'ib qilgan bo'lsalar, keyinchalik ochiq savdoni qo'llash zarur ekanligini nazariy jihatdan asoslab berdilar. Bunday qarashlar A.Monkreten, U.Stafford, J.B.Kolber asarlarida aks ettirilgan. Merkantilistlarning g'oyalarini XVII-XVIII asrlarda A.Smit davom ettirgan hamda o'zining «Mutlaq afzallik»

nazariyasiga asos solgan.

Bu nazariyaga muvofiq ba'zi bir davlatlar biror mahsulotni ishlab chiqarganda mutloq afzallikka, samaradorlikka erishadilar. Buning sababi bu davlatlarning o'zga davlatlarga nisbatan qulay bo'lgan tabiiy shart-sharoitga ega ekanligidir. Masalan: Hindistonda choy yetishtirish, Braziliyada kofe, O'zbekistonda paxta yetishtirish qulay va arzon. Sababi: tabiiy sharoit qulay.

Bu davlatlar uchun o'zaro yetishtirgan tovarlarni almashlash foydaliroq. Chunki O'zbekistonda kofe, choy yetishtirish mumkin bo'lsada, biz uchun samarasiz. Lekin ko'pgina davlatlar mutloq afzallikka ega bo'lmasalarda xalqaro savdoda ishtirok etadilar. Bunday ziddiyatni ingliz iqtisodchisi D.Rikardo o'zining **nisbiy afzallik nazariyasida** tushuntirib bergan. Aynan bir xil tovar ishlab chiqaruvchi boshqa davlatlarga nisbatan mehnat unumdorligi yuqori bo'lganligi sababli samaraga ega bo'ladi, uning tovari kam xarajat talab etadi. Natijada tovarlarni sotgan davlatlarga nisbatan ustunlikka ega bo'ladi.

Xalqaro savdo mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiq tovarlarni chetdan olib kelish (import) va chetga chiqarish (eksport) bilan karakterlanadi. Xalqaro savdoning iqtisodiy asosi xalqaro mehnat taqsimotidir. Xalqaro savdo asosida dunyoda mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslar qaytadan taqsimlanadi. Jahon savdosining tuzilishini 60% xomashyo materiallari, 40% tayyor mahsulotlar tashkil etadi.

Xalqaro savdoning elementlariga **eksport, import, reeksport, reimport** kiradi. **Reeksport** deganda o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi davlat uchun olib sotiladigan tovarlar kiradi. **Reimport** esa iste'molchi mamlakatlardan reeksport qilingan tovarlarni sotib olishni ifodalaydi.

**Reimport** – **reeksport** tovarlarni xarid qiluvchi iste'molchilar hisoblanadi. Xalqaro savdo oboroti import va eksport tovarlarining pulda ifodalangan yig'indisi hisoblanadi. Tashqi savdo sharoitida mamlakat daromadlarining modeli quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

Daromad = iste'mol + investitsiyalar + eksport -import.

Import bilan eksport o'rtasidagi farq savdo balansining qoldig'i (saldosi) hisoblanadi, ya'ni sof eksportni o'zida

ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon eksport sohasida ijobiy iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishildi. Garchan tovarlar va xizmatlar eksport i AQSh dollari qiymatida 1977 yilda 4,4 foizga, 1998 yilga kelib 20,0 foizga kamaygan bo'lsa ham. 2002–2003 yillarda 28,0 foizga ko'paydi va 3723,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 2008 yilda tashqi bozor konyukturasining yomonlashuviga qaramasdan, savdo aylanmasi 21,4 foizga ko'paydi. Ayni vaqtda tovarlar va xizmatlar eksporti 28,7 foizga ko'paydi. Umumiy eksport hajmida xomashyo bo'lmagan tovarlarning ulushi 71 foizdan ortiq bo'lgan. Paxta tolasini chetga sotish esa, 2003 yilga nisbatan 2008 yilga kelib 20 foizdan 12 foizga kamaygan<sup>78</sup>.

Bu jarayon Respublikamiz uchun ham muhim ahamiyatga ega. Buni Prezidentimiz ham o'z asarlarida ta'kidlab o'tganlar: «Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga o'zining jahon hamjamiyatidagi integrasiyalashuvini ta'minlashga Xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqalar ham katta yordam ko'rsatmoqda. Biz mamlakatimizning har yili Davos shahrida o'tkazilgan jahon iqtisodiy anjumanida qatnashishi katta ahamiyatga ega, deb bilamiz. Anjumanda qatnashgan O'zbekiston uchun uning imkoniyatlarini tanishtirish, chet el investitsiyalarini jalb etish uchun muhim ahamiyatga molik»<sup>79</sup>.

Natijada O'zbekiston Respublikasining 2008 yildagi tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldogga ega bo'ldi. Bu respublika iqtisodiyotini makroiqtisodiy barqarorlik asosida rivojlantirish yotganligini ko'rsatadi.

## 2. Savdo siyosati: nazariya va tajriba. Savdo siyosatini amalga oshirish vositalari

<sup>78</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish davri talabi. O'zbekiston ovozi, 2009 yil 14 fevral

<sup>79</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari, Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 160–161 betlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo faoliyati davlat tomonidan boshqariladi. Boshqarish huquqiy asoslarni vujudga keltirish asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon Respublikamiz uchun ham muhim ahamiyatga ega. Buni Prezidentimiz ham o'z asarlarida ta'kidlab o'tganlar: «Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integrasiyalashuvini ta'minlashga iqtisodiy hamkorlik sohasidagi ko'pgina nufuzli xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a'zosi bo'lishi qisqa vaqt ichida Respublika Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro elektr aloqa uyushmasi, Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, Evropa qayta tiklash va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Xamdo'stlikning mintaqaviy iqtisodiy tashkiloti, Bojxona hamdo'stligi kengashi va boshqa shu kabi mashhur xalqaro iqtisodiy hamda moliyaviy tashkilotlarga qabul qilinishi, ... iqtisodiyotimizning chet el investitsiyalarning keng jalb qilish, chet ellik investorlarning huquqlari va manfaatlari ishonchli himoyalashining kafolatlarini ta'minlashi bo'yicha qonun asoslari qabul qilinishi katta ahamiyatga ega bo'ladi»<sup>80</sup>.

**Xalqaro savdo**, xalqaro savdo siyosatini amalga oshirishni taqozo etadi. Xalqaro savdo siyosati, milliy siyosatdan darajasi va xarakteri jihatidan tubdan farq qiladi.

Davlat tashqi iqtisodiy savdo aloqalarini amalga oshirish masadida **ochiq savdo siyosati (fritrederlik) va yopiq savdo siyosatini (proteksionizm)**ni amalga oshiradi.

**Ochiq savdo siyosati (fritederlik)** milliy iqtisodni himoya qilish va rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladi. Yopiq savdo siyosati (proteksionizm) merkantilizmning ilk rivojlanishi davrida vujudga kelgan bo'lib, davlat budjetining daromad qismining katta qismi boj solig'i hisobida tarkib topgan. **Proteksionizm** siyosati chet el tovarlariga har xil to'siqlar qo'yish yordamida amalga oshiriladi. To'siqlar turli ko'rinishlarda bo'ladi:

1. Bojxona tariflari: Tariflar importga solinadigan soliqlardir. Tariflarning ikki xil turi mavjud. Chet eldan

<sup>80</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston» 1998 y. 143–144, 208 betlar.



kelayotgan tovarlardan daromad olish uchun hamda ichki bozorni chet el tovarlari kirib kelishidan ma'lum darajada himoyalash uchun aksiz solig'i hisoblanadi. Fiskal tariflar davlat tomonidan pul mablag'lari oqib kelishini ko'paytirish maqsadida qo'llaniladi.

2. Kvotalar: Muayyan nomdagi va turdagi import qilinadigan tovarlar miqdorini chegaralab qo'yish hisoblanadi.

3. Demping – o'zga davlat tovarlarini sotishga to'sqinlik qilish maqsadida milliy mahsulotlar bahosini tushirish.

4. Kelayotgan import tovarlarga olgan lisenziyasini talab qilish.

### 3. Tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarish.

#### O'zbekistonning xalqaro savdo tashkilotiga qo'shilishi

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning oliy shakli bu jahon xo'jaligidagi integrasiya aloqalaridir. Iqtisodiy integrasiya g'oya murakkab jarayon bo'lganidan unga xos hodisalarni hisobga olgan holda uni baholash mumkin.

Jahon xo'jaligidagi iqtisodiy integrasiya milliy bozorlar va mamlakatlar milliy xo'jaliklari o'rtasida uzviy bog'liq hamjihat rivojlanishini ta'minlash turli mamlakatlar doirasida resurslarning erkin harakat qilishi, yagona umumiy bozor tashkil qilish maqsadida birlashuvidir.

Milliy mudofaa xavfsizligini ta'minlashni asosiy vazifasi, ish bilan bandlik darajasini oshirish, boshqa mamlakatlar tomonidan iqtisodiyotdagi barqarorlikni buzish, hali o'zi tiklab olmagan yosh tarmoqlarni himoya etish, milliy bozorni chet el firmalarining demping (tovarni foyda ko'rmasa ham bozorni egallash maqsadida arzonlashtirib sotish) siyosatidan himoya etish, chet eldan arzon ish kuchini kirib kelishidan himoya etishdir.

Xalqaro mehnat taqsimoti qancha chuqur bo'lsa va ishlab chiqarishdagi kooperasiya aloqalari qanchalik mustahkam bo'lsa, iqtisodiy integratsiya shunchalik muvaffaqiyatli va turli shakllarda rivojlanadi. Shuning uchun ham 1947 yili 23 ta davlat o'rtasida savdo va boj siyosati bo'yicha «Xalqaro tarifni belgilash va savdoni amalga oshirish bitimi» tuzildi. Hozirgi davrda bu bitimga 111 ga yaqin davlatlar a'zo bo'lib, kelishuv Qoidalari asosida

xalqaro savdoning 85 foizi amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham 1999 yilda kuzauvchi sifatida shu tashkilotga a'zo bo'ldi.

1994 yilda davlatlar o'rtasida kelishmovchilik bo'lishi natijasida tashkilot inqirozga yuz tuta boshladi. Uganda raundida 1994 yildan boshlab, tashkilotning nomi (GATT) Xalqaro savdo tashkiloti (XST), deb nomlanadi.

Natijada davlatlar o'rtasida tariflar erkin savdo zonalarini aniqlash o'zaro savdo-sotiq yuzasidan olib boriladigan qonun qoidalar davlatlarning manfaatlarini himoyalash maqsadida qaytadan ko'rila boshlandi. Rimda Xalqaro Evropa iqtisodiy uyushmasi (EIU) tashkil topdi. Bu uyushmaga 13 ta davlat a'zo bo'lib u «umumiy bozor» nomini oldi. Umumiy bozor uyushmasining asosiy maqsadi shu uyushmaga a'zo bo'lmagan davlatlar tovarlari uchun umumiy boj tizimini joriy etish, umumiy bozor uyushmasiga a'zo bo'lgan davlatlar o'rtasida ishchi kuchi va kapitalni erkin harakat qilishini ta'minlash, iqtisodiy sohada o'zaro manfaatdor bo'lgan umumiy siyosatni ishlab chiqishdan iborat bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik davrining boshlarida jahon savdo bozorlariga chiqishda ma'lum darajada chegaralangan edi. Hozir esa respublika o'zining mahsulotlari paxta tolasi, benzin, gaz, oltin, texnika va avtomobil va, boshqa tayyor mahsulotlari bilan jahon bozorida o'z o'rnini egallamoqda.

#### 4. Savdo balansi va uning tarkibiy tuzilishi. Savdo balansini tartibga solish usullari

Har bir davlat ma'lum vaqt davomida iqtisodiy aloqalarning borishi haqida ma'lumotlarni to'playdi. Tashqi savdoning chet davlatlarda qanday ahvolda olib borilayotganligini ifodalaydigan ma'lumotlardan biri **to'lov balansi** hisoblanadi. Agarda mamlakatga kirib kelayotgan mablag'lar nisbiy bo'lsa, **to'lov balansi salbiy** bo'ladi. To'lov balansi passiv bo'lganda, kamommad chet davlatlarga qimmatbaho qog'ozlar (zayom) sotish yoki Markaziy bank zahiralardan qoplash hisobiga to'latiladi. Har qanday davlatning rasmiy valyuta zahiralari

**O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy  
faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (mln.doll.)**

| Ko'rsatkichlar                   | 2006 yil | 2007 yil | 2007 yil 2006<br>yilga nisbatan<br>foiz hisobida |
|----------------------------------|----------|----------|--|
| Tashqi savdo aylanmasi           | 11171,4  | 14227,1  | 127,4  |
| Shu jumladan:                    |          |          |  |
| MDH davlatlari                   | 4746,1   | 6994,8   | 147,4  |
| Xorijiy davlatlar                | 6425,3   | 7232,3   | 112,6  |
| Eksport                          | 6389,8   | 8991,5   | 140,7  |
| Shu jumladan:                    |          |          |  |
| MDH davlatlari                   | 2685,5   | 4273,0   | 159,1  |
| Xorijiy davlatlar                | 3704,3   | 4718,5   | 127,4  |
| Import                           | 4781,6   | 5235,6   | 109,5  |
| Shu jumladan:                    |          |          |  |
| MDH davlatlari                   | 2060,6   | 2721,8   | 132,1  |
| Xorijiy davlatlar                | 2721,0   | 2513,8   | 92,4   |
| Savdo balansi                    | 6389,9   | 8991,5   | 140,7  |
| MDH davlatlari                   | 2685,5   | 4273,0   | 159,1  |
| Xorijiy davlatlar                | 3704,3   | 4718,5   | 127,4  |
| Tashqi savdo aylanmasini tarkibi |          |          | -  |
| MDH davlatlari                   | 100      | 100      | -  |
| Xorijiy davlatlar                | 42,8     | 18,3     | -  |
|                                  | 57,2     | 31,7     | -  |

chegaralangandir. Shuning uchun to'lov balansining uzoq, muddat kamomadli holda bo'lishi davlatning valyutalarini behudaga sarflanishiga, isrof bo'lishiga sabab bo'ladi.

Bunday davlat to'lov balansini muvozanatli holga keltirishga harakat qilishi kerak. Davlatlar to'lov balanslarini xalqaro valyuta fondining (XVF) tavsiyalari asosida tuzishlari kerak. Bu murakkab hujjat yuzdan ortiq bo'limlardan iborat. To'lov balansi bo'jxona xizmatchilarining ma'lumotlari asosida tuziladi. Chunki, xalqaro savdodagi tovarlar harakatining real ko'rinishi bo'jxonalaridan o'tadi.

Savdo balansi davlatning xalqaro miqyosdagi faoliyatining jamini o'zida ifodalaydi, odatda bir yil muddatga tuziladi. Xalqaro valyuta fondining talabiga binoan savdo balansi:

- joriy operatsiyalar balansi;
- pul kapitallari balansi;
- rasmiy valyuta zahiralarning pirovard holdagi o'zgarishlarini o'z ichiga oladi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar valyutalarni xarid qilish va sotish operatsiyalardan iborat bo'lganligi sababli savdo balansida valyutalarning kirishi (+) va chiqib ketishi (-) belgilarda ifodalanadi.

Quyidagi 1-jadvalda respublika tashqi savdosining 2002-2003 yillarda jahon kontingentlari bilan savdo kilish ma'lumotlari keltirilgan.

2006-2007 yillarda respublika bo'yicha savdo balansida aktiv bo'lib 6389,9 mln. dollardan 8991,5 mln. dollarga o'sgan yoki 1,4 marotaba ko'paygan.

To'lov balansi savdo balansiga nisbatan keng ma'noga ega. To'lov balansida davlatlar o'rtasida amalga oshiriladigan turizm, ish kuchi migratsiyasi, kapital almashish, investisiya sohasiga tegishli bo'lgan mablag'larning nisbati ham olinadi.

Kommersiya operatsiyalarining xalqaro hisoblari naqd pullarsiz amalga oshiriladi. Shuning uchun uning ma'lumotlari buxgalteriya hisobotlaridan olinadi. Xalqaro hisoblar erkin almashtiriladigan valyutada, o'zaro tovar ayirboshlash formasida va kliring savdosi yordamida amalga oshiriladi.

**Kliring** – deganda (inglizcha aniq, tozalash) o'zaro tovar almashishi jarayonida vujudga kelgan farqni xalqaro valyuta yordamida to'lash tushuniladi. Banklararo kliring va xalqaro valyuta kliringlari mavjud. O'zbekiston Respublikasining MDH va uzoq xorijiy davlatlari bilan savdo holati 1-jadvalda keltirilgan<sup>81</sup>.

O'zbekiston Respublikasi 2007 yildagi savdo aloqalarida, tashqi savdo faoliyatida tovar aylanmasining 49,1 foizi, eksportni, 47,5 foizi importni va 52,2 foizi MDH mamlakatlariga to'g'ri kelgan.

<sup>81</sup> O'zbekiston statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Mamlakatlarning o'zaro va umumjahon miqyosidagi aloqalarining chuqurlashuvi, ularning shakllarini yangilash borishi insoniyatning iqtisodiy umumiylikini kuchaytiradi, jahon xo'jaligini yangi bosqichga olib chiqadi.

### Asosiy atama va tushunchalar

Boj solig'i, aksiz solig'i, demping, tovar almashuvi, eksport, import, reeksport, reimport, savdo balansi, aktiv balans, passiv balans, proteksionizm, fritiderlik.

## 24-mavzu. VALYUTA TIZIMI VA VALYUTA MUNOSABATLARI

### 1. Xalqaro valyuta tizimi, uning tuzilmasi, faoliyat qilish sabablari va shakllanish bosqichlari

Jahon xo'jaligi aloqalarni yaxshi yo'lga qo'yilgan valyuta munosabatlari tizimisiz tasavvur etish mumkin emas. Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro to'lov aylanmasida pulning harakat qilishi boshlanishi bilan vujudga kelgan. Valyuta munosabatlari taraqqiyoti ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, jahon xo'jaligi tarkibining o'zgarishi bilan bog'langandir.

Valyuta munosabatlari – bu davlatlar o'rtasida tashqi savdoga kapital chiqarish, foydani olib chiqish, zayom va subsidiyalarni olish, fan va texnika sohasida ayirbosh qilish turizm va boshqa shunga o'xshash xo'jalik aloqalariga xizmat qiluvchi jahon puli amal qilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlardir.

Valyuta munosabatlari taqsimot va almashuv sohasida amal qiladi. Lekin nisbatan mustaqil holda to'lov balansi, valyuta kursi, kredit va hisob operatsiyalari orqali jahon iqtisodiyoti ahvoriga, ijtimoiy takror ishlab chiqarishning, ayrim mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga, ularning xalqaro iqtisodiy aloqalarini tuzish ko'rinishlarida ta'sir o'tkazadi.

Bunda davlatlar o'rtasida hisob-kitob bir maromda, silliq ko'chmaydi, o'zaro nizolar va kelishmovchilik ostida bo'ladi.

Hozirgi zamon valyuta munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi, jahon xo'jaligining samarali rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoitni yaratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish hammaga ma'lum dasturlar moliya, kredit, soliq, valyutaa siyosati narxlarni nazorat qilish hamda bilvosita ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari yordamida amalga oshiriladi» degan edi<sup>82</sup>.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro valyuta munosabatlarida teng huquqli sub'ekt sifatida qatnashish uchun xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar – Xalqaro valyuta fondiga, Xalqaro qayta tiklash va rivojlantirish bankiga, Osiyo taraqqiyot bankiga a'zo bo'ldilar.

Har bir milliy bozor o'zining milliy valyuta tizimiga ega. Milliy valyuta tizimi mamlakatning pul tizimining bir qismi bo'lib, uning doirasida valyuta resurslari shakllantiriladi va foydalaniladi, xalqaro to'lov oboroti amalga oshiriladi.

Unga quyidagi asosiy belgilarning bo'lishligi hosdir:

- milliy valyuta birligi;
- rasmiy tilla valyuta rezervi;
- pul birliklari qiymatining oltin baravarida kurs shakllanishining tengligi;
- valyutani qaytarish sharti;
- valyutaga cheklashning bor yoki yo'qligi;
- davlatning tashqi hisob tartibi;
- milliy valyuta bozori va oltin bozorini tartibi;
- mamlakat valyuta munosabatlarini boshqarishni ta'sis etuvchi milliy huquqi.

Milliy valyuta tizimi pul tizimining tarkibiy qismidir. Uning o'ziga hosligi mamlakat iqtisodiyotining, shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanganlik darajasi sharoiti bilan belgilanadi.

Valyuta munosabatlarini tartibga solishda milliy valyutani mustahkamlash katta iqtisodiy ahamiyatga ega. «Milliy valyuta

<sup>82</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 43–bet.

birinchi bosqichda tovar massasi bilan ishonchli ravishda mustahkamlangan, dunyo valyutasi bilan bog'langan va kafolat topgan holda respublikada almashtiriladigan bo'ladi... Unga biror narsa sotib olish mumkin bo'lgandagina u o'z qiymatini, harid qilish qobiliyatini saqlab qoladi<sup>83</sup>.

Jahon valyuta tizimi bu — jahon xo'jaligining rivojlanishi va davlatlararo kelishuviga muvofiq huquqiy mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlari shaklidir. Uning asosiy belgilari quyidagilardan:

- milliy va jamoa valyuta mablag'i va oltin rezervining tarkibi va tuzilishi;
- teng valyuta va kurs mexanizmi;
- o'zaro valyutani qaytarish sharti;
- valyuta miqdorining cheklanishi;
- xalqaro hisob shakli;
- xalqaro munosabatlarni tartibga solib turuvchi xalqaro kredit tashkilotining huquqiy holatidan iborat.

Shuni ta'kidlash kerakki, xalqaro valyuta tizimi milliy valyuta tizimlari asosida harakat qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablag'larini, shu jumladan valyutani almashtirish va sotish yirik tijorat banklari vositasida amalga oshiriladi. Bu banklar orqali savdo va boshqa tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida mijozlar ushbu bankka pul qo'yish va uni boshqa mamlakatga boshqa turdagi valyuta bilan almashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xalqaro valyuta bozorining yirik markazlari Tokio, Nyu-York, Bryussel shaharlari hisoblanadi.

Xalqaro valyuta tizimi o'z taraqqiyotida uch bosqichni bosib o'tgan. Xalqaro valyuta tizimining birinchi bosqichi XIX asr ohirida oltin andoza asosida yuzaga kelgan bo'lib, bunda ayrim mamlakatning milliy valyutasi bozorda oltinga erkin almashtirilgan. Bu valyuta tizimi XX asr boshlaridagi buyuk depressiya davrida barbod bo'ldi. Ikkinchi bosqichda 1944 yil AQSHda Bretton-Vuds konferensiyasida rasmiylashtirilgan valyuta kursining oltin andozasi saqlanib qolindi. Lekin bunda AQSH dollari oltin va valyuta almashinuvida bosh vositachi qilib

belgilandi. Bu ikkala vositada ham valyuta kursi hukumat tomonidan oltinni jahon bozoridagi bahosiga ko'ra belgilab qo'yish asosida amalga oshirildi.

Ushbu konferensiyada «Xalqaro valyuta fondi» tashkil etildi.

1971yilga kelib AQSH hukumati dollarini oltinning rasmiy bahosi bo'yicha almashtirib olishdan bosh tortdi. Chunki, bu davrga kelib jahondagi pul zahirasi o'sishi qazib olinayotgan oltin miqdoriga bog'liq bo'lib qoldi. Shuningdek, oltin zahiralarning o'sishi, xalqaro savdo va moliya miqyoslarining o'sishidan orqada qola boshladi.

Bu orada chet mamlakatlarga chiqib ketgan AQShning dollari miqdori ko'payib savdo balansida kamomad ortib ketdi, hozirda amal qilib turgan uchinchi bosqich 1976 yilda HVF tomonidan joriy etilgan bo'lib, davlatlar o'rtasida valyuta munosabatlari milliy pul birligining o'zgarib turuvchi, suzuvchi kurs asosida harakat qilishini belgilashdan boshlanib hozirgacha davom etib kelmoqda. Mamlakat agarda quyidagi uchta shartni bajarsa oltin andoza qabul qilgan hisoblanadi: o'zining pul birligiga ma'lum miqdorda oltin o'rnatish; mavjud oltin zahirasi bilan taklif pul miqdori o'rtasida qat'iy nisbatni saqlash; oltinning erkin eksport va importiga qarshilik qilmaslik. Bunga ko'ra, agarda har qaysi davlat o'zining pul birligiga oltin holatini belgilasa, turli milliy valyutalar o'zaro belgilangan nisbatlarga ega bo'ladi. Masalan; AQSH o'z dollarini 0,1gramm oltinga tenglashtirsa, Angliya esa funt sterlingni 0,2 gramm oltinga, demak bir funt sterling ikki dollarga teng. Ammo «Oltin andoza» tizimiga ko'ra mamlakat milliy valyutasini joriy etish uchun; albatta o'z oltin zahirasi ega bo'lmog'i kerak va oltin zahirasi tugasa «Oltin andoza»dan voz kechishga majbur bo'ladi.

Hozirgi vaqtda amal qilayotgan xalqaro valyuta mexanizmining asosiy ko'rinishlari quyidagicha. Valyuta birligini oltinga bog'liqligi yo'qoldi. Natijada o'zgarimas baho belgilash ham yo'q bo'ldi. Oltin nafaqat ichki, hatto jahon bozorida ham umum to'lov vositasi pul rolini bajarishdan to'xtadi.

Shuning uchun kollektiv valyuta birligini yaratishga erishilmaganligi uchun dollar valyuta moliya mexanizmida asos bo'lib qolmoqda va xalqaro muammolarda kredit to'lovi vositasini bajarmoqda, bosh valyuta rezervi rolini o'ynamoqda.

<sup>83</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 52, 166-betlar.

Shuning uchun «Umumiy bozor»ga kiruvchi davlatlar o'zlari uchun umumiy valyuta tizimini shakllantirishga qaror qildilar. Bu valyuta – Evropa valyuta tizimi (EVT) bo'lib, u 1979 yilning mart oyidan boshlab shu kungacha amal qilib kelmoqda.

Buning uchun Evropa Markaziy Bankini tashkil etish va Evropa Davlatlarining Milliy Banklari uning bo'limlariga aylanishi belgilangan. Hozirgi kunda Evropa iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo bo'lmagan davlatlarning banklari ham bu valyutalar yordamida hisob-kitoblarni olib bormoqda. Hozirgi kunda Evropa valyutasining muomalaga qo'shilishi ham yagona valyuta tizimining Yangi turi vujudga kelmaganidan dalolat beradi. Buning sababi davlatlarning manfaatlari o'rtasida juda katta farqning mavjud ekanligidir.

Osiyo, Afrika va London Amerika davlatlarida ham bir necha xil jamoa valyutasi mavjud bo'lib, uning hisob-kitobi Arab valyuta fondining dinorini, AND paktining AND pessosida va Afrika davlatlari va uning doirasiga kiruvchilar Fransiya frankida hisob-kitob yuritadilar. Xalqaro valyutaning eng asosiy xususiyatlaridan biri uni konvertasiyalashuvidir. Ya'ni, milliy ichki pul valyutasi chet el davlatlari valyutalari bilan almashinuvidir.

Valyutalarni konvertasiyalashuvi ya'ni almashuvi erkin, qisman va almashmaydigan valyutalarga bo'linadi. Erkin almashuvchi valyutalar belgilangan xalqaro kurslarda barcha chet el valyutalari bilan almashinadi. Masalan: AQSh dollari, Kanada dollari, Yaponiya yeni bunga misol bo'la oladi. Ayrim milliy ichki valyutalar cheklangan darajada xalqaro muomalalarda bo'lishi mumkin. Masalan: tovar-pul munosabatlarida faqat tovar operatsiyalarida konvertasiya bo'lmaydigan milliy valyuta faqat ichki to'lov muomalasida qo'llaniladi. Milliy valyutalarning konvertasiyalashuvi ichki va tashqi konvertasiyalashuviga bo'linadi. Tashqi valyuta konvertasiyalashuvida chet elning yuridik va fuqarolik huquqiga ega bo'lgan shaxslar bemaol milliy valyuta ko'rinishida to'lovni amalga oshirishlari yoki milliy valyuta ko'rinishida aktivlarga ega bo'lishlari mumkin. Ichki konvertasiyada faqat chet el valyutasini davlatning o'zida harid qilish va ayrim to'lash hisob-kitoblarini amalga oshirish mumkin..

## 2. Valyuta kursi va harid qobiliyatining ustunligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Milliy valyuta – milliy iftihor, davlat mustaqilligining ramzi, suveren davlatga xos belgidir. Bu respublikaga tegishli boylik va mulkdir... o'z valyutamiz tovar bilan barqaror ta'minlangan taqdiridagina real kuch va obro'ga ega bo'ladi... valyutaning barqaror amal qilish uning muhimligi, erkin almashinuvi yetarli valyuta zahirasi bo'lishiga bog'liq... milliy valyutani mustahkamlashning eng muhim sharti inflyasiyaga qarshi baquvvat, puxta o'ylangan siyosat o'tkazishdir», – degan edi<sup>84</sup>.

Bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan narxi **valyuta kursi** deb ataladi. Masalan: AQSh dollari 85,5 so'mga yoki nemis markasi 47,25 so'mga teng va hokazo. Yoki teskarisi agarda milliy valyuta chet el valyutasiga tenglashtirilsa, teskari tenglashtirish deyiladi. Masalan: 1 so'm = 0,0117 AQSh dollariga, 1 so'm = 0,0212 nemis markasiga va hokazo. Agrar valyuta narxi oshsa, kurs yuqorilashgan bo'ladi yoki aksincha. Valyuta tovar bo'lganidan uning narxini belgilovchi asos bo'lishi kerak. Shunday asos valyutalar «harid qobiliyatining pariteti» deyiladi, uni valyuta birligini qurbi, ya'ni uning harid qobiliyati belgilaydi. Masalan: 1 dollar, 1 marka, 1 so'm, 1 tangaga nima olish mumkin, shunga qarab valyuta kursini hisoblashda eng muhim tovarlar narhiga qarab har bir valyutaning kursi aniqlanadi.

Valyutaning harid qilish qobiliyati quyidagicha belgilanadi.  
 $Vhq R$  dollarda/ $R$  so'mda = dollar miqdori/so'm miqdori = 1/85

$R$  – baho savatchasi

$Vhq$  – valyutaning xaridorgir qilish qobiliyati

Valyuta harid qilish qobiliyati pariteti nazariyasiga XX asr boshlarida shved iqtisodchisi G.Kassel (1886–1945) asos solgan. Bu nazariyaga asoslangan holda xalqaro iqtisodiy tenglashuvlar asosida, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotlari ish yuritmoqdalar. Inflyasiya davrlarida pulning jamg'arish vazifalarini chet el valyutalari amalga oshiradi.

<sup>84</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston» 1998 y. 369, 371, 373. 374–betlar.

Bu davrda chet el valyutalari qiymati oshadi.

Valyuta kursi ayirboshlash kursi deb ham ataladi. Biror davlat valyutasi bahosining boshqa valyutaga nisbatan pasayishi **devolvasiya** deyiladi. Bahosining ko'tarilishi esa **revolvasiya** deyiladi. Valyuta kursi ikki turga bo'linishi mumkin:

– qat'iy o'zgarmaydigan kurs – valyutalar narxi barqaror turadi;

– suzib yuruvchi kurs – valyutalar kursi o'zgarib turadi, ammo ma'lum chegarada yuz beradi, ya'ni kurs cheksiz oshib yoki kamayib ketmaydi.

Valyuta kursi ta'sirida eksport yoki import ustivorligi ta'minlanadi. Bozor o'zgarsa resurslar oqimi ham o'zgaradi. Valyuta kursining o'zgarishlari bevosita iqtisodiyotga tasir etganida uni o'zgartirish bilan iqtisodiyotga tartib beriladi. Valyuta kursi pul qadrini ifodalaydi. Valyuta kursi deb chet el valyuta qiymati birligini milliy valyuta birligini qiymatiga tenglashtirishga aytiladi.

Valyuta bahosi va valyuta bozori depozitvlari valyuta kurslariga va banklarga qo'yilgan valyutalarga to'lanadigan foizlarga bog'liq bo'ladi. Masalan: AQSh va GFR foizi 5 ga teng, GFR foizni 7 ga oshirdi. AQShda esa o'zgarmadi. Bunday sharoitda kapital AQShdan Germaniyaga o'tkazila boshlashiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida valyuta migratsiyasiga olib keladi.

Valyuta migratsiyasi kapital kursini o'zgartirishga olib keladi. Valyuta kursining o'zgarishi iqtisodiyotning turli sohalariga har xil ta'sir qiladi. Eksport ga ishlovchi korxonalariga valyuta kursining pasayishi qulay uning ortishi esa zarar keltiradi. Iqtisodiyotda shunday qoida bor, milliy valyutaning kursi oshganda import uning kursi pasayganda esa eksport qulay bo'ladi.

### 3. Valyuta kursini davlat tomonidan boshqarish

O'zbekiston Respublikasi ko'p tomonlama xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari faoliyatida qatnashmoqda. Birlashgan Millatlar tashkilotining iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuv tashkiloti kabi va boshqa obro'–

e'tiborli xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi hamda ularda faol siyosat o'tkaza boshladi, jahon iqtisodiyotiga qo'shilishidan iborat bo'lgan strategik integrasion vazifa – O'zbekistondagi barcha xo'jalik sub'ektlarining tashqi dunyo bilan o'zaro aloqalari uchun teng huquqli va milliy manfaatlarga mos keladigan shart-sharoitlar yaratish asosida xalqaro valyuta moliya va savdo mexanizmlariga bevosita qo'shilish nazarda tutiladi»<sup>85</sup>.

Valyuta munosabatlarini davlat tomonidan va davlatlararo miqyosda tartibga solish valyuta siyosati asosida amalga oshiriladi.

Valyuta siyosati – davlat muassasalari va hukumatlararo tashkilot tomonidan qabul qilingan dasturga muvofiq o'tkaziladigan iqtisodiy tadbirlar yig'indisidan iboratdir. Valyuta intervensiyasi orqali milliy ichki valyuta kursini ushlab turadi. Valyuta intervensiyasi yirik davlatlarning chet el valyutalarini sotib olish yo'li bilan valyuta kurslarini oshuvi yoki kamayishiga ta'siridir. Davlat o'z valyuta kursini oshishidan manfaatdor bo'lsa, u chet el valyutalarini sotib milliy valyutalarni sotib oladi yoki milliy valyuta kursini tushirish uchun chet el valyutasini sotib oladi. Valyuta intervensiyasini odatda, Markaziy banklar amalga oshiradi. Davlat qat'iy valyuta kursini o'tkazish yo'li bilan ham valyuta siyosatini o'tkazadi, yoki ma'lum muddatga boshqariluvchi valyuta kursi siyosatidan ham foydalaniladi.

Valyuta kursini o'zgarishi iqtisodiyotni ahvoriga sezilarli darajada ta'sir etadi. Shuning uchun u mamlakat va davlatlararo munosabatlarda tartibga solinadi. Respublikada tashqi savdo aloqalarini kengaytirish maqsadida tovarlarni import qilish uchun bojxona to'lovlari bekor qildi. Mahsulotlarni eksport qilish uchun bojxona to'lovlari kamaytirildi, qo'shma korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksport qilishda bojxona to'lovlaridan ozod qilindi. Korxonalar valyuta tushumining bir qismi korxonalar manfaatdorligini oshirish uchun ularning ixtiyorida qoldirildi. Davlatning valyuta kursiga ta'sir etishning to'g'ri va bilvosita usullari bor. Ochiq iqtisodiyot sharoitida bilvosita

<sup>85</sup> Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 y. 269, 271–betlar.

usullarga pul-kredit va moliyaviy siyosatni butun vositalari kiradi. Milliy valyuta kursiga muomaladagi pul hajmi, real foiz stavkasini, inflyatsiya sur'atlari ta'sir ko'rsatadi. Valyuta siyosatida diskont siyosat (bank tomonidan olinuvchi foiz) ya'ni ma'lum davr o'tganidan so'ng to'lanadigan daromadni hozirgi davrga va harakatdagi foiz stavkasiga keltirishni va tashqi valyuta bozorlarida valyuta intervensionini ajratib ko'rsatish mumkin.

AQSHda 70-yillarda dollar kursi pasayishi tendensiyasi kuzatilgan. 70-yillarning oxirida esa, AQSH hukumati dollarni quvvatlash rejasini qabul qildi. U bank hisob stavkasini oshirish va yirik ko'lamda valyuta intervensionini nazarda tutar edi. Ushbu rejani amalga oshirish boshida dollarni kursini pasaytirishni to'xtatish, so'ngra esa 80-yillarda oshirish imkonini berdi. Bunga faqat yuqorida qayd qilingan vostalar bilan birga o'sha davrda o'tkazilgan qattiq pul-kredit siyosati orqali erishilgan.

Valyuta kursini tartibga solish devalvasiyaga valyuta kursini pasayishiga va revalvasiyaga (valyuta kursini ko'tarish)ga qaratilgan bo'lishi mumkin. Bu ushbu davrda hukumat oldiga qo'yilgan maqsadlari va mamlakat iqtisodiyotidagi ahvolga bog'liq bo'ladi. U valyutani devalvasiyaga suyanib jami talabni eksport imkoniyatlarini hisobga oshirishni yoki uni revalvasiya bilan cheklash mumkin.

Mamlakatlar markaziy banklari o'zlarining valyutalarini tashqi bozorda sotish yoki sotib olish yo'li bilan valyuta intervensionini amalga oshiradilar. Valyuta kursini devalvasiyasini amalga oshirish uchun valyuta bozorlarida o'zini valyutasini taklifini oshirish zarur. Bu pulni qo'shimcha emissiya hisobiga amalga oshirish mumkin. Agar valyuta intervensionini revalvasiyaga qaratilgan bo'lsa, unda mamlakat Markaziy banki o'zining milliy valyutasini o'zining ixtiyoridagi chet el valyutasi hisobiga iloji boricha ko'proq sotib olishi mumkin. Bunday tadbirlarni amalga oshirish uchun mamlakat valyuta rezervlariga ega bo'lishi kerak. Buning uchun esa davlatlarda maxsus barqarorlashtirish fondlari tashkil etiladi.

Respublika Prezidenti 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturimizning eng ustuvor vazifalarini belgilab olishda jahon

iqtisodiy inqirozning ta'sir va oqibatlarini yetarlicha hisobga olish.... «Mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan inqirozga qarshi choralar dasturi 2009 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.... Buning uchun bugungi kunda 3,2 milliard AQSh dollaridan ortiq jamg'armasiga ega bo'lgan O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot fondi faoliyatiga katta ahamiyat berilmoqda»<sup>86</sup> deganlar.

Valyuta sohasida davlat proteksionistik siyosatni ham qo'llashi mumkin yoki valyutaviy chegaralashni amalga oshirishi mumkin. Uni qo'llash natijasida davlat oltin va valyuta operatsiyalarini ustidan nazorat o'rnatadi. Milliy eksporterlar o'zlarining mahsulotlarini sotishdan olgan valyutalarini bozorda sota olmaydilar, uni o'rnatilgan kurs bilan topshirishlari o'miga esa milliy valyutani olishlariga majbur bo'ladilar.

#### 4. Valyuta – moliyaviy doiradagi davlatlararo tuzilmalar

Biz bilamizki, valyuta harakatlarini muvofiqlashtirish hukumatlar doirasida olib boriladi. Valyutani tartibga solish sohasida Xalqaro valyuta fondi (XVF), Xalqaro rekonstruksiya va taraqqiyot banki (XRTB), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) va boshqalar muhim o'rin tutadilar.

XVF – xalqaro valyuta fondi – kredit tashkiloti 1944 yili tashkil topgan. Valyuta fondining ikki asosiy vazifasi bor: o'z a'zolari bo'lgan mamlakatlarning valyuta aloqalarini (valyuta ayirboshlash valyuta bilan to'lovlarni amalga oshirish va h.k.) boshqarib turish; umumiy kredit mablag'laridan a'zo mamlakatlarga qarz berib ularning taraqqiyotiga ko'maklashish.

Valyuta fondining kapitali unga a'zo mamlakatlarning badal pulidan tashkil topadi. Uning o'sishi yangi a'zolarning badal puli va kredit uchun olingan foizlar hisobiga yuz beradi. Valyuta fondiga qo'shilgan davlatlar o'z valyutalari kursini

<sup>86</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Ozbekiston ovozi, 2009 yil 14 fevral

xalqaro regional valyutalarga nisbatan belgilaydi va bu kurs ma'lum chegarada o'zgaradi. Bu bilan davlatlararo bir-biriga pul to'lashda valyuta kursining o'zgarishi katta salbiy oqibatlar keltirmaydi va valyuta aloqalarini o'zaro manfaatli qiladi. Valyuta fondining krediti ma'lum maqsad uchun beriladi. Kredit milliy valyutaga xorijiy valyutani sotish tarzida beriladi. Kredit qaytarilganda qarzdor mamlakat xorijiy valyutaga qaytadan o'z valyutasini sotib oladi. Kredit olingan qarz valyuta fondi tavsiyalariga binoan ishlatilgandagina beriladi.

XRTB – xalqaro rekonstruksiya va taraqqiyot banki 1945 yilda tashkil topgan. Bank mablag'lari uning ustav kapitalidan (a'zolari qo'shgan puldan), o'z obligatsiyasini xalqaro bozorda sotishdan kelgan puldan va nihoyat bankning ishlab topgan daromadidan tashkil topadi. Xalqaro rekonstruksiya va taraqqiyot bankiga (XRTB) unga a'zo bo'lgan mamlakatlarga ularni iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida uzoq muddatli zayomlar beradi.

IHTT – iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti 1985 yili Eron, Pokiston, Turkiya hamkorligida tuzilgan. 1992 yil fevralida Ozarbayjon, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston respublikalari a'zo bo'lib kirdi. A'zo mamlakatlar o'rtasida savdo iqtisodiy hamkorlikni amalga oshiradi. Tashkilot idorasi Tehronda joylashgan.

Valyuta xarajatlarini boshqarish davlatlararo darajada olib boriladi. Valyutani tartibga solishda G'arbning rivojlangan etti mamlakatlari va Rossiyani har yilgi yig'ilishlari, Xalqaro valyuta fondi (XVF) Xalqaro tiklash va rivojlanish banki (XTRB), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU) muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirishni rag'batlantirish uchun tashqi iqtisodiy faoliyatlarini erkinlashtirishni huquqiy negizlari, avvalo «tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «chet el investitsiyalari» va xorijiy sarmoyadorlar faoliyatini kafolatlari to'g'risida qonunlar va me'yoriy xujjatlar qabul qilindi. Bu xujjatlar iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun xalqaro shartnomalar uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratishga chet el

investitsiyalarini respublika iqtisodiyotini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni yaratdi.

### Asosiy atama va tushunchalar

Oltin zahirasi, devalvasiya, revalvasiya, EVT, HVF, XB, valyuta kursi, valyuta, qattiq valyuta, yumshoq valyuta, valyuta siyosati, diskont, valyuta kursi, suzib yuruvchi valyuta kursi, belgilangan valyuta kursi, kotirovka, valyuta intervensiyasi, diskontlash.



## MUNDARIJA

|  |     |
|--|-----|
| KIRISH.....  | 3   |
| 1-mavzu. Iqtisodiyot nazariyasi fani vujudga kelishining asosiy bosqichlari.....       | 5   |
| 2-mavzu. Ehtiyojlar va ishlab chiqarish jarayoni.....                                  | 20  |
| 3-mavzu. Mulkichilik va xo'jalik yuritish shakllari.....                               | 41  |
| 4-mavzu. Tovar va pul munosabatlarining yuzaga kelishi va rivojlanishi.....            | 57  |
| 5-mavzu. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va asosiy belgilar.....                       | 68  |
| 6-mavzu. O'zbekiston respublikasida bozor iqtisodiyotining shakllanish nazariyasi..... | 78  |
| 7-mavzu. Talab va taklif muvofiqligi nazariyasi.....                                   | 88  |
| 8-mavzu. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi.....                                 | 101 |
| 9-mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari, ularning mohiyati va turkumlanishi.....         | 114 |
| 10-mavzu. Mehnat munosabatlari va ish haqi.....  | 123 |
| 11-mavzu. Bozor sharoitida raqobat va monopoliya.....                                  | 138 |
| 12-mavzu. Bozor iqtisodiyoti sharoitida agrar munosabatlar.....                        | 150 |
| 13-mavzu. Milliy iqtisodiyotning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.....            | 163 |
| 14-mavzu. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning o'rni.....                          | 169 |
| 15-mavzu. Ijtimoiy ishlab chiqarishning davriyligi. Ishsizlik va inflyasiya.....       | 179 |
| 16-mavzu. Iqtisodiy o'sish va milliy boylik.....                                       | 194 |

|   |     |
|---|-----|
| 17-mavzu. Pul-kredit tizimi. Davlatning monetar siyosati .....                        | 206 |
| 18-mavzu. Davlatning soliq siyosati.....  | 223 |
| 19-mavzu. Moliya tizimi davlatning moliya-byudjet siyosati.....                       | 237 |
| 20-mavzu. Makroiqtisodiy muvozanat shakllari. Milliy daromad darajasini aniqlash..... | 246 |
| 21-mavzu. Aholi daromadlari davlatning ijtimoiy siyosati .....                        | 253 |
| 22-mavzu. Jahon xo'jaligi va uning evolyusiyasi.....                                  | 266 |
| 23-mavzu. Xalqaro savdo va savdo siyosati.....  | 282 |
| 24-mavzu. Valyuta tizimi va valyuta munosabatlari.....                                | 290 |

**Muharrir: M. Hasanova**  
**Texnik muharrir: E. Hojiqulov**  
**Musahhiha: N. Mavlonova**

Bosishga 10.11.2009 yilda ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108 1/32. "TimesUz" garnitura. Ofset bosma.  
19,0 shartli bosma toboq. Jami 500 nusxa. 22 sonli buyurtma.

OOO "OSCAR PRINT" bosmahonasida chop etildi.  
Akad. H. Abdullayev shoh ko'chasi, 2-A uy.